



# ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC JOURNAL

2020-yil, 6-son (124) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Sotsiologiya, Psixologiya, Iqtisodiyot, O'qitish metodikasi

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro'yxatdan o'tish tartibi 09-25.  
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro'yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR  
BOSH MUHARRIR O'RINBOSARLARI:

R. I. XALMURADOV, t.f.d. professor  
H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.n., dotsent  
A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

## TAHRIRIYAT KENGASHI:

- |                           |  |
|---------------------------|--|
| <b>S. S. G'ULOMOV</b>     | - O'zFA akademigi                                      |
| <b>A. SAGDULLAEV</b>      | - O'zFA akademigi                                      |
| <b>T. MIRZAYEV</b>        | - O'zFA akademigi                                      |
| <b>B. E. ERGASHEV</b>     | - t.f.d., professor (SamDU)                            |
| <b>B. S. G'OYIBOV</b>     | - t.f.d., professor (SamDU)                            |
| <b>S. K. KARIMOV</b>      | - fals.f.d., professor (SamDU)                         |
| <b>J. Ya. YAXSHILIKOV</b> | - fals.f.d., professor (SamDU)                         |
| <b>N. U. ARABOV</b>       | - i.f.d., professor (SamDU)                            |
| <b>Sh. A. HASANOV</b>     | - fil.f.d., professor (SamDU)                          |
| <b>S. A. KARIMOV</b>      | - fil.f.d., professor (SamDU)                          |
| <b>M. MUXIDDINOV</b>      | - fil.f.d., professor (SamDU)                          |
| <b>N. Sh. SHODIEV</b>     | - ped.f.d., professor (SamDU)                          |
| <b>M.M. MAXMUDOVA</b>     | - ped.f.d., professor (SamDU)                          |
| <b>NAZIF SHAHRANY</b>     | - Indiana universiteti professori (AQSh)               |
| <b>KIM SUNGHAE</b>        | - Daeju universiteti professori (Koreya)               |
| <b>BYLAPPA MANJUNATH</b>  | - Don Bosko boshqaruva maktabi professori (Hindiston)  |
| <b>TAMIR KLEIN</b>        | - Veysman ilmiy tadqiqot instituti professori (Isroil) |
| <b>HIROAKI HUZIIE</b>     | - Osaka universiteti professori (Yaponiya)             |

## MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

## TARIX / HISTORY

***Akbarova S.M.***

Amir Temur va temuriylar roli va faoliyatining tarixdagi ahamiyatini modellash va tizimli tahlillash 4

***Bekmurodova L. T.***

“Tarixi Yaminiy” asarida O‘rta Osiyoga oid tarixiy-geografik ma’lumotlar 6

***Rashidova F. Sh.***

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkistonda xorijiy sanoat korxonalari faoliyati 10

***Jabborova I.***

Qashqadaryo vohasining sug‘orilish tarixini o‘rganish muommalari 13

***Axmedova G. O‘.***

Milliy ma’naviyatimizda baxshichilik maktablarining o‘rni 18

***Toshov K. T.***

Surxon vohasiga urush yillarida sanoat korxonalari va aholini evakuatsiya qilinishi 21

## FALSAFA / PHILOSOPHY

***Karimov S. K.***

Global muammolar falsafasini o‘qitish zarur 24

***Toqicuvatova P. III.***

Роль античных наук в развитии цивилизации человечества 26

***Quchqorov J. S.***

Kishilik tarixining korrelyatsion-funksional qonunlari va ular tizimida milliy g’oya va demokratik o‘zgarishlar dialektikasining o‘rni 28

***Ashurova X. S.***

Jadidchilik g’oyalarining vujudga kelish tarixiga oid falsafiy qarashlar 34

## SOTSILOGIYA / SOCIOLOGY

***Boymatov F. Z.***

Tourism as a mechanisms for the development of international relations 38

***Gulmurodov A. G.***

kadrlar kasbiy sifatini takomillashtirishning ijtimoiy jihatlari (temir yo‘l sohasi misolida) 43

***Bo‘tayev U. X., G‘aniyev O. N.***

O‘zbekiston jamiyatida ijtimoiy hayot sohalarining o‘zgarishida inson resurslarini rivojlantirish jarayonlari (oliy ta’lim faoliyati misolida) 48

***Rustamov F. R.***

Bo‘s vaqt va undan samarali foydalanish 51

***Zaretdinova N.Q.***

Yoshlarning kasb tanlashining to‘g‘ri shakllanishida Sharq allomalari qarashlarining zarurati 54

***Suyunova K.***

European Union’s commitment to human rights: legal foundation and other policies to promote and safeguard human rights within European Union 57

***To‘rayev O.B.***

Shaxs ongini yashirin shakllantirishga qaratilgan zamonaviy axborot-psixologik texnologiyalar 61

***Atamuratov M. U.***

O‘zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida rahbar va boshqaruv kadrlariga qo‘yilayotgan talablar 66

***Karimova G.M.***

“Yevroosiyo diplomatiyasi”ni shakllantirish borasida Yaponiya faoliyati 70

## PSIXOLOGIYA / PSYCHOLOGY

***Nurmatova D. G.***

O‘zbekistonda autizm sindromi va uning psixogen omillari muammosi 75

<b>Djuxonova N. H.</b>		
Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashning etnopsixologik xususiyatlari (o‘zbek-qirg‘iz oilalari misolida)		80
<b>Юлдашев Ж. F.</b>		
Интегративная модель мотивации достижительской деятельности: структурный анализ		84
<b>Kuchkarova F.X.</b>		
Ta’limning yangi ufqqlari		89
<b>Nodirov J. M., Mansurova N. Sh., Shodmanov Q. O.</b>		
O‘quvchi-yoshlarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish		92
<b>Mominova X. E.</b>		
Maktabgacha ta’lim muassasasi psixologining bolalarni individual diagnostik tekshiruvini amalga oshirish mexanizmlari		95
<b>Muratova Sh.</b>		
O’gil bolalarni oialviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik jihatlari		100
<b>IQTISODIYOT / ECONOMICS</b>		
<b>Gulyamov S.S., Muxammedov M.M.</b>		
Mehnat migratsiyasi va uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish yo‘llari		105
<b>Raxmonov N.R., Djumabayeva Sh.X.</b>		
Aholi migratsiyasi va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati		112
<b>Арабов Н.У., Зайналова К.Н.</b>		
Индекс NPS для оценки качества образования		115
<b>Khatamov A. Ya.</b>		
Motivation as an effective demand for production and service		120
<b>Soatov A. M.</b>		
Jizzax viloyatida uy xojaliklari faoliyati rivoji va uning institutsional asoslari		123
<b>Boboqulov B.M., Mirzaxadjayev A.B., Amirov J.</b>		
Intellektual kapital: nazariya va amaliyot		127
<b>Xudoyberdiyev B. B.</b>		
Jizzax viloyatida turistik mehmon uylarini yaratish va uning institutsional asoslari		131
<b>O‘QITISH METODIKASI / TEACHING METHODOLOGY</b>		
<b>Lutfilloyeva F.M.</b>		
Murakkab 高い、上、下、雨、日 uch va undan ortiq o‘qilish turiga ega iyerogliflarning hikoya asosida kompyuter imitasion modellar yordamida o‘qitish metodikasi		137
<b>Karshiyeva T. Sh.</b>		
Chet tili darslarida autentik materiallardan foydalanishning ahamiyati		143
<b>Latipov R.A.</b>		
Chizmachilikdan ta’lim jarayonida axborot va didaktik resurslar integratsiyasining pedagogik hamkorlik imkoniyatlari		146
<b>Umarov A., Qodirov M., Qo‘yboqov X.</b>		
Akademik litseylarda fizika fanini o‘qitishga doir ba’zi fikr-mulohazalar		148
<b>Абдуллаева Р. М.</b>		
К проблеме обучения русскому языку в медицинских образовательных учреждениях Республики Узбекистан		151
<b>Turdiyeva M. J.</b>		
Ta’lim jarayonida fanlararo integratsiya va interfaol metodlarning psixik jarayonlarga ta’siri		157

**Mualliflarga**

UDK: 94 (575.152)

**AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR ROLI VA FAOLIYATINING TARIXDAGI AHAMIYATINI  
MODELLASH VA TIZIMLI TAXLILLASH**

S. M. Akbarova

*Toshkent kimyo texnologiyalari instituti*

**Annotatsiya.** Maqolada “Amir Temur va Temuriylarning O’zbekiston Respublikasi va jahon tarixidagi roli va faoliyatining ahamiyati” tizimining butunlikligini oshirish muammolarini bartaraf etishda tizimli taxlil imkoniyatlari ko’rib chiqilgan. Tizimli taxlilni olib borish uchun ishchi model tanlab olingan. Taxlillanayotgan tizimning butunlikligini oshirish kriteriyalari ishlab chiqilgan.

**Kalit so’zlar:** tizim, butunliklik, model, kriteriy, o’z-o’zidan rivojlanish, nochiziqlik, noaniqlik, nota’riflik, bo’linish darajasi, tasodif.

**Моделирование и систематический обзор роли и деятельности Амира Темура и Темуридов в истории**

**Аннотация.** В статье рассмотрены возможности системного анализа при решении проблем повышения целостности системы “Значение роли и действий Амира Темура и темуридов в истории Республики Узбекистан и мировой истории”. Выбрана рабочая модель для проведения системного анализа. Разработаны критерии повышения целостности анализируемой системы.

**Ключевые слова:** система, целостность, модель, критерий, саморазвитие, нелинейность, неопределенность, неоднозначность, степень разделения, совпадение

**Modeling and systematical review of the role and activity of Amir Temur and the Temuriis in history**

**Abstract.** The article considers the possibilities of systems analysis in the solution of problems of increasing integrity system: “The importance of the role and activities of Amir Timur and Timurids in the history of the Republic of Uzbekistan and world history. “The working model is chosen for the systematic analysis. The criteria is developed for improving integrity of the analyzed system.

**Keywords:** system, integrity, model, criterion, self-development, uncertainty, partitioning level, incident.

O’zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so’ng “Amir Temur va Temuriylarning roli va faoliyatining tarixdagi ahmiyatini modellash va tizimli taxlillash” deb nomlangan tizim, ya’ni o’rganish ob’ekti to’g’risidagi turli tarixiy, ijtimoiy, madaniy, ilmiy, amaliy va boshqa aspektlar nuqtaiy nazarlarda o’rganish, tadqiqlash va ulardan foydalanish haqidagi ma’lumotlar keng va har taraflama yoritilmogda. Ushbu o’rganish ob’ektining nomidagi 10-ta so’zning birinchi xarflaridan tuzilgan qisqartiruvchi abbreviaturasi, ya’ni – “ATTRFTAMTT” (matn qisqa va uni o’qitish qulay bo’lishi uchun) “S” tizimi deb shartli ravishda belgilandi.

Ammo yoritilayotgan ma’lumotlar “S” tizimining butunlikligini to’la va batasfil yoritishga mo’ljallangan bo’lsada, ularni oddiy ravishda ketma-ket va tasodifiy keltirilishi ushbu butunliklik haqida to’la va har taraflama bilim berishga xizmat qila olmayapti. Shu bois “S” tizimining butunlikligini oshirishdek dolzarb muammoni bartaraf etish maqsadida tizimli yondashuv va tizimli taxlilni qo’llash zarur.

Tizim (sistema) – bu o’zaro bog’lik qismlardan, ya’ni ostki tizimlar (podsistemalar) va elementlardan tarkib topgan kotseptual yoki jismoniy mohiyat.

Tizim elementi - bu uning eng oddiy va bo’linmas qismi [1,34].

Tizim birdaniga, butunlay xolatda emas, balki uni birin-ketin ost tizimlarga bo’lish yo’li bilan ko’rib chiqilishi mumkin.

Ost tizimlar ham o’zi tizim deb hisoblanishi va ma’lum bir butunliklika ega bo’lishi mumkin.

Tizimning o’zi xam biror usttizim (ya’ni nadsistema)ning ost tizimi deb hisoblanishi mumkin.

Ost tizim elementlarning oddiy yig’indisidan farq qiladi, chunki elementlar maqsad va butunliklik xossasi orqali birlashmagan.

Butunliklik – bu tizim to’laligi va aniqligini har taraflama axborotli (informatsion) va resursli muayyanlashtirishdir [2,79].

Maqsad tizimli taxlilda bartaraf bo’lishi kerak bo’lgan muammoni aniqlashning borishida va undan keyin ta’riflanadi.

Tadqiqlanayotgan “S” tizimining ustidan olib borilayotgan tizimli taxlil maqsadi – bu Amir Temur va Temuriylar davri, ularning roli va faoliyatining tarixdagi ahamiyati haqidagi axborotli (informatsion) va moddiy manbalarni o’rganish, tadqiqilash va ulardan foydalanish muammolari bilan bir qatorda turli ilmiy masalalarni yechishdir [3,154].

Taxlillanayotgan “S”-tizimning strukturali (tuzilmali) sxemasi matematik va mantiqiy ifodalar, ikkilamchi binar nisbatlar, ierarxiyalı, uyali va tuzilmali grafik tizimlar yordamida ifodalangan va yozilgan bo’lishi mumkin.

“S”-tizimli (ATTRFTAMTT)ni p-darajali ost tizimlardan (S1, S2, S3... Sn)dan iborat tizim sifatida hisoblash mumkin.

Shu ost tizimlar o’z navbatida keyingi m – darajasidagi bo’linish sathiga, ular esa – k-darajali sathga va xokazo, shunday qilib maksimal ravishdagi mayda (deyarli cheksiz ravishdagi) bo’linish sathi, dekompozitsiyasigacha bo’linishi mumkin.

Bundan so’ng S1, S2, S3... Sn ost tizimlaridan o’z navbatida yangi St-1, St-2, St-3... St-n kabi bo’linishning ikkinchi sathiga oid ost tizimlar bo’linishi paydo bo’lishi mumkin, va xokazo. Shunday qilib, bu operatsiya eng batafsil, eng mayda sathgacha davom etadi. Ushbu operatsiyaning har bir elementi tizim butunlikligini batafsilroq sifat aspktlarini o’z ichiga qamrab oladi.

“S” – tizimining butunlikligini oshirishning umumlashtirilgan kriteriyi (me’yori) (BOK) xam n-darajadagi bo’linish kriteriyilari: BOK-1, BOK-2,... BOK- n qismlardan iborat ost tizimlar deb hisoblanishi mumkin. Ularning har bittasi o’z navbatida keyingi m-sathli bo’linishi ost tizimlariga bo’linishi mumkin, va ular ham – k – satxli bo’linish ost tizim-lariga yana bo’linishi mumkin, va hokazo, - bu jarayon cheksiz maydalanish darajasigacha davom etadi.

Tadqiqlanayotgan “S”-tizimining tizimli taxlili jarayonida o’zaro ma’nodosh moslikka oid elementlar va ost tizimlarning nisbatlari (Sn/-BOK-n) birma-bir ko’zdan kechiriladi.

Ushbu nisbatlar va o’zaro moslikni aniqlash natijasida “S” tizimi va uni ost tizimlarining yangidan-yangi butunliklikni oshirishning sifatlari elementlari sintezlanadi.

10-ta BOK ost tizimning 10-ta sathli ost tizimga nisbatini ko’zdan kechirib chiqish natijasida “S”-tizimning 100-ta yangi sifatlari BOK elementlari hosil bo’ladi.

100-ta BOKning 100ta sathli ost tizimiga nisbatini ko’zdan kechirish natijasida esa - 10 000-ta yangi sifatlari butunliklikni oshirish (BO) elementlari hosil bo’ladi va hokazo – shu elementlarni amaliy ravishda cheksiz darajasigacha bo’linishi davom etilaveradi.

Shuning asosida nazariy jihatdan “S”-tizimning va uning ost tizimlarini o’tmishda, hozirgi zamonda va kelajakda vaqtning turli intervallarida yoritadigan ishlar uchun butunliklikni oshiruvchi istalgan tegishli elementni topish mumkin.

Bu imkoniyat klassifikatsiyalash, integratsiyalash, ijodiy tahlil qilish va sintezlash ishlari uchun o’z-o’zidan rivojlanuvchi muammoni bartaraf etish va “S”-tizim butunlikligini oshirishga juda keng va barakali zamin yaratadi [4,38].

Shunday qilib BOKlar va ost tizimlar orasidagi istalgan o’zaro bir ma’noli munosibliklarni tanlash va ko’zdan kechirish natijasida “S”-tizimni va uning ost tizimlarini tizimli tahlil qilish uchun yangi mavzular nomi aniqlanadi.

Turli daraja va sathlardagi ost tizimlarning elementlarini chuqurroq bo’linishi BOK (butunliklikni oshirish kriteriyilari) bilan o’zaro bog’liklarining keyingi tahlilida yangidan yanada batafsil va yanada maydaroq mavzular, yangi aloqlar, aspektlar va faktlar aniqlanadi. Ular tadqiqlangan, yoki yangi baholar, o’rganishlar va unumli foydalanishlarga loyiq bo’lishi mumkin.

Shu bilan birga tizimli taxlilning ma’lum darajasida turli bo’linish sathlaridagi ost tizimlari xuddi shunday ost tizimlarning butunlikliklarini oshirish kriteriyilari bilan bo’lgan ba’zi bog’liklari va nisbatlari vaqtning ba’zi momentlarida ado bo’lishi, so’nishi, ya’ni ularni taxlil qilish mavzulari tamom bo’lishi, yo’qolishi, yoki o’z dolzarbligini yo’qotishi mumkin. Boshqalari esa, istalgan uzoq vaqtgacha, dinamik S-tizimning o’z-o’zidan rivojlanishini aniqlab, paydo bo’lishni davom etaveradi.

Shunday nisbatlar va o’zaro bog’liklarning misoli sifatida turli tarixiy va boshqa tunganmas ma’lumotlarning nihoyatda ko’p miqdorini mavjud manbalar va adabiyotlardagi ma’lumotlar orqali keltirish mumkin.

Ular taxlillanayotgan S-tizimni yanada chuqurroq o’rganish, taxlil etish va undan foydalanish bilan bir qatorda yangi mavzular topishga, taxlillarni yangi rejalarini tuzish, uning butunlikligini oshirish proqnozlarini barpo etishga xizmat qiladi.

Olib borilgan tizimli taxlil asosida shunday ilmiy xulosa chiqarish mumkin: tadqiqlanayotgan S-tizim nochiziqli, noaniqli dinamik tizim bo’lib, uni o’rganish, tadqiq qilish va undan foydalanishda cheksiz imkoniyatlarga ega, o’z-o’zidan rivojlanuvchi tizim ekan.

**Adabiyorlar**

1. Перегудов Ф.И., Тарасенко Ф.П. Введение в системный анализ. М., Высшая школа. 1989.
2. Волкова В.Н., Денисов А.А. Основы теории систем и системного анализа. СПб, Изд-во СПбГТУ. 2003.
3. Амир Темур жаҳон тарихида. Тошкент. “Шарқ” нашриёти. 1996.
4. Материалы Республиканской научно-практической Конференции «Темурийлар даврини ўрганишнинг умумбашарий аҳамияти». Ташкент, Изд-во “Наврӯз”. 2014.

**UDK: 94 (575.152)****“TARIXI YAMINIY” ASARIDA O’RTA OSIYOGA OID TARIXIY-GEOGRAFIK MA’LUMOTLAR****L. T. Bekmurodova***Samarqand davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ma'lumki, bugungi kunda Markaziy Osiyoning G'aznaviyalar tarixiga oid mahalliy qo'lyozma asarları ko'p emas. Abu Nasr al-Utbiyning "Tarixi Yaminiy" asari tariximiz sahifalarini to'ldirishda ma'lum darajada yordam beradi. Mazkur maqola asarda yoritilgan tarixiy voqelar hamda ushbu voqealar sodir bo'lgan joy nomlari haqida ma'lumot beradi. Undagi ma'lumotlar Xorazm mintaqasi, Buxoro, Samarqand, Termiz, Nasaf, Shosh kabi shaharlarning tarixiy rivojlanishi, X-XI asrlarda mamlakatimizda mavjud bo'lgan davlatchilik asoslarini ilmiy o'rganishda bebaho birlamchi manbalardan bo'lib xizmat qiladi. "Tarixi Yaminiy" asari shu paytgacha yetarlicha tadqiq etilmagan va o'zbek tiliga tarjima qilinmaganligi bois, ushbu maqola keng jamoatchilikka mo'ljallangan umumiy ma'lumotlarni etkazib beradi.

**Kalit so'zlar:** Abu Nasr al-Utbiy, G'aznaviyalar, Mahmud G'aznaviy, Sabuktegin, Amir Abulkosim Nuh, Abul Hasan Simjur, Qoraxoniy Bug'roxon, Abul Qosim Simjur, Seyiston, Xuroson, Movaraunnahr, Turkiston, Niso, Obeskun, Obisard, Ray, Tus, Omuli Shatt.

**Историко-географическая информация о центральной азии в «Тарихи Ямини»**

**Аннотация.** Известно, что сегодня в Средней Азии не так много местных рукописей по истории Газневидов, "Тарихи Ямини" Абу Насра аль-Утби помогает заполнить страницы нашей истории. В статье представлена информация об исторических событиях, затронутых в пьесе, и названиях мест, где эти события произошли. Его сведения служат бесценным первоисточником в научном изучении исторического развития Хорезмской области, Бухары, Самарканда, Термеза, Насафа, Шоша, основ государственности в нашей стране в X–XI веках. В связи с тем, что труд «Тарихи Ямини» еще недостаточно изучен и переведен на узбекский язык, данная статья предоставляет общую информацию для широкой публики.

**Ключевые слова:** Абу Наср аль-Утби, Газневиды, Махмуд Газнави, Сабуктегин, Амир Абулкасим Нуҳ, Абул Ҳасан Симҷур, Каражани Буграхан, Абул Қасим Симҷур, Сейистан, Хорасан, Моварауннахр, Туркестан, Ниса, Обисард, Рэй, Тус, Омули Шатт.

**«History of Yamini» about central asia historical and geographical information**

**Abstract.** It is known that today in Central Asia there are not many local manuscripts on the history of the Ghaznevids, "Tarikhi Yamini" of Abu Nasr al-Utbi helps to fill the pages of our history. The article provides information about historical events in the play and the names of places where these events took place. His information is an invaluable source in the scientific study of the historical development of the Khorezm region, Bukhara, Samarkand, Termez, Nasaf, Shosh, and the foundations of statehood in our country in the 10th and 11th centuries. Due to the fact that the work "Tarikhi Yamini" has not yet been sufficiently studied and translated into Uzbek, this article provides general information for the general public.

**Keywords:** Abu Nasr al-Utbi, Ghaznevids, Mahmud Ghaznavi, Sabuktegin, Amir Abulkasim Nukh, Abul Hasan Simjur, Karahani Bugrahan, Abul Qasim Simjur, Seyistan, Khorasan, Movarounnahr, Turkestan, Nisa, Obisard, Ray, Tus, Omuli Shatt.

Dunyodagi barcha xalqlar o'zining ma'naviy va madaniy merosiga ega. Markaziy Osiyoda ilm fan gurkiragan IX–XII asrlar, ya'ni ilk uyg'onish davrida ilm-fanning turli sohalari – tarix, riyoziyot, handasa, fizika astronomiya, geografiya, kimyo, tabobat, ziroatchilik va boshqa sohalariga tegishli yuzlab asarlar

yaratildi. Ularning aksariyati arab tilida bo‘lib, ma’lum qismi o‘zbek va fors tillariga tarjima qilingan bo‘lsa-da, ba‘zilari haligacha o‘zbek tilida nashr etilmadi.

Ana shunday asarlardan biri 1021 yilda yozilgan, Abu Nasr Al-Utbiyning Mahmud G‘aznaviy (988–1030) davriga bag‘ishlangan “*Tarix al-Yaminiy*” (“Yamin ud- davlatning tarixi”) asari bo‘lib [14: 271], uning muallifi Abu Nasr Muhammad ibn Abdujabbor al-Utbiydir. U 961 yilda Ray (Eron) shahrida zodagon oilasida tug‘ilgan. Abu Ali Simjuriy, Qobus ibn Vushmagir saroyida xizmat qilgan. Cobuktegin, Mahmud va Mas‘ud G‘aznaviylarning oliv dargohida nufuzli amaldorlardan bo‘lgan. Ayrim tarixiy manbalarga ko‘ra, 1036 yili G‘aznada vafot etadi [16: 547–548].

Manbalarda va tarixiy adabiyotlarda Abu Nasr al-Utbiy o‘z davrining yetuk shoiri, adib va tarixchisi sifatida gavdalaniib, qator asarlar ta’lif etganligi qayd etiladi. Ular orasida Mahmud G‘aznaviyga bag‘ishlab arab tilida yozgan “*Tarix al-Yaminiy*” nomli kitobi haqli ravishda tarixchining eng asosiy asari hisoblanadi. Ushbu asar o‘tmishda o‘quvchilar orasida “*Tarixi Yaminiy*”, “*Al-kitab al-Yaminiy*”, “*Tarixi Utbiy*” kabi nomlar bilan mashhur bo‘lgan [1; 98–101].

G‘azna sultonini Mahmud G‘aznaviy mustaqil ravishda G‘aznaviyalar taxtida qaror topgach, 999 yilda *Abbosiylar* xalifi Qodir Billoh unga Xurosonni idora qilish huquqi bilan birga “*Yamin ud-davlat amin ul-millat*” (“Davlat tayanchi va din homiysi”) degan faxriy taxallusni in’om qilgan edi. Shuning uchun ham al-Utbiy o‘z asarini Mahmud G‘aznaviy tirikligida yozib, unga bag‘ishlaydi va u “*Yamin*”ga nisbat berib qisqacha “*Tarix al-Yaminiy*” deb atagan [14; 271–291].

“*Tarixi-Yaminiy*” asari 1021 yilda yozib tugatilgan bo‘lib, O‘rtal Osiyo va Xurosonning qariyb yarim asrlik tarixiga oid asosiy manbalardan biridir. Qimmatli va qiziqarli tarixiy ma’lumotlarga ega bo‘lganligi sababli dunyo kutubxonalarida ko‘plab nusxalari uchraydi. Juhonning bir qancha tillariga tarjima qilinib, Dehli, Lahur, Tehron, London shaharlari va boshqa joylarda bir necha marotaba nashr etilgan. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida ushbu asarning arab tilidagi №3252-IV (177 varaq) va forsiyiga qisqartirib tarjima qilingan №3144 (72 varaq, oxiri yo‘q), 5828 (85 varaq) nusxalari saqlanadi. №3252 nusxa mahalliy dag‘al qalin qog‘ozga nasx-suls xatida ko‘chirilgan bo‘lib, charm muqovaga ega [16: 547–548].

“*Tarix-al-Yaminiy*” asarining arabcha matni 1874 yili Dehlida va 1883 yili Lohur shaharlarda chop etilgan.

V.V.Bartold, A.Yakubovskiy, V.G.Belinskiy, V.I.Belyaev, P.M.Stroeva, P.Yu.Bulgakov [21; 73] kabi rus sharqshunoslik maktabi vakillari O‘rtal Osiyo, Eron va Afg‘oniston tarixiga oid ilmiy tadqiqotlarida “*Tarix-al-Yaminiy*”da keltirilgan ma’lumotlardan qisman foydalanganlar [7; 66]. G‘arbda bu asardan ayrim parchalar Sh.Shefer, G.Elliott, N.Douson Reynold Jeyms, Teodor Nyoldeke [21], Juli Skot Meysami [19], Endryu Charls Spenser [12] va Roberto Rubinachilar [22] tomonidan fransuz, nemis va ingliz tillariga tarjima qilingan [7; 68]. Shuningdek, asarning turk hamda tojik [11] tillaridagi tarjimalari ham mavjud.

Mahalliy sharqshunoslardan B.Ahmedov, U.Uvatov [7; 93] kabi mualliflar asarlarida, arab va eronlik tadqiqotchilardan Ehson Zunun as-Samiri [20], Safir Shuor [13], Ali Anushahr [14] asarlarida ushbu manbaga to‘xtab o‘tilgan.

Uning forschaga tarjimalaridan eng afzali Abu Sharif Nosih al-Jorbozaqoniylar qalamiga mansub. Bu tarjima Eronda 1856, 1956 va 1966 yillari chop etilgan [2]. “*Tarixi Yaminiy*” asari shu paytgacha yetarlicha tadqiq etilmagan va o‘zbek tiliga tarjima qilinmagan [2; 73].

Asarda 975–1021 yillarda Movaraunnahr va Xurosonda bo‘lib o‘tgan voqealar o‘z aksini topgan. Muallif o‘z xizmat vazifalari doirasida (shaxsiy kotib, noib, pochta boshlig‘i, diplomatik xodim) turli yozishmalardan, yozma hujjat materiallaridan foydalanan imkoniga ega bo‘lgan [6; 72]. Shu bois undagi ma’lumotlar Xorazm mintaqasi, Buxoro, Samarqand, Termiz, Nasaf, Shosh kabi shaharlarning tarixiy rivojlanishi, X–XI asrlarda mamlakatimizda mavjud bo‘lgan davlatchilik asoslarini ilmiy o‘rganishda bebafo birlamchi manbalardan bo‘lib xizmat qiladi.

Abu Nasr al-Utbiy asarni yozishda o‘z oldiga qo‘ygan maqsadni shunday ifodalaydi: “*Mening niyatim odamlarga sulton Mahmud haqida hikoya qilib berishdangina iborat emas, chunki ular bu voqealarni o‘z ko‘zlarini bilan ko‘rganlar va bilurlar. Mening maqsadim munosib yilnomaga bitish va ulug‘vor imoratni shunday yuksaklikka ko‘tarishki, toki u haqdagi xotiralar asrlar so‘ngida ham so‘nmasin. Yolg‘onga o‘xshash bir narsani bitish noo‘rin bo‘lur erdi*” [8].

Asarda Sabuktegin va sulton Mahmud G‘aznaviy davrida G‘aznaviyalar imperiyasi tarkibiga kirgan Afg‘oniston, Xuroson, Xorazm va Movaraunnahrning 975–1021 yillardagi ijtimoiy tarixi, Quraxoniylarning Movaraunnahrni bosib olishi davri (992–996) haqida ham ma’lumotlar keltirilgan [15; 9–10, 86, 279, 105].

Asar an'anaviy hamdu sanolar hamda kirish qismidan keyin somoniylar davlatidagi hijriy 365/975 yilda sodir bo'lgan voqealar bilan boshlanadi. Shu bilan birga G'aznaviyilar davlati tashkil topishi, Amir Nosiruddin, Sabuktegin, Yamin ad-davla Mahmud G'aznaviy, sulton Mas'ud kabi mashhur hukmdorlar hayoti, siyosiy faoliyatni haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Bundan tashqari Amir Ismoil Somoni, Amir Abulqosim Nuh, Abul Hasan Simjur, Qoraxoni Bug'roxon, Abul Qosim Simjur, Sayf ud-davla singari yana ko'plab mashhur hukmdorlar haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan. Tadqiqotchi ushbu ma'lumotlar orqali Movaraunnahr, Xuroson, Kashmir hududlaridagi X–XI asrning biringchi choragida kechgan ijtimoiy jarayonlar, qavmlar madaniyati, ushbu o'lkalardagi xalqaro aloqalar bilan yaqindan tanishadi. Asar "Tabariy tarixi"dan keyin sodir bo'lgan voqealarni davom ettiradi. Narshaxiy, Abu Rayhon Beruniy, Saolibiy asarlaridagi shu davrlarga oid axborotlarni to'ldiradi [14].

Al-Utbiy davlat arbobi va sarkarda, g'aznaviyilar sulolasi va G'aznaviyilar davlati asoschisi Amir Sabuktegining hokimiyat tepasiga kelish jarayonini quyidagicha bayon qiladi: *Amir Sabuktegin Xuroson qo'shini sohibi Abu Ishoq Alpteginning g'ulomi bo'lib, uning xojibi bo'lgan va Mansur Nuh davrida u bilan Buxoroga keldi. Noyob iqtidor, hidoyat nurlari sohibi xazrat Mansurning arkon davlati va a'yонлари uning qo'shinini (boshqarish sanatini) kuzatib yurar edilar. Abu Ishoq G'aznaga jo'natilib o'sha viloyat unga tortiq qilingach, amir Sabuktegin Mansur a'yонлари tomonidan o'sha yerning ishlarini o'nglashga va chegaralarni mustahkamlashga amr etildi. Abu Ishoqning boshqa xodim va quillari bu martabadan mustasno edilar. Abu Ishoqning o'zi biroz muddatdan so'ng vafot etdi. Uning oilasidan biror farzand qolmagan edi. G'azna shahrining aholisi G'azna viloyati boshqaruviga Nosir ad-Din Sabuktaginni loyiq inson deb topishdi va unga qasamyod qildilar. U o'ziga taqdim etgan bu lavozimini to'la ishonch bilan bajardi. O'sha mamlakatda yaxshi qoidalar va go'zal qonunlar joriy etdi. Uning qilichi kuchli va qudratli mamlakatlarni egalladi* [8].

Ibn al-Asirning yozishicha, Sabuktegin o'z qo'shinini odillik bilan boshqargan, hattoki o'zining yer mulklaridan oziq-ovqat keltirib, haftasiga ikki marta ular sharafiga ziyofat uyuştirib turgan [3; 148].

Asarda hukmdorlar zarb qilgan tangalar haqida ham ma'lumotlar mavjud. Masalan, Qoraxoniylar hukmdori Bug'roxon nafaqat dinor, balki *dirham* (kumush tanga) ham zarb etgan. Bu tangalardagi yozuvlar somoniylar tangalaridan keskin farq qilgan. Agar somoniylar dinor va dirhamlarda abbosiy halifalar ismlari shunchaki keltirilgan bo'lsa, Bug'roxon tangalarida abbosiy xalifa "mo'minlar amiri" va "Allah noibi" deb ataladi, o'zini esa Bug'roxon "mo'minlar amiri mavlosi" deb ataydi. U zarb qilgan Buxoro dinorlarida somoniylar tangalarida bo'lgani singari ikkita emas, balki uchta Qur'on oyatlari bitilgan. Bularning barchasi Ibn al-Asir yozganidek, Bug'roxonning namoyon bo'lishi hisoblangan. Tangalardagi uning *zohir ad-Da'va* ("Da'vat tayanchi") laqabi ham shundan guvohlik beradi. Tangalarda xalifaga sodiqlik aks etgan yozuvlar Bug'roxonning musulmon hukmdori tasavvuriga mos kelishi uchun harakat qilganligidan dalolat beradi [4; 34].

Buxorodan tashqari Bug'roxon Horun Farg'ona va Iloqda ham tangalar zarb etgan. Buxoro tangalarida faqat Bug'roxon ismining o'zi aks etgan bo'lsa, Farg'ona va Iloqda zarb etilgan tangalarda uning vassalarining ismlari tushirilgan, ehtimol ularga shu yerlarni boshqarish yuzasidan ma'lum vakolatlar berilgan [22; 465]. Ushbu ma'lumotlar o'rta asrlar numizmatikasini o'rganishda ham birlamchi manbalardan biri hisoblanadi.

"*Tarixi Yaminiy*" asarida Movaraunnahr va Xurosonda ro'y bergan tarixiy voqealar, jumladan tojutaxt, boylik, hokimiyat yo'lidagi jangu-jadallar, nizolar, behuda qon to'kishlar har xil ixtilofu mojarolarga to'xtaladi [8].

Shu bilan bir qatorda asarda oddiy xalqning ayanchli ahvoli, og'ir turmushi, ularning zulm va istibdodga nisbatan nafrati hamda kurashi xususida ham talaygina ma'lumotlar keltiriladi. Chunonchi, muallif 987 yili Jurjonda vabo kasali tarqalib, ko'pdan-ko'p ayonlar, kotiblar, qo'shin boshliqlari va xaloyiq halok bo'lganini, hilma-xil soliq hamda to'lovlardan sabr kosasi toshib, mushkul ahvolda qolgan Jurjon ahlining hokimlarga qarshi bosh ko'targani, ulardan ko'pchiligidini o'ldirilganliklari to'g'risida hikoya qiladi.

"*Tarixi Yaminiy*" asarida Bog' nomli bir viloyat haqida to'xtalib o'tilgan, ya'ni Amir Nuh va Sabuktegin Bog' viloyatiga qo'shin tortganlari zikr qilinadi. Bog' yoki *Bog'shur Qal'ai Maur* qishlog'i yaqinidagi *Kushka* daryosi bo'yida joylashgan shahar bo'lgan [8]. Bog'shuridan Hirot va Murg'obdan Bodgis shahriga olib boradigan yo'l o'tgan. Keyinchalik bu shahar ham g'aznaviyilar davlatiga qo'shib olinadi [9].

Asarda Nuh ibn Mansur vaziri Abdulloh ibn Uzayr borasida saroy a'yondan fitna qo'zg'atganlarini bilgach, bunday fitnalar orqasidan unga kelishi mumkin bo'lgan balolardan asrash uchun *Tus* hududiga jo'nagani aytildi [8]. *Tus* – Kaspiy dengizining janubida Xurosoning shimoli-g'arbiy qismida joylashgan viloyat bo'lgan va o'rta asrlarda uning minglab qishloqlarini qamrab olgan *Nukon* hamda *Tabaron* kabi

yirik shaharlari bo‘lgan. Arablar istilosи davrida bu erga arablarning *toy* qabilasi ko‘chirilgan. Hozirgi kunda Tus shahri xarobalari Mashhad shahridan 25 km shimoli-g‘arbda joylashgan [18].

“*Tarixi Yaminiy*” asarida ko‘p bora uchraydigan joy nomlaridan biri *Ray* hisoblanadi [8]. *Ray* – Eronning qadimiy shaharlaridan bo‘lib, uning *Raga* shaklidagi qadimiy nomi Doro bitiklarida uchraydi. Shahar Xalifa Umar ibn Xattob (634–644) davrlarida fath qilingan. Arab xalifaligi davrida bu shahar xalifa noiblari qarorgohi hisoblangan. G‘aznaviyalar davrida muhim ahamiyat kasb etgan. Shaharlar 1220–1221 yillarda mo‘g‘ullar tomonidan vayron etilgan. Uning xarobalari hozirgi Tehron shahridan 8 km janubi-sharqda joylashgan [9].

Asarda uchraydigan joy nomlaridan yana biri *Tabariston* Kaspiy dengizining janubiy qismida, sharqiy sohili bo‘ylab joylashgan viloyat bo‘lgan hozirgi Mozandaron o‘rnida joylashgan [5; 116].

Asarda G‘aznaviyalar davlati poytaxti bo‘lgan *G‘azna* shahri haqida ham to‘xtalib o‘tilgan, u hozirgi Afg‘onistoning janubi-sharqiy qismidagi shahar. Shaharning barpo bo‘lgan davri ma’lum emas. G‘aznaga oid ilk ma’lumotlar VII asrga oid manbalarda uchraydi. O‘rta asrlarda O‘rta Sharqning muhim madaniy, savdo va siyosiy markazlaridan biri bo‘lgan. X–XI asrlarda g‘aznaviyalar davlati poytaxti bo‘lgan. XII asr o‘rtalarida Guriylar shaharni egallab, vayron qilganlar. 1215–1221 yillarda G‘azna Xorazmshohlar qo‘l ostida bo‘lgan. 1221 yilda shaharni mo‘g‘ullar bosib olgan [17].

Asarda uchraydigan joy nomlaridan yana biri *Ostovdir* (*Astau*, keyinchalik *Ustavo*) Eron shimoli-g‘arbidagi *Kuchan* nomli markaziy shahriga ega bulgan viloyatdir [8]. Safaviylar shohi Abbas I davridan viloyat *Kuchan* nomini olgan. Hozirgi yangi *Kuchan* shahri eski shahardan taxminan 12 verst (1 verst – 1.08 km) uzoqlikda joylashgan [8].

“*Tarixi Yaminiy*” asarida Seyiston tabiatni, tarixi va shaharlariga ham batafsил ta’rif berilgan [8].

Xulosa qilib aytganda, “*Tarixi –Yaminiy*” asari Markaziy Osiyoning G‘aznaviyalar davridagi tarixini aks ettiruvchi eng ishonchli manbalardan biri sifatida o‘z tadqiqini kutmoqda.

### Adabiyotlar

1. Axmedov B. O‘zbekiston xalqlari tarixi manbalari. – Toshkent, 1991.
2. Belyaev V. I. Arabskie istochniki po istorii turmen i Turkmenii IX–XIII vv., v kn.: Materiali po istorii turmen i Turkmenii, T. 1, M.-L., 1939.
3. Ibn al-Asir. Al-Kamil fi-t-tarix. Polnyy svod istorii. Perevod s arabskogo yazыka, primechaniya i kommentarii P.G.Bulgakova. Dopolneniya k perevodu, primechaniyam i kommentariyam, vvedenie i ukazateli SH.S. Kamoliddina. Tashkent: Uzbekistan, 2006.
4. Kochnev B.D. Borba Samanidov i Karaxanidov za Buxaru na rubeje X–XI vekov // ONU, 1997, №9, 10, 11.
5. Len-Pul S. Musulmanskie dinastii. Xronologicheskie i genealogicheskie tablitsы s istoricheskimi vvedeniyami. Perevod s angliyskogo s prim. i dopoln. V.Bartold. – SPB., 1899.
6. Madraimov A., Fuzailova G. Manbushunoslik. – Toshkent: Fan, 2007.
7. Uvatov U. Donolardan saboqlar. – Toshkent: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994.
8. O‘zRFA ShI №5828. محمد بن عبد الجبار العتبى.
9. O‘zRFA ShI №5828. محمد بن عبد الجبار العتبى; Fray.R. Nasledie Irana. – M.: 1972.
- 10.O‘zRFA ShI №5828. محمد بن عبد الجبار العتبى; Shuningdek qarang: Bartold V.V. istoriko-geograficheskiy obzor Irana. Sochinenie. T. 7. – M., 1971. – S. 56.
- 11.Churfoliqony A. Tag‘umai Ta’rxi YAminiy. – Xıçand: Noshir, 2013. – 420 c.
- 12.Andrew C.S. Peacock. Utbi’s al-Yamini: Patronage, Composition and Reception// *Arabica*, LIV/4. – Leiden, 2007.
- 13.Anonim mlf. Tarih-i Yemini (trc. Cerbazekani, nşr. Ca‘fer Shuar). – Tahran 1345 hş.,
- 14.Anooshahr A. ‘Utbi and the Ghaznavids at the Foot of the Mountain// *Iranian Studies*. Vol. 38, No. 2, 2005.
- 15.Bosworth C.E. The Ghaznavids: Their Empire in Afghanistan and Eastern Iran: 994-1040. – Edinburgh 1963. – R. 9-10, 86, 279, 105.
- 16.Brockelmann C. Geschichte der arabischen Litteratur. Supplementband I. Leiden, 1937. № A, 1.
- 17.Dames M.L. Afghanistan, in: El. vol. 1 (A-B). – Leiden – London, 1960.
- 18.Frye R.N. The Samanids, in: in 7 volumes, vol. 4. The period from the Arab invasion to the Saljuqs. Cambridge, 1993. – R. 136-161.
- 19.Meissami J.S. Persian Historiography to the End of the Twelfth Century. – Edinburgh, 1999.
- 20.Muhammed b. Abdulcebbar el-Utbi. El-Yemini fi sherhi ahbari’s-sultân Yemini’d-devle ve emini’l-mille Maḥmud el-Gaznevi (İhsan Zünûn es-Samiri). – Beyrut, 1424/2004.

21.No'ldeke T. Über das Kitab Jamini des Abu Nasr Muhammad ibn Abd al-gabbar al-Utbi// Sitzungsberichte der Kaiserlichen Akademie der Wissenschaften, 23, no.1. – 1857. – R. 15-102.

22.Rubinacci R. Upon the al-Tarikh al-Yamini of Abu Nasr al-Utbi// Studia Turcologica Memoriae Alexii Bombaci Dicata. – Napoli, 1982. – P. 463-467.

**UDK: 94 (575.152)**

**XIX ASR IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA TURKISTONDA XORIJYI SANOAT  
KORXONALARI FAOLIYATI**

**F. Sh. Rashidova**

*Samarqand davlat universiteti*  
*rashidova.feruza@inbox.ru*

**Annotasiya.** XIX asr ikkinchi yarmi Turkiston o'lkasi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotida muhim o'zgaishlarga boy davr sifatida tarix sahifalaridan o'rinn oldi. Bu - Rossiya imperiyasining mustamlaka tizimi qaror topishi, rus kapitalining o'lkaza kirib kelishi va o'lka iqtisodiy-ijtimoiy hayotida xorijiy fuqarolar faoliyatining rivojlanishi bilan bog'liq edi. Ushbu maqolada XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkistonda faoliyat yuritgan xorijiy va mahalliy sanoat korxonalari faoliyati tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** sanoat korxonalari, paxtachilik sanoati, metropoliya, xorijiy korxonalar, yog'-moy sanoati, ishchilar milliy tarkibi

**Деятельность иностранных промышленных предприятий в Туркестане в конце XIX - начале XX в**

**Аннотация.** Вторая половина XIX века вошла на страницы истории как период, богатый значительными изменениями в социально-экономической и политической жизни Туркестана. Это было связано с установлением колониальной системы Российской империи, притоком в страну российского капитала и развитием активности иностранных граждан в экономической и социальной жизни края. В статье на основе исторических источников анализируется деятельность зарубежных и отечественных промышленных предприятий, действующих в Туркестане во второй половине XIX - начале XX веков.

**Ключевые слова:** промышленные предприятия, хлопковая промышленность, метрополия, иностранные предприятия, нефтяная промышленность, национальный состав работников.

**Activities of foreign industrial enterprises in turkestan at the end of the XIX - early XX centuries**

**Abstract.** The second half of the XIX century entered the pages of history as some period rich in significant changes in the socio-economic and political life of Turkestan. This was due to the establishment of the colonial system of the Russian Empire, the inflow of Russian capital into the country and the development of the activity of foreign citizens in the economic and social life of the region. Based on historical sources, the article analyzes the activities of foreign and domestic industrial enterprises operating in Turkestan in the second half of the 19th - early 20th centuries.

**Keywords:** industrial enterprises, cotton industry, metropolis, foreign enterprises, oil industry, national composition of workers.

Turkistonning arzon xom-ashyo manbai va rus sanoat mollari sotiladigan qulay bozor bo'lishini XIX asr boshlaridayoq rus korchalonlari yaxshi anglab yetgan edilar. Jumladan, general-mayor A.I.Verigin Rossiyada ishlab chiqarilayotgan mollar mamlakat ichkarisida ham zo'r-bazo'r sotilayotgani va sifati past bo'lgani uchun Yevropa bozorlarida raqobatga dosh berolmasligini ko'rsatib, O'rta Osiyo bu jihatdan olib qaraganda, rus sanoat mollari sotiladigan qulay bozorga aylanishi mumkinligini bayon qilgan edi. Ushbu fikrlarga qo'shilgan holda, senator K.K.Palen o'lkaning metropoliyaga to'laydigan soliqlari miqdorini aniq bilgani holda, ularni yanada oshirish rejasini ham ishlab chiqqan edi. Bu reja izchillik bilan amalga oshirilgan. Agar XIX asr oxirida yer solig'i 4 million so'mni tashkil qilgan bo'lsa, 1914 yilga kelib u 75 % ga ko'payadi[1]. Rossiyaning Turkistondan oladigan daromadi 300 % ga oshdi va 1916 yilga kelib 38,329 ming so'mni tashkil qildi [2].

Imperianing Turkiston xom-ashyosidan oladigan foydasining aniq miqdori ma'lum bo'limgan, uni faqat metropoliya burjuaziyasigina bilardi xolos.

Rossiya Turkistonni qisqa muddatda o'z sanoati uchun xom-ashyo manbaiga aylantirdi. Agar 1885 yilda paxta maydoni 41,4 ming tanobni tashkil qilgan bo'lsa, 1915 yilga kelib u 541,9 ming tanobga yetdi, ya'ni 13 barobar o'sdi, o'lka Rossiyaning asosiy paxta bazasiga aylandi. Metropolianing iqtisodiy siyosati Turkistonni xom-ashyo bazasiga aylantirish, uni rus mollari sotiladigan bozor sifatida tutib turish va tabiiy boyliklarini markazga tashib ketishga qaratilgan edi. Bu sifatdan dvoryan-pomeshchiklar qatlamidan tashqari, kun sayin rivojlanib va kuchga kirib borayotgan rus burjuaziyasi, ayniqsa to'qimachilik sanoati egalari manfaatdor edilar.

XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiyada krepostnoylik huquqi bekor qilingach, davlat kapitalistik rivojlanish yo'liga qadam qo'ydi. Kapitalizm esa o'z hukmronligini doimiy kengaytirmasdan va uni dunyoviy xo'jalik ta'siriga kiritmasdan rivojlna olmaydi. Rossiyada kapitalizmning rivoji uning mustamlakachilik faoliyati orqali yaqqol namoyon bo'ladi. Chorizmning bunday siyosati yuqorida ta'kidlaganidek, Turkistonni arzon xom-ashyo bozoriga aylantirishdan iborat edi. Turkistonni paxta manbaiga aylantirish maqsadida Rossiya hukumati bu yerda qishloq xo'jaligini rivojlanish va, eng avvalo, Paxtachilik xo'jaligini takomillashtirish tadbirini qo'llab-quvvatlaydi. Shu sababli 1894 yilda yer va davlat mulki vaziri imperatorga taqdim etgan ma'rzasida «Turkiston paxtasini ichki bozorda nafaqat raqobatchi bo'lishi, balki vaqt o'tishi bilan uni siqib chiqarishi lozimligini uqtiradi. Bunga javoban, imperator ushbu so'zlarni alohida belgilab, imkon qadar bu g'oyani jadalroq amalga oshirish kerakligini» ko'rsatib o'tdi [3].

Paxtachilik tarmog'ining rivojlanishi O'rta Osiyoda temir yo'llar mayjud emasligi sababli oqsamoqda edi. Paxtani karvonlarda yetkazib berish qimmat turardi, shu sababli o'tkazilgan temir yo'llar – eng avvalo, Kaspiyorti va O'rta Osiyo temir yo'llarining qurilishi o'lkadan paxta tashib ketilishi va shu asosda Turkiston paxta tozalash zavodlarining paydo bo'lishiga ma'lum ma'noda hissa qo'shdi. Natijada paxta xom-ashyosini Rossiyaning Yevropa qismiga chiqarish hajmi kengaydi. Masalan, Farg'ona viloyatida 1895 yilda 687442 pud mahalliy nav paxta yetishtirilgan bo'lsa, 1896 yilda u 590123 pudni, 1897 yilda esa 361306 pudni tashkil etgan [4]. 1887 yilda umumiyy hisobda 903412 pud, 1900 yilda esa 5946609 pud paxta xom ashyo sifatida o'lkadan chiqarib ketilgan [5].

Yuqqori sur'atda paxtachilikning rivojlanib borishi o'lkada dastlabki paxta zavodlarining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Rus hukumati dastlab o'lkada bunday korxonalarining paydo bo'lishiga xayrihohlik bilan munosabat bildirdi. Mayjud arxiv manbalarida ham ana shunday tipdag'i zavodlar qurish uchun turli shaxslarning iltimosnomalari saqlanib qolingga. Jumladan, mahalliy fuqarolar qatorida boshqa millat vakillarining ham paxta tozalash zavodlari qurish uchun taqdim etgan arizalari mavjud [6]. Buning yana bir sababi ham mavjudki, Nizomning 528 - moddasiga binoan tadbirkorlar (eng avvalo, Turkistonda sanoat tarmoqlarini ochish istagida bo'lганлар – R.F.) bir yil muddatga bojxona to'lovlaridan ozod etilardi [3]. 1868 yilga qadar Turkiston o'lkasini o'zlashtirish, uning boyliklariga ega chiqishni bir qator rus tadbirkorlaridan bo'l mish aka-uka Xludovlar, F.Podvinsov, I.A.Pervushin va uning o'g'illari, Ye.Pereyaslavskiy, A.P.Podvinsov, A.Osipov va boshqalar rejalashtirgan edilar. Ular «Turkiston viloyatida oltin qumlarni izlab topish va qayta ishlash [7], neft sanoatini rivojlanish uchun» zaruriy ruxsatnomasi berilishini so'rab murojaat etishgan [8]. Shu asosda birinchi paxta tozalash zavodi 1879 yilda Toshkentda S.I.Nazarov tomonidan tashkil etiladi [9].

1885 yilda xuddi shunday tipdag'i zavod Farg'ona viloyatining Andijon uyezdida savdogar X.S.Xo'jayev tomonidan bunyod etildi. Yana bir yildan so'ng Marg'ilonda ham shunday zavod qad rostladi [3]. Paxtachilik rivoji o'lkada paxta tozalash sanoatining jadallik bilan rivojlanishiga ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi [3].

XIX asr oxirida mahalliy burjuaziya qatlami vakillari orasida ham shunday yirik sanoat tarmoqlariga boshchilik qilayotganlar ko'pchilikni tashkil etardi. Jumladan, X.Mo'minjonov Kattaqo'rg'onda 3 ta shunday zavod egasi sanalardi. Ularning har biridagi ishlab chiqarish hajmi o'rtacha 42633 pudni tashkil etgan. O'z nomi bilan Samarqandda zavod tashkil etgan Yu.Fuzailov qo'lida bir smenada 40 kishi ishlardi. Toshkentda ayni shu yillarda S.I.Laxtin, M.I.Nikiforov va boshqa tadbirkorlar faoliyati asosida zavodlar ishlab turardi. Farg'ona vodiysida ham ko'pgina paxta zavodlari xorijiy va mahalliy tadbirkorlar qo'lida tashkil etilgan. Arxiv hujjatlarining aksar ko'pchilik qismida mavjud paxta tozalash korxonalari soni to'g'risida ma'lumotlar berib borildi [10].

O'rta Osiyo Rossiya tomonidan istilo qilingach, Turkistonda ko'pgina savdo va sanoat firmalari tashkil etildiki, ularning aksariyati vositachilik rolini o'ynardi. Ayniqsa, XX asr boshlarida bunday firmalar o'z faoliyatini keng tartibda yo'lga qo'ydilar. Bu kabi firmalar 30 ga yaqin mavjud bo'lib, ular Katta Yaroslav manufakturasi birodarligi, O'rta Osiyo savdo-sanoat birodarligi, Poznan hissadorlik jamiyati, «Aka-uka Kraft» savdo uyi, Yu.Fayzulov savdo uyi va K<sup>0</sup> kabilar mavjud edi. Masalan, Samarqand viloyatida mavjud 37 paxta tozalash zavodining 3 tasi Katta Yaroslav manufakturasiga, yana 3 tasi

I.K.Poznan manufakturasi, 2 tasi O'rta Osiyo savdo birodarligi jamiyatlariga tegishli edi[11]. «Aka-uka Kraft» savdo uyi birgina paxta tozalash zavodi borasidagina emas, balki, yog'-moy, ipak tolasi,sovun zavodi, teri va charmni qayta ishlash va xorijga chiqarish ishi bilan shug'ullangan[12]. Moskva va Lodzi to'qimachilik firmalari ham o'z faoliyatini aktiv ravishda yo'lga qo'ygan[13].

Paxta tozalash sanoatining rivojlanishi yog'-moy zavodlarining paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Masalan, Toshkentda birinchi yog'-moy zavodi 1872 yilda S.I.Krauze tomonidan tashkil etilgan bo'lsa[9], bunday zavod Qo'qonda 1884 yilda tashkil etildi[3]. Ba'zi manbalarda ko'rsatilishicha, Samarqandda 1898 yilda 70 ming so'm ishlab chiqarish hajmi bilan bitta ana shunday zavod ishlab turgan. Undagi ishchilar soni 32 nafarni tashkil etgan[7].

XX asr boshlarida Farg'onan viloyati paxta yetishtirish bo'yicha hali-xamon yetakchi o'rinni egallab kelardi. 1910 yilning oxirida viloyatda 152 ta paxta tozalash va 17 ta yog'-moy zavodlari ishlab turgan: 1909 yilga nisbatan paxta tozalash zavodlari 9 taga, yog'-moy zavodlari esa 5 taga ko'paygan. Yana 2 yildan so'ng paxta tozalash zavodlari 167 taga, yog'-moy zavodlari esa 18 taga ko'paydi. Birinchi jahon urushi arafasida va yillarida paxta tozalash zavodlari soni 176 tani, yog'-moy zavodlari esa 20 tani tashkil etdi. Bu zavodlarda 7415 ishchi mehnat qilardi[14].

Sanoat taraqqiyoti bo'yicha Sirdaryo viloyati 1706116 kishilik aholisi bilan muhim o'rinni egallab turgan. Ikki temir yo'l tarmog'i bilan bog'langan bu viloyat metropoliya bilan keng sur'atda savdo ishlarini yo'lga qo'ygan edi. 1917 yilda bu yerda 45 ta paxta tozalash zavodi, 3 ta yog'-moy va 1 ta sovun ishlab chiqaruvchi korxona mavjud edi. Paxta zavodlarida o'rtacha 38 kishi ishlagan bo'lsa, ushbu tarmoqda jami 1710 kishi band bo'lган. Yog'-moy zavodlarida 191 nafar, sovun ishlab chiqarish korxonasida esa 13 kishi mehnat qilgan[3].

1046135 kishilik aholisi bilan Samarqand viloyatining sanoat tarmoqlari rivojidagi ulushi ham sezilarli o'rin egallagan. 1908 – 1917 yillar davomida paxta tozalash zavodlari soni 22 tadan 36 tagacha ko'payadi, yog'-moy zavodlari soni esa 2 tadan 5 taga ko'paydi. Viloyatda 2 ta sovun zavodida 26 ishchi mehnat qilardi. Paxta zavodlaridagi ishchilar soni 1152 ta, yog'-moy zavodlaridan esa 145 taga yetdi.

Buxoro amirligi va Xiva xonligi ham o'z taraqqiyoti bo'yicha Turkiston viloyatlari qatorida yuqori ko'rsatkichda bo'lishga urinadi. 1917 yilda Buxoro amirligida 19 ta paxta tozalash, 3 ta yog'-moy va bitta sovun korxonalar faoliyat ko'rsatgan. Bu zavodlarning birinchisida 532 kishi, yog'-moy zavodlarida esa 125 kishi mehnat qilgan.

Xiva xonligida ham savdo-sanoat taraqqiyoti birmuncha rivojlangan. 1916 yilda xonlikda kichik zavodlarni hisobga olmaganda 36 ta paxta tozalash zavodlari, 3 ta yog'-moy va bitta sovun ishlab chiqarishga mo'ljallangan korxona mavjud bo'lган. Xiva xonligi sanoatiga o'z kapitalini sarf qilgan rus firmalari ham mavjud bo'lib, bular Katta Yaroslav manufakturasi, «Shlosberg va aka-ukalar», «Kraft va K» - Shuy manufakturasi jamiyati, R.Meyerkraft firmasi, «Stuken va K» hamda boshqa bir qancha jamiyatlar edi. Agar har bir zavodda o'rta hisobda 18 kishidan ishlagan bo'lsa, ular jami soni 648 tani tashkil etdi, yog'-moy zavodlarida 109 kishi, sovun korxonalarida 8 kishi mehnat qilardi.

Shu tariqa, 1917 yilda O'zbekistonda 330 ta paxta tozalash, 34 yog'-moy, 20 ta sovun ishlab chiqaruvchi korxonalar mavjud edi. Bu sanoat korxonalarida 12326 kishi mehnat qilardi.

Agar 1880 yildan 1900 yilga qadar o'lkada har yili o'rta hisobda 7 ta korxona tashkil etilgan bo'lsa, 1900 yildan 1910 yilgacha 22 tadan, 1910-1914 yillarda har yili 45 korxona ishga tushiriladi [15]. Umumiy hisobda 1916 yilda Turkiston o'lkasida mavjud koronalarning yillik mahsulot ishlab chiqarish hajmi 131 mln. 201 ming so'mga yetgan [16].

Shu tariqa, 1917 yilda o'lkaning iqtisodiy hayoti darajasi oldingi asrga nisbatan birmuncha yuqori ko'rsatkichga erishdi. Bu esa o'z navbatida mahalliy ishchi kadrlarning shakllanishi va rivojida muhim ahamiyat kasb etdi.

### Adabiyotlar

1. Отчёт по ревизии Туркестанского края, произведенной по высочайшему повелению сенатором Гофмейстером графом К.К. Паленом. Налоги и пошлины органы финансового управления. СПБ, Типография Главного Управления Уделов, 1910.

2. Ўзбекистоннинг янги тарихи. I. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Тошкент, «Шарқ», 2000.

3. Власова Э.Н., и др. Формирование рабочего класса в дореволюционном Узбекистане. Ташкент, «Фан», 1979.

4. ЎзР МДА, И-19 фонд, 1-рўйхат, 35548-йифма жилд, 4,5 - вараклар.

5. Ахмеджанова З.К. Железнодорожное строительство в Средней Азии и Казахстане (конец XIX-начале XX в.). Ташкент, «Фан», 1984.

6. ЎзР МДА, И-23 фонд, 1-рўйхат, 1205-йигма жилд, 11, 13, 17, 47, 48 вараклар; ЎзР МДА, И-23 фонд, 2-рўйхат, 872-йигма жилд, 22 варак.
7. Саидкулов Т.С. Самарканд во второй половине XIX-начале XX веков. Самарканд, 1970.
8. ЎзР МДА, И-23 фонд, 1-рўйхат, 2598-йигма жилд, 2, 6 - вараклар; ЎзР МДА, И-23 фонд, 1-рўйхат, 1205-йигма жилд, 9 - варак; ЎзР МДА, И-23 фонд, 2-рўйхат, 107-йигма жилд, 26 - варак.
9. История Ташкента с древнейших времен до победы февральской буржуазно-демократической революции. Ташкент, «Фан», 1988.
10. ЎзР МДА, И-19 фонд, 1-рўйхат, 35548-йигма жилд, 33-36 вараклар; ЎзР МДА, И-23 фонд, 1-рўйхат, 2720-йигма жилд, 17 варак; ўша жойда 2460-йигма жилд, 23 варак; И-23 фонд, 1-рўйхат, 176-йигма жилд, 84, 85, 86, 87, 88, 89, 91, 92, 93, 94, 95 вараклар; И-23 фонд, 1-рўйхат, 416-йигма жилд, 147, 172 вараклар; И-23 фонд, 2-рўйхат, 2730-йигма жилд, 14-15 вараклар; 2196-йигма жилд, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9 вараклар.
11. История Самарканда. I том. Ташкент, «Фан», 1969.
12. Матвеев А.М. К вопросу о выходцах из Германии в Средней Азии в конце XIX-начале XX в. Научные труды ТашГУ, выпуск 392, Ташкент, 1970.
13. ЎзР МДА, И-23 фонд, 2-рўйхат, 2196-йигма жилд, 88 - варак.
14. ЎзР МДА, И-19 фонд, 1- рўйхат, 35954-йигма жилд, 14 варак; И-19 фонд, 1- рўйхат, 27596-йигма жилд, 3 варак; И-19 фонд, 28014-йигма жилд, 1- варак.
15. Вахабов М. Формирование узбекской социалистической нации. Ташкент, 1961.
16. Аминов А.М. Экономическое развитие Средней Азии (колониальный период). Со второй половины XIX столетия до первой мировой войны. Ташкент, 1959.

**UDK: 94 (575.152)**

### **QASHQADARYO VOHASINING SUG‘ORILISH TARIXINI O’RGANISH MUOMMALARI**

**I.Jabborova**

*Qarshi davlat universiteti  
iqbol\_jabborova@mail.ru*

**Annotatsiya.** Maqolada XX asrning 20-yillaridan to 80-yillarigacha bo‘lgan davrdagi Qashqadaryo vohasining sug‘orilish tarixini tadqiq etish dolzarb vazifalardan biri ekanligi hamda tarixiy-etnografik manbalar asosida Qashqadaryo toponimining ma’nolari, etimologiyasi, vohaning suv inshootlari, suv yo‘llari, daryo, kanal, buloq, ariq nomlarining sug‘orish tarixini o‘rganishda manba vazifasini o‘tashi aniqlangان.

**Kalit so‘zlar:** Qashqadaryo daryosi, Qashqadaryo viloyati. Qashqadaryo vohasi, Qarshi cho‘li, kanal, suvombori, buloq, ariq, sug‘orilish, dehqonchilik, suv tarmoqlari, tarix, mavzu, tadqiq etish, dolzarblik, maqsadi, vazifasi, ilmiy yangilik.

#### **Проблемы изучения истории орошения кашкадарьинской долины**

**Аннотация.** В статье освещена история орошения Кашкадарьинской области с 20-х по 80-е годы XX века. Изучено значение, этимология топонима Кашкадарья. Определены названия ирригационных сооружений, водохранилищ, рек, каналов, родников, оросителей долины Кашкадарья.

**Ключевые слова:** река Кашкадарья, Кашкадарьинский область, долина Кашкадарья, Каршинский степь, канал, водохранилище, родник, арык, орошаемые, земледелие, история, тема, исследовать, актуальность, цель, задачи, научная новизна.

#### **Study the history of irrigation of the kashkadarya valley**

**Abstract.** The article deals with the history of irrigation of Kashkadarya region from 20s to 80s of the XX century as actual one and the task of history of naming water resources, water ways, rivers, seas, canals, springs and their meanings, etymology Kashkadraya toponymy on the basis of historical-ethnographic sources.

**Keywords:** the Kashkadarya river, Kashkadarya region, Kashkadarya oasis, Kashkadarya desert, canal, water reservoir, spring, river, irrigated, agriculture, water branches, history, topic, research, actuality, aim, objectives, scientific novelty.

Qashqadaryo viloyati O‘zbekistonning jannatmakon vohasi va hududlaridan biri hisoblanadi. Sevimli shoirimiz Abdulla Oripov ta’rificha: “Qashqadaryo –o‘zbekning qadimiy vohasi. Bu zamin qanchalik suronli voqealarni boshdan kechirgan bo‘lmasin, shu qadarlik shonli tarixlarga ham oltin ostona

bo‘la olgan yurt. Qashqa vohasi – o‘zining salohiyati, qadim tarixi, xirmonu xazinalari bilan mamlakatning bebaaho durdonasidir [1: 8].

Viloyat hududi yer yuzasining tuzilishi, bu hududda yashayotgan xalqning betakror, mehnatkash, zahmatkash odamlari, qishloq xo‘jaligi, lalmikor va sug‘orma dehqonchilik madaniyati, ekinlarni sug‘orish bo‘yicha qo‘llagan xalqona usullari, yashash tarzi va urf-odatlari, iqlimi, fusunkor tabiat, o‘simliklar olami jihatidan o‘ziga xos dunyo madaniyati taraqqiyotining oltin belbog‘i bo‘lmish Buyuk Ipak yo‘lining eng muhim nuqtalaridan birida joylashganligi, bu serfayz zamin o‘zining beqiyos moddiy va ma’naviy ne’matlari bilan mashhurdir. Qadimiy Nasaf va Shahrabz, Kitob, Yakkabog‘ Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati taraqqiyotida alohida o‘rin tutadi [2: 132].

Darhaqiqat, sug‘orma va lalmikor dehqonchilik sohasining qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishdagi ahamiyati juda katta. Chunki bu ikki tur dehqonchilik qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirishning asosini tashkil etadi. Mashhur qadim rim faylasufi Mark Sitseron aytganidek, “Dehqonchilik hamma fanlarning otasi va boquvchisidir” [3:140].

Tarixiy manbalardan ma’lumki, insoniyat olamining tafakkur xazinasida sug‘orma va lalmikor dehqonchilik eng qadimiy muhim bosqich hisoblangan. “Olam dehqon qo‘liga tayanadi” degan fransuz maqoli bejiz yaratilmagan. Dehqon esa yerni tayanchim deb biladi. Yer esa suvni. Sug‘orma dehqonchilikka kelsak, u mohiyat e’tibori bilan barcha kasb-korlardan ancha avval paydo bo‘lgan. Bu shundan dalolat beradiki, dehqonchilik tirikchilik vositalarini topishning eng qadimiy va eng tabiiy usulidir.

Mazkur mavzuni yoritishdan oldin Qashqadaryo nomining kelib chiqishi va viloyatning tashkil topish tarixi, geografik joylashuvi, hududi, sug‘orish tizimi, tabiiy va sun‘iy suv yo‘llari, asosiy suv manbalari, ya’ni irmoqlar, daryolar, ko‘llar, buloqlar nomlari, qadimiy sug‘orma dehqonchilik madaniyatini isbotlovchi nomlar zamiridagi ma’nolar xususida qisqacha fikr yuritish lozim topildi.

Manbashunos A.Jumanazarov Qashqadaryo nomining ma’nolari, mazkur toponimning etimologiyasi xususida turli-tuman fikrlar mavjudligi, bu to‘g‘risida nomshunos olim T.Nafasov, tarixchi V.V.Bartold, tilshunos-toponimist E.Murzaevlarning tadqiqotlariga o‘z munosabatini bildirib Qashqadaryo gidronimi va toponimining kelib chiqishini birlamchi manbalar asosida, ilmiy tarzda asoslashga harakat qilgan. U o‘zining “Nasaf” nomli kitobining “Obihayot shahri” bo‘limida viloyat nomining ma’nosasi va etimologiyasi haqida yuqorida keltirilgan mualliflarning fikrlariga o‘zining shaxsiy qarashlari va munosabatini bildiradi.

A.Jumanazarov yozadi: Nega, bu suv (Qashqadaryo daryosi nazarda tutilmoqda - I.J.) Qashqadaryo nomini olgan? Joy nomlarining kelib chiqishini o‘rganuvchi fan mutaxassislari buni qanday izohlaydi? Mazkur sohaning yetakchi bilimdonlaridan professor T.Nafasov Qashqadaryo so‘zidagi “qash” bo‘lagini turkiy “tepalik, balandlik” ma’nosini bilan bir deydi va bunga ko‘plab misollar keltiradi [5]. V.V.Bartold uni Kesh-k rud bilan bog‘laydi va E.M.Murzayev tojikcha Kesh-i rud nomining o‘zgargani, u qashqa unsurli (qashqabuloq, qashqatau kabi) nomlar bilan mutlaqo aloqasi yo‘q, deb hisoblaydi. Bu borada fikrlar xilmayxil. Lekin ularning qay biri to‘g‘ri? Qashqa so‘zini izohlashga hojat yo‘q. Otning qashqasini bilgan har qanday odam uning ma’nosini tushunadi, deb hazilomuz fikr ham bildiradi va o‘z fikrini davom ettirib: O‘rta asrlarda bu daryo Kesh daryosi deb atalgani ham tarixiy manbalarda uchraydi. Biroq ularning hech biri Qashqadaryo nomining tarixiy kelib chiqishini yetarli izohlab berolmaydi. Ko‘rib chiqishga ulgurilgan tarixiy manbalar va hujjatlarda bu nom XVIII asrgacha uchramadi. XVIII asr oxirlariga tegishli bir vaqf hujjatida Arab eshik og‘oboshi qipchoq ismli kishi h. 1181-yili rajab oyida (1767 y., noyabr-dekabr) Qashqoq daryosi bo‘yidagi besh mann ekin yerini vaqf qiladi. Qashqoq daryosi so‘zi ushbu hujjatda ikki o‘rinda bir xil yozilgan. Mazkur ma’lumot yuqorida mutaxassislar bildirgan fikrlarni butunlay o‘zgartirib yuboradi. Qashqoq so‘zi – qochuvchi, qochqoq ma’nolarini anglatadi. Uning talaffuz etilishi vaqt o‘tishi bilan qashqi-qashqa shaklini oglani mantiqan to‘g‘ri va asoslidir. Qashqadaryo yarim yil xuddi katta daryolar singari to‘lib-toshib, guvillab oqadi. Yozning ikkinchi yarmi va kuzning boshlarida keskin kamayadi. Qurg‘oqchilik yillari hatto qurib qoladi. Ya’ni, daryo qochib ketadi (qochib oqadi-demoqchi I.J.). Shu sababdan uni qashqoq deb atashlariga hech ajablanmasa ham bo‘ladi. Ayrim keksa kishilar ba’zi yillari Qashqadaryoda suv butunlay qurib qolganini ham gapirib berdi. O‘sanda odamlar daryoga tushib, qumni kovlab sizib chiqqan suvdan foydalangan ekan. Bunday hol har yuz yilda 3-4 marta takrorlanib turgan bo‘lsa kerak. Bu ham aslida o‘ziga xos qashqalik edi. Balki qashqoq so‘zining qashqaga aylanishiga shu kabi holatlar ham ancha ko‘maklashgandir. Shu tariqa, qashqa so‘zining shakllanishida Kesh-k rud va forsiy Keshi rud iboralarining ishtiroti yo‘qligi o‘z-o‘zidan ma’lum bo‘ladi. Bu yerda V.V.Bartold va E.M.Mirzayev fikrlari asosli emas [4:16-17]. Biz ham muallifning fikrlariga qo‘shilgan holda Qashqadaryo gidronimini Qashqaq – qochgan daryo, qochib oquvchi daryo ma’nolarida izohlanishi tarafdomiz. Professor T.Nafasovning Qashqadaryo gidronimidan Qashqadaryo toponimi, ya’ni daryo nomidan viloyat nomi kelib chiqqan [5: 361] degan fikrini esa asosli, deb o‘ylaymiz.

Qashqadaryo daryo havzasining maydoni 12 ming km 2. Tog‘dagi qor, muz va yer osti suvlari bilan to‘yinadi. Azalda Kitob tumani hududida Kitob shahrining shimal tomonidagi daryoning nomi Qashqadaryo bo‘lgan. Kitob shahrining g‘arbi va sharqidan oquvchi Oqdaryo//Oqsuv bilan qo‘shilganidan so‘ng ham Qashqadaryo nomi bilan viloyat quyisi hududlari tomon oqadi [5 :4].

Viloyat 1924-yil 1-noyabrida tashkil bo‘lgan. 1927-1938-yillarda okrug maqomida bo‘lgan. 1943-yilda viloyat maqomi berilgan. 1960-1964-yillarda Surxondaryo viloyati tarkibida bo‘lgan Okrug va viloyatga daryo nomi viloyatning hududi 28, 6 ming km 2. Aholisi 2378,2 ming kishi 7 millionga yaqin aholisi bor. Viloyatda 13 qishloq tumani mavjud: Dehqonobod, Kasbi, Kitob, Koson, Mirishkor, Muborak, Nishon, Chiroqchi, Shahrисабз, Yakkabog‘, Qamashi, Qarshi, G‘узор, Miraki. 150 dan ortiq qishloq fuqarolar yig‘iniga ega. Qishloqlarning ma‘lumotnomalardagi soni 1064 ta qishloq bor [ 6: 622].

Vohaning yirik daryosi Qashqadaryo va unga kelib qo‘shiladigan Oqsuv Jinnidaryo, Jilisuv, Tanxozdaryo, Yakkabog‘daryo, Ayoqchisoy, Qumdaryo, Urg‘ulsoy, Langardaryo, G‘uzordaryo va bu daryolarning irmoqlari bo‘ylari viloyat aholisining istiqomat manzillari hisoblanadi. Daryolarning o‘ng va so‘l qirg‘oqlari, ularga yondosh va tutash hududlar azaldan viloyat aholisining dehqonchilik qiladigan sarhadlari bo‘lgan. Sun‘iy sug‘orishga asoslangan dehqonchilik daryolardan anhor va ariqlar chiqarib, band va to‘g‘onlar qurib, sepoyalar o‘rnatib, qadimda dehqonchilik bilan shug‘ullangan viloyatning qishloq, mahalla va boshqa tur joylari nomlarida zuhurlanib qolgan.

Vohaning sug‘orilish tarixini o‘rganishda sug‘orishga doir joy nomlari, suv yo‘llari: ariq, kanal, buloq, daryo nomlari tarix darakchilaridir. Bu kabi nomlarni o‘rganish bu soha tarixini o‘rganishda katta ahamiyat kasb etadi. Vohaning sug‘orma dehqonchilik madaniyatiga xos bo‘lgan topomin va gidronimlarini quyidagicha guruhab o‘rganish mumkin:

1.Terak va darak komponentli topominlar guruhi: Beshterak (Kitob), Beshdarak, Uchdarak (Qarshi), Qo‘shtarak, Toshdarak (Qarshi sh), Boyterak (Koson)... Nomlar tarkibidagi terak - darak so‘zları bir manbadan hosil bo‘lgan nomlardir. Koson tumani aholisi nutqida darak - suv bandi, katta ariq (anhor)dan bir necha kichik ariqlarga suv taqsimlab, bo‘lib yuboradigan band. Darak so‘zining qadimgi shakli - terak. Beshterak, Boyterak, Qo‘shterak, Terakli kabi nomlarga asos bo‘lgan qadimiy so‘z shakli – terngak//ternuk. Ma’nosi - buloq, jilg‘a, oqar suv [7: 328,555].

2. Ariq, ko‘l, jo‘y komponentli topominlar va gidronimlar guruhi: Beshkentariq, Ariqbo‘yi, Damariq, Toshariq, Chappaariq (Chiroqchi), Issiqko‘l, Jiliko‘l (Kitob), Ko‘lbuqa (Koson) Iyriko‘l, Iyrig‘ul (Chiroqchi), Ko‘lvi (Qarshi sh), Ko‘lkamish (Dehqonobod), Oqsuv (Shahrисабз), Ko‘lqishloq, Ko‘ltepa (Yakkabog‘), Ko‘lyomg‘ir, Luqliko‘l (Qamashi), Ko‘lobod (Shahrисабз) Jo‘ydam (Chiroqchi), Labijo‘y (Qarshi) kabi.

Bu tur nomlarning paydo bo‘lishi, - deb yozadi professor T. Nafasov, - mahalliy xalqning yer o‘zlashtirish, paxtakorlik, g‘allachilik, bog‘dorchilik, polizchilik kabi sug‘orma dehqonchilik madaniyati bilan bog‘liq. Jo‘y so‘zli nomlar o‘zbekcha ariq so‘zli nomlar bilan ma’no va vazifa jihatidan bir-biriga yaqin. Jeynov - Yangiariq, Jo‘ydam - Damariq, Labijo‘y - Ariqbo‘yi nomlari nomlovchilarning etnik tarkibi, ularning tili va shevasidagi tafovutlar tufayli turli xil lisoniy qiyofada shakllangan. Dehqonchilik uchun zarur bo‘lgan ariq - jo‘y so‘zları bilan ifodalangan tushuncha va amaldagi voqelik bu nomlarning yuzaga kelishi uchun moddiy asos vazifasini o‘tagan. Ariq - joylarning yo‘nalish o‘rni , maksad obyekti shakar//chaqar, haram, qo‘rg‘on, shahar so‘zları bilan ifodalangan [5: 27-28].

3. Buloq komponentli gidronimlar va topominlar guruhi. Bu tur nomlar lalmikor dehqonchilik qilinadigan hududlarga xos. Buloqlarning ko‘pchiligi aholining qo‘l mehnati bilan yaratilgan. Buloq so‘zli nomlarning yaralishiga chorvadorlarning ham hissasi katta. Buloq, chashma, yorma deb atalmish suv manbalari qishloqlarning qurilishiga va bunyod bo‘lishiga moddiy manba bo‘lib xizmat qilgan.

Hozirgi davrda buloq, chashma deganda tog‘ etaklari va adirliklardagi maydon tushuniladi, bulog‘u chashmalar tog‘oldi, tog‘ quyisi hududi gidrologiyasiga xos. Azalda esa, buloq, chashma, zah//zak, obdeh, obduzdarlar, tazar (yer osti suv quvuri) viloyatning quyisi, tekislik hududlari gidrologiyasiga ham xos bo‘lgan. T. Nafasovning aniqlashicha, Yakkabog‘ tumanining tog‘ bag‘rida Tatar qishlog‘i bor. Qishloq nomi azalda Tazar bo‘lgan. O‘zbek xalqining uzoq o‘tmishida yer osti suv quvuri tazar deb atalgan. Tatar qishlog‘i hududidan Yakkabog‘ daryosining o‘ng qirg‘og‘i bo‘ylab katta ariq qazilgan. Suv oqizilib daryoning o‘ng qirg‘og‘idagi katta hududda dehqonchilik qilingan, ko‘plab qishloqlar tashkil qilingan.

Ushbu uchinchi guruhga quyidagi nomlarni kiritish mumkin: Anorbuloq, Arnabuloq, Arpabuloq, Beshbuloq, Gumbuloq, Galabuloq (Dehqonobod), Zarangbuloq, Ko‘kabuloq (Qamashi), Suvbuloq, Suvlibuloq, Sovuqbuloq (Yakkabog‘), Chimbuloq, Qutirbulok, Chillabuloq kabi buloq so‘zli suv manbalari va qishloq nomlari yaqin o‘tmishda paydo bo‘lgan.

Yuqorida keltirilgan nomlarning barchasi dastlab suv havzalari – suvloqlar (gidronimlar) ning nomi sifatida paydo bo‘lgan. Ular tarkibidagi ariq, buloq, ko‘l, qo‘l, g‘ul, soy, band, hovuz, nova, shox, chashma rud, obg‘ daryo, daryo, jilg‘a, quduk, koriz so‘zлari suvloqlarning turlarini bildirgan.

XX asrning 60-yillari o‘rtasida Qarshi cho‘lini o‘zlashtirish boshlandi. Chimqo‘rg‘on, Pachkamar, Hisorak suv omborlari qurildi. Qashqadaryoning o‘rtal oqimidagi erlar o‘zlashtirildi. Yangi qishloqlar, qo‘rg‘onu shaharchalar qurildi. So‘ngra Amudaryodan Qarshi bosh anhori orqali katta mikdorda suv keltirildi. Nishon, Kasbi, Mirishkor, Muborak nomli yangi tumanlar tashkil qilindi. Dehqonchilik, xususan, paxtakorlik, donchilik, bog‘dorchilik - viloyat aholisining asosiy ishlab chiqarish turi. Viloyat hozir respublikaning asosiy paxtachilik donchilik, bog‘dorchilik vohasiga aylandi.

Endi Qashqadaryo vohasining sug‘orilish tarixining tadqiqi to‘g‘risida fikr yuritamiz. Shu o‘rinda aytish joizki, Sobiq Sho‘ro davri Qashqadaryo vohasining sug‘orilish tarixida yechimini kutayotgan ko‘pgina muammoli, bahstalab masalalar mayjud. XX asrning 20-yillaridan 1980-yillarigacha oid vohaning sug‘orilish tarixini yoritishda munozarali muammolarni hal etish, ularni bartaraf etish yo‘llarini aniqlash O‘zbekiston tarixshunosligida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki Sho‘ro davrida yaratilgan ayrim tarixiy, etnografik asarlar va tadqiqotlarni o‘rganish natijasida ularni xolisona baholash va bugungi mustaqillik davri talabi bilan qayta ko‘rib chiqish zarur. Eng muhimi, Qashqadaryo vohasining sug‘orilish tarixini ishonchli manbalarga tayangan holda tadqiq etish, tilshunoslik, tarixiy, geografik, etnografik yozma manbalarni sinchiklab o‘rganish, arxeologik qazishmalar asosida topilgan daliliy ashyolar, arxiv ma‘lumotlari asosida yoritish maqsad qilib olinadi.

Qashqadaryo vohasining sug‘orilish tarixi, bu vohada yashovchi aholining yer o‘zlashtirish, ekin maydonlarini suv bilan ta‘minlash, dehqonchilik qilish, hosil olish, olingen hosil evaziga turmush tarzini yaxshilash uchun olib borgan mashaqqatli mehnati tarixidir. Bu uzoq jarayonda Qashqadaryo xalqi bir tomonidan viloyatning tog‘ oldi va quyi hududlarida Qashqadaryo daryosini jilovlab, vohaning ekin ekish mumkin bo‘lgan hududlariga ishlov berib, ekinzor va bog‘u-bo‘stonga aylantirish, obod etishga harakat qilgan. Ikkinchidan esa ekin maydonlarini suv bosishiga yo‘l qo‘ymaslik, aholiga katta ziyon etkazadigan toshqinlarning oldini olish uchun astoydil kurashganlar. Voha dehqonlari, miroblari, suvchilar daryolardan uzoqdagi tog‘ oldi va cho‘lga chegaradosh hududlarda esa tabiiy suv resurslarini izlab topib, dehqonchilikda ulardan tejamli va unumli foydalanish usullarini yaratganlar.

Qashqadaryo vohasining sug‘orma dehqonchilik madaniyatini shu vohada yashovchi xalqning turmush tarzi va iqtisodiy-ijtimoiy hayotida, birinchi navbatda, xalqning farovon hayot kechirishi uchun hayotiy ehtiyoj sifatida paydo bo‘lgan. Ekin maydonlarini sug‘orib dehqonchilik qilish bu “serfayz zaminni o‘zining beqiyos moddiy va ma‘naviy ne‘matlari bilan mashhur “bo‘lishida katta rol o‘ynagan. Ana shunday vohaning sug‘orilish tarixi, xususan, Qashqadaryo vohasining sug‘orilish tarixi (XX asrning 20-yillaridan 1980-yillarigacha) hozirga qadar O‘zbekiston tarixshunosligi nuqtai nazaridan monografik rejada maxsus tadqiqot obyekti bo‘lmagan.

Vohaning sug‘orilish tarixini o‘rganish masalasiga kirishar ekanmiz, avvalo, ushbu muammoning o‘rganilganlik darajasi haqida qisqacha to‘xtalish joiz. O‘zbekistonda sug‘orma va lalmikor dehqonchilik bilan bog‘liq tarix, urf-odatlar va irrigatsiya tarixi Ya. G‘ulomov, A. Muhammadjonov, A. Abdulhamidov, A. Asqarov, X. Muhammedov, F.Raxmanov [8,9,10.11.12,13]lar, Janubiy O‘zbekistonning sug‘orma dehqonchiligi va irrigatsiya tarixi bo‘yicha Q.U.O.O‘jaboev [14], O‘zbekistonda sug‘orma dehqonchilikning rivojlanishini ijtimoiy aspekti B.N.Uzoqov [15] lar tomonidan o‘rganilgan. Sherobod, Mirzacho‘l, Qarshi, cho‘llarining o‘zlashtirilishi tarixi bo‘yicha R.Egamberdiyev., A.Razzoqov; M. Qoriyev, A. Hisomov: X.Toshev, N.Xamrayev., I.Holiqov [16,17,18,19]lar tadqiqotlar olib borishgan va asarlar nashr etilgan. Ushbu satrlar muallifining [20, 21] vohaning sug‘orilish tarixi haqida maqolalari ham nashr etilgan. Bu asarlar va maqolalarda Qashqadaryo vohasining sug‘orilish tarixi xususida ayrim fikr-mulohazalar qayd qilingan.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligini quyidagicha asoslash mumkin:

- birinchidan O‘zbekiston tarixida “Qashqadaryo vohasi (XX asrning 20-yillaridan to 1980-yillarigacha) ning sug‘orilish tarixi” mavzusi maxsus tadqiqot ob‘ekti sifatida o‘rganilmaganligi;
- ikkinchidan, Sho‘ro davrida o‘rganilgan vohaning sug‘orilish tarixiga oid ishlar marksizm-leninizm, sotsializm, kommunistik g‘oyalari ruhida tadqiq etilgan, shu sababli ularga tanqidiy ruhda yondashishni talab etadi;
- uchinchidan, voha xalqi qadimdan suvni muqaddas bilib, yerni e’zozlab kelgan. Vohaning sug‘orilish tarixi va unga asoslangan dehqonchilik esa «jez» (bronna) davri, ya’ni bundan taxminan 3500-3750 yil muqaddam vujudga kelganligi sababli ham sobiq sho‘ro davri tarixini o‘rganish ahamiyatlidir.
- to‘rtinchidan vohada XX asrning 20-yillaridan to 80-yillarida sug‘orma dehqonchilik madaniyatining ijobjiy va salbiy rivojining tarixiy dinamikasini ko‘rsatish uchun yozma manbalar, tarixiy-

geografik-etnografik-etnologik, irrigatsiya va melioratsiya, gidrologik va gidrotexnik ma'lumotlar, arxeologik arxiv materiallari asosida yoritish;

- beshinchidan, vohada XX asrning 20-yillaridan to 80-yillarigacha bo'lgan davrda olib borilgan sug'orish jarayonlari, xususan, suv inshootlari qurish, bu suv inshootlari qurishda vohaning irrigator va melioratorlarining tarixiy xizmatlarini, Qarshi cho'lini o'zlashtirish uchun Amudaryodan Qarshi Bosh kanali orqali katta mikdorda suv keltirish tarixini tadqiq etishdan iborat.

XX asrning 20-yillaridan to 80-yillarigacha bo'lgan davrdagi Qashqadaryo vohasining sug'orilish tarixini yoritishdan iborat. Tadqiqotning ob'ekti qilib, Qashqadaryo viloyati hududi tanlangan. Vohada ekin maydonlarini sug'orish bilan bog'liq viloyat aholisining suv uchun olib borgan kurash tarixi tashkil etadi. Tadqiqotda o'rganilishi kuzatilayotgan muammolar yuzasidan chiqarilayotgan xulosalar xalqimizning voha sug'orilish tarixi to'g'risidagi bilimlarini yanada boyitadi va mukamallashtiradi. Eng muhim, mazkur tadqiqotning bugungi kungacha yaratilgan vohaning sug'orish tarixiga oid ishlardan farqi shunda bo'ladiki, undagi muammolar tarixiylik va xolislik, qiyosiy, retrospektiv, tarixiy-genetik, sinergetik usullar vositasida "Milliy tiklanishdan, milliy yuksalish"sari, mustaqillik davri talablari asosida xolisona, obyektiv tarzda yoritilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati esa Qashqadaryo vohasi sug'orilish tarixining o'ziga xos jihatlarini aniqlash, bu tizimda yaratilgan xalqona sug'orish usullarini takomillashtirish, qishloq xo'jaligida irrigator va melioratorlar tayyorlashga oid nazariy xulosalar hamda uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ish xalqimizning qishloq va suv xo'jaligi, O'zbekistonda sug'orma dehqonchilik tarixini tadqiq etishga qaratilgan davlat dasturlarining bajarilishiga, shuningdek, sug'orish ishlarini yanada takomillashtirishning huquqiy, nazariy-amaliy asoslarini yaratishda ko'maklashadi. Agrar, irrigatsiya va melioratsiya ta'lim tizimidagi "O'zbekiston tarixi", "Qishloq xo'jaligi melioratsiyasi", "Dehqonchilik", "Sug'orish melioratsiyasi", "Gidrotexnika inshootlari", "Fermer xo'jaligi" kabi fanlarni o'qitish va o'rgatishda manba vazifasini o'taydi.

Davlatimizning agrar siyosatida qishloq xo'jalik oborotiga kiritish mumkin bo'lgan yerlarni sug'orish, o'zlashtirish va melioratsiyalash tarixini ilmiy tahlilini ishlab chiqishda, uni amalga oshirishda iqtisodiy va sotsial muammolarni hal etishda manba sifatida foydalanish mumkin.

Xulosa sifatida quyidagilarni ta'kidlash joiz:

1. Sug'orilish tarixini o'rganish tarixning turli davrlarida xalqlarning ijtimoiy-iqtisodiy tizimini, ishlab chiqarish kuchlarini rivojlanishini tadqiq etishda muhim omil sanaladi. Qashqadaryo vohasining sug'orilish tizimida asosan sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik bo'lganligi tarixiy manbalarda aks etgan.

2. Voha xalqi qadimdan suvni muqaddas bilib, yerni e'zozlab kelgan. Vohaning sug'orilish tarixi va unga asoslangan dehqonchilik esa «jez» (bronza) davri, ya'ni bundan taxminan 3500-3750 yil muqaddam vujudga kelganligi sababli ham sobiq Sho'ro davri tarixini tanqidiy ruhda o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

3. O'zbekistonning sovet davri tarixida yaxshi tadqiq etilmagan mavzulardan biri Qashqadaryo vohasining XX asrning 20-yillaridan 80-yillarigacha bo'lgan davrdagi sug'orilish tarixi masalasidir. Sho'ro davrida o'rganilgan vohaning sug'orilish tarixiga oid ishlar marksizm-leninizm, sotsializm, komunistik mafkurasi ruhida tadqiq etilgan.

4. Tadqiqotchilar hukmoni davlat siyosati va tuzumi, zamona zayli, qolaversa, uning siyosiy bosimi va tazyiqi, mafkurasi asosida O'zbekistondagi agrar o'zgarishlar, sug'orish (irrigatsiya) tarixini totalitar tuzum talabi va andozasi bilan tahlil etishgan va ijobiy baholagan va ularga tanqidiy ruhda yondashmagan. Chunki partiyaviy tazyiq tadqiqotchilarga erkin, xolis fikrashga yo'l bermagan, "oqibatda tadbirkor dehqon xo'jaliklarining tugatilishi, dehqonlarning mulkdan ishlab chiqarish vositalaridan, umuman, erkin mehnat manfaatdorligidan mahrum qilinishi mudhish oqibatlarga olib kelganligi haqida tadqiqotchilar og'iz ochmay yurishga majbur bo'lganlar" [20:8]. Bu o'rinda shuni qayd etish kerakki, buning uchun tadqiqotchilarni ayplash, ulardan xato izlash ilmiy mantiqqa to'g'ri kelmaydi.

5. Vohada XX asrning 20-yillaridan to 80-yillarigacha irrigatsiya inshootlari qurish, bu inshootlari qurishda vohaning irrigator va melioratorlarining tarixiy xizmatlarini, sug'orma dehqonchilik madaniyatining ijobiy va salbiy rivojining tarixiy dinamikasini ko'rsatish uchun yozma manbalar, tarixiy-geografik-etnografik-etnologik, irrigatsiya va melioratsiya, gidrologik va gidrotexnik ma'lumotlar, arxiv materiallari asosidagi tarixini yoritish lozim.

6. O'rganilayotgan davrda, xususan, XX asrning 60-yillari o'rtasida Qarshi cho'lini o'zlashtirilishi, Qashqadaryo vohasining aholisi issiq iqlimli sharoitda sug'orish inshootlari kanal va suv omborlari barpo etish bilan shug'ullangan. Natijada Eski Anhor, Moskva kanallari, Pachkamar, Chimqurg'on, Hisorak suv

omborlari qurildi. Qashqadaryoning o‘rta oqimidagi erlar o‘zlashtirildi. Amudaryodan Qarshi bosh kanali (anhori) vositasida katta miqdordagi suv keltirildi. Viloyatning quyi hududlarida Nishon, Kasbi, Mirishkor, Muborak, Koson tumanlarida 80-80-yillarda yangi qishloq va shaharchalar tashkil topdi. Qisqasi, O‘zbekiston sug‘orilish tarixining tarkibiy qismi bo‘lgan Qashqadaryo vohasining XX asrning 20-yillaridan to 80-yillarigacha bo‘lgan davrdagi sug‘orilish tarixini istiqlol davri talabidan kelib chiqib o‘rganish dolzarblik kasb etadi.

### Adabiyotlar

1. Oripov A. Qadimiy va navqiron Qarshi // Sharq yulduzi. 2006, №4, - B. 8.
2. Karimov K.A. Bunyodkorlik yo‘lidan. 4-jild. – Toshkent: O‘zbekiston. 1996. -132 b.
3. Zokirov T.S, Raxmatov I.M. Dehqonchilik asoslari. – Qarshi: Nasaf, 1999. -140 b.
4. Jumanazarov A. Nasaf. –Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi. 2007. B.16-17.
5. Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. – Toshkent: Muharrir, 2009. -430 b.
6. O‘zbekiston Milliy entsiklopediyasi. Toshkent: O‘zbekiston Milliy entsiklopediyasi Davlat nashriyoti, 2005. – B. 622 b.
7. Koshg‘ariy M. Devonu lug‘atit turk. II. Тошкент, 1961. - Б. 328.
8. Гулямов Я.Г.Исследование исторической гидрографии низовьев Кашкадарья и Зарафшана // ИМКУ.-Вкл.6. –Ташкент: 1965. -С. 17-21.
9. Muhammadjonov A. Quyi Zarafshon vodiysining sug‘orilish tarixi. –Toshkent: Fan, 1972.- 373 b; O‘zbekistonning qadimgi gidrotexnika inshootlari. –Toshkent: “O‘zbekiston”, 1997. - 83 b.
10. Абдулхамидов А. Из истории народной ирригационной практики в зоне предгорий Узбекистана XIX начало XX вв. – Ташкент: Наука, 1981. - 156 с.
11. Аскаров А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга Узбекистана. – Ташкент: Наука, 1973. - 231с.
12. Muhammedov H. O‘zbekistonning qadimgi dehqonchilik vohalari tarixidan.–Toshkent:1964.-55 b.
13. Рахманов Ф. Обычаи и обряды населения Кашкадарьинского оазиса связанные с земледелием (конец XIX– начало XX вв): Автoref. дис. канд. истор. наук. – Ташкент 1981. -23с; Qashqadaryo vohasi aholisining dehqonchilikka oid urf-odat va marosimlari. – Toshkent: Yangi nashr, 2014. -206 b.
14. Ульдабаев К.У. Развитие орошаемого земледелия и ирригации на юге Узбекистана. – Ташкент: Наука, 1976. - 130 с.
15. Узаков Б Н. Социальные аспекты развития орошаемого земледелия в Узбекистане. 60-е-нач. 70-х гг. (на материалы Южных областей). Автorefерат на соискание ученой степени канд.истор. наук. – Ташкент, 1993. -25 с.
- 16.Egamberdiyev R., Razzoqov A. O‘zbekistonda qo‘riq erlarni sug‘orish, o‘zlashtirish va melioratsiyalash tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston, Fan. 1984. -282 b.
- 17.Qoriyev M., Hisomov A. Qarshi cho‘li va uning kelajagi. – Toshkent: 1963. -26 b.
- 18.Toshev X. Qashqadaryoda irrigatsiya ishlari. – Toshkent: 1975. -24 b.
19. Хамраев Н., Халиков И. Орошение и освоение Каршинской степи. – Ташкент: Узбекистан, 1981. -165 с.
- 20.Shamsutdinov R. Qishloq fojeasi: jamoalashtirish, qulqlashtirish, surgun O‘rta Osiyo respublikalari misolida. – Toshkent, Sharq, 2003, - B. 8.
- 21.Jabborova I. Akademik V.V. Bartold Turkiston vohasining sug‘orilish tarixi haqida // Fan, taraqqiyot va yoshlar ilmiy-amaliy anjuman materiallari. 2-jild. Qarshi: Qarshi davlat universiteti, –B. -243–244.
- 22.Jabborova I. Qashqadaryo vohasi sug‘orilish tarixining xorijda o‘rganilishi // QarDU xabarları № 4(6). 2010. –B. -53–57.

**UDK: 9:08(575.1)**

### MILLIY MA’NAVIYATIMIZDA BAXSHICHILIK MAKTABLARINING O‘RNI

**G. O‘. Axmedova**  
*Termiz davlat universiteti*

**Annotatsiya.** O‘zbek milliy ma’naviy madaniyatida muhim ahamiyatga ega baxshichilik san’atining shakllanishi, uning ilk paydo bo‘lishi manbalar, dostonlarning xalqimiz madaniyatidagi g‘oyaviy ta’siri, insonparvarlik, vatanparvarlik, mardlik, jasurlik, oilaparvarlik munosabatlari hamda Alpomish dostoning xalqimiz e’tiqodidagi ijobjiy xislatlari ilmiy tahlil etilgan.

**Kalit so‘zlar:** xalq og‘zaki, doston, sarguzasht-detektiv, tarixiy-memuar, fantastik-allegorik, ajdar, romantik, baxshi, ijrochi, ijodkor, alifbo, repertuar, sarguzasht.

## Роль школ бахши в нашей национальной духовности

**Аннотация.** В статье научно анализированы формирование искусства бахши, которое имеет важное значение в узбекской национальной духовной культуре. Обсуждается влияние дастанов на культуру нашего народа, а также положительные качества дастана Алпамыш в выражениях, убеждениях нашего народа, гумманость, человечность, патриотизм, мужество, отважность, а также любовь к семье и семейные отношения.

**Ключевые слова:** устное народное творчество, дастан, приключенческий детектив, исторические мемуары, фантастическое-аллегорическое, дракон, романтик, бахши (барды), исполнитель, созидатель, алфавит, репертуар, приключение.

### The role of bakhshi schools in our national spirituality

**Abstract.** The article scientifically analyzes the formation of the art of bakhshi, which is important in the Uzbek national spiritual culture, the sources of its early appearance, the ideological influence of dastans in the culture of our people, as well as the positive qualities of dastan Alpamys in the expressions, beliefs of our people, humanity, humanity, patriotism, courage, courage, as well as love for the family and family relationships.

**Keywords:** folklore, dastan, adventure detective, historical memoirs, fantastic-allegorical, dragon, romantic, bakhshi (bards), performer, creator, alphabet, repertoire, adventure.

Xalqimizning turmush tarzini yuksalishida xalq og‘zaki ijodining ahamiyati katta bo‘lib, asrlar davomida boy ma’naviy e’tiqodga ega meros to‘planib, yosh avlod tarbiyasiga munosib hissa qo‘sib kelmoqda. Xalq og‘zaki ijodining muhim yo‘nalishi bo‘lgan dostonlar juda chuqur tarixiy ildizlarga ega bo‘lib, uzoq asrlar davomida yaratilib kelingan va turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kuylangan.

Ilk dostonlar Yunonistonda paydo bo‘ldi, ularda afsonaviy qahramonlarning jasorati, xudolarning karomati haqida kuylangan. Gomerning “Iliada”, “Odisseya”, Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” Aligeri Dante (Dante Alighieri 1265–1321) ning “Illohiy komediya” [1] (1307–1321 yillar oralig‘ida yozilib, 1472 yili nashr etilgan va uch qismidan iborat: birinchisi “Do‘zax”, ikkinchisi “Poklanish”, ya’ni “A’rof” ham deyiladi, bu do‘zax bilan jannat oralig‘i, bilish va yaxshilik hamdir, uchinchisi “Jannat”) asarlari doston janrining qadimgi namunalaridir. Dostonlar, o‘z mohiyatiga ko‘ra, qahramonlik (“Alpomish”, “Farhod va Shirin”), s a r g u z a s h t - d e t e k t i v (“Sab’ai sayyor”), ishqiy-romantik (“Tohir va Zuhra”, “Layli va Majnun”), jangnoma (“Yusuf va Ahmad”, “Saddi Iskandariy”), tarixiy-memuar (“Shayboniynoma”, “Jizzax qo‘zg‘oloni”), f a l s a f i y (“H a y r a t u l - a b r o r”), f a n t a s t i c - a l l e g o r i c (“Lison ut-tayr”), didatik (“Qutadg‘u bilig”) turga bo‘linadi. Qahramonlik dostonlarida xalq, jamiyat takdiri tasvirlansa, ishqiy-romantik dostonlarda oshiq-ma’shuqlarning sarguzashti bosh o‘rinda turadi. Tarixiy-memuar yoxud tarixiy-biografik dostonlarda biror tarixiy shaxslar ramziylashtirilib, bo‘rttirib tasvirlanadi. Umuman, dostonlarda ideallashtirish, mubolag‘ali tasvir ustun bo‘ladi, ularda turli afsonalar, asotirlar, hikoyatlar, dev, pari, Xizr, ajdar, ajab-tovur otlar (“Alpomish”dagi Boychibor), sehr-jodu ko‘p ishtirot etadi. Xalq dostonlari baxshi, dostonchi va xalq shoirlari tomonidan dutor, do‘mbira va boshqa xalq cholg‘u asboblari jo‘rligida ijro etiladi. Folklordagi dostonlar bilan yozma adabiyotdagi dostonlar shakl-shamoyili jihatidan bir xil ko‘rinishda bo‘lsa-da, yozma adabiyotdagi dostonlar yozuvchining dunyonи o‘ziga xos tarzda idrok etishi, baholashi va o‘z fikr-g‘oyalari, orzu-armonlarini ifodalash tarzi, usuli, uslubida farqlanadi. Garchand, Navoiyning aksar dostonlari, jumladan, “Layli va Majnun”, “Saddi Iskandariy” asarlari asosida folklor mavzui turgan bo‘lsa-da, shoir ularni o‘z estetik qarashlari va badiiy niyatidan kelib chiqib, tubdan qayta yaratgan. Dostonlar mazmunan qahramonlik, jangnoma, tarixiy, romantik, maishiy turmush yo‘nalishlarida bo‘lgan. Dostonlarni ijro etishda baxshi shoirlar muhim o‘rin tutgan.

Baxshi so‘zining ma’nosи mo‘g‘ulcha va buryatcha baxsha, bag‘sha – ustod, ma’rifatchi; sanskritcha bhikshu – qalandar, darvesh degan ma’noni beradi deb izohlanadi. O‘zbekistonda qo‘sish va dostonlarni yoddan kuylovchi, aytuvchi, avloddan- avlodga etkazuvchi san’atkor. Baxshi so‘zi ba’zan shaman ma’nosida ham qo‘llanadi, umuman, dostonchilar, doston aytuvchilarni esa yuzboshi, soqi, sannovchi, jirov deb ataydilar. Baxshilar, asosan, ikki toifaga –ijrochi va ijodkor baxshilarga bo‘linadi. Ijrochi baxshilar, asosan, ustozdan o‘rgangan dostonlarni juz’iy o‘zgarishlar bilan aynan kuylasalar, ijodkor baxshilar og‘zaki epik an’ana asosida yangi dostonlar ham yaratadilar. Bunday baxshilar shoir baxshilar deb ham yuritiladi, masalan Ergash shoir, Fozil shoir, Po‘lkan shoir, Abdulla shoir, Xidir shoir va boshqalar. Baxshilar doston va qo‘shiqlarni qo‘biz, do‘mbira, dutor kabi sozlar jo‘rligida kuylaydi. Xorazm baxshilari dostonlarni asosan, dutor, qisman tor bilan ijro etadilar, ularga g‘ijjak va bo‘lamonda sozchilar jo‘r bo‘ladi. Doston kuylash, shogird etishtirishda qat’iy tartib, qonun-qoidalarga rioya qilinadi. Mo‘g‘ullar

istilosidavridabuddadini dagi qalandarlarni, uyg'ur alifbosi asosida turli hujjatlar tuzuvchi idora xodimlarini, mo'g'ullarda jarrohlarni, Chig'atoysulu, Oltin O'rda, Qozon va Qrim xonliklarda kotiblarni, Bobiriyalar davlatidagi harbiy qismlarning hisob-kitob ishlarini olib boruvchi va ularga maosh to'lovchi yirik amaldorlarni, Buxoro amirligida ma'muriy binolar qurishda mablag' (sarfi-xarajat) hisobini olib boruvchi kishilarni, turkmanlarda urug' oqsoqollarini ham baxshilar deb ataganlar [2]. Baxshilik san'ati markazi O'zbek folklorshunosligida Boysun, Bulung'ur, Nurota, Narpay, Qo'rg'on, Xorazm, Shahrisabz, Sherobod, Chiroqchi kabi yirik dostonchilik maktablaridan tashqari, Qamay, Piskent, Qulbuqon, o'zbeklaqay va boshqa shunday markazlar ham ma'lum. Ular repertuarlari, uslubi, ma'lum ijod tamoyili va ijro usullariga ko'ra bir-biridan ajralib turadi.

Qahramonlik dostonlarida xalqning o'z erki bosqinchilarga qarshi mardonavor kurashlari aks ettirilgan, shunday qahramonlik dostonlaridan biri "Alpomish" dostoni edi [3]. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov milliy an'analarimizni o'zida ask ettirgan ushbu dostonga baho berib; "Alpomish" o'zbekning o'zligini namoyon etadigan, mard va tanti xalqimizning yurak-yuragidan chiqqan, ota-bobolarimiz avlodlardan avlodlarga o'tkazib kelayotgan qahromonlik qo'shib'idir" [4], deb qayd etgan edi. Xalqning sevimli qahramonlaridan biri Go'ro'g'lining jasorati haqidagi turkum dostonlar o'zbek, tojik, qozoq, turkman, qoraqalpoq, tatar, ozarbayjon, gruzin, turk xalqlari orasida keng tarqalgan. Jangnomal dostonlarda asar qahramonlarining tarixiy va afsonaviy urushlarradagi jasorati tasvirlangan. "Jangnomai Abo Muslim", "Jangnomai Amir Xamza", Firdavsiyning "Shohnoma" asari, "Jangnomai Jamshid", "Xushang", "To'maris" kabilalar shular jumlasidan edi. Baxshilar repertuarlarida o'tmishda bo'lib o'tgan voqealar va xodisalar, tarixiy shaxslar faoliyati asosida yaratilgan dostonlar ham bo'lib, ularda tarixiy haqiqat bilan afsona, voqelik manba bilan badiiy to'qima chatishib ketgan. XX asr boshlarida tarixiy mavzularda yaratilgan "Jizzax qo'zg'oloni" [5], "Mardikor" kabi dostonlarda 1916-yilda butun Turkistonni qamrab olgan xalq qo'zg'oloni voqealari o'z aksini topgan edi.

O'zbek xalq dostonlarining eng katta qismini romantik dostonlar tashkil qilgan. Ularning sujetlari nihoyatda o'xshash bo'lib, odatda qahramon go'zal qizga oshiq bo'lib safarga otlanadi, ajoyib-g'aroyib hodisalarini boshidan kechiradi, qiyinchiliklarni yengib, o'z maqsadiga erishadi. "Kuntug'mish" kabi sevgi mojarolari, sarguzashtli voqealar shunday dostonlar sirasiga kirgan. "Sohibqiron", "Orzugul", "Erali bilan Sherali" dostonlarida xalqning maishiy turmushi bilan bog'liq voqealar aks etgan. Dostonlar orasida mumtoz poeziya namunalarining xalq og'zaki ijodida qayta ishlanishi natijasida yuzaga kelgan, yozma adabiy manbara ega bo'lgan, ya'ni yozma adabiyot ta'sirida yaratilgan kitobi dostonlar ham bo'lgan. Alisher Navoiy asarlari asosida yaratilgan "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Bahrom va Gulandom" dostonlari, "Yusuf va Zulayxo" "Rustami Doston", "Malikai Dilorom" kabi dostonlar shular jumlasidan edi.

Dostonchilik Surxondaryo va Qashqadaryo vohalarida, Xorazm hamda Samarqand viloyatida keng rivojlangan. Bu davrda doston kuylovchi baxshilar repertuarida 150 dan ortiq xalq dostonlari bo'lgan. Xalq orasida Yo'ldosh bulbul, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Pulkan, Islom shoir, Berdi baxshi, Bola baxshi, Ahmad baxshi kabi doston kuylovchilar mashhur edi. Favqulodda xotira qudratiga ega bo'lgan Po'lkan shoir etmisidan ortiq dostonni yoddan bilgan. Har bir doston ikki-uch ming satrdan tortib, o'n-o'n besh, hatto yigirma ming misragacha she'rni o'z ichiga olganligi xalq baxshilarining katta salohiyatga, kuchli xotiraga, yod olish va esda saqlash qobiliyatiga, ijod qilish qudratiga ega bo'lganligidan dalolat berar edi. Fozil Yo'ldosh o'g'li 60 ta, Ergash Jumanbulbul o'g'li 50 ta dostonni yoddan ayta olganlar, baxshilarining ba'zilari faqat doston aytса, ba'zilari o'zlarini ham dostonlar to'qiganlar.

Doston eshitish uchun maxsus kechalar uyushtirilgan, to'y-hashamlar ham baxshilarsiz o'tmagan, tinglovchilar baxshini to'rga o'tqazib, uni diqqat bilan tinglaganlar. Iqtidorli dostonchilar ikki-uch kecha mobaynida doston kuylay olganlar, chunki dostonlarning hajmi ham ikki-uch kecha muttasil ijro etishni taqozo etgan. Baxshilaridan Shernazar Berdinazar o'g'li yetti kecha davomida doston ayta olgan. Dostonchilik kechalariga tashrif buyurgan baxshilar o'z iqtidorlari, so'zga chechanligi, soz chalishdag'i mahorati bilan o'zaro bellashganlar. Mintaqada o'ziga xos an'analarga ega bo'lgan dostonchilik maktablari shakllangan. Ayniqsa, Bulung'ur, Narpay, Qo'rg'on, Xorazm, Shahrisabz, Sherobod kabi yirik dostonchilik maktablari mashhur bo'lgan. Ular repertuarlari, uslubi, ma'lum ijod tamoyili va ijro usullariga ko'ra bir-biridan ajralib turgan.

### Adabiyotlar

1. Қаюмов О. Чет эл адабиёти тарихи. – Тошкент: Ўқитувчи, 1973.-300 б.
2. Раззоков.Х. Тўра Мирзаев. Собиров О, Имомов К. Ўзбек халқ оғзаки поэтик ижоди. – Т.,1980. Бахши. ЎзМЭ.1-том. 653 бет.
3. Ўзбек халқ қаҳрамонлик достони. – Тошкент: Шарқ, 1998. 400 бет

4. И.А.Каримов. Озод ва Обод Ватан, Эркин ва пировард мақсадимиз. Т., 8 том, "Ўзбекистон".2000.(525). (Алномиши достонининг 1000 йиллик юбилейидаги маърузаси. 1999 йил 6 ноябрь.).78.
5. Дастагул. Узбекское народное творчество. – Ташкент, 1965. стр. 57-106.

**UDK: 9:08(575.1)**

**SURXON VOHASIGA URUSH YILLARIDA SANOAT KORXONALARI VA AHOLINI  
EVAKUATSIYA QILINISHI**

**K. T. Toshov**

*Termiz davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Urushning dastlabki kunlaridan urush va unga yaqin o'lkalardagi sanoat korxonalarini vohaga evakuatsiya qilinishi, uni ishlab -chiqarishga jalb etishi, xom-ashyo bilan ta'minlashdagi harakatlar, ushub jarayonda ishchi-xodimlarni ishtiroki manbalar asosida ilmiy bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** sinov, sanoat, evakuatsiya, safarbar qilish, shimoli-g'arbiy, janubi-g'arbiy, zahiralar, sanoat, resurs, fabrika xo'jaligi, zavod quritkichi.

**Эвакуация промышленных предприятий и населения в Сурханскую область в годы Великой  
Отечественной войны**

**Аннотация.** В статье на основе источников изучен процесс эвакуации промышленных предприятий в Сурханский оазис. Также излагается вовлечение в производство рабочих, сотрудников и принятые меры по снабжению фронта сырьем.

**Ключевые слова:** тест, промышленность, эвакуация, мобилизация, северо-запад, юго-запад, запасы, промышленность, ресурс, фабричное хозяйство, заводская сушилка.

**Evacuation of industrial enterprises and population to the Surkhan region during the Great  
Patriotic War**

**Annotation.** In the article based on sources studied the process of evacuation of industrial enterprises to the Surkhan oasis. It also outlines the involvement of workers, employees in production and the measures taken to supply the front with raw materials.

**Key words:** test, industry, evacuation, mobilization, northwest, southwest, reserves, industry, resource, factory facilities, factory dryer.

Mamlakatdagi ahvol nihoyatda tang bo'lib qolgan yoki bosib olish xavfi mavjud bo'lган joylardagi sanoat korxonalar, oziq-ovqat zahiralari, chorva mollari hamda tinch aholini evakuatsiya qilish vazifasi kun tartibida turgan dolzarb vazifa edi. Chunki bo'layotgan jangda dushman oz bo'lsa-da o'lja olishi yoki o'zi istilo qilgan joylardagi mavjud sanoat korxonalaridan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishi g'alaba daqiqalarini yanada uzoqlashtirar va qo'liga kiritiladigan g'alabani yanada qiyinlashtirar edi. Ana shu vaziyatni hisobga olgan holda Davlat mudofaa qo'mitasini dushman hujumi xavfi mavjud mintaqalardagi aholi va sanoat korxonalarini mamlakatning sharqiy mintaqalariga evakuatsiya qilish uchun evakuatsiya qo'mitasini tuzdi. Ushbu qo'mitaga A.M.Shvernik rais etib tayinlandi, urushning dastlabki yillarida evakuatsiya qo'mitasining matonatli mehnati tufayli urush olovi balo-qazodek yopirilib kelayotgan g'arbiy mintaqalardan mamlakatning sharqiy rayonlariga jami 1500 sanoat korxonasi, shu jumladan, 1360 yirik harbiy zavodlar ko'chirildi. Birgina O'zbekistonning o'ziga yuzdan ortiq sanoat korxonalar evakuatsiya qilindi.

Urush davri talablari har bir sohada ishchanlik, fidoyilik, qattiq intizom va jasorat xislatlari namoyon bo'lishini talab etardi. Bu xislatlarga qarshi o'laroq joylarda sustkashlik, o'zi bo'larchilik va boshqa shunga o'xshash holatlar yuzaga kelsa, bu mamlakat ahvolini nihoyatda tang holatga solib qo'yari edi. "Urush yillarida O'zbekiston frontning mustahkam ta'minot bazasiga aylandi. Yurtimizdagi sanoat korxonalar harbiy sohaga moslashtirildi, barcha imkoniyatlar front uchun, g'alaba uchun safarbar etildi", deya ta'kidlaydi muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev [1].

Shuning uchun ham mamlakat sharqiy mintaqalarida yashayotgan tinch aholi evakuatsiya qilangan sanoat korxonalarini tezda qabul qilib olib, ularni zudlik bilan ta'mirlab tezda mahsulot ishlab chiqarishga

moslashtirishi lozim edi. Albatta, bu vazifa og‘ir bo‘lib katta kuch, yuksak qobiliyat, beqiyos fidoyilik va timsiz mehnatni talab etardi.

Urush yillarida Surxondaryo viloyatiga ham 10 ga yaqin sanoat korxonalar evakuatsiya qilindi, ushbu ko‘chirib keltirilgan sanoat korxonalar asosan viloyatning Termiz shahriga va Denov tumaniga joylashtirildi. Jumladan, Pavlograd, Chertkov, Prikolontensk yog‘ zavodlari Denov tumaniga, Chernyanskiy, Staroskolskiy yog‘ korxonalar Termiz shahriga joylashtirildi. Albatta, bu sanoat korxonalarini viloyatga kuchirib keltirish va ishga tushirilishida jiddiy qiyinchiliklarga ro‘baro‘ kelindi. Bu qiyinchiliklar birinchi navbatda malakali texnik xodimlarning va moddiy resurslarning yetishmasligi natijasida yuzaga keldi. Lekin urush davri talablari bu vaziyat bilan hisoblashmas, ko‘chirib keltirilgan korxonalar qanday qilib bo‘lsa-da tezda mahsulot ishlab chiqarishga moslashtirilishi lozim edi. Ana shuni hisobga olgan viloyat sanoatchilar va ko‘chirib keltirilgan korxonalarining malakali ishchilari kechani kecha, kunduzni kunduz demasdan timmay mehnat qildilar.

Binokorlar va montajchilar noqulay iqlim sharoitlarida oziq-ovqat tanqisligi va boshqa xil yetishmovchiliklar qurshovida bo‘lsa-da, tinmay mehnat qilishlari evaziga asbob-uskunalarini muddatidan oldin o‘rnatib, ishlab chiqarish jarayoniga hozirladi. Jumladan, Ukrainianing Povlograd viloyatidan keltirilgan o‘simlik moyi ishlab chiqarishga moslashgan asbob-uskunalar Denov paxta tozalash zavodi sushilkasi binosiga joylashtirildi. Bu bilan esa Denov yog‘-ekstraksiya zavodi qurilishiga poydevor qurildi, zavod Respublika qo‘mitasi rejasiga binoan 1944-yilda ishga tushirilishi va 60 ming tonna chigitni qayta ishlashi lozim edi. Lekin, mavjud vaziyatdan to‘g‘ri va unumli foydalangan zavod ahli qurilish montaj ishlarini jadal suratlarda boshlab yubordilar. Ayniqsa, P.Morozov va I.Vasilenko brigadasi ishchilari mardonavor mehnat qildilar. Natija kutilgandan ham ziyoda bo‘ldi va zavod 1943-yil yanvar oyiga kelib o‘zining birinchi mahsulotini bera boshlandi [2]. 1943-yilning IV kvartalida zavod ishga tushdi, mazut bo‘lmanligi sababli kotel sheluxa yoqilib isitilar edi, har bir smenada uch yuz-to‘rt yuz kilogrammgacha moy ishlab chiqara boshlandi. Shu yillar mobaynida zavod yiliga 979 tonna o‘simlik moy ishlab chiqardi, bunga 10769 tonna chigitni qayta ishslash tufayli erishildi.

Urushning boshlanishi munosabati bilan nafaqat sanoat korxonalar va tinch aholi, balki dushman istilosи xavfi bor tumanlarda joylashgan madaniyat muassasalari ham sharqiy rayonlarga ko‘chirilgan edi. Jumladan, Ukrainianadagi Xarkov viloyatining muzikali drama teatri jamoasi Termizga evakuatsiya qilindi, natijada teatrning V.Mevashtuch, A.Ya.Milman, I.Lindina va Branskiy kabi san’at ustalari Surxon vohasi san’atkorlari bilan yelkama-yelka turib ijodiy mehnat qildilar va turli-tuman p‘esalarni sahnaga qo‘ydilar.

Fashistlar agressiyasining boshlanishi nafaqat urush harakatlari borayotgan joylarda yashayotgan, shu bilan birga janggohlarga yaqin joy bo‘lgan hududlar aholisining aholining ham turmushini ostin-ustin qilib yubordi. Ular tug‘ilib o‘sgan joylaridan begona bo‘lib boshqa yurtlarga kelib qoldilar, lekin shuni alohida ko‘rsatish lozimki, o‘z yurtidan vaqtincha ajragan jabr diydalar O‘zbekistonga kelib mehridaryo insonlarning mehrionliklari bilan xo‘rlangan yuraklari taskin topdi.

Xalqimizning oljanob fazilatlari urush yillarida respublikaga evakuatsiya qilingan aholiga ko‘rsatilan yuksak g‘amxo‘rlikda namoyon bo‘ldi. Bu xususda Birinchi Prezident I.A.Karimov shunday degan edi: «O‘sha og‘ir yillarda, bir burda non tanqis bo‘lgan yillarda, O‘zbekiston urush tufayli uy-joysiz qolgan minglab oilalarga boshpana berdi, non berdi, qanchadan-qancha yetim-yesirlarning boshini siladi» [3].

Davlat mudofaa qo‘mitasining «Mamlakatdagi nemis-fashist boqinchilari bosib olish xavfi bo‘lgan territoriyalardagi tinch aholini evakuatsiya qilish» to‘g‘risidagi qarorga binoan ko‘plab ayollar, bolalar va keksalar urush o‘chog‘iga yaqin joylardan sharqqa evakuatsiya qilina boshlandi. Shu munosabat bilan 1941-yil 3 dekabrdagi O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasining «Evakuatsiya qilingan sovet fuqarolarini qabul qilish va joylashtirish bo‘yicha» maxsus qarori qabul qilindi. Qarorga binoan joylarda evakuatsiya qilingan aholini qabul qilib olish qo‘mitalarini tuzila boshlandi. Ushbu qo‘mitalar joylardagi sharoitni o‘rgangan holda ko‘chirib keltirilgan aholini yashash uchun uy-joy bilan ta’minlash, ishga yaroqli aholini ishga joylashtirish, ko‘chirib keltirilgan aholini ijtimoiy himoya qilish va shunga o‘xshash turli tadbirlar bilan shug‘ullanar edi.

Surxondaryo viloyatida ham ana shunday qo‘mitalar tuzildi va viloyatga evakuatsiya qilingan turli millat vakillari surxondaryoliklarning quyosh taftidek issiq mehridan bahramand bo‘lib o‘zlariga yashash uchun boshpana topdilar hamda turli xil ishlarga joylashib, buyuk g‘alabaga erishish uchun voha ahli bilan yelkama-yelka turib mehnat qildilar. Urushning «qonli panjalari» ko‘plab bolalarni ota-onasidan ajratgan va ularning qalblariga yetimlik yarasini solgan edi. Bu norasidalarni tarbiyalab, ularga otalik va onalik mehrini ko‘rsatish vazifasi har bir imon-e’tiqodli insonning zimmasidagi bosh vazifa edi. Shu munosabat bilan Surxondaryo viloyati ijroiya qo‘mitasi 1942-yil 12-yanvarida «Evakuatsiya qilingan ota-onasiz yetim bolalarni qabul qilish va tarbiyalash bilan shug‘ullanuvchi viloyat, shahar, tumanlar qo‘mitasini tuzish

haqida qaror» qabul qildi [4]. Qabul qilingan qarorga binoan viloyatning barcha tumanlarida evakuatsiya qilingan aholini qabul qilish, yashash uchun joy bilan ta'minlash va ishga joylashtirish qo'mitalari tuzildi. Umuman, 1942-yilning mart oyigacha bo'lgan vaqt mobaynida Surxondaryo viloyatiga 719 oila yoki 1862 kishi evakuatsiya qilindi. Evakuatsiya qilingan aholining 480 tasi erkak, 1059 tasi ayol, 323 tasi bolalar edi yoki ko'chirib keltirilgan aholining 1480 nafari ishga yaroqli edi. Viloyatga ko'chirilgan ishga yaroqli aholi tezda ishlab chiqarishga jalb qilindi. Jumladan, ana shu ishga yaroqli aholining 1209 nafari mehnat jamoa va davlat xo'jaliklarida ishga joylashtirilgan bo'lsa, 271 kishi esa turli tashkilot va muassasalarga jalb qilindi [5].

1942-yilda toshkentlik ayollar respublikaning barcha ayollariga murojaat bilan chiqdi. Jumladan, murojaatda barcha o'zbek xalqiga qarata: «O'zbekistonga evakuatsiya qilingan va boqimsiz qolgan bolalarga jamoatchilik yordami ko'rsatish umumxalq ishini avj oldiraylik. Har bir ishchining, har bir kolxozchining, xizmatchining, ziyolining oilasi, har bir korxona, jamoa xo'jaligi va davlat xo'jaligi shu bolalarni joylashtirish va tarbiyalashda faol qatnashsin» deyilgan edi. Toshkentlik ayollarning murojaatiga qo'shilgan Surxon vohasi ahli ham ota-onasiz qolgan bolalarga astoydil g'amxo'rlik ko'rsata boshladi. Viloyat ahli ota-onasiz qolgan bolalarga yordam sifatida 188000 ming so'm pul to'pladilar va pullarni ota-onasiz qolgan bolalar fondiga topshirdilar [6].

Mehridaryo surxondaryoliklar ota-onasiz qolgan bolalarga turli-tuman g'amxo'rliklar qilish bilan birga ularni bevosita o'z xonadonlariga olib kelib tarbiyalab voyaga yetkazish ishida ham faol ishtirot etdilar, jarohatlangan dillariga malham bo'ldilar. Ana shunday mehridaryo insonlardan yuzlab surxondaryoliklarning nomlarini keltirib o'tish mumkin. Jumladan, Sherobod tumani G'urjak qishlog'ida yashovchi Egamberdi Quvvatov besh yoshli o'g'il bolani, Iskandarovna Qunduz ikki yoshli qiz bolani, Jo'raev Xoliq sakkiz yoshli o'g'il bolani, viloyat sog'liqni saqlash bo'limi ishchisi Galieva uch yoshli bolani, viloyat xalq ta'limi bo'limi xodimi Lesenkin besh yoshli qiz bolani, Sherobod tumani partiya qo'mitasi ishchisi V.Korchak ikki-uch yoshli qiz va o'g'il bolani, o'y bekasi K.I Kolesova ikki yoshli qiz bolani o'z tarbiyasiga oldilar [7].

1942-yilning ikkinchi yarmiga kelib viloyatga ko'chib keltirilgan aholining soni ortib bordi va 1943-yilga kelib, viloyatga yana 966 kishi keltirildi. Ko'chib keltirilgan aholining 121 nafari erkaklar, 437 nafari xotin-qizlar, 8 nafari 1 yoshdan 8 yoshgacha bo'lgan bolalar, 200 nafari esa 8 yoshdan 16 yoshgacha bo'lgan o'spirinlar edi. Evakuatsiya qilingan ishga yaroqli aholi o'z ixtisosligiga qarab turli ishlab chiqarish korxonalariga joylashtirildi. Jumladan, leningradlik geolog-professor Vlyalov Oleg Stepanovich «Voroshilov neft» trestiga geolog bo'lib ishga kirdi. Urushgacha Qrim ASSRning Feodosiya kasabasida vrach bo'lib ishlagan G.B. Yablonovskaya viloyat sog'liqni saqlash bo'limiga vrach bo'lib ishga joylashgan bo'lsa, Kiev universiteti talabasi R.B Lermon esa «Leninskaya znamya» gazetasida korrektor bo'lib faoliyat yurita boshladi. Evakuatsiya kilingan aholi viloyat aholisi tomonidan juda iliq kutib olindi, ularga turli-tuman yordamlar ko'rsatildi va boshpana ajratib berildi. Jumladan, 1283 nafar Polsha fuqarosi Sariosiyo tumaniga o'rashgan bo'lsa, 575 kishi esa Denov tumaniga ko'chirib keltirildi 548 kishi esa Sho'rchchi tumanidan boshpana topdi. Mehri daryo sho'rchiliklar ko'chirib keltirilgan jabr-diydalarga yordam tariqasida 2615 so'm pul ajratdi, 59 kishiga esa moddiy yordam uyuştirildi. Shuningdek, 81 ta turli xil uy-ro'zgor buyumlari, jumladan, 23 ta ko'rpa, 20 dona ko'yak, 18 dona shim, ikki juft etik, bir juft tuqli va boshqa turli mahsulotlar bilan insonparvarlik yordamini ko'rsatdilar.

Darhaqiqat, fashistlar Germaniyasi ustidan g'alabani ta'minlashda o'zbek xalqining ham nihoyatda katta hissasi bor. Mash'um urush yillarda o'zbek xalqi ham fashizmga qarshi kurashda mislsiz jasorat ko'rsatdi. Front ortidagi tinimsiz mehnat, hisobsiz yo'qotishlar cheksiz azob va uqubatlar xalqimizning sabr-bardoshini, chidam va matonatini yana bir bor sinovdan o'tkazdi. Front chiziqlarida olib borilgan beomon janglarda mardlik va shioqat ko'rsatgan o'zbek jangchilarining jasorati so'nmas qahramonlikka aylandi.

Xalqimizning mehmondo'stligi, qalbi kengligi, sahovatliligi, mehridaryoligi va bolajon xalq ekanligi ikkinchi jahon urushi yillarda yana bir bor sinovdan o'tdi. Ana shu og'ir sinovli yillarda voha mehnatkashlari ham ko'chirib keltirilgan aholiga har tomonlama yordam berib, ular bilan dasturxonidagi eng oxirgi nonini ham baham ko'rdi. Butun qalb qo'rini va yurak mehrini yetim bolalar tarbiyasiga sarfladi, ana shu yillarda surxondaryolik qalbi keng mehribon insonlar ming-minglab xasta dillarga malham bo'lib, ularga ham moddiy, ham ma'naviy jihatdan madakor bo'ldi va asrlar davomida ajdodlaridan meros bo'lib kelayotgan mehmondo'stlik, mehribonlik kabi xislatlarga sodiq ekanligini isbotladi.

### Adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoevning 9 may munosabati bilan so'zlagan nutqi. 09.05.2018 <https://president.uz/oz/lists/view/1706>
2. Ulug' Vatan urushi: savollar va javoblar. – Toshkent, 1987, 72-bet.
3. Karimov I.A. Vatan sajdah kabi muqaddasdir. 80-81-betlar.
4. S. Tursunov va boshqa. Surxondaryo tarixidan lavhalar. – Toshkent, 1991. 19- bet.
5. Surxondaryo viloyati davlat arxiv 70-fond, 1-yozuv, 228-ish, 357-358-varaqlar.
6. Surxondaryo viloyati davlat arxiv 70-fond, 1-yozuv, 228-ish, 360-361-varaqlar.
7. Lenin bayrog'i gazetasi. 1985 yil 4-may soni.

UDK: 1:004.9

**GLOBAL MUAMMOLAR FALSAFASINI O'QITISH ZARUR****S. K. Karimov**

*Samarqand davlat universiteti*  
*sayimnazarkarimov@gmail.com*

**Annotasiya.** Mazkur maqolada global muammolar falsafasini o'qitishning dolzarbliji, nazariy va amaliy ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** global muammo, insoniyat muammolari, insoniyat inqilobi, madaniy evolyusiya, yangi gumanizm, insonning trnasfarmasiyalashuvi, yangicha siyosiy tafakkur.

**Необходимо учить философию глобальных проблем**

**Аннотация.** В статье обсуждается актуальность, теоретическая и практическая значимость преподавания философии глобальных проблем.

**Ключевые слова:** глобальная проблема, проблемы человечества, человеческая революция, культурная эволюция, новый гуманизм, трансформация человека, новое политическое мышление.

**Needs to learn the philosophy of global issues**

**Abstract.** The article discusses the relevance, theoretical and practical significance of teaching philosophy of global problems.

**Keywords:** global problem, problems of humanity, human revolution, cultural evolution, new humanism, human transformation, new political thinking.

Insoniyat taraqqiyoti o'zining boshidan murakkab va ziddiyatli davrlarni kechirmoqda. Bu bir tomonidan, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini globallashuvi integratsiyalashuvi, kommunikasiya jarayonlarining keng quloch yoyishi va chuqurlashuvi bilan ifodalandi.

Darhaqiqat, halqaro miqyosda ijtimoiy xayotning barcha sohalaridagi globallashuv jarayonlari insoniyatning tinch-totuv yashashi va taraqqiyotning yangi bosqichiga ko'tarilishiga xizmat qilib, yangi imkoniyatlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lishi bilan birgalikda, dunyo taraqqiyotiga to'siq bo'ladigan ijtimoiy muammolarni, jumladan, demografik, ekologik, energetik, oziq-ovqat, suv va ahloqiy muammolarni hamda demografik rivojlanishni izdan chiqaradigan va insoniyat birligiga rahna soladigan g'oyaviy yo'nalishlarni vujudga kelishiga hamda u yoki bu millat, mamlakatni tanlagan yo'lidan chalg'itishga uni burib yuborishga qaratilgan g'oyaviy-mafkuraviy tahdidlar va informasion xurujlarning kuchayishiga sabab bo'lmoqda.

Darhaqiqat, bugun dunyoda mislsiz ilmiy kashfiyotlar, ulkan texnikaviy imkoniyatlar, universal texnologiyalar, axborot tarqatishning globallashuvi ya'ni ularning butun kurrai-zaminni qamrab olish jarayoni shiddat bilan bormoqda.

Zero, hozirgi davrga kelib, ko'z bilan ilg'ab bo'lmas qudratli targ'ibot kuchlari, demokratik rivojlanishni izdan chiqaradigan, xalqlar va millatlar tinchligiga rahna soladigan xavf-xatar hamda tahidilar har tomonidan qurshab turganligi barchamizni befarq qoldirmasligi lozim.

Butun bashariyatga rahna solayotgan tahidlarning O'zbekistonning buyuk kelajagiga ham ta'sirini aql-idrok bilan anglab yetish, masalaga zamon talablariga mos keladigan darajada yondashgan holda munosabatda bo'lish va hal qilishga kirishish mazkur muammolar yechimini topishning zarur shartidir.

Umuman olganda, insoniyat uchun jiddiy tahdidga aylanayotgan muammolar girdobida yashashdek taqdirga mahkum bo'lish asoratlari ustida jiddiy o'ylab ko'rishni, nazariy va amaliy bilimlar manbaini yaratishga bog'liq ekanligini shart qilib qo'yadi. Bu esa o'z navbatida muammoni bir mamlakat, mintaqalari doirasida emas balki butun jahon miqyosida, dunyo davlatlarining bevosita ishtiroki asosida erishish mumkinligini hayotning o'zi taqazo qilmoqda. Ana shu yo'nalishda XX asrning ikkinchi yarmida global muammolar falsafasi oqim sifatida paydo bo'ldi. U hozirgi insoniyatning yashab qolishi uchun rivojlanish muammolarini o'tkir ziddiyatli muammolarning manbai va namoyon bo'lishi, rivojlanish tendensiyalari va ularni hal qilishning yo'l va vositalari haqida fikr yuritishga yo'naltirilgandir. Hozirgi insoniyat oldida turgan global muammolar uning

yashab qolishi uchun zarur bo‘lgan murakkab qarama-qarshiliklar va ularni hal qilishni kun tartibiga qo‘ymoqda. Global muammolar falsafasi doirasida butun dunyo mamlakatlari va halqlarining taqdiri umumiy va yakdil ekanligi tushuniladi. Bu esa insoniyat go‘yo yagona kemada suzayotgan va birgalikda yashab qolish yo‘llarini izlayotgan va topayotgan taqdirlar birligiga o‘xshaydi. Butun insoniyatning mavjudligi yagona organizm ekanligi Sharq mutafakkirlari tomonidan ancha ilgari bayon qilingan edi. Zero, shayx Sa‘diyning mana bu to‘rtligi BMTning qarorgohi peshdoqiga forsiy tilda bitilganligi bunga yaqqol misoldir:

Bani odam a’zoyi yakdigarand  
Ki dar ofarinish zi yak gavharand,  
Chu uzve ba dard ovarad ro‘zgor  
Digar uzviro namonad qaror.

#### **Mazmuni:**

Odamzod bir tananing a’zolaridir. Ularning kelib chiqishi bitta marvariddandir. Agar uning biror a’zosiga shikast yetsa, boshqa a’zolari notinch bo‘ladi.

Global muammolar falsafasining jadal rivojlanishi XX asrning 60 yillaridan boshlandi. Ana shu davrdan boshlab, insoniyat kelajagining nazariy modellarini yaratish faollashdi. 1968 yilda 100 dan ortiq mamlakatlarning olimlari va mutaxassislarni birlashtiruvchi xalqaro nohukumat tashkilot Rim klubi tashkil topdi. Bu klubga taniqli faylasuflar Dj.Forster, D.Medauz, M.Mesarovich kabi olimlar ham kirgan edi. Uning birinchi prezidenti ital’yan olimi Aurelli Pechchei (1908-1984 yy) edi. Aslida ital’yan iqtisodchisi Aurelli Pichchei tomonidan ilmiy texnika inqilobi davrida insoniyat taraqqiyotini tadqiq etish maqsadida tashkil etilgan. Rim klubi a’zolari o‘z ma’ruzalarini va e’tiborini global masalalarga qaratdi va bu qizg‘in munozaralarga sabab bo‘ldi. Ular asosan muqobil loyihalarga qaratilgan bo‘lib, ular rivojlanish muammolari va rivojlanayotgan mamlakatlar kelajagiga bag‘ishlangan. Klub faoliyatining asosiy yo‘nalishlari yangi insonparvarlik tafakkurini shakllantirish, umumbashariy tizimni yangicha idrok etish, bu idrokni butun dunyo xalqlariga yoyish, umuminsoniy muammolarni hal qilishda xalqaro hamkorlik sohasidagi yangi tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlashdan iborat. Aurelli Pichchei klubning asosiy muammosi hozirgi dunyoda insonning mavjudligi va ijtimoiy munosabatlarni insonparvarlashtirish yo‘llarini izlashdan iborat etib belgilanganligini ta’kidlaydi. Klub a’zolarining fikricha, insoniyatning yashab qolishi va uning kelagini insoniy sifatlarni rivojlantirish va yetuklashtirish yo‘llari orqali yangi insonparvarlik mezonlari asosida shakllantirilgan “Insoniyat inqilobi” orqali amalga oshish mumkin.

Aurelli Pichchei o‘zining “Insoniy sifatlar” kitobida kelajakda insoniyatning yashab qolishi insonlarning ma’naviy dunyosini yetuklashtirish orqali “insoniyat inqilobi” yo‘li orqali mumkin, degan o‘zining konsepsiyasini ilgari suradi. Insonning intellektual qudrati birinchi navbatda uning madaniy evolyusiyasi bilan belgilanadi. Darhaqiqat, dunyoda mavjud bo‘lgan global muammolar ma'lum darajada ilmiy texnika va ma’naviy axloqiy taraqqiyot nomuvofiqligining namoyon bo‘lishi natijasi sekinlik bilan amalga oshadi.

Aurelli Pichcheining ta’kidlashicha, hozir eng asosiy muammo insoniy sifatlarni yetuklashtirish zarurligidir. Bu esa, insonning o‘zida uning fikr va psixologiyasi tizimida, talab va imkoniyatlari majmuida hamda xarakter ehtiyojlarida madaniy-ruhiy inqilobni amalga oshirish talab qilinadi. Bu inqilob natijasida insonni transformasiyasini ta’minlashga chaqiradigan madaniy evolyusiyani amalga oshirishni va shu orqali ”yangi insonparvarlik”ni shakllantirishni nazarda tutadi. Eski insonparvarlik deganda ular inson tomonidan tashqi dunyoni zabit etishni anglatса, yangi insonparvarlikning mohiyati ana shu dunyo bilan murosaga kelib zo‘ravonlikka asoslanmagan garmonik birlik yo‘nalishlarini axtarishdan iboratdir.

Ko‘rinib turibdiki, global muammolarni insoniyat taqdiriga ta’sirini o‘rganuvchi va belgilovchi turli xil oqimlar, g‘oyalar va konsepsiyalarning paydo bo‘lishi jumladan: insoniyatning yashab qolish muammolari, insoniyatning hozirgi dunyoda mavjudlik muammolari, insoniyat inqilobi, entropiya, madaniy evolyusiya, insoniy sifatlarni yetuklashtirish, yangi gumanizm, insonning transformasiyalashuvi, har qanday hayotga yordam berish, yangi va eski gumanizm, insonda insoniylikning yemirilishi, yangicha siyosiy tafakkur, rivojlanishning turg‘un nazorat qilinuvchi tipi kabi g‘oyalarning paydo bo‘lishi global muammolarning falsafiy asoslarini o‘rganishni shart qilib qo‘ymoqda. Global xarakterga ega bo‘lgan bu muammolarni talabalar va professor-o‘qituvchilar tomonidan chuqur o‘rganilishi ularning nafaqat milliy-hududiy, mintaqaviy balki jahon miqiyosida sodir bo‘layotgan insoniyat taqdiri bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar bilan hamnafas bo‘lib, ularni

o‘rganish, tahlil qilish, qiyoslash va shu orqali o‘zlarining hayot pazisiyalarini tanlash va topib olish imkoniyatlarini yaratadi. Shu nuqtai-nazardan agar mamlakatimiz oliv o‘quv yurtlarida va jumladan, Samarqand davlat universitetida global muammolar falsafasi fan sifatida o‘rganishga kirishilsa, professor-o‘qituvchi va talabalar globallashuvning falsafiy jihatlari haqida nazariy va amaliy bilimga ega bo‘lish bilan birgalikda jahon falsafasi taraqqiyoti bilan hamnafas bo‘lgan bo‘lur edi.

### **Adabiyotlar**

1. Ochildev A. Globallashuv va mafkuraviy jarayonlar. Toshkent, Muharrir nashriyoti, 2009.
2. Paxruddinov Sh. Taraqqiyotga tahdid.: nazariya va amaliyat. Toshkent, Akademiya, 2006.
3. Safarova N. Terrorizm manbalari, maqsadi va globallashuv jarayoni. Toshkent, Fan. 2006.
4. Karimov S. Ijtimoiy taraqqiyot: muammo va yechimlar. Samarqand, “Zarafshon”, 2014.

**УДК: 1:17**

## **РОЛЬ АНТИЧНЫХ НАУК В РАЗВИТИИ ЦИВИЛИЗАЦИИ ЧЕЛОВЕЧЕСТВА**

**Р.Ш.Тошкуватова**

*Самаркандский государственный университет*

**«Наука-сила, она раскрывает отношения вещей, их законы и взаимодействия»**

**А. Герцен**

**Аннотация.** Статья раскрывает исключительный вклад античных наук в развитие мировой цивилизации. Античная философия выдвинула ряд фундаментальных идей и проблем, которые актуальны и сегодня: проблемы бытия, человека и его познания.

**Ключевые слова:** наука, бытие, сознание, мировая цивилизация, инквизиция, триеры, периферия, Аристотель «Политика», лицей, мусей, пантеон.

### **Insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanishida antik davr fanlarining o’rni**

**Annotatsiya.** Insoniyat sivilizatsiyasining rivojlanishida antic davr fanlarining o’rni nihoyatda beqiyos bo‘lgan. Ushbu maqolada antic davr falsafasi namoyondalaining buyuk g’oyalari va fundamental izlanishlarining bugungi fanlarning asosi ekanligi ko’rsatilgan: borliq, inson va uning dunyoni anglashi muammolari shular jumlasidandir.

**Kalit so’zlar:** fan, borliq, ong, jahon sivilizatsiyasi, inkvizitsiya, triyer, periferiya, Arastu, “Siyosat”, likey, musey, pantheon.

### **The role of ancient sciences in the development of human civilization**

**Abstract.** The article reveals the exceptional contribution of ancient sciences to the development of world civilization. Ancient philosophy put forward a number of fundamental ideas and problems that are relevant today: the problems of being, man and his cognition.

**Keywords:** science, being, consciousness, world civilization, inquisition, triremes, periphery, Aristotle’s “Politics”, face, Mussey, pantheon.

Для современных людей очевидно, что наука и техника играют в современном обществе решающую роль. Однако так было далеко не всегда. Древние греки, при всей своей любви к философии, смотрели на ремесло механика как на занятие простолюдинов, недостойное истинного ученого. Появившиеся позже мировые религии поначалу вообще отвергали науку. Например, один из отцов христианской церкви, Тертуллиан, утверждал, что после Евангелия ни в каком ином знании нет необходимости. Эта доктрина господствовала вплоть до начала Нового времени. В XVII в., в эпоху возрождения знаний, инквизиция преследовала Галилея и сожгла на костре Джордано Бруно. Понимание роли науки в Европе пришло лишь в эпоху Просвещения, когда Жан-Батист Кольбер, знаменитый министр Людовика XIV, создал первую Академию. Большой вклад в развитие наук принадлежит античной философии. До VII в. до н. э. Греция была периферией ближневосточной цивилизации. Греки учились у Востока: они позаимствовали у финикийцев алфавит и конструкцию кораблей, у египтян – искусство скульптуры и начала математических знаний. Знаменитый философ Пифагор долго жил в

Египте, пытаясь познакомиться с жрецами и проникнуть в их тайны. Он привез из Египта теорему Пифагора и магию чисел. Греция была малоплодородной страной, ее население не могло прокормиться земледелием. Многие занимались рыболовством, другие уезжали в поисках работы в дальние страны, основывали колонии на берегах Средиземного моря.

Одним из главных достижений, которое сделало Грецию богатой страной создание триеры – нового типа боевого корабля, элементы которого использованы в современном кораблестроении.

«В греческих судах каждый должен был защищать себя сам. На судебных процессах истцы и ответчики изощрялись в ораторском искусстве. Вскоре этому искусству стали учить в частных школах, в которых преподавали мудрецы-«софисты». Признанным главой софистов был Протагор; он утверждал, что «человек есть мера всех вещей» и что истина – это то, что кажется большинству (то есть большинству судей)» [1]. Ученик Протагора Перикл стал первым政治家, освоившим ораторское искусство. Благодаря этому искусству он 30 лет правил Афинами. От софистов и Протагора пошла вся греческая философия. В значительной степени она сводилась к умозрительным рассуждениям, мысли. Великий философ античности Сократ первым поставил вопрос об объективности знания. Он подвергал сомнению привычные истины и верования и утверждал, что «я знаю только то, что ничего не знаю». Анаксагор пошел еще дальше – он отрицал существование богов и пытался создать свою картину мира, он утверждал, что тела состоят из мельчайших частичек.

Последователь Анаксагора Демокрит назвал эти частицы атомами и попробовал применить бесконечно малые величины в математических вычислениях. Учеником Сократа был знаменитый философ Платон (427-347). Платон верил в существование души и в переселение душ после смерти. Для истории науки важны не философские искания Платона, а то, что он был основателем социологии, науки об обществе и государстве.

Платон предложил проект идеального государства, которым управляет каста философов наподобие египетских жрецов.

Социологические исследования Платона продолжал Аристотель; он написал знаменитый трактат «Политика», этот трактат содержал сравнительный анализ общественного строя большинства известных тогда государств. Аристотель выдвинул ряд положений, принятых современной социологией; он утверждал, в частности, что ведущим фактором общественного развития является рост населения; что перенаселение порождает голод, восстания, гражданские войны и установление «тирании». Цель «тиранов» – установление «справедливости» и равномерный передел земли. Аристотель был учителем Александра Македонского, знаменитого полководца. Македонские завоевания были вызваны новым изобретением в военной сфере – созданием македонской фаланги. Воины Александра имели копья 6-метровой длины и стоявшие сзади клали свои копья на плечи передних. Александр проявлял интерес к наукам и помог Аристотелю создать первое высшее учебное заведение, «Ликей». (современный лицей). Он взял с собой в поход племянника Аристотеля Каллисфена. Каллисфен и его помощники описывали природу завоеванных стран, измеряли широту местности, посыпали Аристотелю чучела диковинных животных и собранные ими гербарии. После смерти Александра роль покровителя наук взял на себя его друг и полководец Птолемей. «При разделе империи Александра Птолемею достался Египет, и он основал в Александрии по образцу «Ликея» новый научный центр, под названием «Мусей». Его здания располагались среди прекрасного парка, там были аудитории для студентов, дома преподавателей, обсерватория, ботанический сад, и замечательная библиотека – в ней насчитывалось 700 тысяч рукописей.

Преподаватели Мусея получали царское жалование; среди них были не только философы и механики, но и поэты, и восточные мудрецы, переводившие на греческий язык египетские и вавилонские трактаты» [2].

Таким образом, Мусей был первым научным центром, щедро финансируемым государством. Его деятельность показала, что если есть деньги – то будет и наука. По существу, день рождения Мусея и был днем рождения античной науки. Главой Мусея, «библиотекарем», был географ Эратосфен, сумевший, измеряя широту в различных пунктах, вычислить длину меридiana; таким образом, было окончательно доказано, что Земля – это шар.

В период античности развивалась и механика. Первым великим механиком был знаменитый строитель военных машин Архимед, проживший большую часть жизни в Александрии. Архимед на языке математики описал использование клина, блока, лебедки, винта и рычага. Вместе с корабельным мастером Архием Архимед построил для сиракузского царя Гиерона «Сиракузянку» – огромный корабль-дворец с великолепными залами и бассейнами. Из другихalexандрийских инженеров получили известность Ктесибий, изобретатель водяных часов и пожарного насоса, и Герон, создавший аэропил – прообраз паровой турбины.

В III в. до н. э. начинается эпоха римских завоеваний. Возвышение Рима было связано с новым военным изобретением, созданием легиона. Завоевав Грецию и Египет, римляне переняли как греческую культуру, так и научные достижения Мусея. Главным достижением римлян было создание цемента и бетона. Римляне научились использовать опалубку и строить бетонные сооружения. В качестве наполнителя использовали щебень. Во II в. н. э. в Риме был построен Пантеон, «Храм всех богов» с литым бетонным куполом диаметром 43 метра–позднее это сооружение стало образцом для архитекторов Нового времени.

Римляне использовали цемент и бетон при строительстве дорог и мостов. Римские дороги вызывали восхищение у историков последующих эпох. Самым знаменитым ученым и инженером римского времени был Марк Витрувий, живший в I в. до н.э. По просьбе императора Августа он написал «Десять книг об архитектуре» - обширный труд, рассказывавший о строительном ремесле и о различных машинах, в этом труде содержится первое описание водяной мельницы. Таким образом, наука и эпоху античности, и в современном обществе играет важную роль во многих отраслях и сферах жизни людей. Уровень развитости науки служит одним из основных показателей развития общества, а также это - показатель современного развития государства. Наука воздействует на человека непосредственно через образование. Формирование научного мировоззрения происходит тоже благодаря системе образования, которая играет существенную роль в формировании личности.

### Литература

1. Давтян А. О. В мире мудрых мыслей. М.: Олма-Пресс, 2009. 608 с.
2. Миронов В.В. Философия. М.: Проспект Велби, 2009. 240 с.
3. Губин В.Д. Философия. М.: Проспект, 2009. 336 с.
4. Философский энциклопедический словарь. Под ред. Лутченко В.А., Кораблевой Г.В., Губского Е.Ф. М.: Инфра-М, 2009. 570 с.

**UDK:** 323.1(575.1)

### KISHILIK TARIXINING KORRELYATSION-FUNKSIONAL QONUNLARI VA UALAR TIZIMIDA MILLIY G'OYA VA DEMOKRATIK O'ZGARISHLAR DIALEKTIKASINING O'RNI

**J. S. Quchqorov**

*Samarqand veterinariya meditsinasi instituti  
javlonq@list.ru*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada kishilik tarixining korrelyatsion-funksional qonunlari va ular tizimida milliy g'oya va demokratik o'zgarishlar dialektikasi kishilik tarixining shakllanish davri, ijtimoiy borliqning o'rni yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Milliy demokratik g'oya, korrelyatsion-funksional qonunlar, tarixni dialektik madaniy tushunish, ijtimoiy borliq, demokratiya, Harakatlar strategiyasi.

### Роль корреляционно-функциональных законов человеческой истории и диалектики национальной идеи и демократических изменений в их системе

**Аннотация.** В статье описаны корреляционно-функциональные законы истории человечества и диалектика национальных идей и демократических изменений в их системе, период становления истории человечества, роль общественного бытия.

**Ключевые слова:** национально-демократическая идея, корреляционно-функциональные законы, диалектическое культурное понимание истории, социальное бытие, демократия, Стратегия действий.

**The role of correction-functional laws of human history and the dialectics of national idea and democratic change in their system**

**Abstract.** This article describes the correlation-functional laws of human history and the dialectic of national ideas and democratic changes in their system, the period of formation of human history, the role of social existence.

**Keywords:** National democratic idea, correlation-functional laws, dialectical cultural understanding of history, social existence, democracy, Strategy of Action.

2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining tarkibiy qismlariga e'tibor beraylik [6]. Harakatlar strategiyasi mamlakat manfaatlarini ifodalovchi 2017-2021-yillarga mo'ljallangan milliy demokratik g'oyadir. Mazkur milliy g'oyalarimizning birinchi qismi davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan iborat. Bu qismda demokratik boshqaruvi tizimida Oliy Majlis, davlat, partiyalar va jamoatchilik boshqaruvini takomillashtirish masalalari ezgu siyosiy g'oya, maqsad va rejalar sifatida ilgari surilgan.

Mazkur milliy g'oyalarimizning ikkinchi qismi qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilishning ustuvor yo'nalishlaridan iborat. Bu qismda sud-huquq tizimini demokratlashtirish, fuqarolar huquqlari kafolatlarini ta'minlash, yuridik xizmat ko'rsatish masalalari milliy huquqiy g'oyalar sifatida o'z ifodasini topgan.

Mazkur milliy g'oyalarimizning uchinchi qismi iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish, ya'ni demokratlashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan iborat. Bu qismda iqtisodiyotimizning raqobatdoshligini oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari milliy iqtisodiy demokratik g'oyalar sifatida o'z aksini topgan.

Mazkur milliy g'oyalarimizning to'rtinchi qismi ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan iborat. Bu qismda aholini ijtimoiy himoya qilish, ma'naviy hayat sohasida ta'lif va fanni rivojlantirish, xotin-qizlar faolligi, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish masalalari milliy demokratik g'oyalarimizning sohaviy tarkibiy qismlari sifatida ilgari surilgan.

Mazkur milliy g'oyalarimizning beshinchi qismida xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash hamda chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi demokratik ustuvor yo'nalishlar bayon etilgan. Xavfsiz tinch-totuv yashash ham, diniy bag'rikenglik ham, millatlararo totuvlik ham, o'zaro manfaatli tashqi siyosat ham demokratiya masalalaridandir. Bu qismda ushbu masalalarga oid milliy g'oyalarimiz o'rın olgan.

Harakatlar strategiyasi beshta qismdan iborat ekan, ularning har qaysisining o'ziga xos sifat muayyanliklari bor. Shunday ekan, demokratiyaning "demokratiya manfaatlar uyg'unligi va uning boshqarilishi", "demokratiya huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining dialektik birligi" va "demokratiya o'ziga xos tartibot" degan mohiyat-mazmun kabi umumiylıklardan tashqari, o'ziga xos xususiyliklari mavjud. Bu – Harakatlar strategiyasida ko'rsatilgan beshta tarkibiy qismda demokratik jarayonlar o'ziga xos holda ketadi,-degani.

Xo'sh, nega shunday? Mazkur mamlakatning ichki tomonlariga xos jarayonlarning ontologik asoslari bormi?

Ha,bor. Ushbu savollarda tarixni materialistik tushunishning dialektik vorisi bo'lgan tarixni dialektik madaniy tushunishga asoslangan holda ham javob berish mumkin.

Biz hamisha tanqid qilayotgan K.Marks 1859-yilda "Siyosiy iqtisod tanqidiga doir" asarining so'z boshisida ijtimoiy falsafa tarixida birinchi bo'lib, jamiyatning ontologik manzarasini quyidagicha ko'rsatib berdi: "Moddiy hayotni ishlab chiqarish usuli umuman hayotning sotsial, siyosiy va ruhiy protseslariga sabab bo'ladi" [5:556]. Ushbu tarixni materialistik tushunishga asoslangan fikrdan, hozirgi zamon fani jamiyat va uning tarixini to'rtta asosiy sohalarga bo'lib o'rganadi: jamiyatning moddiy hayoti sohasi, jamiyatning sotsial sohasi (o'zbek tilidagi adabiyotlarda "sotsial" so'zining o'rniga "ijtimoiy" terminini qo'yib ishlatischadi), jamiyat siyosiy-huquqiy hayotlari sohalari va jamiyatning ma'naviy hayoti sohasi.

Kishilik tarixining shakllanish davri – ibtidoiy jamoa davrini olaylik. Kishilik tarixining ibtidoiy davri ibtidoiy poda va urug'doshlik bosqichlaridan iborat. Ibtidoiy poda davrida ota-onalar va farzandlar, opa-singillar va aka-ukalar o'rtasida intim munosabatlar taqilanganmagan. Bu holatlarni shartli ravishda "ibtidoiy poda demokratiysi" deyish mumkin. Bunda "ibtidoiy demokratiyi"

tushunchasi quyi bosqich – “ibridoiy poda demokratiyasi” va yuqori bosqich – “ibridoiy urug’doshlik demokratiyasi”ni o’z ichiga oladi.

Tarix fanlaridagi ma’lumotlar asosida aytish mumkin: ibridoiy odamlarning urug’doshlik davri bundan 40-14 ming yillar ilgari paydo bo’lgan. Urug’doshlik – bu qondoshlik belgisi bo’lib, urug’, qabila va qabilalar ittifoqi ko’rinishlarida mavjud bo’lgan. Urug’doshlik tizimi yuzaga kelishi uchun oila kelib chiqishi kerak. Kishilik tarixida qon-qardosh oila – oilaning birinchi bosqichidir. ...Bunday oilaning misoli qilib quyidagini ko’rsatish mumkin: bir er-xotindan tarqalgan avlodning har bir bo’g’inidagi erkak va ayollar o’zaro aka-uka va opa-singil bo’ladilar va xuddi shuning uchun birlari bilan er-xotin ham bo’ladilar...

1. Punalual oila.\* Agar oilaning tashkil topishida (ya’ni birinchi oila – qon-qardosh oilada...) olg’a tashlangan birinchi qadam – ota-onalar bilan bolalar o’rtasidagi jinsiy aloqalarni tugatishdan iborat bo’lgan bo’lsa, ikkinchi qadam – aka-ukalar bilan opa-singillar o’rtasidagi jinsiy aloqalarni tugatish edi. ...Mazkur progress sekin-asta vujudga kelgan. “Bu qadamning ...bevosita natijasi ... urug’ning tarkib topishi” [3:249-251] dir. Qon aralashuvi cheklanmasdan turib urug’ning paydo bo’lishi mumkin emas. Urug’ bir necha oilalardan iborat qondoshlik birligi asosidagi ijtimoiy jamaa. Agar oila kishilarning mikrosotsial birligi bo’lsa, urug’, qabila, elat va millat makrojamaa birliklaridir. Urug’da odamlar soni taxminan 50-60 bo’lgan bo’lsa, qabilada ular taxminan uch baravar ko’p bo’lgan. Qabila – bu bir necha urug’lar uyushmasidir. Qabilalar ittifoqi esa hudud jihatidan yuzlab kilometr masofalarga cho’zilgan. Elat bitta region xalqining etnik jihatdan bir necha qabilalarning kelib chiqishi birligini ifodalaydi. Millat esa bir-biriga yaqin elatlar va ularning qorishmasidan iborat, moddiy-madaniy, siyosiy-huquqiy, madaniy va ma’naviy madaniyat, jumladan, til birligiga ega kishilarning makrojamoalaridir. Elat va davlatchilik sinflar yuzaga kelgan davri – qadimgi davrga, millat esa kishilik tarixining yangi davriga to’g’ri keladi.

E’tiborni yana ibridoiy davrga qarataylik. Ibtidoiy urug’doshlik davrida jamiyat uchta asosiy sohadan iborat bo’lgan: ibridoiy moddiy hayot, ibridoiy sotsial hayot va ibridoiy ma’naviy hayot. Ibtidoiy urug’doshlik tuzumida davlat boshqaruvi bo’lmagan. Boshqaruv, u moddiy hayot yoki sotsial hayot yoxud ma’naviy hayot sohasida bo’lsin, sotsial normalar vositasida boshqarilgan. Boshqaruv, u ovchilik yoki dehqonchilik yoxud chorvachilikdir, oqsoqollar kengashi va uning boshlig’i orqali amalga oshirilgan [7:203]. Bu holatni ibridoiy urug’doshlik demokratiyasi deymiz.

Xullas, antropogenezisning o’zining mavjudligini saqlab qolish ehtiyojlari ibridoiy odam podasini yuzaga keltirgan. Hayvon tabiatning tayyor buyumlarini o’zlashtiradi, masalan, yitqichlar ov qilish yo’li bilan o’z mavjudliklarini ta’minlaydilar. Odam esa uzoq ming-ming yillik ibridoiy davrini bosib o’tar ekan, unda bosh miyaning rivojlanishi fikrlashni keltirib chiqardi, mehnat qurollarini tayyorlashga o’tdi, buning natijasida ibridoiy podaning so’nggi davrlarida o’zlashtiruvchilik faoliyatidan o’zgartiruvchilik faoliyatiga o’ta boshladi: dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik kelib chiqdi, qabilalar ittifoqi tufayli boshqaruvda markazlashish yuz berdi. Davlat tashkilotlari va ular chiqargan barcha qabilalarga xos normalar shakllandi. Demokratiyaning birinchi belgisi tenglik bo’lib, u ibridoiy davrda o’z kuchini ko’rsatgan. Ammo qabilalar ittifoqi birlashmasi, so’ngra davlat tashkilotlari shakllana boshlashi bilan tenglikka asoslangan ibridoiy oqsoqollar kengashi buzila boshladi. Va aksincha, davlat despotizmi shakllana boshladi. Kuchli sulolalar hokimiyatni boshqardilar.

Xullas, kishilik tarixida davlatchilik paydo bo’lgan davrdan boshlab, to hozirgi kungacha jamiyatning quyidagi to’rtta asosiy sohasi kelib chiqqan va takomillashgan: insonlarning biologik mavjudligini ta’minalashga bo’lgan ehtiyojlar asosida jamiyatning moddiy hayoti, ya’ni uy xo’jaligi, maishiy madaniyat, sog’liqni saqlashga bo’lgan ehtiyojlar asosida jamiyatning sotsial sohasi, jamiyatning barcha sohalariga xos boshqarish va tartibga solishga bo’lgan ehtiyojlardan jamiyatning siyosiy-huquqiy sohalari va axloq nafosat, ilm, ma’rifat, jumladan, kadrlar tayyorlash va axborot yetkazish kabilarga bo’lgan ehtiyojlardan jamiyatning ma’naviy hayoti kelib chiqqan.

Bizning maqsadimiz milliy g’oya va demokratik o’zgarishlar dialektikasi va uning turli-tumanligining ijtimoiy hayot sohalaridagi o’rnini va rolini aniqlashdir. Shuning uchun masalani boshqacha tartibda qo’yib qaraylik.

Tarixni dialektik madaniy tushunishga muvofiq hayvon tabiatning tayyor mahsulotlarini o’zlashtirib, iste’mol qilib, o’z mavjudliklarini ta’minlaydilar. Odam-inson esa hayvonlarga xos tabiiy imkoniyatlar, masalan, chopqirlik, o’tkir qoziq tish va tirnoqlar, fasllarga moslashuv, teri va shu kabilarning yo’qligi tufayli voqealik, jumladan, tabiatni o’zgartirib o’zlashtirish orqali o’z

mavjudliklarini ta'minlaydilar. Bu madaniy jarayonda insonlar o'zlarini o'zgartirganlar: tabiiy tanlanish qonuni odam yo'qolgan, tik yurish shakllangan, fikrlash jarayoni va tajriba kuchaygan. Demak, insonlarning o'z mavjudliklarini ta'minlash maqsadida voqealikka ishlov berib yaratgan birinchi madaniyat, ya'ni madaniy borliq bo'lib, u jamiyat mavjudligi va rivojlanishining asosi hisoblanadi. Uning takomillashishi bilan jamiyat ham rivojlanadi.

Jamiyat yadrosi – madaniy borliqning tarkibiy qismlaridan biri moddiy madaniyatdir. Uning negizida jamiyatning moddiy hayoti shakllangan. Madaniy borliqning ikkinchi tarkibiy qismi inson va uning birliklari va maishiy madaniyatdir. Uning negizida jamiyatning sotsial hayoti kelib chiqqan. Madaniy borliqning uchinchi tarkibiy qismi – jamiyatning siyosiy va huquqiy madaniyatlaridir. Ular negizida jamiyatning siyosiy-huquqiy hayotlari shakllangan. Madaniy borliqning to'rtinchi tarkibiy qismi jamiyatning ma'naviy madaniyatdir. Uning negizida jamiyatning ma'naviy hayoti tarkib topgan. Demak, ijtimoiy hayotning barcha sohalarining negizlari mavjud bo'lib, bu qonuniyatli jarayonlar tarixiy materializmda hisobga olinmagan.

Madaniy borliqning bu to'rtta asosiy sohalari bir-birlarini funksional holatlariga ko'ra taqozo qiladilar, ya'ni korrelyatsiyalari bo'ladilar. Moddiy madaniyat jamiyatning sotsial, siyosiy-huquqiy va ma'naviy madaniyatlarini va umuman ijtimoiy hayot sohalariga nisbatan moddiy asos – zamin qonunini boshqaradi. Sotsial hayotning asosiy qismi – inson va uning birliklari jamiyatning boshqa madaniy qismlari va umuman ijtimoiy hayot sohalariga nisbatan sotsial asos qonunini, ya'ni subyektining belgilovchilik qonunini boshqaradi.

Yuqorida ko'rdikki, K.Marks ijtimoiy hayot sohalarining negizlarini madaniy qismlar tashkil etishiga ahamiyat bermagan. Yana shuningdek, moddiy hayotni moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish usuli bilan aynanlashtirib, asosiy sababchi sifatida qaragan. Natijada tarixiy materializmda ishlab chiqarish usulining ijtimoiy taraqqiyotda belgilovchilik roli qonuni keltirib chiqarilgan. Holbuki, jamiyatning biron bir sohasi yo'qlik, ular subyektsiz mavjud bo'lsin. Inson va uning birliklari subyektlar sifatida yaratuvchilardir, madaniy borliqni avloddan-avlodga tashuvchilardir. Ular asosiy harakatlanuvchi kuchlar va tarixda xalq ommasi va shaxsning roli ko'rinishlarida ham namoyon bo'ladilar. Demak, umumijtimoiy qonunlar ichida ishlab chiqarish usulining belgilovchilik qonuni emas, balki inson va uning birliklarining ijtimoiy taraqqiyotda sotsial asos qonunini bajarishlari eng asosiy qonun hisoblanadi.

Jamiyatning siyosiy va huquqiy madaniyatlarning ijtimoiy hayotning boshqa sohalariga, xususan, madaniy qismlariga nisbatan boshqarib va tartibga solib turuvchilik qonunlarini boshqaradi. Jamiyatning ma'naviy madaniyati ijtimoiy hayotning, xususan, madaniy qismlariga nisbatan ma'naviy, jumladan gnoseologik asos qonunini boshqaradi. "Demak, - deydi S.Abduxoliquov, - madaniy borliq kishilarning sotsial birliklari va uning tomonlari – moddiy, ma'naviy va siyosiy-huquqiy madaniyatlarning korrelyativ-funksional bir butunligidan iborat bo'lib, ijtimoiy hayotning asosini tashkil etadi" [1:157,14]. Ularning, ya'ni to'rtta tomonlarning aloqadorligidan to'rtta korrelyatsion-funksional qonunlar – sotsial asos qonuni, moddiy asos qonuni, ma'naviy asos qonuni va boshqarib va tartibga solib turuvchilik qonuni kelib chiqadi [2:160, 18].

Bizni to'rtta korrelyatsion-funksional qonunlarni bilishning jamiyatda milliy g'oya va demokratik o'zgarishlar dialektikasining o'rni va rolini aniqlashdagi ahamiyati qiziqtiradi.

Jamiyatning moddiy hayotini olaylik. U xo'jalik va ekohayotdan iborat. Xo'jalik hayotining asosini xo'jalik madaniyati va ekohayotning asosini ekomadaniyat tashkil etadi. Xo'jalik madaniyati o'z navbatida texnologik va iqtisodiy madaniyat (mulk, taqsimot, ayirboshlash va iste'mol)larning birligidan iborat. Misol sifatida paxtachilik, bug'uchilik, tog'-kon sanoati o'ziga xos texnologik hayotlarni yuzaga keltiradi. Ijtimoiy madaniyat texnologik madaniyat va uning tempi – ishlab chiqarishiga bog'liq. Xo'jalik madaniyati tizimining birinchi substansional elementi insonlar bo'lib, ular yuridik va jismoniy shaxslar, mulkdor va yollanma ishchilar birligidan iborat mehnat jamoalari sifatida namoyon bo'ladilar. Ular o'rtasidagi munosabatlar tenglik,adolat va erkinlikni, ya'ni demokratiya talablarini taqozo etadi. "ishchi o'rni demokratiyasи", ba'zan tasdiqlashganidek, - deydi Robert A.Dal, - insонning rivojlanishiga yordam beradi, siyosatni yangi amaliy darajaga olib boradi, begonalashuvni kuchsizlantiradi, mehnatga asoslangan bir butun jamoani yaratishga imkon beradi, jamoaning umumiylar farovonlikka intilishini kuchaytiradi, egoizmni kamaytiradi, korxona doirasida umumiylar ishlardan manfaatdor ishchan fuqarolar korpusining kelib chiqishiga olib keladi, davlat ishlarini boshqarishda yanada ko'proq ishtirot etishiga va fuqarolik ongliligiga stimul beradi" [8:73].

Demak xo'jalik hayoti sohasidagi bunday munosabatlarni iqtisodiy demokratiya deymiz. Iqtisodiy demokratiya to'g'risidagi qarashlar kundalik yoki nazariy darajada bo'lsin, ma'naviy madaniyatning yadrosi – inson ongida, xususan, mutaxassislar tafakkurida yaratiladi. Iqtisodiy demokratiyaning kundalik darajadagi o'ziga xos ko'rinishini shu sohadagi axloqiy demokratiya deymiz. Iqtisodiy demokratiyaning kodekslar ko'rinishidagi yuqori qismi ilm-fan tizimida yaratilib, ularning hayotga tatbiq etilishi davlat va mulkdorlar, so'ngra ishchilarning faoliyatiga bog'liqdir. Demak, iqtisodiy demokratiya to'g'risidagi qarashlar ma'naviy madaniyat tizimida, demokratiya talablarining hayotga tatbiq etilishi esa xo'jalik hayoti sohasida yuz beradi.

Endi jamiyatning sotsial hayoti sohasini olaylik. Matbuotda ko'pincha bu sohani ijtimoiy deyiladi. Unda jamiyatning moddiy, siyosiy-huquqiy va ma'naviy hayotlari sohalari ijtimoiy emasmi, degan savol tug'iladi. Shuning uchun inson va uning birliklarini, ma'naviy hayotni, sport, tibbiyot, oziq-ovqat, kommunal xizmat sohalarini jamiyatning sotsial hayoti sohasi deb nom bilan yuritish mantiqan to'g'ridir. Bu sohaning birinchi tarkibini inson va uning birliklari dedik. Bu birliklar mikro va makro darajalardan iborat. Mikro darajadagisi oila va mehnat jamoalarini tashkil etadi. Oilaviy demokratiya oilada taqozo qilinadigan madaniy hodisa. Agar oilaviy demokratiya buzilsa, masalan, ota-onas farzandlarga zug'um o'tkazsalar va aksincha bo'lsa, unda farzandlarni davlat va jamiyat o'z himoyasiga oladi. Mehnat jamoalarini funksional holatlariga ko'ra ijtimoiy hayotning har bir sohasida o'ziga xos ko'rinishlarga ega. Shuning uchun ham har bir mehnat jamoalaridagi demokratik talablar o'ziga xos tartibda bo'ladi.

Inson birliklarining makro birligi urug'chilik, millat va ular ichidagi sotsial-sinfiy, demografik va posyolkaviy bo'linishlardir. Urug'chilik psixologiyasiga Qozog'iston poytaxtining Olma-Otadan Ostona (ulardagi Chelinograd)ga ko'chirilishini misol qilib keltirish mumkin. Bizda bu psixologiya deyarli yo'qolib ketgan. Lekin bu holatlar bo'lganida ham, ularni murosai-madorga keltirish demokratiya talablaridir. Millatlararo demokratik tartiblar Konstitutsiyamizning 18-moddasida kafolatlangan. Sotsial-sinfiy tarkibda ish bilan ta'minlash, har bir soha kasbi xodimlarining ish haqlarini normallashtirish kabi muammolar ko'p. Masalan, nega sudyalarining maoshi baland, degan savollar tug'iladi. Demokratik talablar kommunal xizmat sohasida to'laqonli emas. 400000 so'm nafaqa oladigan nafaqaxo'rlar qanday yashaydilar? Sotsial sohada bunday muammolar keragidan ortiq. Kommunal xo'jalik sohalarida adolatni barqarorlashtirish dolzarb muammolardan hisoblanadi.

E'tiborni jamiyatning siyosiy-huquqiy hayotlari sohalariga qarataylik. Yuqorida aytdikki, ularning o'zak qismlarini jamiyatning siyosiy va huquqiy madaniyatlarini tashkil etadi. Ular siyosiy-huquqiy hayotlarning asoslaridir. Hokimiyatning uch qism – qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo'linishi demokratiyadir. Siyosiy demokratiya davlat hokimiyati va demokratik jarayonlardir. Lekin mansabdorlarning o'z mansablarini suiste'mol qilishlari-chi? Bu masalani hal qilish uchun qanday mexanizmni ishlab chiqish kerak? Demak, demokratik tartiblarni o'rnatishda muammolar ko'p.

Ma'naviy hayot sohalarini olaylik. Bu yerda ham jamiyat ma'naviy madaniyatini ma'naviy hayotning asosi, degan obyektiv holat ustuvorlik qiladi, axloqiy, diniy, estetik, ilmiy hayotlar, ta'lim-tarbiya va ommaviy axborot tizimlari ma'naviy hayotning tarkibiy qismlaridir. Ularning madaniy qismlari shu sohalarning asosi sifatida bir butun holida ma'naviy madaniyat deyiladi. Axloqiy demokratiya ma'naviy madaniyat tizimida ishlab chiqilsa-da, moddiy madaniyat, sotsial soha, siyosiy-huquqiy madaniyat tizimlarida amal qiladi. Axloqiy madaniyat va undagi demokratik talablar ma'naviy madaniyatning boshqa tomonlari, masalan, ta'lim-tarbiya tizimida ham amal qiladi. Mustaqillik yillarda O'zbekistonda yangi jamiyat qurilishi jarayonida milliy g'oyaning jamiyat ma'naviyatining tarkibiy qismi sifatidagi ta'siri va ahamiyatini namoyon qilishi uchun keng imkoniyatlar paydo bo'ldi [4: 245].

Demak, jamiyat madaniy hayotining asosini moddiy madaniyat, xususan, xo'jalik madaniyati tashkil etib, uning norma rivojlanishi uchun ichida demokratik tartiblarning o'rnatilishiga bog'liq. Shundagina korrelyatsion-funksional qonunlardan biri – moddiy madaniyatning jamiyatning boshqa sohalariga nisbatan moddiy asos qonunini bajarish to'laqonli ravishda yuz beradi.

Demak, sotsial hayotning birinchi tarkibiy qismi insonlar bo'lib, ular o'rtasidagi munosabatlarni boshqa sohalardagi bo'lgani kabi axloqiy demokratiyaga va so'ngra siyosiy demokratik tartiblarga bog'liq holda ketishi kerak. Shundagina korrelyatsion-funksional qonunlardan insonlarning jamiyatning boshqa sohalariga nisbatan sotsial asos qonunini bajarishi normal holda yuz beradi.

Demak, jamiyat siyosiy-huquqiy hayotlarining asosini jamiyat siyosiy va huquqiy madaniyatlari tashkil qilar ekan, davlat hokimiyati va huquqiy normalarning normal amal qilishi bu tizimda ham demokratik tartiblarning o'matilishiga bog'liq. Barcha qonunlar huquqiy bo'lishi kerak. Davlat boshqaruvi ham huquqiy bo'lishi lozim. Jamiyatning siyosiy va huquqiy madaniyatlari tizimlarida, harbiy tizimdan tashqari, to'liq saylov va tortishuv tamoyillariga o'tish zarur. Shundagina korrelyatsion-funksional qonunlardan biri – jamiyat siyosiy-huquqiy madaniyatlarning boshqarish va tartibga solib turuvchilik qonunlari normal kechadi.

Demak, jamiyat ma'naviy hayotining asosini jamiyat ma'naviy madaniyatni tashkil etar ekan, uning ham normal amal qilishi va rivojlanishi unda o'rnatilgan demokratik tartiblarga bog'liqdir. Shundagina ma'naviy madaniyat ham korrelyatsion-funksional qonunlardan biri – ma'naviy madaniyatning jamiyatning boshqa madaniy qismlari, va umuman, jamiyatning boshqa sohalariga nisbatan ma'naviy asos qonunini to'laqonli ravishda bajaradi. Xulosalar:

- Ijtimoiy borliqning markaziy qismini qonunlari ila borliq tashkil qilar ekan, uning tarkibiy qismlaridan biri – ma'naviy madaniyat ekan, ma'naviy madaniyatning o'q ildizini esa ong tashkil etadi. Demak, ijtimoiy borliq o'z ichiga kechagi ijtimoiy-tarixiy ongqi ham oladi. Shunday ekan, ijtimoiy borliqning ijtimoiy ongga nisbatan belgilovchilik qonuni navbatdagi fikrlash-tafakkurga nisbatandir. Bu qonuniyat demokratik tafakkurga ham xosdir. Bu holatdan demokratik munosabatlarni taqozo qiluvchi ijtimoiy borliqning demokratik tafakkurni belgilab kelishi nomli ijtimoiy qonun ham kelib chiqadi.

- Demokratiya korrelyatsion-funksional qonunlarning barchasida taqozo qilinadigan madaniy hodisa hisoblanadi. Korrelyatsion-funksional qonunlar har bir demokratiya turlarining o'rni va rollarini ko'rsatib beradi.

- Demokratiya to'g'risida milliy g'oyalalar hamkundalik-axloqiy yoki nazariy-siyosiy darajada bo'lsin, ma'naviy madaniyat tizimida ijod qilinadi. Demokratiya to'g'risidagi g'oyalarning korrelyatsion funksional qonunlar orqali va ular tizimida hayotga tatbiq etilishi davlat – jamiyat – insonlar tizimi faolligi orqali yuz beradi.

- Bugungi kunda "Fuqarolik jamiyatasi asoslari" va "Demokratiya nazariyasi" kabi fan va o'quv kurslarini "jamiyatning korrelyatsion-funksional qonunlari va ular tizimida milliy g'oya va demokratik o'zgarishlar dialektikasining o'rni" nomli muhim qarashlar bilan to'ldirish muhim nazariy ahamiyatga egadir. Axloqshunoslik fanini esa "axloqiy demokratiya" to'g'risidagi qarashlar bilan boyitish zarurdir.

### **Adabiyotlar**

- Abduxoliqov S. Vijdon erkinligi: metodologiya muammolari. – T.: "Fan", 1997. 157-bet; Rustamboyev M.H., Abduxoliqov S.O. Huquq metodologiyasi: tarix va huquqni dialektik madaniy tushunish asoslari. – T.: TDYI nashriyoti, 2005. 14-bet.
- Abduxoliqov S. Vijdon erkinligi: metodologiya muammolari. – T.: "Fan", 1997. 160-bet; Rustamboyev M.H., Abduxoliqov S.O. Huquq metodologiyasi: tarix va huquqni dialektik madaniy tushunish asoslari. – T.: TDYI nashriyoti, 2005. 18-bet.
- Engels F. Oila, xususiy mulk va davlatning kelib chiqishi://K.Marks va F.Engels. Tanlangan asarlar. 1-tom. – T.: "O'zbekiston", 1981. 249-251-betlar.
- Mamashokirov S. O'zbekistonda yangi jamiyat qurishning g'oyaviy-mafkuraviy asoslari. – T.: O'zMU nashriyoti, 2004. 245-bet
- Marks K. Siyosiy iqtisod tanqidiga doir. So'z boshi://K.Marks va F.Engels. Tanlangan asarlar. 1-tom. – T.: "O'zbekiston", 1980. 556-bet.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sod Farmoni//O'zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to'plami, 2017 yil 6-soni.
- Алексеев В.П., Першиц А.И. История первобытного общества. – М.: «Высшая школа», 1990. С.203.
- Роберт А.Даль. Введение в экономическую демократию. – М.: «Наука»- СП «ИКПА», 1991. С.73.

**UDK: 1.1**

**JADIDCHILIK G'OVALARINING VUJUDGA KELISH TARIXIGA OID FALSAFIY  
QARASHLAR**

**X. S. Ashurova***Samarqand davlat chet tillar instituti*

**Annotatsiya.** Maqlolada musamlakachilik siyosati natijasida sodir bo'lgan ijtimoiy xayotning o'zgarishi natijasida vujudga kelgan siyosiy jarayonlar haqida ayrim mulohazalar keltirilgan. Vujudga kelgan qo'zg'alolnlar natijasi aholining iqtisodiy yashash tarzining tanazzulga yuz tutgani va ayrim xududlarda halq qo'zg'alolnlarining sodir bo'lishi uning oqibatlari natijasi to'g'risida firklar bildirilgan. Mustamlakachilik oqibatida xalqning ma'naviy qiyofasida ham ayrim tanazzul xolatlari vujudga kelganligi haqida fikrlar bildirilgan.

**Kalit so'zlar:** Mustamlakachilik, ijtimoiy xayot, siyosiy jarayon, ma'naviy tanazzul, kuchirish siyosati, sudlov tizimi, qo'zg'alol, jadidchilik, harakat, aholi, zulim, ta'lif, maorif.

**Философские взгляды истории возникновения просветительского движения джадидов**

**Аннотация.** В статье дается представление о политических процессах, возникших в результате изменений в общественной жизни, произошедших в результате колониальной политики. Утверждается, что результатом восстаний стало ухудшение экономического образа жизни населения и последствия народных восстаний в некоторых районах. Было высказано предположение, что в результате колониализма духовный облик людей также ухудшился.

**Ключевые слова:** колониализм, социальная жизнь, политический процесс, духовный упадок, политика депортации, судебная система, восстание, джадидизм, движение, население, угнетение, образование, образование.

Inson resurslari jamiyatning ishlab chiqarish kuchlarining eng qimmatli va muhim qismidir. Ular ishlab chiqarish vositalarini yaratadilar va harakatga keltiradilar, ularni doimiy ravishda takomillashtiradilar. Umuman olganda, har bir tashkilotning faoliyati xodimlarning malakasiga, ularni joylashtirish va ulardan foydalanishga bog‘liq bo‘lib, ko‘pgina rivojlangan davlatlar xususan, Yaponiyada kadrlar masalasiga sosiolog olim A.Xolbekov o‘zining “Boshqaruv sosiologiyasi” qo‘llanmasida quyidagicha ifodalaydi: “...Yaponiya ulkan yutuqlarga asosan juda muhim bo‘lgan birgina faoliyat sohasi, ya’ni boshqaruv sohasidagi yangiliklar evaziga erishdi. Yapon menedjerlari boshqaruv faoliyatidagi eng muhim omil hammadan ham tezroq va yaxshiroq tarzda kadrlarga, odamlarga muvaffaqiyatning bosh zahirasi sifatida munosabatda bo‘lish zarurligini hammadan tezroq va yaxshiroq tushunib yetdilar. Aynan shu narsa eng muhim kapital ekanligini, uni qadrlash zarurligini isbotladilar” [3].

Yosh mutaxassis shaxsining professional bo‘lib shakllanish uchun ma’lum bosqichlarni bosib o‘tish lozim. Ushbu bosqichlar fonda “faza” lar deb atalib, ularga quyidagilar kiritilgan: optant (lotincha «optatio» – tanlash) fazasi; adept (lotincha «adeptus» – erishganlik) fazasi; moslashuv fazasi; internal fazasi (lotincha «internus» – ichki); mohirlik fazasi; hurmat fazasi; murabbiylilik va ustozlik fazasi [4].

Professional sifatida shakllanish jarayonining “optant”, ya’ni “tanlash” fazasida inson kasb tanlash yoki kasbni o‘zgartirish muammosiga duch keladi. Ushbu fazani boshqa fazalar singari aniq bir vaqt chegarasi bilan belgilab bo‘lmaydi. Bu har bir shaxsning individual xususiyatlari, turmush tarzi, shart-sharoitlariga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Misol uchun kam ta‘minlangan oilalarning farzandlari yoki mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilari o‘smirlik davridanoq o‘zlarining kelajaklari haqida jiddiy fikr yurita boshlaydilar. Bu esa, albatta, ularning moddiy jihatdan qay darajada ta‘minlanganliklariga bog‘liq bo‘lishi ehtimoldan xoli emas. Aksincha, ota-onalari g‘amxo‘rligiga odatlanib qolgan o‘smirlarda esa oliv o‘quv yurtlarida ta‘lim olish jarayonida hayotiy va o‘quv-kasbiy maqsadlarni tanlashida ushbu masalaga mas’uliyat bilan yondashmaslik holatlarini kuzatish mumkin.

Ikkinci - “adept” fazasida inson tanlagan kasbiga berilgan, uni to‘liq o‘zlashtirgan (talabalar, tinglovchilar va boshqalar) bo‘ladi. Kasbning qanday ekanligiga qarab, ushbu bosqich ko‘p yillik yoki qisqa davrli (masalan, shifokorlik yoki haydovchilik kasbini egallash jarayoni) bo‘lishi mumkin.

Uchinchi - “moslashuv” fazasida o‘quv yurtida u yoki bu mutaxassisni tayyorlash jarayoni qanchalik yaxshi tashkil etilgan bo‘lmasin, u ishlab chiqarish jarayoniga to‘g‘ridan-to‘g‘ri mos kelavermasligi mumkin. Shuning uchun yosh mutaxassis xulqi, hayot tarzi, odatlarini yaxshilik tomonga yo‘naltirishi lozim bo‘ladi.

Ko‘plab kasblarda faoliyat ko‘rsatish jarayoni bir holda kechavermaydi. Bu xilma-xil vaziyatlar, shart-sharoitlar bilan bog‘liq. Natijada yosh mutaxassisdan fikrlesh qobiliyatini yanada o‘stirish, kasbiy faoliyatga noodatiy talab qilinadi. Bu jarayonda mehnat jamoasi a‘zolarining bir-birini qo‘llab-quvvatlashi talab etiladi. Bunday tadbir, albatta rahbarning nazorati ostida olib borilishi maqsadga muvofiqdir.

To‘rtinchi - “internal” fazasidagi mutaxassis tajribali, o‘z ishini sevib, xizmat vazifalarini ishonchila mustaqil bajara oladi. Bunday tadbirkorlik uning hamkasblari tomonidan ham e’tirof etilib kelinmoqda. Natijada jamoaning ma’naviy muhitiga ijobji ta‘sir o‘tkazilgan bo‘ladi.

Beshinchi - “mohirlik” fazasida mutaxassis eng oson vazifalarni ham, hamkasblari bajarish imkoniyatiga ega bo‘lmasan eng murakkab vazifalarni ham bajara oladi. U professionallik sohasida universalligi, malakasi, maxsus sifatlari bilan ajralib turadi.

Oltinchi - “hurmat” fazasida mutaxassis o‘z ishining ustasi, professional doirada, hattoki, undan tashqarida ham (masalan, tarmoq, tarmoqlararo va mamlakat miqyosida) yaxshigina obro‘ga ega bo‘lgan shaxs hisoblanadi. Bunday mutaxassis tanlagan kasbi doirasida qabul qilingan attestasiya talablari asosida biror yuqori kvalifikatsion malakaviy ko‘rsatkich (unvon, ilmiy daraja, razryad, kategoriya)ga ega bo‘ladi. Maxsus mutaxassislik “chig‘ira” dan o‘tgan shaxslarning fikri hamkasblari va boshliqlari o‘rtasida hisobga olina boshlanadi.

Yetinchi - “murabbiylilik” va ustozlik fazasi keng ma‘noli tushuncha. Murabbiylilik faxrli vazifa. Murabbiy doimo o‘zi erishgan natijalarni shogirdlariga yetkazishga harakat qiladi. Shu ma‘noda kasbiy sohada ham murabbiylilik masalasiga ham alohida e‘tibor berilsa ko‘pgina muammollar o‘zining to‘g‘ri yechimini topgan bo‘lardi.

Muxtasar qilib aytganda, qisqacha tavsif berilgan ushbu fazalarni muvaffaqiyatli bosib o‘tgan har bir kasb egasi haqiqiy professional, ya’ni o‘z kasbinining mohir ustasi, - deb atash mumkin. Hozirgi kunda

har bir sohani, yetuk professional kadrlar bilan ta'minlash borasida yetarli shart-sharoitlar yaratilganligiga qaramay, bu sohada ham muammolar yo'q emas. Masalan, mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini oshirishda professional rahbar kadrlarning o'rni beqiyos. Binobarin, kasb tanlash jarayonida har bir kishining o'z salohiyati, imkoniyati va qobiliyati doirasida biror kasb egallahsha intilishi tabiiyidir. Har bir insonning har qanday kasbda ishlashga layoqatli emasligi tushunarli hol, chunki kerakli jismoni va psixik xususiyalarga ega bo'lish zarur[5]. Biroq ko'pchilik tomonidan hozirgacha tushunilmagan aksioma ham bor. Kishilarning eng ko'p qismi o'z qobiliyatlarini va xususiyatlariga mos keladigan kasblarda band bo'lsalargina, butun millatning ishlab chiqarish samaradorligi eng yuqori darajaga erishishi mumkin [6]. Bu masalani hal qilishda kasbiy yo'naltirish va kasbiy tanlash jarayonining ahamiyati beqiyosdir. Masalan, tegishli manbalar [7] shuni ko'rsatadi, ishdan bo'shashga qaror qilgan mutaxassisning ishlab chiqarish samaradorligi bir oy davomida 10-15%ga, ishdan bo'shash davrida esa 30-40%ga pasayadi. Xuddi shunday holatni ishga yangi qabul qilingan mutaxassisda ham kuzatish mumkin. Kadrlarning bunday o'zgaruvchanligi iqtisodiyotga jiddiy zarar yetkazadi. Birgina shu muammoni hal qilish orqali ham iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin bo'ladi.

Shu bilan birga, jamoaning faoliyatiga o'zaro munosabatlarda "yashirin"likning mavjudligi ta'sir ko'rsatishi mumkin. U jamoa manfaatidan alohida a'zolar manfaatini ustun qo'yish, biron-bir vazifani bajara olishga qodir yoki qodir emasligiga qaramasdan lavozimga qo'yish, mukofotlashlarda faqat bir-birlarini ko'rsatish kabilarda ifodalanadi. Korxonada samaradorlikni ta'minlashda o'zaro munosabatlar madaniyati quyidagi malaka va ko'nikmalar bilan bajariladi:

- hamkorlik davomida o'zaro hurmatni saqlash, yuzaga keladigan kasbiy muammolarni o'z vaqtida hal etish;

- jamoa a'zolarini ishontirish, shaxsiy namuna orqali ta'sir ko'rsatish;

- kasbdoshlarning qadriyatlarini hurmat qilib, mehribonlik ko'rsatish;

- xizmatdoshlarga samimmiylikni, ular haqida qayg'urishini, ularga yaxshilik tilashini namoyish qilishi va shu kabilar.

Jamoalarda umumiy muvaffaqiyatga erishish davomida ifodalanadigan qiyinchiliklar tufayli mehnat va umumijtimoiy omillar ta'sirida o'zaro munosabatlarning xarakteri xulq strategiyasiga ta'sir etadi. E.Meyo boshchiligidagi tadqiqot guruhi mehnat unumdoorligiga nafaqat texnik va iqtisodiy, balki ijtimoiy-psixologik omillar (guruuning birlashishi, menejment bilan munosabatlar, ish joyidagi qulay muhit, ish joyidan qoniqish va boshqalar) ham ta'sir qilishini isbotladi[8].

Boshqarilayotgan korxona, muassasa yoki tashkilot a'zolari rioya etadigan fikrlar, mulohazalar, xulq-atvor va xatti-harakatlar namunalari, kayfiyat, ramzlar va boshqalarni qamrab oladi. Bugungi kunda yapon kompaniyalari eng rivojlangan korporativ madaniyatga egaligi ta'kidlanadi. Xususan, butun dunyoga mashhur "Toyota" kompaniyasida ma'muriyat va korxona ishchilar o'rtasidagi uyg'un munosabatlar asosiga "Beshikdan qabrgacha Toyota bilan" konsepsiysi qo'yilgan. Uning xususiyatlari: a) "bir umrli yollanish;" b) turar joy bilan ta'minlash, ya'ni bo'ydoq ishchilarga yotoqxonalar berishdan tortib yosh kelin-kuyovlarga kvartiralar berish, bolali oilalarga kompaniyaning o'zida ishlab chiqarilgan yig'ma uylarni sotish; v) uy-joylar sotib olish uchun kreditlar ajratish, kiyim-kechak va oziq-ovqat mahsulotlari bilan arzonroq narxlarda ta'minlash; g) imtiyozli tibbiy xizmat ko'rsatish; d) bo'sh vaqt ni tashkil etish (jo'r bo'lib qo'shiq aytish, sport seksiyalari, turizm va h.k.). Albatta, bu kabi tadbirilar malakali ishchilar va xizmatchilarini kompaniyaga mustahkam bog'lashga xizmat qilib kelmoqda.

"Toyota" kompaniyasi rahbarlik siyosatining qoidasi quyidagicha: "Boshqaruvning eng muhim - bu odamlar bilan munosabatlar muammosidir. Odamlar, mahsulot va pul - biznesning eng asosiy elementlari, lekin odamlar - eng muhimi. Nafaqat boshqaruv, balki biznesning har qanday jihatni odamlar jamoasidagi yaxshi o'zaro munosabatlarga bog'liq" [9]. Demak, yapon kompaniyalarining bu kabi erishgan muvafqaqqiyatli tajribalarini temir yo'l sohasiga ham joriy etish, fikrimizcha soha rivoji uchun muhim yutuq va natijalar olib kelishi mumkin, deb hisoblaymiz.

Kasbiy rivojlanish xodimni ishlab chiqarish muammolarini hal qilish, mehnat funksiyalari va martaba imkoniyatlarini bajarish uchun tayyorlash va qayta tayyorlash jarayonini o'z ichiga oladi. Bugungi kunda kadrlarni rivojlantirish va o'qitish har qanday tashkilot o'z faoliyati va rivojlanishi davomida duch kelishi mumkin bo'lgan muammodir. Har bir korxonada turli xil o'quv kurslari va dasturlarining tashkil etilish sifati va miqdori turlicha. Kadrlar tayyorlash va rivojlantirish sifati va miqdoriga quyidagi omillar ta'sir qiladi:

- tashkilot tashqi muhitidagi o'zgarishlar (texnologik taraqqiyot, yangi qonunchilik va talablar);

- tashkilotdagagi ichki o'zgarishlar (ishlab chiqarish jarayonlarini modernizasiya qilish);

- malakali kadrlarning yetishmasligi;

- martabaga ko'tarilish va martabaning o'sishi uchun imkoniyat;

- o‘qituvchilarining malakasi va kasbiy mahorati.

Ba‘zi tashkilotlar kadrlar tayyorlash va takomillashtirish jarayoniga sust tarzda yondashadilar. Ushbu tashkilotlarda o‘quv dasturlari rejalashtirilmagan va ularning strategik maqsadlariga mos kelmaydigan tarzda joriy etilmoqdaki, natijada esa ishlab chiqarish samaradorligi pasayib, ishchi-xodimlarning kasbiy qoniqish darajasi negativ xarakter kasb etmoqda.

Temir yo‘l transport tizimida kadrlar strategiyasining maqsadi ko‘proq ishlarning kamroq sonda bajarilishini ta‘minlashdir. Ushbu maqsadga erishishning istiqbolli usuli bu ishchi-xodimlarning kasbiy mahoratini oshirish asosida ishlab chiqarishni tarkibiy qayta qurishdir. Korxona xodimlarining kasbiy saviyasini oshirish uchun zaxiralar mavjud bo‘lib, bunda quyidagi jihatlarga e‘tibor qaratish maqsadga muvofiq:

- mehnatni tashkil etishning ilg‘or usullarini keng joriy etish;
- ishlab chiqarishning texnik darajasining oshishi, uni axborotlashtirish va kompyuterlashtirish;
- ish sifati uchun mas’uliyatni kuchaytirish;
- muammosiz tashish va uni ishlab chiqarishning quyi pog‘onalariga topshirish bilan bog‘liq [10].

Bugungi kunda temir yo‘l transport tizimida:

- sozlovchilar va ta‘mirlash ustalari;
- murakkab uskunalar bilan ishlaydigan ishchi-inspektorlar;
- kompyuter uskunalarini ishlatadigan va ularga xizmat ko‘rsatadigan kadrlarga ehtiyoj tobora oshib bormoqda.

Shu boisdan ham ushbu kadrlarni tayyorlash va rivojlantirish tizimi ma‘lum ishlab chiqarish xususiyatlarga bog‘lagan holda olib borish, xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishga, xodimlarning salohiyatiga mos keladigan maqsadli axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish maqsadga muvofiq.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, birinchidan kadrlar tayyorlash va rivojlantirish tizimi doimiy rivojlanib boruvchi tashkilot prinsipiqa muvofiq shakllantirilishi lozim. Negaki, to‘g‘ri tashkil etilgan tizimning kafolati ishlab chiqarilgan jarayonda olingen bilim va ko‘nikmalardan foydalangan holda innovation texnologiyalarni joriy etish, bozor iqtisodiyotidagi o‘zgarishlarga javob beradigan raqobatbardosh kadrlar adaptasiyalashuvi jarayonlarining samarali kechishiga yordam beradi. Bu esa mehnat bozoridagi raqobatga bardoshli va muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsata oladigan kadrlar bilan ta‘minlash imkonini yaratadi.

Ikkinchidan, kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish tizimi orqali tashkilot o‘z maqsadlarini muvafaqqiyatli amalga oshiradi. Bu esa istiqbolda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan muammolarni ijobji hal qilish imkonini yaratadi. Chunki sohada malakali kadrlar yetishmasligi yoki zarur kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lmaslik, tashkilot rentabelligiga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi bilan birga mehnat unumidorligiga ta‘sir etib, rivojlanish darajasining pastaytirishi mumkin.

## Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Transport sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori -<https://lex.uz/docs/4805174>
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvardagi “Oliy Majlisga Murojaatnomasi”- <http://aza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>
3. Xolbekov A.J. Boshqaruva sotsiologiyasi. Toshkent, Akademiya, 2006. – B.23.
4. Климов Е. А. Общая психология. – М., 2001. - С. 434.
5. Айзенк Г. Ю. Структура личности. – Пер. с англ. – СПб.: Ювента. М.: КСП+, 1999. – С. 18.
6. Кекчеев К. Х. Психотехника и выбор профессии. – М., 1922. - С. 5.
7. Крымов В.В., Даниленко Л. А. Профориентация – метод рационального подбора и расстановки кадров. – М., 1978. – С. 10.
8. Шелдрейк Дж. Теория менеджмента: от тейлоризма до японизации / Пер. с англ. под ред. В.А.Спивака. - СПб: Питер, 2001, с. 173-198.
9. Социология: Энциклопедия / Сост. А.А.Грицанов, В.Л.Абушенко, Ф.М.Евелькин, Г.Н.Соколова, О.В.Тереоенко. – МН.: Книжный дом, 2003. -С. 1076.
10. Жирун М.В. Совершенствование социально-профессиональной структуры персонала железнодорожной отрасли. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата социологических наук. Саратов, 2003.

**UDK: 1.323/327 (575.1)****O'ZBEKİSTON JAMIYATIDA İJTİMOİY HAYOT SOHALARINING O'ZGARİSHIDA  
INSON RESURSLARINI RIVOJLANTIRISH JARAYONLARI (oliy ta'lím faoliyatı misolida)****U. X. Bo'tayev<sup>1</sup>, O. N. G'aniyev<sup>2</sup>,**<sup>1</sup>*O'zbekiston milliy universiteti*<sup>2</sup>*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi**usmonuz@mail.ru, oybekg@yahoo.com*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Jamiyat rivojlanishi to'g'risidagi yangicha ilmiy nazariy qarashlar va g'oyalar hamda O'zbekistonda ijtimoiy hayot sohalarining o'zgarishida inson resurslarini rivojlanirish jarayonlari tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada inson resurslarini rivojlanirishda oliy ta'lím sohasida olib borilayotgan islohotlar va ularni amalga oshirish mexanizmlari keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** Jamiyat, davlat, shaxs, ijtimoiy hayot, ilmiy qarashlar, oliy ta'lím, inson resurslari, global o'zgarishlar, uchinchchi renessans.

**Процессы развития человеческих ресурсов при изменении социальной жизни в обществе Узбекистана (на примере деятельности высшего образования)**

**Аннотация.** В статье анализируются новые научно-теоретические взгляды и идеи на развитие общества, а также процесс развития человеческих ресурсов в трансформации общественной жизни в Узбекистане. В статье также описаны реформы высшего образования в области развития человеческих ресурсов и механизмы их реализации.

**Ключевые слова:** общество, государство, личность, социальная жизнь, научные взгляды, высшее образование, человеческие ресурсы, глобальные изменения, третий ренессанс.

**Processes for the development of human resources in the change of social life in Uzbekistan's society (on the example of higher education activities)**

**Abstract.** This article analyzes new scientific theoretical views and ideas on the development of society, as well as the process of human resource development in the transformation of social life in Uzbekistan. The article also describes the ongoing reforms in the field of human resources in higher education and the mechanisms for their implementation.

**Keywords:** society, state, individual, social life, scientific views, higher education, human resources, global change, third renaissance.

Davlatimiz rahbari O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan soha vakillariga yo'llagan tabrik nutqida ta'kidlaganidek, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratl, millatni buyuk qiladigan kuch ham ilm-fan, ta'lím va tarbiyadir deb bejiz aytmagan edi[1]. Albatta bu qarashlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asarlarida jamiyat rivojlanishi to'g'risida yangi nazariy va konseptual yondoshuvning ilmiy asoslari ishlab chiqilganligi bilan asoslanadi. Jamiyat rivojlanishi to'g'risidagi yangicha ilmiy nazariy qarashlar va g'oyalar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarida[2], shuningdek uning "Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir", "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" asarlarida uning ilmiy asoslab bergenligini ko'ramiz. Jamiyat rivojlanishi to'g'risidagi yangi nazariy g'oyalar jamiyat rivojlanishi bo'yicha mavjud bo'lgan an'anaviy qarashlardan tubdan farq qiladi. Jamiyat rivojlanishi to'g'risidagi qarashlarning yangicha ilmiy asoslarga qo'yishni taqozo etgan shart-sharoit va omillarni mustaqillik va mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlash, davr va zamon o'zgarishlari va yangicha talablaridan kelib chiqqan holda to'g'ri tushunish va talqin etish mumkin. Demak, mustaqillik va jamiyat taraqqiyoti to'g'risidagi qarashlarni o'zgartirish zarurligi Yangi O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'lidan rivojlanishi o'ziga xos va mos taraqqiyot strategiyani ishlab chiqish bilan bog'liq bo'ldi. Mustaqil taraqqiyot mamlakatni o'z negizida rivojlanishini ta'minlash uchun tegishli shart-sharoit va omillarni yaratib berishi bugungi kunning dolzarb vazifasi sifatida qo'yildi.

Global o'zgarishlar davrida ta'lím-tarbiyaga ehtiyoj ortib boradi. Chunki hayot o'zgarish sur'atlari tezlashadi. Bu bir tomonidan, turli xalqlar hayot sohalarida imkoniyat doirasida umumiy jihatlarni, qulayliklarni yaratib bersa, ikkinchi tomonidan axborot makoni kengayadi. Turli maqsad va manfaatlarga yo'naltirilgan har xil g'oya, qarashlar, uni targ'ibot qilish texnologiyalari, ijtimoiy ong va tafakkuriga ta'sir ko'rsatish maqsadida "jozibador"ligini oshirgan holda samaradorlikka erishish uchun harakat qiladi. Bundan asosiy maqsad esa inson resurslarini rivojlanirish bo'ldi.

Bizga ma'lumki, ta'lim insonning ma'naviy va intellektual ehtiyojlarini va qobiliyatini shakllantirishga ta'siri nuqtai nazaridan uni o'zaro bog'liq uch: shaxs, davlat va jamiyat nuqtai nazaridan qarab chiqish qabul qilingan.

**Birinchisi, shaxsiy darajada** – bu insonning o'zligini to'la namoyon qilish, intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatidir. Shu bilan birga ta'lim umumi va kasb bilimlarini egallashga ham xizmat qiladi. Bilimli inson ma'naviy jihatdan boy, uning hayoti faqat moddiy qadriyatlardangina iborat emas. Ta'lim shaxsga o'zining ma'naviy extiyojlarini qondirish, hayotini to'laqonli va uyg'un qilish imkonini beradi.

**Ikkinchisi, davlat darajasida** shuni ta'kidlash kerakki, davlat mamlakat intellektual salohiyatini rivojlantirishdan manfaatdor. "Bilimlar iqtisodiyoti" davrida ta'lim iqtisodiy rivojlanish va milliy boylikni jamg'arishning eng muhim tarkibiy qismiga aylandi. Aholining ma'naviy boyligi mamlakatda huquqiy madaniyatni shakllantiradi, shuningdek xalqning erkin, demokratik, huquqiy davlatda yashash va mehnat qilish, o'z huquqlari va erkinliklarini anglash, ulardan o'zining hamda davlat va jamiyatning manfaatlari yo'lida foydalanishga ko'maklashadi.

**Uchinchisi, jamiyat darajasida** ta'lim alohida global ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bu jamiyatni taraqqiy ettirishning qudratlari omilidir. Jamiyatning intellektual rivojlanishi – ijtimoiy taraqqiyotning asosidir. Taniqli amerikalik iqtisodchi T. Stouner aytganidek: "Iqtisodiyotning sanoat rivojlanishidan keyingi davrida bilim yer, mehnat va kapital o'rnini bosib, zamonaviy ishlab chiqarish tizimlarining eng muhim asosiga aylandi" deb ko'rsatishi bejis emas edi[3].

Shu sababli bo'lsa kerak, ekspertlarning hisoblab chiqishlariga ko'ra, hozirgi davrda jismoniy kapital ulushiga jahon bo'yicha o'rtacha milliy boylikning 16,0 % to'g'ri keladi. Ayni paytda milliy boylikda inson kapitalining ulushi 64,0 %, tabiiy kapitalning ulushi 20,0 % ni tashkil qiladi. Hatto, iqtisodiy rivojlanish darajasi ortishi bilan inson kapitalining milliy boylikdagi ulushi ortib boradi. Germaniya, Shveysariya va Yaponiyada mazkur salmoq 80,0 % ga yetgani xuddi shundan dalolat beradi. Jahon hamjamiyati va alohida davlatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi strategiyasida ta'limga insonni rivojlanish konsepsiyasining eng muhim tarkibiy qismi sifatida yondashiladi. Siyosiy jihatdan bu vazifalarни planetar miqyosida "aqliy markazlar / institutlar" bajarib keladi. "XX asrning 90-yillarda birgina Washingtonda yuzga yaqin tahliliy markazlar mavjud bo'lgan" [4]. 2000-yildan so'ng, umuman, dunyoda tahliliy faoliyatga ehtiyojning o'sishi kuzatildi. Bunga misol tariqasida tahlil markazlarining umumiyl soni 4,5 mingga yetganligini[5], 2009-yilning oxirlariga kelib esa ularning soni 5,5 mingtani tashkil etganini ko'rsatish mumkin[6]. Ularning faoliyat ko'lami, moliya manbalari hamda vazifalarini bir-biridan farqlanadi. Ayrimlari ham ichki ham tashqi siyosatning muayyan sohalariga, boshqalar esa ma'lum bir mintaqaga muammolarini o'rganishga ixtisoslashgan. Misol uchun, AQSH "aqliy markazlari" faoliyati ikki xil yo'l bilan – xususiy tartibda hamda hukumat muassasalari orqali tushadigan mablag'lar hisobiga moliyalashtiriladi[7]. Amerikalik professor Donald Eybelson aqliy markazlarning vujudga kelishiga munosabat haqida fikr bildirar ekan, ikki qutbi dunyoda AQSH gegemon davlatga aylanishi munosabati bilan Washington oliy rahbariyati yuksak mas'uliyatning yuqoriligini his etib, yaxlit va asoslangan milliy xavfsizlik siyosatini ishlab chiqishda yordam bera oladigan aqliy markazlarning intuitiv va kompetenligiga muhtoj bo'lganligi sababli[8] aqliy markazlar rivojlandi, deb ta'kidlaganli bugun barcha davlatlar uchun inson kapitalini rivojlanish lozim ekanligini yana bir bor ko'rsatdi.

O'zbekistonda ham so'nggi yillarda mamlakatimiz ta'lim-tarbiya tizimida, xususan oliy ta'lim sohasida davlat siyosatida tub o'zgarish sodir bo'ldi. Bu albatta ijobjiy siyosiy jarayon deb qarashimiz lozimligini bildirdi va bu bir qancha amaliy qadamlar tashlandi.

**Birinci qadam.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlanish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmonida ijtimoiy sohadagi, xususan, ta'lim va ilm-fan sohalarini takomillashtirish borasida qator vazifalar belgilangan. Bundan ko'zlangan maqsad esa, ta'lim muassasalarining faoliyatini tubdan takomillashtirishning uzoqqa mo'ljallangan strategiyasi bo'ldi.

**Ikkinci qadam.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PQ-2909-sون Qarori. Mazkur qaror bilan "2017-2021-yillarda oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish dasturi"da mamlakatimizda o'quv dasturlarini yanada zamonaviylashtirish, pullik xizmatlar ko'rsatish va moliyalashtirishning qo'shimcha manbalarini izlashda oliy o'quv yurtlarining vakolatlarini kengaytirish yo'li bilan ularning mustaqilligi bosqichma-bosqich rivojlanirib borish edi. Asosiy o'ziga xosligi shunda bo'ldiki, har bir oliy ta'lim muassasasi turdosh xorijiy yetakchi ixtisoslashgan ilmiy-ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarni keng joriy qilish, ilmiy pedagogik faoliyatga chet ellarning yuqori

malakali o‘qituvchi va olimlarini jalb etish, professor-o‘qituvchi kadrlarning xorijiy oliy o‘quv yurtlarida stajirovkalarini tashkil etish, qayta tayyorlash va malakasini oshirish vazifalari belgilandi.

**Uchinchi qadam.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ta’lim tizimidagi islohotlarning mantiqiy davomi bo‘ldi. Mazkur qarorning o‘ziga xos xususiyati shundaki, unda 2019/2020 o‘quv yilidan boshlab oliy ta’lim muassasalarida “talabaning o‘zlashtirish darajasi — professor-o‘qituvchilar faoliyatini baholashning asosiy mezoni” tamoyilini joriy etishning aniq mexanizmlari belgilanib berildi.

**To‘rtinchchi qadam.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sen Farmonidir. Mazkur Farmon bilan O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi tasdiqlandi. Mazkur konsepsiya O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrلaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishga qaratildi.

Xususan mazkur konsepsiyaning yana bir o‘ziga xos jihatni respublikadagi kamida 10 ta oliy ta’lim muassasasini xalqaro e’tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education ёки Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga, shu jumladan O‘zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o‘rindagi oliy ta’lim muassasalari ro‘yxatiga kiritish belgilandi.

**Beshinchchi qadam.** O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabridagi “O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sen Qonunini qabul qilinganligi, mamlakatimiz siyosiy tizimida ta’lim sohasida yangicha ruh berdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu qonunning qabul qilinishi mamlakatimiz ta’lim sohasida yangicha ruh va keng imkoniyatlarni yaratilishiga huquqiy jihatdan zamin yaratdi. Jumladan: **birinchidan**, ta’lim olish shakllarining tasnifi kengaytirildi; **ikkinchidan**, Vazirlar Mahkamasi, Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiysi (Ta’lim inspeksiysi), Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan maktablarni rivojlantirish agentligi, shuningdek soha vazirliklari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari tafsilotlari bilan aniqlashtirildi; **uchinchidan**, ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarining huquqiy maqomiga ko‘proq etibor qaratilgan; **to‘rtinchidan**, davlat ta’lim standartlari va talablari, o‘quv jarayoniga o‘quv rejalarini va dasturlarini, ta’lim sohasiga eksperimental va innovatsion faoliyat ta’limni joriy etish bilan bog‘liq masalalar tartibga solingan; **beshinchidan**, davlat tomonidan tartibga solish va nazorat qilish reglamentlanganligi shular jumlasidandir.

**Oltinchi qadam.** Mamlakatimiz ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabr qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining “Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” PF-6108-sen farmonlari hamda 2020-yil 6-noyabrdagi “Ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada takomillashtirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-sen Qarorida istiqbolda O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari etib quydigilar belgilandi:

- mamlakat taraqqiyoti uchun yangi tashabbus va g‘oyalar bilan maydonga chiqib, ularni amalga oshirishga qodir bo‘lgan, intellektual va ma’naviy salohiyati yuksak yangi avlod kadrlarini tayyorlash, ta’lim tashkilotlari bitiruvchilarini zamonaviy kasb egalari bo‘lishlari uchun ularda zarur ko‘nikma va bilimlarni shakllantirish;
- dunyo miqyosidagi bugungi keskin raqobatga bardosh bera oladigan milliy ta’lim tizimini yo‘lga qo‘yish, darslik va o‘quv qo‘llanmalarini zamon talablari asosida takomillashtirish, ularning yangi avlodini yaratish, o‘quv dasturlari va standartlarini optimallashtirish;
- ta’lim-tarbiya muassasalarining rahbar xodimlari, pedagog va murabbiylari, professor-o‘qituvchilarini va ilm-fan sohalari vakillarining jamiyatimizdagi o‘rnini va maqomini oshirish, ularning mashaqqatli mehnatini munosib qadrlash va faoliyat samaradorligiga qarab moddiy rag‘batlantirish;
- pedagog xodimlarning kasbiy mahorati va faoliyat samaradorligini mutnazam oshirib borish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, malaka oshirish tizimini “hayot davomida o‘qish” tamoyili asosida takomillashtirib borish;

- ilmiy-tadqiqot va ta'lim xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha xususiy sektorning salmog'ini kengaytirish, hududlarda nodavlat ta'lim tashkilotlarini tashkil etish orqali raqobat muhitini shakllantirish, ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish;
- zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llagan holda ta'limni boshqarishni avtomatlashtirish va har tomonlama tahlil qilib borish tizimini yaratish, elektron resurslar va masofaviy ta'limni yanada rivojlantirish, ta'lim oluvchilar o'rtasida IT-sohasidagi kasblarni ommalashtirish;
- ilm-fanni iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylantirish, ilmiy tadqiqotlar ko'lами kengaytirish, iqtidorli yosh olimlarning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish, mayjud ilmiy tashkilotlar salohiyatini yanada mustahkamlash va rivojlantirish;
- ta'lim tizimiga yuqori samarali xalqaro amaliyotni joriy etish, respublika ta'lim tashkilotlarini nufuzli xalqaro reytinglarga kiritish bo'yicha tizimli ishlarni amalgalashirish[9].

Umuman olganda, mamlakatimiz ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojini jadallashtirishga oid normativ-huquqiy hujjalarni qabul qilinishi ta'limdagi hozirgi muammolarni hal qiladigan, yaqin besh yilda natijasini ko'rsatadigan va keyingi taraqqiyot darajasini belgilab beradigan hamda oliy ta'lim sohasida inson resurslarini rivojlantirivchi maqsadlar qamrab olingan bo'lib, asosiy maqsad istqbolda mamlakatimiz ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini takomillashtirish, jamiyatimizda o'qituvchi va pedagog xodimlar, ilmiy va ijodkor ziyyolilarga bo'lgan hurmat-e'tiborni yanada oshirish, ta'lim oluvchilarning kasbiy mahoratini rivojlantirish, ta'lim tizimida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish orqali O'zbekistonning Uchinchi Renessansiga ta'lim-tarbiyanı takomillashtirish hamda inson resurslarini rivojlantirish asosida erishadi deb o'yaymiz.

#### Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2020 йил 30 сентябрдаги Ўқитувчи ва мураббийлар кунига бағишиланган тантанали маросимдаги нутки <https://uza.uz>
2. Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. - Тошкент: «Ўзбекистон», 2016. -56 б.; Танқидий таҳлил, қатый тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик -хар бир раҳбар фаолиятининг кундалиқ қоидаси бўлиши керак. - Тошкент: «Ўзбекистон», 2017. -104 б; Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт таракқиёти ва халқ фаровонлигининг гарови.– Тошкент : “Ўзбекистон”, 2017. – 48 б. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир.– Тошкент: “Ўзбекистон” НМИУ, 2018.– 508 б.
3. Стоунъер Т. Информационное богатство: профиль постиндустриальной экономики. Новая технологическая волна на Западе / Под ред. Гуревича П.С. –М.: Прогресс, 1986. - С.24.
4. Erik C. Johnson How Think Tanks Improve Public Policy. <http://www.cipe.org/e21/priE21.html>
5. Think Tanks and Trans nationalization of Foreign Policy // US Foreign Policy Agenda. 2002. Vol. 7. No 3., The Leading Public Policy Research Organizations in the World. Philadelphia. 28.07.2010.. - P. 15.
6. <http://gtmarket.ru/news/state/2009/01/12/1888>
7. Бобокулов И.И. Умаров Х.П. Хавфсизлик асослари.– Т.: 2011. - Б.57.
8. Эйбелсон Д. “Мозговые центры” и американская внешняя политика: история вопроса//<http://usinfo.state.gov>
9. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 6 ноябрдаги “Ўзбекистоннинг янги тараккиёт даврида таълим-тарбия ва илм-фан соҳаларини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисидаги” ПФ-6108-сон Фармони. <https://lex.uz>

**UDK 725.838.011**

#### BO'SH VAQT VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISH

**F. R. Rustamov**

*Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Buxoro filiali  
farruxrustamov7@gmail.com*

**Annotatsiya.** Bugungi kunda “bo'sh vaqt” va “hordiq” tushunchalari shaxs kamoloti uchun muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Zamonaviy hordiq sanoat va shaharlashuv mahsuli sifatida yangi turdag'i hordiq sifatida o'zgarib bormoqda. Ilmiy-texnik taraqqiyot mehnat unumdarligining o'sishiga va aholi turmush darajasining yaxshilanib borishiga olib keldi. Bu esa ish uchun zarur bo'lgan vaqtini qisqartirdi va bo'sh vaqt miqdorini sezilarli darajada oshirdi. Maqolada “bo'sh vaqt” va uni samarali tashkil etish haqidagi so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Bo'sh vaqt, hordiq, rekriatsiya, erkinlik, mehnat, jamiyat, shaxsiyat.

### Free time and more efficient use

**Abstract.** Today, the concepts of "leisure" and "recreation" are becoming increasingly important for personal development. Modern leisure is evolving as a new type of leisure as a product of industry and urbanization. Scientific and technological progress has led to an increase in labor productivity and an improvement in living standards. This reduced the time required for work and significantly increased the amount of free time. The article talks about "leisure" and its effective organization.

**Keywords:** free time, leisure, recreation, freedom, labor, society, personality.

### Свободное время и более эффективное использование

**Аннотация.** Сегодня понятия «свободное время» и «отдых» приобретают все большее значение для развития личности. Современный отдых превращается в новый тип отдыха как продукт промышленности и урбанизации. Научно-технический прогресс привел к росту производительности труда и повышению уровня жизни. Это сократило время, необходимое для работы, и значительно увеличило количество свободного времени. В статье рассказывается о «свободном времени» и его эффективной организации.

**Ключевые слова:** свободное время, отдых, рекреация, свобода, труд, общество, личность.

Mashhur mutafakkir Rene Dekart “Erkinlik va bo’sh vaqt ... Men bu ikki narsaga shu qadar to‘liq egalik qilaman va ularni shu darajada qadrlaymanki, ularni mendant sotib olish uchun boy odam dunyoda yo‘q”, [2] deb yozgan edi.

Bugungi kunda bo’sh vaqt tushunchasi zamonaviy sotsiologiyada alohida yo‘nalish sifatida bo’sh vaqt sotsiologiyasi doirasida o‘rganiladi. U odamlar va guruhlarning bo’sh vaqtlaridagi hatti-harakatlari, dam olish (hordiq), o‘yin-kulgi, aloqa, shaxsiy rivojlanish ehtiyojlarini qondirish usullarini o‘rganadi. Hordiq chiqarish, “dam olish sohasi” muassasalari faoliyati, amaliy ma’noda u zamonaviy hordiq chiqarish evolyusiyasi va xususiyatlarini, uning mehnat, ijtimoiy tuzilma, oila bilan aloqasi, hayot siklining bosqichlari va yashash usullari (urbanizatsiya), zamonaviy turmush tarzini shakllantirishdagi o‘rnini o‘rganadi.

Zamonaviy hordiq turli xil ijtimoiy guruhlardagi farqlarga qaramay, sanoat va shaharlashuv mahsuli sifatida yangi turdag'i hordiq sifatida o‘zgarib bormoqda. Bugungi taraqqiyot imkoniyatlari mehnat unumdoorligining o‘sishiga va aholi turmush darajasining yanada yaxshilanib borishiga olib keldi. Bu esa ish uchun zarur bo‘lgan vaqtini qisqartirdi va bo’sh vaqt miqdorini sezilarli darajada oshirdi. Ish kunining oxirida, ish haftasi, ta’tilda bo’sh vaqtning konsentratsiyasi mavjud edi, bu boshqa sabablar qatorida yangi hodisani keltirib chiqardi - kuchli dam olish migratsiyasi, ya’ni ta’til va hafta oxiri tushunchasi paydo bo‘ldi. Shahardagi yashash sharoit jamoatchilik aloqalarining susayishiga, shaxsning ijtimoiy va ma’naviy avtonomiyasining oshishiga olib keldi va shu bilan birga dam olish shakllariga ta’sir ko‘rsatadigan iste’mol va madaniyatni ommaviylashtirish jarayonlarini kuchaytirdi. Ishdan keyin dam olish va mehnatga tayyorlanish kabi bo’sh vaqtini tejashning iqtisodiy funksiyasi, G‘arb sotsiologlarining fikriga ko‘ra, reproduktiv siklni ta’minlaydigan asosiy va eng muhimi, tovarlar va xizmatlarni iste’mol qilishni to‘xtatdi. Dam olishning ijtimoiy funksiyalari turli xil xarakteristikalar orqali ijtimoiy tuzilishning aloqa va ko‘payishi bilan bog‘liq ijtimoiy guruhlarning hordiq chiqarish turlari va shakllari asosida dam olishning madaniyat va madaniyatni iste’mol qilish sohasi sifatida oshganligi qayd etildi.

Dam olishni ilmiy o‘rganish 1920-1930 yillarda boshlangan bo‘lib, birinchi navbatda, boshqa ommaviy so‘rovlarning bir qismi sifatida (masalan, Lind er-xotinlarining “O‘rta shahar” asari, 1925-1929, 1935), so‘ngra alohida ish sifatida (Landberg va boshqa “Shaharlarning hordiq chiqarishi”, 1934) o‘rganilgan. Bunga 8 soatlik ish kuni kiritilishi va ba’zi mamlakatlarda (masalan, 1936 yilda Fransiya kabi) 40 soatlik ish haftasi, haftada ikki kun dam olish va ikki haftalik ta’til berilib, bu bo’sh vaqt miqdorini keskin oshirdi. Dam olish bo‘yicha tadqiqotlar oqimi Ikkinchiji jahon urushidan keyin barcha mamlakatlarda ko‘paydi. 1949 yildan boshlab Fransiyada M. Kaplanning “Amerikada hordiq” (1960), K. Robersning “Bo’sh vaqt” (1970), “Buyuk Britaniyadagi hordiq va jamiyat” asarlari nashr etildi. 1951 yil Bo’sh ish o‘rinlari fenomenini o‘rganish boshlandi. Madaniy hordiq chiqarish amaliyoti televizor va boshqa ommaviy axborot vositalarining jadal rivojlanishi bilan bog‘liq holda o‘rganildi. 1964-1965 yillarda vaqt byudjetlarini o‘rganish doirasida 13 mamlakatning shaharlari (shu jumladan AQSH va SSSR) bo’sh vaqtidan foydalangan holda qiyosiy xalqaro so‘rov o‘tkazildi. 1969 yildan beri “Jamiyat va bo’sh vaqt” xalqaro jurnalni 1976 yilgacha Pragada, so‘ngra Kvebekda (Kanada) nashr etildi. Empirik ma’lumotlarni to‘plash davrida bo’sh vaqtini nazariy tushunish (xulq-atvorga ta’sir qiluvchi omillar haqida) mehnat sotsiologiyasi, shaxs sotsiologiyasi, oila va boshqalar kategoriyalarida va Fridmanning tegishli tushunchalari doirasida paydo bo‘ldi. Bo’sh vaqt sotsiologiyasini sotsiologiya fanining mustaqil tarmog‘i

sifatida shakllanishining yakunlanishi S.R.Parkerning “Bo’sh vaqt sotsiologiyasi” (1976), “Dam olishning empirik sotsiologiyasi” (1974) kabi nashrlarda o’z aksini topgan. Bo’sh vaqtini ijtimoiy institut sifatida ko’rib chiqish makro yondashuvni talab qildi va u postindustrial iste’molchi jamiyat tushunchalari mualliflari tomonidan amalga oshirildi va “ommaiy madaniyat” nazariyasi va “bo’sh madaniyatning sivilizatsiyasi” g’oyasiga to’liq kiritilgan. Unga ko’ra bo’sh vaqt iqtisodiy rivojlanishning muayyan darajasidan boshlab, mehnatdan ko’proq avtonomiya ega bo’lib, o’zini o’zi ta’minlaydigan qiymatga aylanadi. “Dam olish sivilizatsiyasi” atamasi va uning boshlanish vaqtida munozaralar bo’lib o’tdi. Aksariyat tadqiqotchilar zamonaviy jamiyatda bo’sh vaqtning alohida rolini tan oladilar. Ammo S.Parker singari olimlar bo’sh vaqtida dam olish mumkin bo’lgan rivojlangan jamiyat haqida gapirishni afzal ko’rishiadi. XX asrning 80 yillarida “Mehnat - dam olish” mavzusi o’z dolzarbligini yo’qotmadi, chunki “mikroprosessor inqilobi” ham mehnat, ham bo’sh vaqtini o’zgartiradi. G’arb sotsiologlari shuningdek, “tanlangan vaqtning inqilobi” tushunchasini taklif qiladilar. Unga ko’ra jamiyat ham ish vaqtidan, ham bo’sh vaqtidan foydalanish tabiatini o’zgartirishi kerak. Bugungi kunda ularning ikkalasi ham insoniyashtirilmagan, vazifa tanlanganlik va foydalanish erkinlik tamoyillarini barcha ijtimoiy vaqtarga tarqatishdir.

Bo’sh vaqtning o’ziga xos ijtimoiy hodisa. Odamlar qadriyatlarni turlicha qabul qiladilar va tasniflaydilar. Bu hayot tajribasiga, ta’limga, dunyoqarashga bog’liq. Biror narsaning yoki axloqning qiymatidan qat’i nazar, inson uchun qadriyat maqomiga ega bo’lgan hamma narsa turmush tarziga katta ta’sir ko’rsatadi. Vaqtga qiymat sifatida munosabat darhol paydo bo’lmaydi.

Birinchi marta, ijtimoiy qiymat sifatida, u XIX-asrning iqtisodiy nazariyalarida qayd etilgan. Bu erda u jamiyatning ajralmas xususiyati hisoblanadi. David Rikardo millatning haqiqiy boyligi: eng kam ish vaqtida maksimal boylik yaratish, ya’ni jamiyatning haqiqiy boyligi - moddiy ishlab chiqarish jarayonidan bo’shan vaqt, odam erkin foydalanishi mumkin bo’lgan vaqt: qisman mahsulotni iste’mol qilish uchun erkin faoliyat va qobiliyatlarni rivojlantirish, deb hisoblaydi.

Bo’sh vaqt - bu mehnat orqali yaratilgan va mehnatdan bo’sh vaqt bo’lib, u tushunchasining keyingi evolyusiyasi Ogsyut Kont sotsiologiyasida o’z aksini topgan. Sanoat inqilobi davrida moddiy ishlab chiqarish sohasidan bo’shan ijtimoiy zarur ish vaqtini keskin qisqardi. Bo’sh vaqtini aniqlashda ish vaqtini harakatlanuvchi chegaralarga ega edi. Iqtisodiy jarayonlarning miqdoriy tavsifga ega bo’lishi bo’sh vaqtning dastlabki sof miqdoriy belgilashda namoyon bo’ldi. Ammo ma’naviy ishlab chiqarish sohasi ham tobora rivojlanib bormoqda. Miqdoriy va sifat mezonlarining birligi bo’sh vaqtini shakllantirishda - mustaqil ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo’ldi.

Shartli ravishda bo’sh vaqtning tarkibi ikki darajaga ega: ijtimoiy zarur va individual. Ijtimoiy zarur vaqt vaqtning miqdoriy aniqligi, uning moddiy hisobga olinishi bilan chambarchas bog’liq:

- ish haftasi va dam olish kunlari;
- ma’lum bir mashg’ulotga sarflangan vaqt, bo’sh vaqtdagi ish turi;
- bo’sh vaqtini tashkil qilish va o’tkazish uchun ishlataladigan individual va jamoat vositalari.

Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha individual bo’sh vaqt bo’sh vaqtning boshqa xususiyatlarini ochib beradi. Jumladan, dunyoqarash, ma’naviy ehtiyojlar, ijtimoiy faollik, siyosiy sadoqat, kundalik mentalitet va boshqalar. Boshqacha aytganda, har bir shaxsnинг ichki dunyosi, jamiyat tomonidan ta’milanadigan erkinliklarni anglashi bilan bog’liq bo’lgan barcha narsalar. Bu erda bo’sh vaqt hayot sifati, uning o’ziga xos qiyofasi, mazmunning to’liqligi, elementar ehtiyojlarni qondirishga kamaytirilmasligi sifatida namoyon bo’ladi.

Ijtimoiy zaruriy va individual bo’sh vaqtning birligi bo’sh vaqtning o’zi va mohiyatini tushunish uchun zarurdir. Aks holda, biz erkinlik tushunchasini odamlarni mavhum fikrashg’i yoki fikr erkinligi, matbuot, diniy e’tiqod va hokazolar uchun toraytirmoqdamiz va kamaytirmoqdamiz. Ozodlikning cheklanishi odamlar o’rtasidagi qarama-qarshiliklardan kelib chiqadi. Odamlarning erkinlik va bo’sh vaqlarga individual munosabati darajasi shaxs tomonidan qo’ylgan ijtimoiy majburiyat shaklida bo’ladi.

Bo’sh vaqtning tarkibini tahlil qilar ekanmiz ikkita asosiy jihatni ko’rishimiz mumkin. Bular *ijtimoiy imkoniyat* va *individual ehtiyoj*. Ikki tarkibiy elementning birligi bo’sh vaqtning mohiyatini ochib beradi. Jamiyat insonga erkin va yaxlit harakat qilish imkoniyatini taqdim etadi. Garchi bo’sh vaqt ijtimoiy hodisa sifatida ilm-fan nuqtai nazariga faqat XIX-asrga kirgan bo’lsa-da, ammo bu haqda aniq tasavvur antik davorda mavjud bo’lgan.

Qadimgi bayramlar, marosimlarda odamga hayot odatiy hayot tarziga kirmasligini, balki insonni o’ziga singdiradigan va darajaga ko’taradigan mehnatkash odatdagi erkin tantanalar bilan to’ldirilishini eslatib turardi. Bayramlar hayotga, ritmiga va takroriy kunlarning shiddatliligi sharoitida tartibga keltirdi. Bu vaqt davomida tabiat tomonidan inson tomonidan qabul qilingan, u moddiy yashash sharoitlarini yaratish uchun kurashga emas, balki hayotning o’ziga bag’ishlangan.

Bo'sh vaqtning paydo bo'lishi shuni ko'rsatadiki, odam u erda vaqtini, keyin qaerda va qachon vaqt farqiga duch kelishini payqay boshlaydi. Vaqtning o'zgarishi turmush tarzidagi o'zgarishlarga to'g'ri keladi, aniqrog'i, hayotning yangi xususiyatlari sezilarli bo'lganda vaqtning xususiyatlari sezilarli bo'ladi. Ushbu ikki nuqta allaqachon bolalar psixologiyasida aniq kuzatilgan. Agar kun va tunning o'zgarishi haqidagi g'oyalar juda erta paydo bo'lsa, unda yosh tushunchasi yosh farqini his qila boshlaganda paydo bo'ladi va soat hali ham soatning o'zi yoki uzoq vaqt davomida bolalar teledasturlari bilan bog'liq. Ammo vaqt mustaqil ma'noga ega bo'lib, faqat o'zining bo'sh vaqtin inson uchun qiymat xususiyatiga ega bo'ladi.

Vaqtini bo'shatish favqulodda ehtiyoj, dam olish haqiqiy hayot deb tan olingen. Ammo insoniyat jamiyatining tarixi shundan iboratki, insonning shaxsiy ehtiyojlari har doim ham jamiyat ehtiyojlariga javob bermaydi va bo'sh vaqt shaxsga to'liq hajmda beriladi. Qadimgi qabila birlashmalariga asoslangan inson hayotining ijtimoiy tabiatini insonning bo'sh vaqtidan foydalanish va shakllantirishga muhim o'zgartirishlar kiritadi. Bu birinchi navbatda, ishlab chiqarishni ijtimoiy tashkil etishga odamlarni jalb qilish bo'sh vaqt muammosini ijtimoiy ishlab chiqarish ehtiyojlariga bog'liq qilib qo'yanligi sababli ro'y beradi. Shaxs va jamiyat, ijtimoiylashuv va shaxsiyat o'rtasidagi qarama-qarshilik bo'sh vaqt tarkibiga kiradi, vaqtning inson hayoti va uning muammolari bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydi.

Zamonaviy sharoitda bo'sh vaqt va hordiq ommaviy foydalanish mumkin bo'lgan madaniy boylikka aylanmoqda. Kasbiy faoliyatning aksi bo'lib, hordiq chiqarish inson hayotining alohida qadriyatiga aylanadi.

### **Adabiyotlar**

1. Орлов А.С. Социология рекреации. М.: Наука, 1995. С. 61.
2. Лит Мир. Электронная библиотека. [Электронный ресурс]. URL: <http://www.litmir.net/br/?b=212757&p=4> (дата обращения: 05.11.2014).
3. Соколов А.В. Феномен социально-культурной деятельности. СПб.: СПбГУП, 2003. С. 95.

**UDK 301.080**

## **YOSHLARNING KASB TANLASHINING TO'G'RI SHAKLLANISHIDA SHARQ ALLOMALARI QARASHLARINING ZARURATI**

**N. Q. Zaretdinova**

*Qoraqalpoq davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Respublikamiz oilalaridagi farzandlarning ota-onalar tomonidan beriladigan tarbiyasi, xunar egallashi, kasb tanlashi, shuningdek buyuk allomalarimizning pandu-nasihatlari haqida ma'lumotlar berilgan. Yoshlarning kasb tanlashining tug'ri shakllanishida sharq mutafakkirlarining qarashlaridan foydalanish mumkunligi, har bir voyaga etgan shaxsning bir yoki bir nechta hunar turlarini bilish zarurati, bolalarimizni kichkinaligidayoq kasb turlari bilan tanishtirib borish va davlatimiz tomonidan amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalarning ahamiyati haqida to'qtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** oila, farzand, yoshlar, hunar, kasbga yo'naltirish, kasb tanlash, sotsiologiya, buyuk allomalarimiz.

### **Необходимость взглядов восточных учёных в правильном формировании профессии отбора молодёжи**

**Аннотация.** В данной статье представлена информация о воспитании, овладении профессиями, выборе профессии, а также взгляды великих ученых на данную проблему. Отмечено, что в правильном выборе профессии можно использовать взгляды восточных мыслителей и необходимость ознакомления детей различными видами профессий.

**Ключевые слова:** семья, ребенок, молодежь, профессия, профессиональная ориентация, выбор профессии, социология.

### **The need for the views of Eastern scientists in the correct formation of the profession selection of young people**

**Abstract.** This article provides information about education, mastering professions, choosing a profession, as well as Pandu-instructions of great scientists provided by parents to children from families of our Republic. It was noted that the views of Eastern thinkers can be used in the correct formation of professional choice of young people, it is necessary to know one or more types of professions of each adult, to acquaint our children with small types of professions and to solve tasks that should be performed by the state.

**Keywords:** family, child, youth, profession, professional orientation, choice of profession, sociology.

Kasb tushunchasi tarixan vujudga kelgan, mehnat faoliyatining barqaror shakllari, bunda shaxs ma'lum nazariy bilim va amaliy tajribaga, ko'nikmaga, alohida qobiliyatlarga va kasbiy muhim fazilatlarga ega bo'lishi

Xususan, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘n bir yoshli bolalar orasida 11% o‘g‘il bolalar va 8% qiz bolalar kiberbullying texnologiyalari orqali xo‘rlanadi, bundan tashqari, ular turli axborot manbalari orqali oyiga kamida 2-3 marta haqorat qilinadi. Mazkur tashkilot tomonidan o‘rganilgan 42 mamlakatda har oyda o‘rtacha 3-4% bolalar kiberbullying orqali onlayn ta’qib qilingan [5].

Shuningdek, Rossiya Federatsiyasida olib borilgan tadqiqot natijalari maktab o‘quvchilarining o‘rtacha 10% qismi Internetdagi tazyiqlardan aziyat chekishi aniqlandi. Mazkur ko‘rsatkich Yevropada 6 % ga teng.

**Sotsial injeneriya texnologiyalari** – shaxsga texnik vositalardan foydalanmagan holda ta’sir ko‘rsatish texnologiyalari bo‘lib, unda inson omili bilan bog‘liq kuchsiz tomonlardan mohirona foydalanishga asoslanganligi sababli shaxsga ta’sir qilishda katta natijadorlikka ega. Mazkur texnologiyalarning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyati shundaki, axborotdan qonuniy asosda foydalangan holda shaxsga axborot orqali turli darajada ta’sir ko‘rsatish imkoniyati mavjud. Bundan tashqari, ushbu texnologiyalardan foydalangan holda shaxsni ma’lum yo‘nalishda shakllantirib borish mumkin.

Bugungi kunda internet orqali sotsial injeneriya texnologiyasidan foydalangan holda turli darajadagi yopiq xarakterdagi ma’lumotlar yoki ijtimoiy ahamiyat va qiymatga ega bo‘lgan axborotlar olinmoqda.

Sotsial injeneriya texnologiyasini terminologik tahlil qiladigan bo‘lsak, ushbu tushuncha sotsiologik fanlar doirasida ilmiy muomalaga kiritilgan bo‘lib, amaliy ijtimoiy fanlar doirasida maqsadli tarzda shaxs turmush tarzi va xulqini aniqlash, nazorat qilish, shakllantirib borish, yo‘nalishlari foydalаниlib kelingan. Axborot-psixologik xavfsizlik sohasida mazkur texnologiya nisbatan yangi va zamonaviy xarakter kasb etib, XXI asr boshida sobiq kompyuter jinoyatchisi, kompyuter xavfsizligi bo‘yicha maslahatchi Kevin Devid Mitnik tomonidan ommalashтирilgan.

Mazkur texnologiya kognitiv asosda faktlarni buzib ko‘rsatishga asoslanadi va shu orqali shaxsga axborot-psixologik ta’sir ko‘rsatibgina qolmasdan unga ma’lum bo‘lgan ma’lumotlarni jumladan maxfiy xarakterdagi ma’lumotlarni ham qo‘lga kiritish imkoniyatini beradi.

Sotsial injeneringga asoslangan texnologiyalardan biri **fishing** (ing. *phishing*) bo‘lib u Internet firibgarligiga asoslanadi. Fishing texnologiyasi orqali xavotir va tashvish uyg‘otadigan xabarlar yoki internet foydalanuvchisiga tegishli bank hisob raqamlari, ijtimoiy tarmoqlardagi ma’lumotlari asosida shaxsga ta’sir ko‘rsatadigan taxidilli xabarlar jo‘natiladi. Bugungi kunda fishing texnologiyasi kompyuter tarmog‘i bilan bir qatorda telefon tizimida ham amalga oshirilmoqda. Xuddi shu mexanizm asosida ishlovchi **telefon frikingi** ( ing. - *phreaking*), **preteksting** (ing. - *pretexting*), **kvid pro kvo** (*lotincha - Quid pro quo*) kabi ta’sir texnologiyalari mavjud.

Sotsial injeneringga asoslangan texnologiyalardan foydalanuvchi shaxslar zarur darajada psixologik va sotsiologik bilimlarga ega bo‘lib, shu orqali ijtimoiy tarmoqlarda faol kuzatib boradi va shaxs bilan bog‘liq ma’lumotlarni to‘plab, tahlil qilib boradi. Jumladan, «livejournal», «Odnoklassniki», «VKontakte» «Facebook» kabi tarmoqlardan faol foydalangan holda dastlab shaxs to‘g‘risida ma’lumotlar olinib so‘ngra uning xarakteri va o‘ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda axborot-psixologik ta’sir ko‘rsatish holatlari ko‘paygan.

Umuman olganda, O‘zbekistondagi Internet-foydalanuvchilarni axborot-psixologik tahdidlardan himoya qilish choralarining samarasizligi virtual makonda noaniq tarkib rivojlanib borayotganligi, uni tartibga solishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlari to‘la yaratilmaganligi bilan bog‘liqdir. Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- O‘zbekistonda axborot xavfsizligining yagona konseptual bazasini ishlab chiqish va amaliyatga joriy qilish;
- davlat siyosatini axborot bilan ta’minalash mexanizmini takomillashtirish va blogerlar faoliyatini tartibga solish;
- davlat organlari matbuot xizmatlariga yetuk kadrlar tayyorlash va ularning hamkorlik mexanizmini yaratish;
- media-ta’lim va ijtimoiy media sohasini rivojlantirish;
- milliy fakecheching platformasini yaratish.

### Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning “O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Oliy Majlis va Qonunchilik palatasi a’zolariga yo‘llagan Murojaatnomasi”dagi nutqidan. Toshkent shahri, 2017 yil 22 dekabr.
2. Izdaniye ICTNEWS. Infografika Mir sotsialnih setey. Novostnaya statya. – URL - <https://ictnews.uz/31/05/2019/socnetwrld/>

3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.
4. O'zbekiston Respublikasi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalarni rivojlantirish vazirligi ma'lumotlari.
5. Griffiths M. Online computer gaming: Advice for parents and teachers. // Education and Health. – 2017. - № 64(1), rp. 3–6.

**UDK 35.086:338(575.1)**

**O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHIDA RAHBAR VA BOSHQARUV  
KADRLARIKA QO'YILAYOTGAN TALABLAR**

**M. U. Atamuratov**

*I.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti  
atamuratov78@rambler.ru*

**Annotasiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston taraqqiyotini yangi bosqichga ko'tarishda rahbar va boshqaruv kadrlarining roli, ularning siyosiy faolligini oshirishdagi obyektiv va subyektiv shart-sharoitlar, omillar tahlil etilgan. Maqolada O'zbekistondagi shiddat bilan kechayotgan yangilanish jarayonlari boshqaruv kadrlarining bilim va ko'nkmalarini o'zgarayotgan sharoitlarga moslashtirish, ularning professional rivojlanishiga yangicha yondashish, rahbar va boshqaruv kadrlarining mas'uliyati va shaxsiy javobgarligi, siyosiy faolligi muammosi, ular zimmasiga qo'yilayotgan talablar va uning o'ziga xos qonuniyatlarini amaliyotga joriy etish kabi masalalar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** modernizasiya, kadrlar malakasi, "rahbar va boshqaruv kadrlari", ijtimoiy tizim, boshqaruv mahorati, zamoniaviy boshqaruv usuli, kompetentlik, "davlat xizmati", industriallashtirish, rivojlanayotgan mamlakatlar, liberalallashtirish, demokratik usullar, strategik fikr yuritish, nomarkazlashtirish, Korporativ boshqaruv, innovasiya, siyosiy huquq va ijtimoiy-siyosiy muvozanat.

**Требования к руководящим и управленческим кадрам на новом этапе развития Узбекистана**

**Аннотация.** В данной статье анализируется роль руководящих и управленческих кадров в развитии Узбекистана, объективные и субъективные условия, факторы повышения их политической активности. Освещены такие проблемы, как интенсивные изменения в Узбекистане, направленные на адаптацию знаний и навыков управленческих кадров к изменяющимся условиям, новый подход к их профессиональному развитию, вопросы компетентности и личной ответственности руководящих и управленческих кадров, проблема повышения их политической активности и реализации специфических закономерностей.

**Ключевые слова:** модернизация, квалификация кадров, «руководящие и управленческие кадры», социальная система, управленческая компетентность, метод современного управления, компетенция, «государственная служба», индустриализация, развивающиеся страны, либерализация, демократические методы, стратегическое мышление, децентрализация, корпоративное управление, инновации, политическое право и социально-политическое равновесие.

**Requirements for leading and managerial personnel at a new stage in the development of Uzbekistan**

**Abstract.** This article analyzes the role of leading and managerial personnel in raising and developing Uzbekistan to a new level, objective and subjective conditions, factors for increasing their political activity. The article highlights such problems as intensive changes in Uzbekistan aimed at adapting their knowledge and skills of management personnel to changing conditions, a new approach to their professional development, issues of competency and personal responsibility of leading and managerial personnel, the problem of increasing their political efficiency and implementation of specific laws.

**Keywords:** modernization, personnel qualifications, "leading and managerial personnel", social system, managerial competency, modern management method, competency, "public service", industrialization, developing countries, liberalization, democratic methods, strategic thinking, decentralization, corporate governance, innovation, political law and socio-political balance.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida davlat va jamiyat hayotida ro'y berayotgan tub o'zgarish va islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, avvalambor, mustahkam bilimga ega, O'zbekistonning bugungi tashqi va ichki siyosati yo'nalishlarini tushunadigan, tahlil qila oladigan, unda o'zi ham faol ishtiroy eta oladigan tashabbuskor kadrlarga bog'liqligini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. Yangilanayotgan O'zbekistonda zamoniaviy jamiyat jadal sur'atlar bilan taraqqiy etayotgan ijtimoiy

jarayonlarni qamrab olar ekan, mas'ul lavozimlarda faoliyat ko'rsatayotgan rahbarlar zimmasiga murakkab va mas'uliyatli vazifalarni yuklamoqda.

Davlat hokimiyati va boshqaruviga doir qabilingan qonunlar va me'yoriy-huquqiy hujjatlar rahbar va boshqaruv kadrlarini tanlash tizimining yangicha asoslarida, shakllarida va yo'nalishlarida qaror topishiga olib keldi. Bu davlat instituti mohiyati o'zgaganligi va taraqqiyotning yangi bosqichida jamiyat siyosiy tizimi yangidan shakllanganligi bilan bog'liq. Ushbu siyosiy jarayonlar rahbar va boshqaruv kadrlarining mas'uliyatini oshirish bilan bir qatorda, ularning xizmat faoliyati doirasidagi vakolatlarini kengaytirish, mas'uliyat va shaxsiy javobgarliklarini oshirish tizimini joriy etishga hamda fuqarolik jamiyatni institutlarini shakllantirish va rivojlanishiga alohida e'tibor qaratishni taqozo etadi.

Shu bois muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev boshqaruv kadrlari yuqori darajadagi professional va boshqaruv sifatlarga ega bo'lismi lozimligiga alohida e'tibor qaratmoqda. Yurtboshimizning fikricha, professionalizm boshqa mezonlarga nisbatan ish va faoliyat bilan bog'liq eng asosiy mezon hisoblanib, unga asosan shaxsnинг kompetentligi, omilkorligi, ya'ni o'z ishini puxta va sifatlari bajarishi, har bir yo'nalishda yuqori tejamkorlikka hamda samaradorlikka erishishni nazarda tutuvchi fazilatdir.

Hozirgi globalashuv sharoitida boshqaruv kadrlaridan talab etilayotgan fazilatlar har bir ishga mas'uliyat bilan yondashish, o'ziga, millatiga, yurt ravnaqiga ishonch va yuksak hurmat tuyg'usiga ega bo'lismi, o'z atrofida sog'lom fikrlovchi, izlanuvchan, tadbirkor va ishbilarmon kishilarni jalb etishdan iboratdir. Shuningdek, rahbarlarga qo'yilgan yana bir talab ularning qobiliyatli, insofli va diyonatli bo'lismi lozimligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, "...haqiqiy rahbar, haqiqiy yetakchi odamlarning bardoshini sinash uchun emas, balki ularga munosib shart-sharoit yaratib berish, og'irini yengil qilish uchun rahbar etib tayinlanadi. Barcha bo'g'indagi rahbarlar o'zining odob-axloqi va madaniyati bilan hammaga o'rnat va namuna bo'lismi zarur" [1].

O'zbekistondagi shiddat bilan kechayotgan yangilanish jarayonlari boshqaruv kadrlarining bilim va ko'nikmalarini o'zgarayotgan sharoitlarga moslashtirish, ularning professional rivojlanishiga yangicha yondashishni talab etmoqda. Shu jihatdan olib qaraganda, bugungi rahbar o'ziga yuklatilgan vazifalarni amalga oshirishda chuqur bilimga, yuksak salohiyatga, mamlakatning istiqboli to'g'risida yangicha fikrlash qobiliyatiga, axborot-kommunikasiya texnologiyalar sohasida yetarli darajada bilimga ega bo'lismog'i zarur. Shuningdek, undan yetuk shaxs, jamoaning samarali faoliyat yuritishi va rivoj topishiga ko'mak beruvchi hamda unda hukm surayotgan qadriyatlarga sodiq jamoa a'zosi, uning manfaatlarini himoya qiluvchi xodim, ta'lum-tarbiya beruvchi, yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, sog'lom muhit yaratuvchi, axloqiy fazilatlarga boy ustoz, zamon talablariga javob beradigan, o'z kasbini puxta egallagan, mahorati takomillashtirilgan, doimo izlanuvchan va intiluvchan mutaxassis, qat'iy irodali rahbar bo'lismi talab etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev Oliy Majlisiga Murojaatnomasidagi "Bugun hayotning o'zi bizdan professional, tezkor va samarali davlat xizmati tizimini shakllantirish, yangicha fikrlaydigan, tashabbuskor, el-yurtga sadoqatli kadrlarga keng yo'l ochish bo'yicha samarali tizim ishlab chiqishni talab etmoqda", [2] degan konseptual fikri rahbar va boshqaruv kadrlar tizimining shakllanishini ilmiy-amaliy jihatdan tadqiq etish lozimligini ko'rsatadi.

Bu davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimidagi siyosiy institutlar o'zgarishi, O'zbekiston jamiyatni ijtimoiy hayotini siyosiy institutlar hamda mafkuralar xilma-xilligiga asoslana boshlaganligi bilan bevosita bog'liq. Endi yangilanayotgan O'zbekistonga yangi avlod boshqaruv kadrlari ana shu yangicha talablarga, tamoyillarga javob bera oladigan, rahbarlik va boshqaruv mahoratiga, mustaqil tafakkurga hamda yangicha dunyoqarashga ega bo'lismi taqozo etadi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Hayotning o'zi va xalqning talablari bizning oldimizga amaliy yechimini topish lozim bo'lgan yangi va yanada murakkab vazifalarni qo'ymoqda" [3]. Hayot sur'atlarining beqiyos tezlashuvi yoki globalashuvi rahbar mas'uliyatini yanada oshiradi. Rahbar yuqori darajada iqtisodiy, madaniy, ma'naviy, huquqiy, diniy, siyosiy bilimlarni egallagan bo'lismog'i lozim. Aks holda o'zi boshqarayotgan idoranining ham iqtisodiy, ham ma'naviy tanazzuliga sababchi bo'lib qolishi mumkin.

Bugungi rahbarning yana bir muhim jihatni uning ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish qobiliyatidir. Agar rahbar o'z jamoasidagi xodimlar bilan namunalni muomalaga kirishmasa, kezi kelganda kechirimli bo'lmasa, boshqaruvda muammoga duch kelishi tabiiy hol. Haqiqiy rahbar xalq va jamiyat manfaatlari yo'lida o'z huzur-halovatlaridan voz kechadi, bu yo'lida butun vujudini, hayotini, kerak bo'lsa jonini bag'ishlaydi. Rahbar o'z faoliyati davomida jamiyat taraqqiyotiga g'ov bo'lib turgan korrupsiya, mahalliychilik, oshna-og aynigarchilik, qarindosh-urug'chilik kabi illatlarga yo'l qo'ysa, bunday holatlarga murosasiz bo'lmasa ko'zlagan ezgu maqsadlarimizga erisha olmaymiz.

O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatni qurish maqsadlariga mos rahbar va boshqaruv kadrlarini tayyorlash tizimini shakllantirish borasida muhim amalga oshirilayotgan

o'zgarishlar o'ziga xos tendensiyasiga ega. Ushbu tarixiy jarayonning samarali kechishi, shubhasiz, o'z kasbiga sodiq, vatanparvar, salohiyatladi kadrler faoliyatiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi.

O'zbekistonda rahbar va boshqaruv kadrler tayyorlash tizimini modernizasiyalash sohasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Bu jamiyatda rahbar va boshqaruv kadrler tizimining yangicha asosda tashkil etilishiga sharoit yaratib berilganligi bilan bog'liq. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da belgilab berilganidek, rahbar kadrler tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasining tashkiliy, o'quv va ilmiy-amaliy faoliyatini zamon talablari darajasiga moslashtirish, davlat boshqaruvi va jamiyat qurilishining hozirgi bosqichi uchun zarur bo'lgan bilimli, dunyoqarashi keng, fidoyi, kompetentli, tashabbuskor, sodiq, vatanparvar kadrлarni tarbiyalab voyaga yetkazishga xizmat qilishi bilan izohlanadi. Shu bois rahbar va boshqaruv kadrлari tayyorlash mamlakatning milliy-ma'naviy va demokratik xususiyatlariga tayangan holda amalga oshirila boshlandi. Bu jarayon kadrler tayyorlash tizimining yangilangan milliy g'oya asosida, ya'ni rahbar va boshqaruv kadrлarining dunyoqarashini, ong va tafakkurini yuksaltirish hamda mustaqillik va demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatni talablariga javob beradigan institusional tizimini shakllantirish va uni doimiy ravishda modernizasiyalash ishlarining keng ko'lama amalga oshirilishi zaruriyati bilan bog'liq.

Shu nuqtai nazardan O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida zamon talablariga javob beradigan yangi rahbar va boshqaruv kadrler tizimini yaratishga har qachongidan ko'proq ehtiyoj sezmoqda, desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Bu mamlakatda rahbar va boshqaruv kadrлari tizimining yangilanishi:

1) Davlat manfaatlari ustuvorlik tamoyillaridan voz kechish, uning o'rnida davlatning bosh islohotchilik rolini oshirish natijasida inson manfaatlari ustuvorligi tamoyiliga o'tishni anglatdi.

2) Jamiyatning iqtisodiy negizida davlat mulki yagonaligiga barham berildi va bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan mulkning xilma-xilligi e'tirof etildi. Xususiy mulk tan olindi va qonun bilan himoya qilinadigan bo'lди. Bu rahbar va boshqaruv kadrler tizimining yangilanish va modernizasiyalashishiga iqtisodiy asos bo'lib xizmat qildi.

3) Davlat hokimiyatni institutlari qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatining maqsadi mamlakatda inson huquq va manfaatlari ustuvorligi hamda fuqarolik jamiyatini qurishda kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatni konsepsiyasiga o'tish asoslari belgilab olindi. Rahbar va boshqaruv kadrлarining faoliyati ham ana shu maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltirildi va uning talablariga javob beradigan yangi boshqaruv kadrлarini tayyorlashga qaratilgan demokratik islohotlar amalga oshirildi.

4) O'zbekiston jamiyatni ijtimoiy hayoti asoslari tubdan o'zgartirildi va yangicha asosga o'tkazildi. Bu rahbar va boshqaruv kadrлardan ana shu yangicha asosga mos keladigan bilim, ko'nikma va malaka, dunyoqarash, ong va tafakkur ko'nikmalarni to'liq o'zlashtirishni birinchi o'ringa chiqaradi. Albatta, uni o'zlashtirish va amalga oshirish oson bo'lgani yo'q. Bu siyosiy institutlar hamda mafkuralar va fikrlar xilma-xilligiga asoslangan yangicha usuldagagi rahbarlik va boshqaruvni amalga oshirishni talab etadi, shuningdek, kadrler zimmasiga yangi talablar qo'yanligi bilan xarakterlanadi. Rahbar va boshqaruv kadrлarda "Ozod shaxs, rahbar shaxsga xos bo'lgan mustaqillik tafakkuri bilan bog'liq fazilatlarni shakllantirishni taqozo etdi". Ushbu jarayonning o'zlashtirilishi ham rahbar va boshqaruv kadrлari toifalarini o'rtasida oson kechmaganligi isbot talab etmaydigan haqiqat bo'lib, mamlakat istiqboli va kelajagini yaratish ularning zimmasiga yuksak ma'naviyatga ega bo'lish va "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan dasturiy g'oyaga og'ishmay amal qilish talabini qo'yadi. Bu milliy va umuminsoniy manfaatlarni uyg'un ko'rishni va har bir rahbardon o'zi yonib va o'zgalarni ham yondirib yashashi, faoliyat ko'rsatishi zarurligini talab qiladi.

Rahbar va boshqaruv kadrler tizimidagi o'zgarishlar O'zbekistonda o'z negizida rivojlana boshlaganligi bilan bevosita bog'liq. Bu holat davlat hokimiyatni va boshqaruvni sohasidagi institutlar o'zgarib va takomillashib borishiga olib keldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev joriy yil 24 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida biz, O'zbekistonning rivojlangan mamlakatga aylantirishni maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bunga faqat jadal islohotlarni amalga oshirish, ilm-ma'rifat va innovasiyani keng ravnaq topshirish bilan erisha olamiz. Buning uchun, avvalambor, tashabbuskor islohotchi bo'lib maydonga chiqadigan, strategik fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrлarini tarbiyalashimiz zarur. Shuning uchun ham bog'chadan boshlab oliy o'quv yurtigacha – ta'limning barcha bo'g'inlarini isloh qilishni boshladik. Nafaqat yoshlар, balki butun jamiyatimiz a'zolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun jamiyatda, avvalambor, ilm-ma'rifat, yuksak ma'naviyatni shakllantirish va rivojlantirish lozim. Ilm yo'q joyda qolqolik, jaholat va albatta, to'g'ri yo'ldan adashish bo'ladi. Sharq donishmandlari aytganidek, "Eng katta

boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir!”. Shu sababli hammamiz uchun zamonaviy bilimlarni o’zlashtirish, chinakam ma’rifat va yuksak madaniyat egasi bo’lish uzlusiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak. Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo’lidan borish imkoniyatini beradi, deb ta’kidlagan edi [4].

“Davlat idoralarining xalq uchun ishlash kerak” degan muhim tamoyil rahbar va boshqaruv kadrlarining faoliyatini konstitusiya asosida yangicha amalda tashkil etishni taqozo etmoqda. Shu bois, muhtaram Prezidentimizning ko’rsatmasiga binoan rahbar va boshqaruv kadrlari ko’proq xalq bilan muloqot qilib, ularning muammolarini bevosita joyida hal etish choralarini ko’rmoqda. Rahbar va boshqaruv kadrlari zamonaviy axborot-kommunikasiya yutuqlaridan, elektron hukumati tizimlaridan hamda davlat xizmati agentligi sohasida tashkil etilayotgan xizmat ko’rsatish vositasidan o’z faoliyatini tashkil etishda keng foydalanishi ularning ish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Davlat hokimiyatini nomarkazlashtirish mahalliy hokimliklarning vakolatlarini kengaytirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlar rahbar va boshqaruv kadrlar tizimining yanada modernizasiyalashish jarayonlari amalga oshayotganligidan dalolat beradi.

Yangi O’zbekistonni vujudga keltirish siyosatining amalga oshirilishi rahbar va boshqaruv kadrlari oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo’ydi. Ushbu vazifalar ijrosini ta’minalash uchun rahbar va boshqaruv kadrlar tayyorlash tizimini qaytadan shakllantirish talab etildi.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Oldimizga qo’yan maqsad-muddaolarga yetish uchun bu ishlarni o’zimiz qilmasak, boshqa hyech kim bizga chetdan kelib qilib bermaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, kadrlarning amaliy zahirasini shakllantirish, ularni tayyorlash va qayta tayyorlashning muhim masalalarini o’z ichiga oladigan maqsadli dasturni ishlab chiqish vaqt keldi, deb o’ylayman”.

Asosiy vazifa – bu yuqori kasb mahorati va zamonaviy tafakkurga ega, puxta o’ylangan, mas’uliyatli va javobgarlikni his etadigan, har tomonlama to’g’ri qarorlar qabul qila oladigan, belgilangan maqsadlarga erishadigan, fidoyi rahbarlar va mansabdor shaxslarning yangi tarkibini shakllantirishdan iborat.

Bu borada hududiy boshqaruv organlari, eng avvalo, mamlakatimiz tuman va shaharlari hokimliklari uchun malakali kadrlar tayyorlashga alohida e’tibor qaratishi zarur. Buning uchun oliy ta’lim muassasalari tizimi bilan birga, mamlakatimizdagi 6 ta akademiya, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Korporativ boshqaruv ilmiy-ta’lim markazi kabi tashkilotlarning ilmiy-amaliy salohiyati va imkoniyatlarini yanada faol safarbar etish darkor. Ayni vaqtida mahalliy hokimliklarning vazifa va vakolatlarini ham takomillashtirish talab etilmoqda.

Hududlarni har tomonlama rivojlantirish, ijtimoiy-iqtisodiy dasturlarni amalga oshirish, qonunlar ijrosini ta’minalash, joylardagi davlat boshqaruvi organlari faoliyatini samarali muvofiqlashtirish borasidagi rolini hisobga olib, bugungi kunda mahalliy hokimliklarga qo’shimcha vakolatlar berish borasida tegishli takliflar tayyorlanmoqda” [5].

Yangi boshqaruv strukturasini vujudga keltirish, boshqaruv tizimida ishlaydigan kadrlarga, ularning kasbiy tayyorgarligiga yanada yuqori talablar qo’yadi. Hozirgi zamon boshqaruv kadrlari, menejerlari yuqori kasbiy mahoratga ega bo’libgina qolmay, balki har jihatdan ma’lumotli, o’z sohasining bilimdoni, tashabbuskor, topshirilgan ish uchun jon kuydiradigan, muammolarni hal qilishga ijodiy yondashadigan intellektual xodim, eng muhimi, Vatanning chinakam fidoyilarini bo’lishlari lozim.

Boshqaruv kadrlarini tayyorlash tizimi statistik va dinamik kichik tizimlardan tashkil topadi.

Boshqaruv kadrlar tayyorlash tizimiga quyidagi elementlar kiradi:

- 1) kadrlarga oid siyosat;
- 2) kadrlarga qo’yiladigan talablar;
- 3) kadrlarning shtat-lavozim tuzilmasini tarkib toptirish;
- 4) kadrlarni tanlash va boshqaruv komandasini shakllantirish;
- 5) kadrlarga baho berish (attestasiya) tizimi.

Kadrlar tayyorlash tizimini tashkil etish shu bilan yakunlanadi va navbatdagi bosqich – boshqaruv kadrlarining faoliyati bosqichi uchun barcha shart-sharoitlar yaratiladi.

Xulosa qilib aytganda, **birinchidan**, yangilanayotgan O’zbekistonda davlat va jamiyat boshqaruvi sohasida amalga oshirilayotgan demokratik o’zgarishlar ijtimoiy hayat sohalarining tubdan o’zgarishiga asos bo’lmoqda. Mukammal va samarali boshqaruv tizimini yaratish esa har bir rahbar va boshqaruv kadrlariga yangicha talablarni qo’ymoqda.

**Ikkinchidan**, bugungi rahbar va boshqaruv kadrlari o’z mutaxassisligi bilan bog’liq bo’lgan bilimi davlat va jamiyat boshqaruvi sohasida rahbarlikni amalga oshirish uchun yetarli emas. Zamon esa ularidan tegishli sohalar bo’yicha rahbarlik va boshqaruv mahoratiga, muammolarni o’z vaqtida hal qilib, ularning

oqibatlarini bartaraf etish qobiliyatiga, ochiqlik va hisob berish mas'uliyatiga, yuqori darajadagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish zaruriyatini talab qilmoqda.

**Uchinchidan**, bugungi rahbar va boshqaruv kadrlari "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" dasturiy g'oya to'g'risida va umummilliy manfaatlar, mamlakatning istiqboli to'g'risida yangicha fikrashi, yangi g'oyalalar hamda rahbar kadrlar yangicha ong va tafakkurning jamiyat rivojlanishini ta'minlashda muhim omil ekanligini chuqur anglashini taqozo etmoqda.

**To'rtinchidan**, bugungi rahbar va boshqaruv kadrlari tizimining modernizasiyalashishi kadrlarda tashabbuskorlik ko'rsatish, islohotchi bo'lib maydonga chiqish, strategik fikr yuritish, ilg'or g'oyalarni qo'llab-quvvatlash, zamonaviy boshqaruv usullarini qo'llashda texnologiyalar hamda axborot-kommunikasiya tizimlaridan keng foydalanishni talab qilmoqda.

**Beshinchidan**, bugungi kun doimiy ravishda izlanish, yangilik yaratish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Har bir rahbar va boshqaruv kadrlari o'zi mas'ul bo'lgan sohani o'rta va uzoq istiqbolda rivojlantirish bo'yicha aniq reja va dasturlarga ega bo'lishi, o'ziga ishonib topshirilgan sohada davlat siyosatini amalga oshirishni ta'minlashi va yakuniy natija uchun to'liq javobgarlik mas'uliyatini qalban his etishi shart.

**Oltinchidan**, bugungi zamonaviy rahbar vatanparvar bo'lmos'i, **halol-pok**, el-yurtga sodiq kadrlarni qo'llab-quvvatlashi va ularning davlat va jamiyat boshqaruvi sohasida faoliyat yuritishiga keng yo'l ochib berish fazilatiga ega bo'lmos'i kerak. Shundagina hayotimizda uchrab turgan ham rahbar, ham boshqaruv kadrlari faoliyati bilan bog'liq bo'lgan qusurlarning oldi olinadi. Zamoning rahbar va boshqaruv kadrlariga qo'yayotgan asosiy talabi ham ana shu g'oyada namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, rahbar va boshqaruv kadrlari yuqorida sanab o'tilgan yangicha talablarga, tamoyillarga javob berish mahoratiga hamda yangicha tafakkurga va dunyoqarashga ega bo'lishi shart. Negaki, ana shunday talablar asosida ish olib borish xalqimiz hayoti farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

### Adabiyotlar

1. Tartib-intizom va mas'uliyatni kuchaytirish, jinoyatchilikning oldini olish muhitini mustahkamlash – huquqbuzarlik profilaktikasi samaradorligining asosiy omili. // <http://aza.uz>. 15-11-2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // <http://aza.uz>. 22-12-2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. –T.: O'zbekiston, 2017. 10 bet.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020 yil 24 yanvar kuni Oliy Majlisga navbatdagi Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi, 25.01.2020 y. № 19 (7521) son. 2-bet.
5. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2016. 26-27-betlar.

**UDK: 94 (575.152)**

### YEVROOSIYO DIPLOMATIYASI"NI SHAKLLANTIRISH BORASIDA YAPONIYA FAOLIYATI

**G.M.Karimova**

*Bosh mutaxassis, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi  
gavaraxon@gmail.com*

**Annotasiya.** O'tgan asrning so'ngi choragida sodir bo'lgan voqealar – Sharqiy va G'arbiy Germaniyaning birlashishi, mafkuraviy qarama-qarshilikka asoslangan xalqaro munosabatlар tizimining intihosi, NATO harbiy bloki va Rossiya o'rtasida bitmning imzolanishi Yaponiya tashqi siyosatida o'zgarishlarga olib keldi. Bu o'zgarishlar Yaponiya tashqi siyosatida Osiyo-Tinch okeani mintaqasi yo'nalishi bilan bir qatorda yangi yo'nalish – Yevroosiyo yo'nalishining shakllanishiga turtki bo'ldi.

**Kalit so'zlar:** G'arbiy Germaniya, mafkuraviy qarama-qarshilik, NATO harbiy bloki, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi, B.Klinton, "Independens", "Nimis", Bosh Vazir Ryutaro Xashimoto, "Asahi Shimbun", Sovet Ittifoqi, yoqilg'i-energetik, Yutaka Akino, NATO Madrid sammiti, "Ipak yo'li faoliyati rejası", "Markaziy Osiyo + Yaponiya", "Sovuq urush", "Xashimoto-Yelsin rejası", Obuchi Keydzo, ASEAN + 3, XXR Bosh vaziri Chju Junszi, Yosiro Mori, Kurill orollari, Yasukuni ibodatxnsasi, Xallyu fenomeni.

### Работа Японии по формированию «Евразийской дипломатии»

**Аннотация.** События последней четверти прошлого века - объединение Восточной и Западной Германии, конец системы международных отношений, основанной на идеологической конфронтации, подписание соглашения между военным блоком НАТО и Россией привели к изменению внешней политики Японии. Эти изменения привели к формированию нового Евразийского направления наряду с Азиатско-Тихоокеанским регионом во внешней политике Японии.

**Ключевые слова:** Западная Германия, идеологическое противостояние, военный блок НАТО, Азиатско-Тихоокеанский регион, Б. Клинтон, «Индепенденс», «Нимитц», премьер-министр Рютаро Хашимото, «Asahi Shimbun», Советский Союз, топливо-энергетический, Ютака Акино, Саммит НАТО в Мадриде, «План действий по Шелковому пути», «Центральная Азия + Япония», «Холодная война», «План Хашимото-Ельцина», Обучи Кейдзо, АСЕАН + 3, премьер-министр КНР Чжу Чжунци, Ёсиро Мори, Курильские острова, храм Ясукуни, феномен Халлю.

### Japan's work on the formation of "Eurasian diplomacy"

**Abstract.** The events of the last quarter of the last century - the unification of East and West Germany, the end of the system of international relations based on ideological confrontation, the signing of an agreement between the NATO military bloc and Russia - led to a change in Japan's foreign policy. These changes led to the formation of a new Eurasian direction as well as the Asia-Pacific direction in Japan's foreign policy.

**Keywords:** West Germany, ideological confrontation, NATO military bloc, Asia-Pacific region, B. Clinton, Independence, Nimitz, Prime Minister Ryutaro Hashimoto, Asahi Shimbun, Soviet Union, fuel and energy, Yutaka Aquino, NATO Madrid Summit, Silk Road Action Plan, Central Asia + Japan, Summer of Freedom and Prosperity, Cold War, Hashimoto-Yeltsin Plan, Obuchi Keizo, ASEAN + 3, Prime Minister - Minister of the People's Republic of China Zhu Zhongji, Yoshiro Mori, Kuril Islands, Yasukuni Temple, Hallyu phenomenon.

O'tgan asrning so'ngi choragida sodir bo'lган voqyealar – Sharqiy va G'arbiy Germaniyaning birlashishi, mafkuraviy qarama-qarshilikka asoslangan xalqaro munosabatlar tizimining intihosi, NATO harbiy bloki va Rossiya o'rtasida bitmning imzolanishi Yaponiya tashqi siyosatida o'zgarishlarga olib keldi. Bu o'zgarishlar Yaponiya tashqi siyosatida Osiyo-Tinch okeani mintaqasi yo'nalishi bilan bir qatorda yangi yo'nalish – Yevroosiyo yo'nalishining shakllanishiga turki bo'ldi.

XX asrning 90-yillarida AQShning XXR bilan munosabatlari o'ziga xos ravishda rivojlana bordi. Bir tomonidan, Xitoydagi iqtisodiy islohotlar, ikki tomonlama diplomatik aloqalarning rivojlanishi, xususan, 1998 yilda AQSh prezidenti B.Klintonning XXRga tashrifi, boshqa tomondan esa, 1996 yilda Tayvanda prezidentlik saylovlari davrida XXR-AQSh munosabatlarining keskinlashishi, ya'ni AQShning "Independens" va "Nimis" aviatashuvchi kemalarining Tayvan qirg'oqlariga yuborilishi, kabi jarayonlarni kuzatish mumkin [1]. Bu esa Yapon rasmiyalarini tashvishga solishi hamda AQShdan mustaqil ravishda siyosat olib borishlariga asos bo'ldi. Yaponiya Bosh Vaziri Ryutaro Xashimoto yuzaga kelgan holatni tinchlik va muzokaralar orqali hal etish zarurligi, joiz bo'lsa Yaponiya ikki tomonni murosaga keltirishda visitachilik vazifasini bajarishi mumkinligini bildirdi [2].

1996 yil aprel oyida Yaponiya va AQSh davlat rahbarlari uchrashuvida Ryutaro Xashimoto: "Munosabatlarni yaxshilash uchun har ikkala tomon o'z hissalarini qo'shishlari zarur", - degan fikrni yana bir bor ilgari suradi[3]. "Har ikkala tomon o'z hissalarini qo'shishlari zarur"ligi borasida Ryutaro Xashimoto Yaponiyaning XXR bilan diplomatik munosabatlarni mustahkamlash borasida o'z strategik qarashlari mavjudligini bildiradi. Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi aynan shu vaziyat "Yevroosiyo diplomatiyasi"ning tug'ilishiga sabab bo'ldi.

Yaponiya Bosh Vaziri Ryutaro Xashimoto AQSh va XXR o'rtasida harbiy mojaro yuzaga kelgan holatda Yaponiya AQSh pozisiyasini qo'llab-quvvatlashi haqida fikr bildirdi. Shu bilan birga u: "XXR iqtisodiyoti va qudratining katta sur'atlarda o'sishini inobatga olmaslik mumkin emas. Shu bois, biz Xitoy bilan aloqalarni yaxshilash uchun barcha imkoniyatlardan foydalanamiz va Yaponiya AQSh-XXR munosabatlarini keskinlashtirmaslikka harakat qiladi", - degan fikr bildiradi[4].

Ryutaro Xashimoto "Yevroosiyo diplomatiyasi"ning mohiyati mazkur mintaqada AQSh va XXR manfaatlari tutashganligida, Yaponiya esa o'z imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida mazkur jarayonda Rossiyadan foydalanadi. Ya'ni, Rossiyani Osiyo-tinch okeani mintaqasiga Yaponiya foydasiga jalb etish yotishini ilgari suradi. Ryutaro Xashimoto "Asahi Shimbun" nashriga bergan intervusida: "Men o'z e'tiborimni Rossiyaga qaratganidan faxrlanaman. Bu munosabat faqat shimoliy hududlar nuqtai

nazaridan qaralmasligi lozim. Men XXI asrda Xitoy va Hindiston Osiyoda yetakchilik uchun kurash olib borishlarini istamayman. Rossiya albatta Yaponiya tarafida bo'lishi o'ta muhimdir", - deb aytadi[5].

1997 yil iyul oyida Yaponiya Bosh Vaziri Ryutaro Xashimoto sobiq Sovet Ittifoqi davlatlari bilan munosabatlar tizimini o'z ichiga olgan "Yevroosiy diplomatiyasi" konsepsiyasini ilgari surdi[6]. Mazkur konsepsiada, birinchidan, Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqasining Rossiya va XXR o'rtaida joylashganligi, ikkinchidan, mintaqaning yoqilg'i-energetik zaxiralarga boyligi, uchinchidan, Afg'oniston va Tojikistondagi fuqarolar urushi, Markaziy Osiyodagi terroristik xurujlar, xususan, 1998 yilda Birlashgan Millatlar tashkilotining Tojikistondagi fuqarolik ishlari bo'yicha kuzatuvchilar missiyasi xodimi Yutaka Akinoning o'ldirilishi[7] kabi siyosiy masalalar o'z ifodasini topgan. Bu borada Yaponiya Xitoy Xalq Respublikasi va Koreya Respublikasidan e'tiborni uzmagan holda Rossiya, Yevropa davlatlari, Hindiston va Yaqin Sharq davlatlari bilan bir qatorda Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlikni chuqurlashtirish lozimligi ta'kidlab o'tildi[8].

"Yevroosiy diplomatiyasi" o'z ichiga 4 muhim jihatni qamrab oladi: 1. NATO Madrid sammitidan so'ng "Tinch okeani nuqtai nazaridan Yevroosiy diplomatiyasi" konsepsiysi. 2. "O'zaro ishonch", "o'zaro manfaatdorlik", "uzoq muddatlik istiqbol" omillari va ularni Rossiya va Yaponiya munosabatlarida "hududiy masala"lar borasida munozaralarda qo'llanilishi. 3. Rossiya va Xitoya nisbatan bo'lgan munosabatlarda ham "Ipak yo'li" diplomatiyasini ilgari surish. 4. Yaponiya, AQSh, Xitoy va Rossiya doirasida faol, maqsadli ishlarni olib borish[9].

Bu davrda Yaponiya "Yevroosiy diplomatiyasi" (1997 y.), "Ipak yo'li faoliyati rejasi" (1998 y.), "Markaziy Osiyo + Yaponiya" (2004 y.), "Erkinlik va farovonlik yoyi" (2006 y.) kabi qator tashabbuslarni ilgari surdi[10].

"Yevroosiy diplomatiyasi" 1990 yillardan 2000 yillargacha uchta Bosh Vazir davrida ishlab chiqildi. Mazkur g'oya dastlab Yaponiya Tashqi ishlari vazirligi Yevropa va Osiyo byurosi boshlig'i Kadzuxiko Togo tomonidan ishlab chiqilgan[11].

Ryutaro Xashimoto "Yevroosiy diplomatiyasi" haqida gapirar ekan, masalaning uch jihatiga e'tibor qaratadi: birinchidan, Yevroosiyodagi ikki qudratli davlat – Rossiya va Xitoy "Sovuq urush" tugaganidan so'ng yagona pozisiyada faoliyat olib bora boshladilar hamda birgalikda Yaponiya bilan iliq munosabatlar o'rnatish. Ikkinchidan, "Yevroosiy diplomatiyasi" Markaziy Osiyo va Kavkaz davlatlaridan o'tuvchi Buyuk ipak yo'li negizida amalga oshirish. Uchinchidan, Rossiya bilan munosabatlarda diplomatiyaning uchta tamoyili – "ishonch", "o'zaro manfaatdorlik" va "uzoq muddatlik istiqbol" asosida faoliyat yuritish[12].

Albatta mazkur takliflar Rossiya e'tiboridan chetda qolmaydi. 1997 yil noyabr oyida Rossiya prezidenti B.Yelsin va Yaponiya Bosh Vaziri Ryutaro Xashimoto Krasnoyarsk shahrida uchrashadilar va ikki tomonlama shartnomaga imzolaydilar.

1998 yilda Osiyo-Tinch okeani iqtisodiy hamdo'stligida Yaponiya tashabbusi bilan Rossiya ishtiroy etadi va "Xashimoto-Yelsin rejasi" doirasida iqtisodiy hamkorlik dasturi ishlab chiqiladi.

Shuningdek, hududiy masalalar borasida ham dastlabki qadamlar tashlanadi. 1998 yil aprel oyida Yaponianing Ito shahrida (Sidzuoka prefekturasi) Yaponiya-Rossiya sammitida "Chegaralarni demarkasiyalash borasida tinchlik shartnomasining imzolanishi haqida" masala ham ko'rib chiqildi. Biroq, Rossiyada moliyaviy inqirozning yuzaga kelishi hamda Rossiya prezidenti B.Yelsin sog'lig'inining yomonlashishi ko'zlangan rejalarining amalga oshmay qolishiga sabab bo'ldi. Shu bilan birga 1998 yilda Yaponiya Liberal-demokratik partiyasi saylovlarda yutqizib qo'yadi va Ryutaro Xashimoto hukumatdan ketishiga to'g'ri keladi.

1998 yil iyul oyida Yaponiya Bosh Vaziri lavozimini egallagan Obuchi Keydzo[13] (小渕恵三) Yaponiya AQSh va XXR o'rtaida qolib ketishi mumkinligi holatidan kelib chiqadi[14]. U o'z oldiga AQSh bilan munosabatlarini yomonlashtirmagan holda siyosat olib borishni rejalashtiradi.

1998 yil oktyabr oyida Koreya Respublikasi prezidenti Kim De Chjun Yaponiyaga tashrif buyuradi. Uchrashuv chog'ida "Yaponiya va Koreya Respublikasi o'rtaida qo'shma deklarasiya" imzolanadi va "ikki mamlakat tarixiy muammolarni hal qilganligi", "Yaponiya va Koreya Respublikasi yangi davrga qadam qo'yanliklari", ikki davlat o'rtaсидаги munosabatlar "oliy" darajaga ko'tarilganligi haqida bayonet berildi[15].

Yaponiya Bosh vaziri Obuchining Rossiya yo'naliishiga alohida e'tibor qaratgan bo'lsada, ushbu yo'naliishdagi siyosati yetarli darajada samarali bo'lmadi. 1998 yil noyabr oyida Obuchining Rossiyaga tashrifi chog'ida Rossiya prezidenti B.Yelsinning sog'lig'i yomonlashada va muzokaralar tugallanmay qoladi. Rossianing Yaponiyadagi elchisi B.Panovoy tomonidan ilgari surilgan – qonunchilikka tegishli o'zgartirishlar kiritishni nazarda tutuvchi "Muvaqqat shartnomasi" va kelgusida "Chegarani demarkasiyalash

haqida”gi shartnomani nazarda tutuvchi “Ikki bosqichli” shartnomani imzolashni Yaponiya tarafi rad etdi[16].

1999 yilda bo’lib o’tgan ASEAN + 3 Sammiti doirasida Yaponiya-Xitoy-Koreya uch tomonlama muloqoti o’tkazildi. Unda Yaponiya Bosh vaziri Obuchi uch tomonlama uchrashuvning o’tkazilishiga qarshi bo’lgan Xitoya nisbatan siyosiy masalalar ko’tarilmaslik tashabbusi ilgari surishi orqali diplomatik g’alaba qozonadi[17]. Yaponiya hukumati Tayvan bilan munosabatlarni o’rnatgan bo’lishiga qaramasdan, Obuchi XXRga nisbatan oqilona siyosat yuritadi. Natijada 1999 yil iyul oyida Obuchi XXRga tashrif buyuradi, 2000 yil oktyabr oyida esa XXR Bosh vaziri Chju Junszi Yaponiyaga tashrif buyuradi[18].

2000 yil aprel oyida Obuchi kasalligi tufayli o’z lavozimini tark etadi va uning o’rniga Yosiro Mori (森 喜朗) Bosh vazir lavozimini egallaydi va o’z administrasiyasi oldiga strategik vazifa sifatida Rossiya yo’nalishini belgilab berdi[19]. 2000 yil mart oyida Rossiya prezidentligiga V.Putin saylanadi va o’z e’tiborini Sharq tomonga, ya’ni Yaponiyaga, Yapon-AQSh munosabatlariga hamda iqtisodiy jihatdan o’sib kelayotgan XXRga qaratadi. 2000 yilning aprel oyidan 2001 yilning mart oyigacha Mori va Putin 5 marotaba oliv darajada uchrashuvlar o’tkazishdi.

Biroq, Yaponiya Rossiya, XXR va Koreya Respublikasi bilan aloqalarni shakllantirar ekan, ushbu munosabatlar o’zining stregik sherigi sanalgan AQSh bilan munosabatlariga raxna solishiga yo’l qo’ymadi. 2001 yil aprel oyida Koidzumi Dzyun’itiro (小泉 純一郎) Yaponiya Bosh vaziri etib saylanadi. 2001 yil 11 sentyabr voqyealaridan so’ng Yaponianing “Yevrosiy diplomatiyasi” o’z ahamiyatini yo’qotdi. Bunga sabab, munozarali Kurill orollari tufayli Yaponiya-Rossiya munosabatlarining to’xtab qolishi, Yasukuni ibodatxnesi tufayli Xitoy va Koreya Respublikasi bilan, Xallyu fenomeni (Koreya Respublikasidagi “ommaviy madaniyat” ko’rinishlaridan biri) hamda munozarali Liankur (kor. 獨島, yap. 竹島 Takesima) orollari orqali esa Koreya Respublikasi bilan aloqalar yomonlashdi.

Yuzaga kelgan yangi xalqaro vaziyatga baho berar ekan, Taro Aso Yaponiya o’z e’tiborini Markazi Osiyo va Kavkaz mintaqalariga “erkinlik va farovonlik yoyi” tashabbusi doirasida qaratishi hamda

Afg’oniistondan Arab dengizigacha bo’lgan “Janub va Shimol o’rtasida tovarlar harakatlanishini nazarda tutuvchi koridor” va Markazi Osiyo-Kavkaz-Yevropa, ya’ni “Osiyo va Yevropa chorrahasi” bo’lgan “Sharq-G’arb koridori”ni joriy etish lozimligini aytadi. Osiyo va Yevropa qit’alarini birlashtiruvchi “bugungi kun Buyuk ipak yo’li” orqali kishilar, tovarlar va moliyalarning harakatlanishiga imkoniyatlar yaratib beradi. Mazkur konsepsiyaning amalga oshirilishida Xitoy, Hindiston va Rossiya Yaponianing eng muhim sheriklariga aylanadi.

Globalashuv jarayoni bozor iqtisodiyoti tamoyillari, liberalizm g’oyalarining yoyilishiga sabab bo’ldi. Yaponiya iqtisodiyoti keskin sur’atlarda o’sib bordi va nafaqat Janubi-Sharqi Osiyo mintaqasida balki jahon iqtisodiy munosabatlari tizimida muhim kuchlardan biriga aylandi. Yaponiya iqtisodiy-siyosiy salohiyatining o’sishi uning xalqaro siyosiy jarayonlarda faol bo’lishiga asos yaratadi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, 2001 yil aprel oyigacha Yaponianing “Yevroosiyo diplomatiyasi” aniq maqsadlarga qaratilgan edi. Xitoy va Rossiyadagi ijtimoiy-siyosiy o’zgarishlar va o’zaro munosabatlarning yaxshilanishi Yaponianing AQSh bilan munosabatlari zarariga amalga oshirilmadi. Aksincha, yuzaga kelgan vaziyatdan Yaponiya munozarali chegara muammolarni bartaraf etish, mintaqaviy iqtisodiy munosabatlar tizimini shakllantirish, Yevroosiyo makonida o’z mavqye’ini mustahkamlash masalalariga e’tiborini qaratdi. 2001 yil 11 sentyabr voqyealari Yaponianing AQSh orbitasiga qaytishiga sabab bo’ldi.

### Adabiyotlar

1. 青山瑠妙。『冷戦後中国の対米認識と米中関係』、国分良成編『現代東アジアと日本2中國政治
2. 船橋洋一『同盟漂流』（岩波書店、1997年）、422ページ。
3. 船橋洋一『同盟漂流』（岩波書店、1997年）、474ページ。
4. 橋本總理に近かった元外務省高官より聴取（2005年8月3日）。
5. 船橋洋一「首相、橋本外交を語る」//『朝日新聞』1998年7月30日）。
6. 下斗米伸夫。ユーラシア外交 // <https://kotobank.jp/word/ユーラシア外交-182232>
7. Akino Memorial Research // [https://en.wikipedia.org/wiki/Akino\\_Memorial\\_Research](https://en.wikipedia.org/wiki/Akino_Memorial_Research)

- 
8. 東郷 和彦。日本の「ユーラシア外交」(1997~2001) // <https://www.nippon.com/ja/features/c00205/> 2014.03.13
9. <sup>1</sup>東郷 和彦。日本の「ユーラシア外交」(1997~2001) // <https://www.nippon.com/ja/features/c00205/> 2014.03.13
10. 麻生太郎。中央アジアを「平和と安定の回廊」に // 平成18年6月1日  
[https://www.mofa.go.jp/mofaj/press/enzetsu/18/easo\\_0601.html](https://www.mofa.go.jp/mofaj/press/enzetsu/18/easo_0601.html)
11. 東郷 和彦。日本の「ユーラシア外交」(1997~2001) // 2014.03.13  
<https://www.nippon.com/ja/features/c00205/>
12. 鈴木美勝。日本「ユーラシア外交」の変遷史と構造分析 // <https://www.jfir.or.jp/cgi/m-bbs/index.php?no=4243>
13. 小渕総理に近かった元外務省高官より聴取(2008年2月28日)。
14. 1998年10月8日の日韓共同宣言は、小渕総理が村山談話の表現で謝罪し、金大中大統領は、「過去の不幸な歴史を乗り越えて・・・未来志向的な関係を発展させる」と発言したと明記。
15. 小渕総理の対ロシア外交については、東郷和彦『北方領土交渉秘録、失われた五度の機会』(新潮社、2007年) 332 - 349ページ参照。
16. 東郷 和彦。日本の「ユーラシア外交」(1997~2001) // 2014.03.13  
<https://www.nippon.com/ja/features/c00205/>
17. 1997年10月の江沢民国家主席訪米や1998年6月~7月のクリントン大統領訪中の際、クリントン大統領は「台湾の独立は支持しない」「『2つの中国』または『1つの中国、1つの台湾』を支持しない」「主権国家であることを加盟要件とする国際組織への台湾の加盟を支持しない」という「3つのノー」を中国に対して表明した。
18. 森総理の対ロシア外交については、東郷『北方領土交渉秘録』380 - 476ページ参照。
19. 麻生太郎。中央アジアを「平和と安定の回廊」に // 平成18年6月1日  
[https://www.mofa.go.jp/mofaj/press/enzetsu/18/easo\\_0601.html](https://www.mofa.go.jp/mofaj/press/enzetsu/18/easo_0601.html)

UDK: 15:61

**O'ZBEKİSTONDA AUTİZM SİNDROMI VA UNİNG PSİXOGEN OMİLLARI MUAMMOSI****D. G. Nurmatova***Samarqand davlat universiteti**durdonanurmataova@mail.ru*

**Annotatsiya.** Maqolada autizm muammosinining O'zbekistonda psixologik o'rganilishining amaliy jihatlari keltiriladi. Ushbu ilmiy muammo bo'yicha o'tkazilgan eksperimental tadqiqotlar natijalari beriladi. Muammo yechimlarining psixologik xususiyatlari qisqacha tahlil etiladi. Autizm sindromining genetik xususiyatlari tasvirlangan hamda sindromning klinik belgilari, diagnostika mezonlari va tashxis xususiyatlari keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** autizm, tashxis, psixologik korreksiya, aqliy buzilish, maksimal rivojlanish, genetik xuxusiyatlar.

**Проблема синдрома аутизма и его психогенные факторы в Узбекистане**

**Аннотация.** В статье представлены практические аспекты психологического изучения аутизма в Узбекистане. Представлены результаты экспериментальных исследований по данной научной проблеме. Кратко проанализированы психологические свойства решения проблем. Описаны генетические особенности синдрома аутизма и клинические признаки синдрома являются диагностическими признаками.

**Ключевые слова:** аутизм, диагностика, коррекция, психическое расстройство, максимальное развитие, генетические особенности.

**The problem of autism and its psychogenic faktor in Uzbekistan**

**Abstract.** The article presents practical aspects of the psychological study of the problem of autism in Uzbekistan. The results of the exponential research conducted on this scientific problem are given. Psychological characteristics of problem solutions are briefly analyzed. The genetic features of autism syndrome are described as well as clinical signs, diagnostic criteria and diagnostic features of the syndrome.

**Keywords:** autism, diagnosis, psychological correction, rational violation, maximum development, genetic characteristics.

**Kirish.** Hozirgi kunda butun dunyoda alohida yordamga muxtoj bolalarni o'rganish, ulardag'i nuqsonlarning kelib chiqish sabablari, rivojlanishi, ularning oldini olish, maxsus yordamga muhtojoj bolalarga ta'lum-tarbiya berish, ulardag'i nuqsonlarni korreksiyalash bo'yicha ko'plab ishlar olib borilmoqda.. So'nggi yillarda alohida yordamga muptoj bolalar toifasiga kiruvchi autizm sindromiga chalingan bolalar soni ko'payotgani bois, bu sindrom haqida ma'lumotlar kulog'ingizga chalingan bo'lsa kerak. Oxirgi 10 yil ichida autizm sindromiga chalingan bolalar soni 10 barobar oshgan.

**Mavzuning dolzarbliği.** Bolalar autizmi Yevropa tibbiyot va psixologiya fanlarida asosan XVIII asrlardan boshlab tadqiq qilina boshlandi. Dastlab fransuz tadqiqotchisi J.M.Itar Averon o'rmonlarida istiqomat qilgan 12 yoshli bola ("averon mauglisi") ni o'rgandi va undagi xususiyatlari (nutqning rivojlanmaganligi va intellekt buzilishi)ni o'zining "Intellektual funksiyalar buzilishi asosidagi autizm" mavzusidagi ishida (1828) "intellektual autizm" deb nomladi. O'tgan asrning boshlarida (1911) shvesariyalik psixiatr Ye.Bleyler "Erta aqli zaiflik va shizofreniya guruhi" ishida erta autizm to'g'risidagi dastlabki qarashlarni ilgari surdi . Bevosita psixologiyaga "autizm" (grekchadan o'tgan lotincha "autos" - "men", "o'zim" so'zidan) termini esa Ye.Bleyler tomonidan (1928) fikrlashning affekt orqali boshqariladigan alohida turini tasvirlash uchun olib kirildi.

Amerikalik bolalar psixiatri L. Kanner "Affektiv muloqotdagi autistik buzilish" mavzusidagi maqolasida (1943) o'zining ko'p yillik olib borgan tajribalariga *tayangan holda bolalardagi* autizmni sindrom sifatida ilmiy asoslab berdi. Shu orqali ilmiy iste'molga "erta infantil autizm", "bolalar erta autizmi" va "kanner sindromi" kabi atamalar kirib keldi. Ushbu atamalar tadqiqotchilarning yondashuviga bog'liq holda turli manbalarda turlicha qo'llanilib kelinmoqda. O'z navbatida L.Kanner nazariyasi ustida ham bahs-munozaralar davom etmoqda. Shu o'rinda L.Kannerdan mustaqil ravishda avstriyalik psixiatr G.Asperger psixologiyaga "autistik psixopatiya" atamasini kiritganligini ham alohida ta'kidlash lozim.

L.Kannerdan keyin autizm qo'yidagi yo'naliishlarda o'rganilgan:

- alohida konstitusional holat sifatida (Rimland V., Bashina V.M.);

- shizofrenik postpristup holati (Vrono M.Sh., Bashina V.M.);
- markaziy nerv sistemasining organik patologiyasi (Mnuxin S.S.);

Shuningdek, Yevropa va boshqa chet davlatlar tadqiqotchilarini tomonidan autistik bolalar xulqining turli o'ziga xos jihatlarining tadqiq etilganligini V. Bettelxeym, M. Vrono, V. Mamseva, G. Suxarevalarning tadqiqotlari misolida ham ko'rish mumkin. O'tgan asrning 80-yillariga kelib esa, L.Kannerning klassik qarashlaridan chekinish davri boshlanib, autizmga kelib chiqish sabablari turlicha bo'lgan sindromlar guruhi sifatida qarash rivojlandi va ular sirasida tipik, notipik va asperger autizmlarga bo'lindi.[1]

**Tadqiqotning metodologik asosi.** Bugungi kunda bolalar autizmining tashxis mezonlari Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining "Kasalliklarning xalqaro tasnifi" va Amerika psixiatrlar assosiasiyasining "Tashxis – statistik qo'llanmasi" asosida belgilanadi va psixik rivojlanishdagi pervaziv nuqsonlar qatoriga kiritiladi. Bolalar autizmi dunyoda tobora ko'proq ijtimoiy ahamiyat kasb etib borayotgan muammolardan biri hisoblanadi. [2] Ayni paytda, O'zbekistonda ushbu sindromga oid tibbiy, psixologik va korreksion-pedagogik sohalardagi zamonaviy talablarga mos ilmiy va amaliy tadqiqotlarga ehtiyoj mavjudligini ham inkor qilib bo'lmaydi. Bugungi kunda dunyo mamlakatlari kabi Respublikamizda ham autik spektri buzilgan insonlar mayjud bo'lib, ularning aksariyat qismini yosh bolalar tashkil etadi. Biz atrofimizda sochini doimiy ravishda o'ynab turgan odamlarni ko'p uchratganmiz; yoki avtomobil raqamlarini sinchkovlik bilan kuzatayotgan odamlarga ham, albatta, guvoh bo'lganmiz, ular hayotidagi barcha o'zgarishlarni shu raqamlar bilan bog'lashadi, yohud bir kiyimga yopishib oladigan insonlarni ham uchratganmiz, ular shu kiyimi o'zlariga omad va baxt keltirishini aytishdan charchashmaydi. Bularning barchasi bir kasallik ko'rinishi ekanligini esa hayolimizga keltirmaymiz. Bizning nazarimizda, ular mijg'ov va ezma odamlar hisoblanadi. Aslida bu holat autizm sindromining ko'rinishi ham bo'lishi mumkin. Autizm sindromi bo'lgan bolalarga o'z vaqtida tashhis qo'yilmaganligi bois u haqida ko'pchilik deyarli eshitishmagan.

**Eksperiment natijalari.** Oxirgi ma'lumotlarga ko'ra, autizm va unga o'xshash nuqsonlar har 10 000 nafar bolalardan o'rtacha 20-22 nafariga to'g'ri kelmoqda. Bu sindrom avvaliga 100 000 kishidan 3-4 tasida namoyon etilgan bo'lsa, 2000-yilga kelib, 10 000 kishidan 5-20 tasida uchragan. 2008-yilga kelib esa har 150 boladan biriga autizm sindromi tashhisi qo'yilgan. Bu sindrom qizlarga qaraganda o'g'il bolalarda 4 marotaba ko'p uchraydi. AQSHda 2011-2012-yillarda o'tkazilgan tadqiqotlarga qaraganda maktab o'quvchilarining 2 % ida bu sindrom namoyon bo'lgan. Autizm sindromiga chalingan bolalarda quyidagi belgilari kuzatiladi:

- 1.Autizmning asosiy belgisi real hayotni qabul qilishning buzilishi hisoblanadi.
- 2.Autizm sindromli bola hech kim bilan muloqotga kirishishni istamaydi.
- 3.Nutqi juda sekin rivojlanadi.
- 4.Mimika va imo-ishoraning yo'qligi.
- 5.Bola juda kam kuladi va suhbatdoshining ko'ziga qaramaydi.
- 6.Muloqotga kam kirishadi.
- 7.Boshqa insonlar, xatto ota-onasiga ham e'tibor bermaydi.
- 8.Qiziqlichlari cheklangan bo'ladi.
- 9.O'z-o'zi bilan o'ynaydi.
- 10.Atrofdagi muhit o'zgarsa, jazavaga tushadi.
- 11.Bitta harakatni doim takrorlashga harakat qiladi.
- 12.E'tiborini fakatgina bir narsaga qaratadi.
- 13.Bola yangilikdan, atrofdagi o'zgarishlardan qo'rqadi.[2]

Psixik sohadagi buzilishlarning umumiyligiga qaramay, autizm turli shakllarda namoyon bo'ladi. O.S.Nikolskaya, Ye.R.Bayenskaya, M.M.Liblinglarning "Autik bola: yordam berish yo'llari" nomli kitobida autik bolalarni farqlashga oid turli yondashuvlarga misollar keltiriladi. Unga ko'ra, ingлиз tadqiqotchisi, doktor L.Ving bunday bolalarni ularning ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish imkoniyatlariga ko'ra "yolg'iz" (muloqotga kirishishga intilmaydigan), "passiv" va "faol, biroq beso'naqay" kabi turlarga bo'lib tushuntiradi. Uning fikricha, ijtimoiy moslashuvga erishish imkonini ehtimoli yuqori bo'lgan guruh - bu "passiv" bolalar toifasidir. Muloqotga kirisha olish va undan himoyalanish usullariga ko'ra tasniflashni asos sifatida qabul qilishni taklif qiladilar. Odatda, bu sindrom bolalarda 2,5-3 yoshlardan boshlab to'liq namoyon bo'ladi. Lekin bolalarda autizm sindromlarining kelib chiqishi, ularning psixik va jismoniy rivojlanishga ta'siri to'g'risidagi bir xil va yaxlit ma'lumotlar mayjud emas, shu bilan birga, ularni tarbiyalash va ta'lim berish bilan bog'liq masalalar ham to'liq tadqiq etilmaganligi tibbiyot, psixologiya va maxsus pedagogikada ham bu sindromni erta aniqlash va korreksiyalashda ma'lum muammolarga sabab bo'ladi. Bugungi kunda butun dunyo olimlari va tibbiyot

xodimlarini xavotirga solayotgan ushbu muammoning xavfli tomoni shundaki, autik spektri buzilgan insonlar soni sezilarli darajada oshib bormoqda. Shu jumladan,O'zbekistonda ushbu masala ancha dolzarb muammolardan bo'lib hisoblanadi. Bu muammoning dolzarbligi va murakkabligi shundaki, u ko'pgina sohalarning kompleks tarzda yo'lga qo'yilganligi va ushbu soha mutaxassislarining o'zaro hamjihatligini talab etadi. Demak, autizmning diagnostikasi, korreksiyasi va terapiyasi bir qancha chora-tadbirlar majmuasidan iborat bo'lib, bunda ko'proq ijtimoiy hamkorlik o'rnatilishi, ya'ni turli soha vakillarining jalb qilinishi talab etiladi.[5]

Mamlakatimizda bunday bolalar sonining ortib borishi tibbiyot xodimlari, psixiatrlar, psixologlar, pedagoglar va ota-onalarning bu muammoga chuqr yondashuvlarini va uning kelib chiqish sabablarini aniqlash, shuningdek, ularni korreksiyalarining eng optimal variantlarini ishlab chiqarishga undamoqda. Respublikamizda 2013 yilning aprelida o'tkazilgan bolalar autizmini o'rganish: uni aniqlash va bartaraf etish, bu borada ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlarni olib borish mavzularni yoritishga bag'ishlangan ilk xalqaro anjuman maxsus ta'limgiz tizimi oldiga qator vazifalarni qo'ydi. Ya'ni ushbu kunda bolalar autizmining namoyon bo'lishi, kelib chikishini aniqlash, bartaraf etish masalalari bilan qatorda mazkur bolalar bilan psixologik, korreksion-pedagogik ishlarni olib borish, ularni ta'limgiz muassasalariga olib kirish, uyg'unlashtirish modellarini ishlab chiqish ta'limimiz diqqat markazida turgan eng dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

2013-yilda tadqiqotchilar tomonidan respublikamizning turli hududlaridan tashrif buyurgan pedagog xodimlar o'rtasida so'rov nomasida o'tkazildi. Unda jami 50 nafar yordamchi maktab, maktab-internatlarning ona tili, boshlangich sinf o'qituvchilari va psixologlari ishtirok etdilar. So'rovnomadan ma'lum bo'lishicha, yordamchi maktab, maktab- internatlarda ta'limgiz olayotgan o'quvchilar tarkibida "murakkab nuksonli" tashhisiga ega bo'lgan autizmli bolalarni ko'rsatgan respondentlar 5 nafar (10 %) ni tashkil etdi. Mazkur respondentlar so'rovnomasida mavzu bilan "Bola va zamon" jurnali orqali tanishganliklari ko'rsatib o'tilgani aniqlandi. So'rovnomada ishtirokchilarining 22 nafari (45%) mazkur mavzuni OAVLari orqali yoritilgani, asosan, psixolog va tibbiyot xodimlari faoliyatini bilan bog'lik ekanligini ko'rsatib o'tdilar. Shuningdek, pedagog xodimlarning bunday o'quvchilar bilan ishlash metodlari, korreksion- pedagogik ta'sir ko'rsatish tadbirlaridan xabardor emasligi 12 nafar (6%), psixologlarning mazkur chora-tadbirlarni tashkil etishda o'ta qiyinchiliklarga duch kelishlarini ko'rsatdi (mazkur savol boshqa ishtirokchilar tomonidan bo'sh qoldirilgan).[7]

O'tkazilgan ilk izlanishimiz dastlabki xulosalarga kelish imkonini berdi:

- pedagoglarning mazkur mavzuga oid axborot, bilimlari talab darajasida emas;
- aksariyat pedagoglar mazkur toifadagi o'quvchilarni boshqa turdag'i rivojlanish muammosidan ajrata olish usullaridan voqif emas;
- maxsus pedagog va psixologlar autizmli bolalar bilan ishlash, ikkilamchi muammolarni bartaraf etish usul va vositalari bilan tanish emaslar;
- pedagog xodimlar va psixolog faoliyatida uzviy aloqa mavjud emas;
- mavzuga bag'ishlangan bolalarda autizmning namoyon bo'lishi, mazkur toifadagi bolalar bilan olib boriluvchi tadbirlarni yoritib beruvchi maxsus metodik adabiyotlar mavjud emas;
- pedagoglar autizmli bolalar rivojlanishidagi o'ziga xoslikni aniqlash, ular bilan olib boriluvchi korreksion-pedagogik chora-tadbirlarni belgilashda tibbiyot xodimlari, psixolog, o'qituvchi va tarbiyachi va albatta oila bilan hamkorlik ishlarning asosiy omil ekanligini bilmaydilar.

Mazkur yo'nalishta boshlagan ilk izlanishimiz ko'lамини yanada kengaytirib, takomillashtirib borish muhimligini ta'kidlab o'tish lozimdir. Ya'ni bu yo'ldagi hamkorlarimiz safini kengaytirishimiz, ular bilan mustahkam va tizimli faoliyatni yo'lga qo'yishimiz muhim. Galdagi vazifa sifatida malaka oshirish kurslari o'quv rejasida ko'rsatilgan "Tanlov mavzulari" moduli doirasida "Bolalar autizmi. Ular bilan olib boriluvchi korreksion ishlarni" maxsus kursining o'quv-uslubiy ta'minotini yaratish hamda uni ta'limgiz jarayoniga joriy etish masalasi belgilanishi zarur. Zero, oilamiz gultoji, Vatanimiz kelajagi hisoblangan farzandlarimizning jamiyat hayotida munosib tarzda o'z o'rnilarini topishlariga qaratilgan sohalarda ta'limgiz tizimi xodimlarning zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalari muhim ahamiyatga egadir.

Millat, elat, madaniyat, din va ijtimoiy tabaqa tanlamaydigan bu sindromni keltirib chiqaruvchi omillar haqida aniq isbotlangan fikr mavjud emas, hech bir bir mamlakat tibbiyotiga ushbu sindromning paydo bo'lish omillari ma'lum emas. Ko'plab tadqiqotlar, tibbiy tekshiruvlar o'tkazilgan bo'lishiga qaramay nazariyalar o'z tasdig'ini topganicha yo'q. Autizm sindromi haqida bir xulosaga kelishda quydagi muammolar duch kelamiz: autizm qanday sabablarga ko'ra yuzaga keladi, sabablar genetika bilan bog'lanadimi yoki ijtimoiy muammo sifatida psixologik oqibat hisoblanadimi? Tibbiy tekshiruvlar natijasiga ko'ra autizm DNK dagi o'n uchinchi xromosoma buzilishi va xromosomalar soni bilan bog'liq

sindrom hisoblanadi, fanga yana shu ma'lumki xromosomalar va skleroz kabi kasalliklar irlsiyat bilan bo'liq. So'ngi tadqiqotlar shular ma'lum bo'ldiki, ba'zi oilalarda autizm avloddan avloga o'tishi kuzatilgan. Boshqa oilalarda esa shajarasida autizm sindromi uchramagan oilarda ham autistlar dunyoga kelmoqda. Genetik tahilllar shuni ko'ssatadiki, autizmning paydo bo'lishida hujayralarning bir turi emas, balki miya rivojlanishidagi bir nechta buzilishlar ishtirot etadi yani bu butun asab tizimining ishi hisoblandi. Miya uchun, albatta, stimulyatsiya zarur, u miyani qo'zg'atadi va unda funksional faollikni yaratadi. Shu tariqa nafas olish, ovqat iste'mol qilish, harakatlanish, nutq va o'quv faoliyatini amalg'a oshirish imkon'i tug'iladi. Yetaricha stimulyatsiya miya hujayralari o'rtasidagi bog'liqliklar miqdorining ko'payishiga olib keladi. Har sekundda miyaga sezgi organlaridan ko'p miqdordagi axborotlar keladi. Miya sensor signallarni tashkillashtirishi, tartibga solish, ular orasidan muhimlarini saralab olishi va yaroqsizlarini ajratib olishi zarur. Sezgi va ichki organlaridan kelayotgan nerv impulsleri bola nerv sistemasi rivojlanishini belgilab beruvchi muhim omil bo'lib hisoblanadi. Sensor integratsiya bosh miyada yuz beradigan ongsiz jarayondir. U sezgi organlari (ko'rish, eshitish, ta'm bilish, hid sezish, teri tuyish, harakat) yordamida olingen axborotlarni tartibga soladi. Shuningdek, sensor integratsiya sezgi organlari orqali qabul qilingan axborotlarning ahamiyatliligini belgilaydi va axborotni filrlab, diqqatni qaratish kerak bo'lgan holatlarni ajratadi (masalan, ko'cha shovqiniga e'tibor bermasdan, o'qituvchini tinglash). Sensor integratsiya miya faoliyatining muhim qismi hisoblanadi. Sezgi miya uchun ozuqa sifatida gavdalanadi hamda u tana va tafakkurni boshqarishda zarur bo'lgan bilimlarni miyaga yetkazib berish vazifasini bajaradi. Sensor axborotni qayta ishlash buzilishining ko'pgina simptomlari autizmda harakterlanadi. Atrof-muhit bilan o'zaro aloqada bunday bolalar sezilarli darajada qiyinchiliklarga duch kelishadi. Shuningdek, ular taktil signallar lokalizasiyasi, harakatni rejalashtirish kabilarda ham qiyinchiliklarga uchraydilar. Autizmi bo'lgan bolalarda ko'p uchraydigan sensor signallarni qayta ishlash buzilishining uch ko'rinishi mavjud: birinchidan, sensor signallar miya tomonidan kerakli tarzda "ro'yxatdan o'tkazilmaydi" (ya'ni qabul qilinmaydi). Shuning uchun ham bola ba'zi narsalarga e'tiborsiz, boshqa narsalarga esa haddan ortiq sezgir. Ikkinchidan, sensor signallarning modulyatsiyasi yomonlashuvi kuzatiladi, asosan vestibulyar va taktil signallar sohasida. Buning oqibatida gravitasion ishonchhsizlik va taktil yuqori sezuvchanlik rivojlanadi. Uchinchidan, miyaning harakatga undovchi qismlariga, asosan, yangi harakatlarga va harakatlar almashinuviga javob beruvchi qismlar faoliyatida buzilish yuzaga keladi. Buning oqibatida, odatda, konstruktiv va foydali bo'lgan ishlarga qiziqishning yo'qolishi kuzatiladi.[3]

Miyaning po'stloq ostki qatlamlariga kirib kelgan yangi axborotlar bilan bog'liq bo'lgan u yoki bu chora-tadbirlarni amalg'a oshirish va qaysi sensor signalni qabul qilib, diqqatimizga yetkazib berish borasidagi murakkab qarorlarni qabul qiluvchi soha, ya'ni limbik tizim deb ataluvchi soha mavjud. Autizmi bo'lgan bolalarda bu muhim tizimning faoliyati buzilgan bo'ladi. Shuning uchun ham ular boshqalar idrok etgan narsalarning ko'pini idrok eta olmaydilar. Bola miyasidagi ushbu tizim qanchalik yomon ishlasa, uning kundalik hayotida kerak bo'ladigan ko'nikmalarni xosil qilish shunchalik qiyin kechadi. Sezgilarning noto'liqyoki chala qabul qilinishi bolaning boshqalar bilan muomala va hamkorlik qilish jarayonini qiyinlashtiradi, bola xulq-atvorida injiqlik, odamovilik kabi salbiy ko'rinishlar namoyon bo'la boshlaydi.

Muayyan sensor impulslarini miya bir gal qabul qilsa, boshqa safar aynan shu signallarni inkor etishi mumkin, bunday tartibsizlik ota-onalar tomonidan ularning xulq-atvorini noto'g'ri talqin qilinishiga sabab bo'ladi. Ularning xulq-atvorida xuddi ataylab o'jarlik qilayotgandek va ota-onalariga qarshi chiqayotgandek tuyiladi. Aslida esa bu holatning sababi butunlay boshqa, ya'ni bir necha kunlar davomida yoki mashg'ulotdan mashg'ulotgacha bo'lgan vaqtlar oralig'ida ularning miya faoliyatida keskin o'zgaruvchanlik, mantiqiylik va izchillikning pasayishi kabi juda og'ir kechinmalarga sabab bo'luvchi holatlar yuzaga kelishi mumkin. Ko'pchilik mutaxassislarining fikricha, faqat adekvat stimullar yordamida bolaning sensor imuttulslarni qabul qilish qobiliyatini shakllantirishga turki berish mumkin. Bu stimullar sensor integrasiyaga asoslangan terapevitik muolaja dasturlarida o'z aksini topadi. Ushbu terapevtik muolajalar bolaning motivasiyasiga hamda sensor, ayniqsa, qo'rquv axborotlarini qayta ishlashiga yordam beradi. Bolaga mashg'ulot davomida birinchi qadam tashlashga va xatti-harakatlar uzluksizligini rejalashtirishga yordam berish sensor integrasiyaga asoslangan terapiyaning asosini tashkil etadi. Autizm holatida sensor integrasiyasiga asoslangan terapiyaning asosiy maqsadi sezgilarning modulyatsiyasi va ularni samarali tarzda qabul qilish maqsadida sensor axborotlarni qayta ishlashni yaxshilash va xulq-atvorni muvozanatlashtirish vositasi sifatida oddiy adaptiv javoblarni shakllantirishga yordam berishdan iboratdir. Agarda terapiya ma'lum darajada samarali bo'lsa, u autizm bilan kasallangan bolaning hayotini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin.[4]

Bunday bolalar bilan ishslash davomida ularning sensor impulslarini qayta ishlashi haqidagi bilimlarni to'plashimiz va ularga yordam qo'lini cho'zishimiz uchun kerak bo'ladigan vosita va usullarni

topishimiz darkor. Bizning fikrimizcha, ushbu muammoni tadqiq etishda, avvalambor, autizmi bo'lgan bolalarning sensor integrasiya darajasini aniqlovchi aniq metodikalar majmuuni ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Metodikalarni qo'llash davomida ularning yuqori va quyi sezuvchanlik darajalarini ham diagnostik qilish muhim jihat hisoblanadi. Bu borada har bir bolaga individual yondashish hamda ularda namoyon bo'lgan sensor dezintegratsiyaning darajasiga qarab maqsadga yo'naltirilgan korreksion dasturlarni ishlab chiqish va ulardan samarali foydalanish ushbu muammoni sezilarli darajada bartaraf etishga yo'l ochib beradi.[6]

**Xulosa va takliflar.** Yurtimizda bolalardagi turli nuqsonlari barvaqt aniqlash, ularga yuqori malakali tibbiy, psixologik, pedagogik va ijtimoiy yordamni tashkil etish borasida amalgalash oshirilayotgan keng qamrovli chora-tadbirlar maxsus psixologiyani ham bugungi kun talablari darajasida nazariy va amaliy jihatdan uzlusiz takomillashtirib borishni talab etmoqda. Xulosa o'mnida O'zbekistonda sharoitida bolalar autizmini barvaqt aniqlash, ularga tibbiy, psixologik va pedagogik yordamni sifatli va samarali tashkil etish uchun quyidagilarga e'tiborni kuchaytirishni lozim deb topdik:

- bolalar autizmini barvaqt tasdiqlash uchun mahalliy va xorijiy davlatlar tajribalarini o'rganish hamda amaliyotga joriy etish;
- bolalar autizmi nazariyasi va amaliy masalalariga bag'ishlangan fundamental, ilmiy va amaliy tadqiqotlar olib borilishini rag'batlantirish;
- ushbu sindrom mavjud bo'lgan oilalarning tibbiy-psixologik-pedagogik madaniyatini oshirish, ularga malakali ijtimoiy xizmatlar ko'rsatilishini yo'lga qo'yish;
- oly ta'lim tizimida defektolog mutaxasislar tayyorlashda DTS va o'quv dasturlarida bolalar autizmi bilan bog'liq bilim, malaka va ko'nikmalaga bo'lgan talablarni zamonaviy xususiyatlarga mos holda belgilash;
- bolalar autizmi mavjud bo'lgan ta'lim-tarbiya berishda ixtisoslashtirilgan (maxsus va yordamchi) ta'lim muassasalari o'quv dasturlarini takomillashtirish, shuningdek, ushbu muassasalar pedagoglarining mazkur sindrom bo'yicha bilim va malakalarini izchil va tizimli oshirib borish, o'quv-metodik adabiyotlar bilan ta'minlash;
- bolalar autizmining tibbiy, psixologik va ijtimoiy xususiyatlarini keng jamoatchilikka to'g'ri tushuntirish uchun targ'ibot materiallari tayyorlash va yetkazish;
- mazkur sindrom bilan bog'liq muammolar yuzasidan o'zaro tajriba almashish maqsadida xalqaro loyiylar, konferensiylar, seminarlar va treninglar tashkil etish.

Bolalar autizmi sindromi mavjud bolalardagi qobiliyat va iqtidorni barvaqt aniqlash va rag'batlantirish maqsadida maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida ular uchun alohida mashg'ulotlar dasturlarini joriy etish, ular ishtirotida ko'rik-tanlovlari o'tkazib borish. Yurtimizda sog'lom avlodni dunyoga keltirish, tarbiyalab voyaga yetkazish bilan bir qatorda imkoniyati cheklangan bolalarga cheksiz mehr-e'tibor ko'rsatilayotgan ekan, yuqoridaq taklif va tavsiyalarda berilgani kabi xayrli ishlarni amalgalash autist bolalarning hayotiy ehtiyojlari va huquq-manfaatlarini har tomonlama to'kis ro'yobga chiqarshda o'ziga xos ahamiyat kasb etishi tabiiydir. Har qanday davlat siyosatining insonparvar tamoyillarga asoslanishi, jamiyatda aholining nogironligi bo'lgan va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga yaratilgan shart-sharoitlar, ularning erkin, farovon yashash uchun nihoyatda zarur hisoblanmish barcha sohadagi qo'llab-quvvatlanishlari bilan belgilanadi. Shu bois mamlakatimizda mazkur shaxslar sog'lig'ini himoyalash, ta'lim-tarbiya berish va ijtimoiylashuvlariga qaratilgan keng qamrovli maqsadli choratadbirlarni amalgalash masalalariga ular hayotini farovonlashtirib borilishining asosiy omili sifatida qarab kelinmoqda.

Alovida yordamga muhtoj bolalar va o'smirlarning ijtimoiy hayotda munosib tarzda o'z o'mnini topishi, shuningdek, ushbu jarayonda bevosita ishtirot etishi uchun ta'limni to'laqonli o'zlashtirishi hamda uning zamirida muayyan kasb-hunarni egallay olishi lozim. O'z imkoniyatlariga mos va qulay ta'limiy muhitda bilim va ijtimoiy ko'nikmalar, kasb- hunarni egallagan har qanday nogironligi bo'lgan shaxshayotga tez va qulay moslashadi, unda munosib tarzda o'z o'mnini topadi. Shiddatli tarzda o'zgarib borayotgan jamiyatimizda ta'lim oldiga pirovard maqsad sifatida, sog'lom tengdoshlari bilan bir qatorda, alohida yordamga muhtoj o'quvchilarni zamonaviy bilimlar, hayotga to'siqlarsiz uyg'unlashib ketishining omili sanalgan ijtimoiy malakalar bilan qurollantirish, mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga erishish belgilanmoqda. Shu maqsadda maxsus ta'lim tizimining sifatini ko'tarish, takomillashtirish masalalariga, huquqiy-me'yoriy, ilmiy-metodik zaminini yaratishga qaratilgan qator tadbirlar amalgalash oshirilmoqda. So'nggi- yillarda mazkur sohada erishilayotgan ijobjiy o'zgarishlar pedagoglar hamda turli soha vakillarining yangi yo'nalishlardagi hamkorlik faoliyati bilan chambarchas bog'lik.

**Adabiyotlar**

1. Каннер Л."Аутические нарушения аффективного контакта" в переводе В. Е.Кагана/Л.Каннер // Вопросы психического здоровья детей и подростков. – 2010.№ 1.-С.85-88
2. Башина В.М. Ранний детский аутизм // Исцеление-М.1993. С.154-156
3. Шрамм Р. Детский аутизм и АВА/ Р. Шрамм.-М. 2013.-С.208
4. Айрес Э.Дж. Ребенокти сенсорная интегратция. Понимание скрытых проблем развития // - М.: Теревинф, 2009.С.102
5. Haualand H, Allen C. Deaf people and human rights. Helsinki, World Federation of the Deaf and Swedish National Association of the Deaf, 2009.
6. Bernadette Roge. Le spektre autistique / Sciences Humaines. № 20. France, 2010.P. 50-51.
7. Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazining mintaqaviy filiallari xodimlar uchun tashkiliy-metodik yordam ko'rsatish bo'yicha uslubiy qo'llanma. - Toshkent: Navruz,2014/ - B.294
8. Аутизм и нарушения развития. Международный журнал.- Москва: МГППУ.ISSN :1994-1617 № 1 (62) 2019
9. <http://www.autism.uz>

**UDK: 370.153.2****QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING ETNOPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI  
(o'zbek-qirg'iz oilalari misolida)****N. H. Djuxonova***Farg'onan davlat universiteti*

**Annotasiya.** Ushbu maqolada oila tushunchasi va uning milliy-psixologik nuqtai nazardan o'zbek hamda qirg'iz qizlari tasavvurida ifodalanishi masalalari nazariy jihatdan asoslangan. Shuningdek oilaviy qadriyatlarning etnopsixologik xususiyatlarini aniqlash maqsadida o'tkazilgan ijtimoiy-psixologik so'rovnomalar natijalari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** jinsiy va huquqiy etuklik, fiziologik etuklik, oila-nikox munosabatlari, oilada tarbiya, oilaviy qadriyatlar, oilada halollik, oilada munosabat.

**Этнопсихологические особенности подготовки девушек к семейной жизни ( на примере узбекско-киргизских семей)**

**Аннотация.** В данной статье раскрываются теоретическое обоснование понятия "семья", а также этнопсихологические представления о семье девушек из узбекских и киргизских семей. Для выявления этнопсихологических особенностей семейных ценностей проанализирован социально-психологический опросник.

**Ключевые слова:** физиологическая и правовая зрелость, семейно-брачные отношения, семейное воспитание, семейные ценности, порядочность в семье, семейные отношения.

**Ethno-psychological peculiarities of preparation of girls to the family**

**Abstract.** This article is dedicated to learn the theoretical basis of Uzbek and Kirghiz girls' etnopsychological views to families problems. Also it is explored the etnopsychological peculiarities of families values using social-psychology questionnaire.

**Keywords:** sexual and legal maturation, physiological maturation, family-marriage relationship, upbringing in family, values of family, honesty in family, relationship in family.

"Ma'lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonalarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda", - deb aytilib o'tgan edi Prezidentimiz Sh.Mirziyoev yoshlar tarbiyasiga bag'ishlangan o'z ma'rurasida. Prezidentimiz so'zini davom ettirar ekan, donishmandlar bisotidan iqtibos keltirib o'tgan edi. Ya'ni, "Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi", deydi donishmandlar. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga mutlaqo yo'l qo'yib bo'lmaydi", - deb e'tiqod, oilaviy qadriyatlarga putur etkazayotgan xavflarni sanab o'tgan edi.

Respublikamizda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jabhalarda amalga oshirilayotgan tub islohotlar jarayonida oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza etish masalalari davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Davlatimiz konstitutsiyasiga binoan «Onalik va bolalik davlat tomonidan muhofaza qilinadi» (65-modda).

Shu bilan birga davlatimizning oilani axloqiy, ma'naviy-ruhiy barkamolligini mustahkamlash borasida amalga oshirayotgan sa'y-harakatlari ham kun sayin ortib bormoqda. Chunki, shaxs ma'naviyati,

uning dunyoqarashi, insonning tasavvuri va e'tiqodiga aloqador ko'nikmalar majmui asosan oilada shakllanadi. Shu ma'noda, oila-haqiqiy ma'naviyat o'chog'i, tarbiya omili, muhitidir. Binobarin, milliy mafkuramizga xos ilk tushunchalar inson qalbi va ongiga avvalo oila muhitida singadi.

Darhaqiqat, oila jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va xuquqiy rivojlanishiga poydevor bo'ladigan asosiy ijtimoiy institut hisoblanadi. Oilaning jamiyat ma'naviy hayoti, uning barqarorligidagi o'rni va nufuzi haqida davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoev so'zlagan nutqlarida "Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki avvalambor qaerda ishlashidan qat'iy nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e'tibor bermasa, hech qachon natija bo'lmaydi. SHuning uchun men farzandlarimning tarbiyasiga juda katta e'tibor beraman. Har bir farzandimga ham, nevaramga ham alohida o'zimning munosabatim bor. Har bir nevaramning alohida xarakterini bilaman, orzusini istagini bilaman". "Odam baxtliman deyishga qanchalik haqqi bor? Agar oilang bilan sen baxtli bo'lsang, baxtliman deyishga haqqing bor. Faqat oilam emas, xalqim baxtli bo'lsa men o'zimni baxtli deb bilaman", -deya ta'kidladilar.

Hayot tajribasining ko'rsatishicha, jamiyatning ravnaqi, gullab yashnashi, farovon hayotning asosiy mezoni axloq-odob hisoblanadi. Shuning uchun ota-bobolarimiz farzand tarbiyasiga, uning ma'naviy kamoliga katta e'tibor berib kelganlar. Mustaqil O'zbekistonimizda barkamol avlod tarbiyasida jismoni, aqliy, ma'naviy kabi uch asosiy jihatga e'tibor berilishi dolzarb masala bo'lib, ijtimoiy jarayonlarning faol kechishida muhim omillardan hisoblanmoqda. Ta'lim-tarbiyada oila va ta'lim muassasalarining o'rni hamda ta'siri beqiyosdir. Mustaqillik yillarida ushbu institutlar tizimi va hayotida tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Ushbu o'zgarishlar bugun ta'lim-tarbiya jarayonini yangi davr nuqtai nazaridan tashkil qilishga va barkamol shaxsni tarbiyalab etkazishga undaydi.

1. Ota-onalar tomonidan yoshlar, shu jumladan, qizlarni oilada mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash borasidagi nazariy va amaliy bilimlarni o'rganish imkonini beruvchi manbalarning etarli darajada mavjud emasligi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarni qayta tiklash, o'tmish meros va unda ilgari surilgan g'oyalarni o'rganish, yosh avlodda milliy ma'naviy qadriyatlar hamda milliy madaniy merosni o'rganishga nisbatan qiziqish va extiyojni qaror toptirish, ularga nisbatan xurmat uyg'otish, ularni asrash hamda boyitish borasida muayyan mas'ullikni shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy harakatning yo'lga qo'yilishi natijasida necha ming yillar davomida yaratilgan va oila, uni tashkil etish, oilaviy munosabatlar moxiyati, farzandlar tarbiyasini olib borish masalalari to'g'risida fikr yurituvchi asarlarning fors, arab, shuningdek, qadimiy turkiy tillardan tarjima qilinishi, zamondosh pedagog, psixolog va fiziolog olim (mutaxassis)lar tomonidan so'z yuritilayotgan muammo doirasida tadqiqot ishlarining olib borilishi tufayli ayni vaqtida muayyan manbalar majmuasiga ega bo'ldik. Biroq ushbu manbalar majmuasi mustaqil oilaviy hayot bo'sag'asida turgan yoki o'smirlik hamda o'spirinlik yosh davrini o'z boshlaridan kechirayotgan qizlar xissasiga nisbat bo'la olmayapti. Bizga ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi axoli sonining qariyb 50 foizdan ortig'i (demak, ushbu ko'rsatkich umumiylar raqamlarda ifoda etilsa, taxminan 15,5 mln. nafar kishiga to'g'ri keladi) ni yoshlar tashkil etadi. Respublikaning etakchi kutubxonalarining fondi bilan tanishish oila, uning vujudga kelishi, oilaviy munosabatlar mazmuni, oila xo'jaligini yuritish, farzandlar tarbiyasini tashkil etish, oilaviy muammolar, oilaviy ajrimlar hamda ularni keltirib chiqaruvchi omillar, ularni bartaraf etish, shuningdek, yoshlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash masalalarini yorituvchi adabiyotlar soni taxminan 500 ta (o'zbek va rus tillarida chop etilgan adabiyotlar) dan oshmasligini ko'rsatdi. Oddiy matematik hisob-kitob asosida mazkur ko'rsatkichlar nisbatini topishga harakat qilaylik, ya'ni, 12.500.000-500. Ushbu xolatda nisbat 25.000 ga teng bo'ladi. Bundan ko'rinib turibdiki, Respublika kutubxonalarida mavjud bo'lgan, oila mavzusida yaratilgan adabiyotlarning har biri 25.000 nafar yosh (yigit qiz) ga bittadan to'g'ri keladi. Ota-onalarning ijtimoiy mehnat bilan bandligi, oilaviy munosabatlarning ayrim jihatlari xususida ota-onalar hamda farzandlar o'rtasida erkin muloqotning tashkil etilish imkoniyatining chegaralanganligi, ta'lim muassasalarida oilaviy hayotning barcha qirralari to'g'risida ma'lumotlar berish mumkinligi xaqiqatdan yiroq ekanligini xisobga olsak, 25.000 nafar yosh yigit - qizlarning 2 foizigina maxsus adabiyotlar orqali oilaviy hayot, uni tashkil etish, oilaviy munosabatlarning tub moxiyati, ko'لامи samarali yo'lga qo'yish, ota - ona hamda farzandlar o'rtasida samimiy, o'zaro ishonchga asoslangan munosabatni o'rnatish, oilaviy muammolarni ortiqcha hissiyotlarsiz, janjallarsiz xal etish, oilaviy ajrimlarning oldini olish shartlari to'g'risida ma'lumotlar olish imkoniyatiga ega bo'lar ekanlar.

2. Ota-onalar tomonidan yoshlar, shu jumladan, qizlarni oilada mustaqil oilaviy hayotga tayyorlash borasidagi nazariy va amaliy bilimlarni o'rganish imkonini beruvchi manbalarning etarli darajada mavjud emasligi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarni qayta tiklash, o'tmish meros va unda ilgari surilgan g'oyalarni o'rganish, yosh avlodda milliy ma'naviy qadriyatlar hamda milliy madaniy merosni o'rganishga nisbatan qiziqish va extiyojni qaror toptirish, ularga nisbatan xurmat uyg'otish, ularni asrash hamda boyitish borasida muayyan mas'ullikni shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy

harakatning yo‘lga qo‘yilishi natijasida necha ming yillar davomida yaratilgan va oila, uni tashkil etish, oilaviy munosabatlar moxiyati, farzandlar tarbiyasini olib borish masalalari to‘g‘risida fikr yurituvchi asarlarning fors, arab, shuningdek, qadimiy turkiy tillardan tarjima qilinishi, zamondosh pedagog, psixolog va fiziolog olim (mutaxassis)lar tomonidan so‘z yuritilayotgan muammo doirasida tadqiqot ishlarining olib borilishi tufayli ayni vaqtida muayyan manbalar majmuasiga ega bo‘ldik. Biroq ushbu manbalar majmuasi mustaqil oilaviy hayot bo‘sag‘asida turgan yoki o‘smirlik hamda o‘spirinlik yosh davrini o‘z boshlaridan kechirayotgan qizlar xissasiga nisbat bo‘la olmayapti. Oldindan qiz bolaning yurish–turishi, ovqatlangani mehmonga choy uzatishi, birovlar bilan salomlashgani, kulishi, gapirishi, kuzatuvda bo‘lgan. CHunki ko‘philik kelin qilish niyatida ham qizlarni kuzatishgan. Bunday kuzatuvlar qizlarni kelajakda yaxshi ona bo‘lishiga zamin yaratilgan. Qiz bolaga yana ko‘p bo‘yanish ham tavsiya etilmagan, chunki tabiat unga bor go‘zalligini in‘om etgan. Vaqtli bo‘yanish qizni tez qaritadi, yuzga tez ajin tushiradi deydi qirg‘iz momolari. Qiz bola tarbiysi juda murakkab va nozik ishdir. Bunda onadan juda ko‘p sayi harakatni, sabr toqatni, bilimlilikni talab qiladi. “Onasini ko‘rib qizini ol” degan maqol bejizga aytilmagan. Qiz bolaga tarbiya berilsa, o‘zga uyda ham onasini uyaltirmaydi. Bugungi kunga kelib, qirg‘iz oilasida ham ijobjiy o‘zgarishlar bilan bir paytda ayrim salbiy hodisalar miqdori ortib bormoqda. Bunday salbiy hodisalar qatoriga oilaviy munosabatlarning buzilishi, ularda ajralish sonining ortib borishi hamda noto‘liq oilalarning ko‘payishi kabi muammolarni ko‘rsatish mumkin. Hozirgi davrda ayollarning ish haqi erkaklarnikidan kam emasligi, hatto ba’zi hollarda ko‘pligi natijasida xotin erga nisbatan moddiy jihatdan tobe bo‘lmay qoldi. SHu sababli xotinning ma’naviy, shaxsiy, aqliy, iqtisodiy ham jismoniy ehtiyojlari qondirilmasa, oilaviy turmush osonlikcha ajralish bilan tugashi mumkinligi kuzatilmoqda.

Qirg‘iz xalqida «quda bo‘lguncha, qulu-boying so‘rash, quda bo‘lgandan keyin qul bo‘lsa ham siylash» (quda bolgoncho, qulu biyin surash, qudalashandan kiyin qul bolsoda siylash) degan naql ham shu ma’noda aytilgandir.

Tarixan qirg‘izlar qadimda Enasoy (Enisey) hamda Tyan-SHan tog‘larining sharq tomonida istiqomat qilishgan. «Qirg‘iz» degan atamaning o‘zi ham «Kyr-gez» degan so‘zdan kelib chiqqan bo‘lib, bu «tog‘ – tog‘larni kezib yuruvchi», degan ma’noni anglatadi. Demak, qirg‘iz xalqi qadimdan tog‘larda istiqomat qilib, hayot kechirgan etnosning tipik vakilidir. Tadqiqotchi olim X. Xojining yozishicha, qirg‘iz xalqida ham qadimdan qiz uzatish, o‘g‘il uylantirish to‘ylari juda dabdabali o‘tgan. Manbalarda yozilishicha, azaldan qirg‘izlar o‘g‘il bilan qizni yoshlik chog‘idayoq bir-biriga unashtrib, ota-onalari «bel» quda bo‘lishgan va qiz voyaga etgunga qadar o‘g‘il tomon qizning ota-onalariga katta-katta qalin berib turishgan. Shu bilan birga qirg‘iz oilalarida ham (qirg‘iz va oilalari kabi) «qiz o‘g‘irlash» azaliy, milliy-an’anaviy urf-odat bo‘lib, bu to hozirga qadar davom etib kelmoqda. Qizning olib ochilishiga sabab, birinchidan, qizning yoki yigitning oila a‘zolaridan birining ular oila qurishiga noroziligi bo‘lsa ikkinchidan, olib ochilgan qizga kamroq qalin berililadi, uchinchidan esa, «o‘g‘irlangan qiz», boshqalar tasavvurida tarbiyali, odob-axloqli qiz sanaladi va hurmat-e’tiborga sazovor bo‘ladi. Lekin, qirg‘iz oilalaridagi «qiz o‘g‘irlash»da, qirg‘iz va oilalariga nisbatan farq qiluvchi va o‘xshash jihatlar mavjud. Ya’ni, qirg‘iz va oilalarida bitta urug‘ vakillari birga oila qurishmaydi. Buning sababi, milliy urf-odatga ko‘ra, ular bir-birini aka-singil deb hisoblaydilar va o‘sha urug‘dan qiz o‘g‘irlamaydilar. Qirg‘iz oilalarida esa etti pushtidan keyin bir urug‘ vakillari birga oila qurishi va o‘sha urug‘dan qiz olishi yoki qiz olib ochishi mumkin. Masalan, qirg‘iz oilasida ham bir qator urug‘lar (Cherik, Qutchu, Adigine, Teyit, Shaybek, Nusup va boshqalar.) mavjud bo‘lib, ular o‘tgan etti otasiga katta e’tibor berishadi. Agar hali o‘rtada etti ota o‘tmagan bo‘lsa, u holda to‘yni qoldirishadi. Shuning uchun qadimda kuyov bo‘lmish yigitdan uning etti otasini so‘rashgan. Agar u etti otasini aytib bera olmasa, bu ishi o‘z urug‘iga nisbatan humatsizlik hisoblangan va yigit e’tibordan chetda qolga.

Adabiyotlarda yozilishicha, qirg‘iz oilasining tipik xususiyatlari jumlasiga ko‘p pog‘onalilik (bir necha avlod vakillarining birga yashashi), unda erkaklar mavqeining ustunligi, qizlarning esa olib ochilishi, serfarzandlik sifatlarini kiritish mumkin.

Umuman olganda qirg‘iz oilasiga xos ijtimoiy, psixologik xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Qirg‘iz xalqida yoshlarni barvaqt uylantirish va turmushga uzatish, nikohgacha tanishuv muddatining qisqaligi uning milliy xususiyatlari yaqqol namunasidir.
2. Qirg‘iz yoshlarning oila qurishida do‘satlari va o‘rtoqlari maslahatiga suyanishi, erkin qalliq tanlash, ota-ona va qarindoshlar ta’sirining kamligi zamонавиy qirg‘iz oilasining o‘ziga xos etnopsixologik xususiyatlaridan hisoblanadi.
3. Qirg‘iz oilasining etnopsixologik xususiyatlaridan biri - bu qirg‘iz qizlarining roziligi bilan yoki roziligesiz yigitlar tomonidan olib ochilishi va ayrim holatlarda olib ochilgan qizning uyga qaytish imkoniyatining mavjudligidir.

4. Qirg'iz oilasining milliy-psixologik xususiyatini aks ettiruvchi holatlardan yana biri - bu oilaning ko'proq sevgi-muhabbat motivi asosiga qurilishidir.

5. Hozirgi davrga kelib, qirg'iz qizlarining yigitlar tomonidan barvaqt olib qochilishi kuzatilmogda. Bunday vogelik esa oila-nikoh munosabatlarida qator muammolarni keltirib chiqarmoqda, ya'ni qirg'iz oilasida nikohgacha tanishganlik davrining qisqaligi tufayli bo'lajak qayliqlar bir-birlari haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishga ulgurmayaaptilar.

6. Qirg'iz oilasining o'zga millat (o'zbek, tojik, rus) oilalaridan farq qiluvchi o'ziga xos etnopsixologik xususiyatlaridan biri - bu oilaning yuzaga kelishida yaqin do'stlari, o'rtoqlari maslahati hamda yordamiga tayanish hodisasiidir. Bunda qirg'iz yoshlarining bir-birlari bilan o'zaro tanishuvlarida hamda qizlarning yigitlar tomonidan olib qochilishida yaqin do'stlar yordami, maslahati muhim ahamiyat kasb etadi.

7. Qirg'izlarda ham oilaviy qadriyatini belgilovchi asosiy omillardan ular oilasida qizlarning mavjudligidir. Bu omil qirg'izlarning boshqa millat (o'zbek, tojik) oilalari kabi bolajon xalq ekanligidan dalolat beradi va bu ko'rsatkich qirg'iz oilasining etnopsixologik xususiyatini o'zida gavdalantiradi.


Endi shu xususiyatlarning bugungi kun yoshlarida ko'rib chiqaylik. O'zbeklarda 12-13 yoshlarida jinsiy (fiziologik) etuklikka erishadilar, qirg'izlarda esa 14-15 yoshlarda jinsiy (fiziologik) etuklikga erishadilar. Biroq ular biror - bir kasb-hunar egasi bo'lib, mustaqil ishlab o'zini va oilasini iqtisodiy jihatdan ta'minlay oladigan bo'lishi uchun avvalo maktabni bitirishi, yoki 9 yil mактабда, 3 yil kollej yoki litseyda o'qishi zarur bo'ladi.

Ushbu tadqiqotdan kelib chiqib biz o'z oldimizga o'zbek va qirg'iz oilalaridagi voyaga etgan o'g'il va qizlarda o'z tadqiqotimizni oldik. Jami sinaluvchilar soni 50 nafarni tashkil etdi. Ularning yoshi esa 18-22 yoshlarni tashkil etadi. Ularga biz qo'yidagi savol bilan murojat qildik.

№	1 savol		2-savol		3-savol		4-savol		5-savol	
	O'	Q	O'	Q	O'	Q	O'	Q	O'	Q
A	10	14	2	4	10	8	10	9	10	5
B	10	8	3	9	1	2	10	10	12	14
V	5	3	20	12	14	15	5	6	3	6

Yuqorida jadvaldan shuni aniqlab oldikki "Oilanning mustahkamligida shaxs etukligining qaysi biri muhim?" deb bergen savolimizaga o'zbek oilalaridagi voyaga etgan farzanlarning 40%, qirg'iz oilalarining farzandlari 56% "jinsiy va xuquqiy etuklik" haqidagi javobni berishdi. Bundan ko'rinish turibdiki, qirg'iz oilalarida jinsiy tayyorgarlik erta boshlanishini aniqlandi.


### "Oilanning mustahkamligida shaxs etukligining qaysi biri muhim?"



Yoshlarning nikoh mustahkamligi borasidagi fikrlarini tahlil qiladigan bo'lsak, oila mustahkamligini qizlar ma'nnaviy, axloqiy va psixologik etuklik bilan yigitlar esa jinsiy va huquqiy etuklik hamda kasb-hunar, ijtimoiy-iqtisodiy etuklik bilan bog'lashdi. O'zbek oilalarining 10 nafar ya'n 22 % farzandlari, qirg'iz oilasining 8 nafar ya'ni 17 % farzandalari "kasb-hunar, ijtimoiy-iqtisodiy etuklik" degan variantni tanladilar.

### Yoshlarning nikoh mustahkamligi borasidagi fikrlari

■ qirg'izlar ■ o'zbek



Turmush qurishdagi yoshni o'zbek va qirg'iz farzandlari eng maqbul yosh sifatida 18, 19, 20 yoshlarni, yigitlarning aksariyati 21-22 yoshni tanlashdi.

Oila qurishdagi muhim sifatida har ikkala jins vakillari fikrlarining yakdilligini sevgi bilan va sovchilar bilan bog'lashlarida ko'rishimiz mumkin. Lekin yigitlarimiz orasida oz bo'lsada moddiy manfaatdorlikni ustun qo'yib oila qurishi xohlovchilar borligi bizni ajablantirdi. Qirg'iz oilalarida esa o'zbeklarga nisbatan moddiy manfiyatdorlik past ekanligini aniqlab oldik.

Oilaviy hayot psixologiyasi borasida yoshlarimizda qanday bilimlar etishmaydi degan savolga respondentlarning ya'ni o'zbek farzandlarining 10 nafari qirg'iz oilasidagi farzanlarning 9 nafari jinsiy hayot psixologiyasi haqidagi bilimlar deb javob qaytarishdi.

Haqiqatan ham biz yoshlar o'rtasida jinsiy hayot bilan bog'liq tarbiyani keng yo'lga qo'yishimiz lozim, chunki bugungi kunda aksariyat oilardagi kelishmovchiliklar aynan shu borada yoshlarimizning oz ilmiy bilimga ega ekanligidan kelib chiqmoqda.

Yoshlarning oila qurishlariga qadar bir-birlarini tanish muddati bilan bog'liq fikrlarida yigit va qizlar yarim-bir yil muddatni avzal ko'rishdi. Lekin yoshlar orasida tanish muddatiga qarshi bo'lganlar 40 foizni tashkil qildi. Qirg'iz oilasidagi farzandlar esa ushbu berilgan savolga bir yil emas aksincha ularning urf-odatlari bo'yicha ularni yoshligidan unashtirib qo'yishliklarini va ular voyaga etguncha belgilangan miqdorda qalin pulini berib borishliklarini aniqlab oldik.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, tadqiqotimiz davomida o'zbek-qirg'iz oilalarida ba'zi bir ko'rinishlarning bog'liqligi va ba'zi bir urf-odatlarning katta farqini ko'rib o'tdik. Tadqiqot davomida ya'na shuni guvohi bo'ldikki o'zbek yoshlariga nisbatan qirg'iz yoshlarida nikohga etuklilik darajasi yuqori ekanligi ularda yoshlar o'rtasida ajrimlarning sonini ayrim hollarda ularni yoshlarni oilaviy hayotga tayyolashda ko'proq milliy urf-odatlarga tayanishlari lozimligini guvohi bo'ldik.

### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi O'n ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n birinchi sessiyasida 1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan. – T.: O'zbekiston, 1992–48 b.
2. Mirziyoev SH.M. «Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz». - T.: «O'zbekiston»-2016 yil.
3. Mirziyoev SH.M. «Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz». - T.: «O'zbekiston»-2017 yil.
4. Musurmonova, Abduraximova "Mahallada qizlarning sog'lom turmush tarzi" T. 2008 y.
5. Avloniy Abdulla. Turkiy guliston yoxud axloq. – T.: O'qituvchi, 1992. – 160 b.
6. Azizxo'jaeva N.N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. – T.: TDPU, 2000.- 52 b.

**УДК: 316.6 (075)**

### **ИНТЕГРАТИВНАЯ МОДЕЛЬ МОТИВАЦИИ ДОСТИЖЕНЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ: СТРУКТУРНЫЙ АНАЛИЗ**

**Ж. Ф.Юлдашев**

*Наманганский инженерно-строительный институт  
j\_yuldashev79@mail.ru*

**Аннотация.** В данной научной статье разъясняется анализ педагогических и психологических особенностей внутренней и внешней мотивации в учебной деятельности, а также организация учебного процесса на научной основе. В статье также описывается качество образования, которое способствует развитию каждого человека, а также определяет культурное развитие общества, рост его экономического благосостояния, а также служит основным источником научно-технического прогресса. Было подчеркнуто, что изучение факторов эффективности учебного процесса должно играть важную роль в современной педагогической психологии. Также приводится информация о когнитивных проявлениях мотивации к учебной деятельности, компонентах автономной подсистемы или мотивационного процесса в мотивации к учебной деятельности, а также о педагогических и психологических особенностях внутренних и внешних мотивов различных проявлений у каждого ребенка.

**Ключевые слова:** образование, мотив, мотивация, деятельность, субъект деятельности, учебный процесс, фрустрация, внутренняя мотивация, внешняя мотивация.

### **Yutuq motivatsiyasining integrativ modeli: tarkibiy tahlil**

**Annotatsiya.** Mazkur ilmiy maqolada o'quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etish bilan birlgilikda ta'lif faoliyatida ko'zga tashlanadigan ichki va tashqi motivatsiyasining pedagogik-psixologik xususiyatlari taxlillari tushuntirib o'tilgan. Suningdek, maqolada ta'lif sifati, har bir shaxsning rivojlanishiga hissa qo'shadigan, shu bilan birga jamiyatning madaniy rivojlanishini, uning iqtisodiy farovonligining o'sishimi belgilishi, qolaversa, ilmiy-tehnikaviy taraqqiyotning asosiy manbai bo'lib xizmat qilishi, shu sababli hozirgi kunda o'quv jarayoni samaradorligining omillarini o'rganish zamonaiviy ta'lif psixologiyasida muhim o'rinni tutishi kerakligi to'g'risida to'xtalib o'tilgan. Bundan tashqari ta'lif faoliyati motivatsiyasining kognitiv ko'rinishlari, ta'lif faoliyati uchun motivatsiya tarkibida uchraydigan avtonom quyi tizim yoki motivatsion jarayonning tarkibiy qismlari hamda har bir bolada uchraydigan turli ko'rinishlardagi ichki va tashqi motivatlarning pedagogik-psixologik xususiyatlari borasida ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lif, motiv, motivatsiya, faoliyat, faoliyat mavzusi, o'quv jarayoni, umidsizlik, ichki motivatsiya, tashqi motivatsiya.

### **Integrative model of achievement motivation: structural analysis**

**Abstract.** This scientific article explains the analysis of the pedagogical and psychological features of internal and external motivation in educational activities, as well as the organization of the learning process on a scientific basis. The article also describes the quality of education, which contributes to the development of each individual, as well as determines the cultural development of society, the growth of its economic well-being, as well as serves as a major source of scientific and technological progress. It was emphasized that the study of factors of the effectiveness of the learning process should play an important role in modern educational psychology. It also provides information on the cognitive manifestations of motivation for educational activities, the components of the autonomous subsystem or motivational process in the motivation for educational activities, as well as the pedagogical and psychological features of internal and external motives of different manifestations in each child. Desired

**Keywords:** education, motive, motivation, activity, subject of activity, educational process, frustration, intrinsic motivation, extrinsic motivation.

Процесс учения является сложноорганизованной деятельностью, в результате которой происходят изменения субъекта учения путем реализации его интеллектуального и личностного потенциала. Качество образования, способствуя развитию отдельных индивидов, определяет тем самым рост культурного развития общества, рост его экономического благополучия, а также выступает основным источником научно-технического прогресса. Именно поэтому исследование факторов эффективности учебного процесса занимает важное место в современной психологии образования.

В настоящее время в психологической науке накоплено множество эмпирических данных, показывающих влияние внутренних и внешних факторов на достижение высоких академических результатов студентов. Например, в рамках предложенной Т.О.Гордеевой и О.А.Сычевым интегративной структурно-процессуальной модели мотивации достижительской деятельности [1] предлагается более дифференцированный взгляд на составляющие внутренней мотивации и несколько иное решение проблемы внешней мотивации, чем в теории самодетерминации Э.Диси и Р.Райана. В частности, потребностная модель мотивов достижительской деятельности включает не только внешние мотивы, основанные на потребности в автономии, но также и мотивы, основанные на потребности в уважении и самоуважении (согласно модели потребности А.Маслоу[2]. Представленная в ней типология мотивов учебной деятельности во многом основана на работах таких ученых, как А.Н. Леонтьев, Л.И.Божович, П.М. Якобсон, А.К.Маркова, М.В.Матюхина, Э.Диси и Р. Райан, М. Ванштейнкисте, Р.Валлеранд, А.Ассор, М.Ганьеи др.

При этом под достижительской деятельностью понимается любая деятельность, направленная на целенаправленное преобразование субъектом себя (в рамках учебной, спортивной деятельности или самовоспитания), окружающего мира (различные варианты трудовой, творческой деятельности) или других людей (например, в рамках обучения и воспитания детей). Достижительская деятельность мотивируется стремлением сделать что-то как можно лучше и/или быстрее, проявив мастерство, за которым стоят базовые человеческие потребности в созидании, достижении, росте и самосовершенствовании [3].

Интегративная модель мотивации достижительской деятельности описывает пять основных мотивационных блоков, а также их предикторы, которые мы кратко изложим в применении к

мотивации учебной деятельности. В частности, в структуре мотивации учебной деятельности выделяются следующие пять автономных подсистем, или составляющих мотивационного процесса:

1. мотивационно-смысловой блок, включающий иерархию внутренних и различных типов внешних мотивов учебной деятельности;
2. целевой блок, включающий особенности целеполагания и постановки учебных целей;
3. интенционально-регуляторный блок, характеризующий намерения, особенности планирования деятельности и самоконтроль при ее выполнении;
4. блок «реакция на неудачу», включающий типы реагирования на ситуации помехи, трудности и неудачи, возникающие в процессе выполнения деятельности;
Qanday bo'lmasin, bolaga muruvvatli munosabatda bo'lish, uni qanday bo`lsa, shunday qabul qilish, tanqidarsiz, avtoritar ohangdan majburiy xatti-harakatlar standartlariga rioya qilishni talab qilish (salomlasting, sizlab gaplasting va hokazo) qochib, ijobjiy baho berish uning shaxsiyati va xatti-harakatlari bolaning intellektual qobiliyatlarini maksimal darajada amalga oshirish uchun zamin yaratadi va uning shaxsiyati xususiyatlari to'liq namoyon bo'ladi.

### Materiallar va metodlar

Tadqiqot ishimizda bolalarni o'zaro munosabatlarini aniqlash uchun suhbat, kuzatish va faoliyat natijalarini tahlil qilish metodidan foydalanildi. Bundan tashqari "Ikki uy" metodikasidan ham foydalanildi. Tekshiruv psixologik xizmat xonasida o'tkazildi. Xonaning tashqi ko'rinishi katta ahamiyatga ega. U qanchalik rasmiy idoraga o'xsmagan bo`lsa, bola o'zini shunchalik erkin his qiladi. Xonada bolalar tomonidan chizilgan rasmlar, qo'l san'atlari va rasmlı kitoblar bilan jihozlangani tegishli muhit yaratildi. Ko'zga tashlanadigan jonli, g'ayrioddiy narsalar yoki haddan tashqari jozibali o'yinchoqlar nomaqbuldir, chunki ular bolaning e'tiborini berilgan vazifalardan chalg'itishi mumkin. Tekshiruvni boshlashdan oldin, psixolog barcha eksperimental materiallarni tayyorlashi kerak, ammo uni bolaga ko'rinximaydigan holatda joylashtirish lozim.

Tekshiruv kichik stolda o'tkazildi. Maktabgacha tarbiyachini derazadan tashqarida sodir bo'layotgan narsalar uni chalg'itmasligi uchun derazaga qarama-qarshi o'tmaslik yaxshiroqdir. Tarbiyachini, agar u tekshiruv paytida ishtiroy etishni istasa, boladan, uning yoniga yoki ortiga

joylashtirilishi kerak. Bolani nima qilishni xohlayotganini tanlashga taklif qilinishi mumkin: o'ynash, chizish yoki ishslash. Tanlov ixtiyoriy bo'lib, bolaga tegishli metodika beriladi.

Tadqiqotning birinchi qismida kognitiv rivojlanish darajasini aniqlashga qaratilgan usullarni taklif qilish yaxshiroqdir, chunki ular bolalar uchun juda qiyin va bu vazifalarni bajarishda bola charchatoliqmasligi kerak. Bir yoki ikki "intellektual" metodlardan so'ng vazifalarni turli xiliga almashtirish mumkin.

Ba'zi "shaxsni aniqlovchi" metodlar va vazifalar kattalar bilan ayniqa ishonchli aloqaning mavjudligini anglatadi, aloqa yetarli darajada mustahkamlanganda va bola o'zini erkin va qulay his qilganda ularni taklif qilish tavsya etiladi. Ko'p bolalar uchun ularga tanish bo'limgan kattalar bilan suhbatlashish juda qiyin, shuning uchun bunday bolalarga mashg'ulot o'talarida yoki oxirida ular bilan oldindan og'zaki aloqa o'rnatib, og'zaki topshiriqlar berish yaxshiroqdir. Umuman olganda, maktabgacha yoshdagagi bolani tekshirish 30 dan 60 daqiqagacha davom etishi mumkin.

So'rov o'tkazishning muhim sharti bolaning individual xususiyatlari moslashishdir - uning odatdagi holati, toliqish darajasi, motivatsiyasini o'zgarishi va boshqalar. Shunday qilib, tez toliqish holatlarida tanaffus qilish va bola bilan suhbatlashish (muhim savollarga javob olish mumkin) yoki unga tura olish, atrofida yurish, u bilan to'p o'ynash va ba'zi jismoniy mashqlarni bajarish (harakatchanlik holatini tekshirish) mumkin.

Tekshiruv davomida psixolog taklif etilgan vazifalarni va ularni amalga oshirishning muvaffaqiyati, bolaga ko'satilayotgan yordam va uning bilim darajasi, xatolarni mustaqil ravishda topa olish qobiliyati va o'z harakatlarining natijalarini baholashning yetarliliqi yozilgan protokol tuzishi kerak. Unda bolaning tekshiruv holatiga bo'lgan munosabati tabiat, psixolog bilan aloqa qilish xususiyatlari, hissiy ko'rinish, turli vazifalarni bajarishga bo'lgan munosabat, bolaning psixolog bilan aloqa qilishda va vazifalarni bajarishdagi faoliyati darajasi, o'zini o'zi qadrlashi va da'volar darajasi, faoliyat sur'ati, alohida e'tibor berilish lozim bol`gan holatlar darajasi, harakatlarning tartibliligi va yo'naltirilganligi, kognitiv va individual rivojlanish xususiyatlarining boshqa muhim ko'satkichlari aks etishi kerak .

Agar tadqiqot ota-onalarning iltimosiga binoan amalga oshirilsa va ulardan biri bolasiga hamroh bo'lsa, ota-onadan so'rvnomani to'ldirishga taklif qilish tavsya etiladi. Agar so'rvnomani to'ldirish jarayonida uning savollari bo'lsa, u mumkin bo'lgan javoblarni izohlamasligi kerak - ota-onalar qiyinchiliklarni keltirib chiqargan fikrlarni ta'kidlab, savolnomani mustaqil ravishda to'ldirishlari kerak.[2] Agar ota-onalar mashg'ulotda qatnashmasa, ularni oldindan so'rvnomani to'ldirishga taklif qilish mumkin. Anketa materiallari psixologga bola bilan ishslashda muhim yordam berishi mumkin.

Bolaning rivojlanish tarixi to'g'risidagi ma'lumotni ota-onadan va keyinchalik, tekshiruvdan keyin olish mumkin. Bunday holda, psixolog tekshiruv natijasida unda yaratilgan bola haqidagi fikrdan kelib chiqadi va unga berilgan savollar ko'proq yo'naltirilgan, "maqsadli" xarakterga ega bo'ladi. Qanday bo'lmasin, ota-onalar bilan tanishish va ulardan bola haqida ma'lumot olish tekshiruv natijalari asosida sog'lom psixologik xulosa chiqarish va pedagogik tavsiyalarni ishlab chiqish uchun zarurdir.

### Natija va munozaralar

Psixologik diagnostika o'tkazib, psixolog faoliyatni loyihalashda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish, o'quv jarayonini individuallashtirish va ta'lim faoliyatida bolaning individual rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishga yordam beradi. Bundan tashqari, psixologik diagnostika natijalari bolalarni yoshiga qarab, ularning yosh xususiyatlariga va individual rivojlanishning o'ziga xos xususiyatlariga qarab, maktabgacha ta'limda yaratilgan qulay sharoitlarning samaradorligi to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beradi.

Bolalar bog'chasi guruhidagi bolalar o'rtasidagi munosabatlar muammosi juda murakkab va juda dolzarb, ammo bugungi kunda u hali ham rivojlanmagan. Ushbu muammoning o'tkirligi tadqiqotlar natijasida tasdiqlandi, shuni ko'satdiki, bolalar bog'chalarida 5-6 yoshli bolalarning har birida bir nechta bolalar xavfsiz, boshqalari esa o'z tengdoshlari bilan munosabatlarni korreksiya qilishning ba'zi shakllariga muhtoj. Shuning uchun psixologning muhim vazifasi bolalarning bir-biri bilan munosabatlarini diagnostika qilishdir. Buning uchun har bir bola simpatiya (qizil uy) yoki antipatiya (kulrang uy) ga qarab, uning guruhidagi barcha bolalarni "Ikki uy"ga tarqatadigan usulni qo'llash tavsya etiladi.[3]

Ushbu metod orqali: har bir bolaning guruhning barcha bolalari bo'lgan munosabati, uning guruhidagi bolalarning har biri unga yoqadimi yoki yo'qmi, har bir bola boshqa barcha bolalarning nazarida qanday ekanligi haqidagi bolaning fikri haqida bilib olsa bo'ladi. Shuningdek, qaysi bolalar o'z tengdoshlarining o'ziga xos simpatiya yoki antipatiyasini, bolalarning bir-biriga aynan nima yoqishini yoki yoqmasligini bilib olish mumkin.

Ushbu metodikaga muvofiq tekshirish alohida-alohida, protokollarni tayyorlash, saqlash va qayta ishlash tartibini va ba'zi shakllarini sinchkovlik bilan kuzatib borish kerak. Bitta psixolog har bir guruhnii tekshirish uchun ikki kun sarflaydi.

Tekshiruvdan so'ng protokol yozildi:

1. Bu bola qaysi guruhning bolalarini ko'proq yoqtiradi, kimni yoqtirmaydi. Bolalarning qaysi biri yaxshi, qaysi biri yomon. Yoqtirish va yoqtirmaslik sabablari;
2. Guruhdagi boshqa barcha bolalarning bu bola bilan qanday aloqasi bor. Bu bolaga yaxshi munosabatda bo'lgan yoki yomon muomala qiladigan bolalar bormi;
3. Bola o'zini boshqalar oldida qanday baholaydi;
4. Bolada nechta o'zaro tanlov mavjud;
5. Bolaning boshqa bolalar uni tanlaydi degan taxminlari qanchalik asosli;
6. Bolaning o'zi tanlashi uning kimmi tanlashi haqidagi taxminlariga qanchalik mos keladi;
7. Uchala parametrning tasodifiyligi: bola o'zi tanlagan, kim uni tanlagan, kim uni o'z taxminiga ko'ra tanlagan bo'lishi kerak.

Protokollarni tahlil qilib, tengdoshlar orasida bolaning haqiqiy holati to'g'risida xulosalar chiqarish, eng tirishqoq va eng sust bolalarni aniqlash, har bir bolaning xususiyatlarini belgilash va har qanday bola uchun muvaffaqiyatsiz yoki to'liq bo'lмаган munosabatlar holatlarini aniqlash mumkin.

Tirishqoq bolalar odatda har qanday faoliyatda muvaffaqiyat qozonadigan, o'ynashga va boshqa bolalar bilan birga bo'lishga qodir, yoqimli va xushchaqchaq bolalar bo'ladilar. Boshqa bolalar ularni go'zalligini, pokligini, itoatkorligini ta'kidlaydilar. Ushbu bolalar yordamida, ularni birgalikda ishlarga topshirish va umumiyligi faoliyatni tashkil qilish orqali, sust bolalarning holatini ko'tarishga harakat qilish kerak. Ularni yotoqlarini, shkaflarini yonma – yon qo'yish qo'yish mumkin, ularning yonida ovqatlanish stoliga o'tkazish va hokazo.

Guruuning eng sust bolalari, odatda, o'z tengdoshlarini yoqtirmaydigan, o'zlarini guruhdagi simpatiyani yoqtirmaydigan va bundan tashqari, juda ishonchhsiz bo'lgan bolalardir. So'rov natijalaridan foydalanib, nima uchun boshqa bolalar bu bolani yoqtirmasligini, nima uchun u boshqalarni yoqtirmasligini aniqlash mumkin va u yomon muomala qilingan deb taxmin qilib, uning o'ziga bo'lgan munosabati yetarlimi yoki yo'qligini bilib, uning xaq yoki noxaq ekanligini aniqlash mumkin.

Ko'pincha bolalar xatolarga yo'l qo'yadilar, bu boshqalarga o'zlariga nisbatan salbiy munosabatni keltirib chiqaradi. Bunday hollarda, kattalar bunday bolalar unga yaxshi munosabatda bo'lishlarini aytib, ularni ishortirishlari mumkin. Buni bilib, bolalar odatda xijolat tortishadi, xursand bo'lishadi va darhol kattalarning so'zlariga ishonch hosil qilishga harakat qilishadi. Tegishli suhabatlar, psixolog va tarbiyachilarining to'g'ri xulq-atvori o'zini o'zi past baxolaydiganlarni o'zgartirish uchun birinchi qadam bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Bolalar o'rtasidagi munosabatlarni to'g'rakashning asosiy usuli - bu turli xil qo'shma faoliyat turlarini va, eng avvalo, syujetli - rolli o'yinni tashkil qilish va boshqarish. O'zaro tengdoshlarning simpatiyasi, qanday qilib yaxshi va qiziqrarli o'ynashni biladigan, o'yinda faol, adolatli, halol va mehribon bo'lganlardir [4].

Ba'zi bolalar uchun to'laqonli o'yin faoliyati o'z-o'zidan hosil bo`lmaydi - bu holda psixolog tarbiyachiga bu bolalarga qanday yordam berish mumkinligini so'zlab berishi va tavsiyalar berishi kerak. O'yin ko'nikmalarini takomillashtirish, qoida tariqasida, tengdoshlar guruhidagi bolaning holatiga ijobjiy ta'sir qiladi.

Tashxis ma'lumotlarini baholash quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi:

1. Shaxsiy diagnostika kartalari (yoki bir guruh bolalar uchun diagnostik kartalar) tuzilib, ularda aniq psixologik faktlar, shuningdek ma'lum bir bola va bolalar guruhiga ma'lum parametr uchun ularning ballari ko'rsatilgan. Rivojlangan ballar ko'lami sifatli ko'rsatkichlarni miqdoriy ifodaga aylantirishga imkon beradi.

Shunday qilib, ma'lum bir bolada ma'lum bir psixologik hodisa shakllanishining individual dinamikasi, shuningdek, ma'lum bir yosh guruhidagi bolalarda har bir tashxis qo'yilgan ko'rsatkichning shakllanish darajasi haqida tasavvurga ega bo'lish mumkin.

2. O'rtacha ballarni aks ettiruvchi jadvallar. Bu ma'lum bir yosh guruhidagi bolalarda umumiyligi rivojlanish muammolarini hal qilishda muvaffaqiyatga erishishni aks ettiruvchi psixologik hodisalarini shakllantirishda qanday umumiyligi tendentsiyalar kuzatilayotganligini va shuningdek, ko'pchilik bolalarda qanday vazifalar qiyinchiliklarga olib kelishini tushunishga imkon beradi. Ushbu ma'lumotlar sizga o'quv jarayoniga tuzatishlar kiritish, ya'ni diagnostika asosida qo'yish imkonini beradi.

3. Umumiyligi rivojlanish vazifalariga ko'ra aniqlangan ma'lum psixologik hodisalarining shakllanishi (rivojlanishi) darajalariga qarab yosh guruhidagi bolalarni taqsimlanishini aks ettiruvchi jadvallar tuziladi.

Bunday jadvallar diagnostika qilingan psixologik hodisalarini monitoringini namoyish etadi, bolalarning ma'lum bir yosh guruhidagi umumiy rivojlanish muammolarini muvaffaqiyatli hal etishni aks ettiradi.

Har bir metod uchun ishlab chiqilgan diagnostika kartalari va xulosaviy jadvallar psixologik tekshiruv natijalari asosida bolalar guruhiga xos bo'lgan xarakterli xususiyatlarni va ularning aqliy rivojlanishining individual imkoniyatlarini aniqlashga imkon beradi.

Psixologning diagnostika faoliyati psixolog tomonidan o'quv yilidagi uzoq muddatli ish rejasiga muvofiq tashxis, rivojlanish va psixoprofilaktik mashg'ulotlar jarayonida, shuningdek, bolalarni erkin faoliyatda va rejim lahzalarida kuzatish jarayonida amalga oshiriladi.

Psixolog to'g'ri muloqot qilishni va unga qanday munosabatda bo'lishni o'rganish bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri ishni tashkil qilishi mumkin. Ko'proq Ya.A. Komenskiyning so'zlariga ko'ra, "mashqlarni tashkil qilish kerak, ular yordamida bolalar hurmatga sazovor bo'lgan hamma narsani ehtiyojkorlik va kuch bilan bajarishni o'rganadilar. So'zlarda, imo-ishoralarda va harakatlarda bebafo qadr-qimmat mavjud. "U bolalarga qonun va qoidalarga ilhomlantiradigan bir nechta so'zlardan chiroyli iboralarini olishni taklif qildi. Rus guruhlarda bunday ish uchun material sifatida V. Mayakovskiy, A. Barto, B. Zaxoder va boshqa shoirlarning juftliklari yoki to'rtliklaridan foydalanish mumkin. Qisqa qofiya qoidalari va baholashlari bolalarning muloqotida va nutqida mavjud bo'lishi juda muhimdir [5].

### Xulosa

Hozirgi kunda ko'p bolalar bog'chalarida bolalar yoshiga qarab guruhlarga bo'lingan. Buning sabablari yetarlicha. Bu, birinchi navbatda, kattalar uchun qulaydir, chunki sinfda o'quv jarayoni yengillashtirilgan, tartib soddalashtirilgan. Bolalarning jismoniy sog'lig'iga g'amxo'rlik qilish uchun har bir yosh uchun mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilgan qat'iy belgilangan tartibni bajarish talablari va tarbiyachilar va psixologlar tomonidan ishlab chiqilgan bolalar bog'chasida o'quv dasturini to'ldirish talabi shu yoshdagi bolalar guruhida eng to'liq va oson bajarilishi mumkin

Keling, ushbu masalaga boshqa nuqtai nazardan yondashishga harakat qilaylik. Hech kimga sir emaski, ko'p oilalarda bitta yoki ikkita bola tarbiyalanadi; katta oilalar hozir juda kam. Ota-onalar va bolalar kam ko'rishadilar, ya`ni ko`p hollarda birgalikda kam vaqt o`tkazadilar. Ota-onalar ishdan keyin, kech kirganda va yakshanba kunlari, odatda bolalar bilan bevosita bog'liq bo'lмаган ko'p faoliyatlar bilan band bo`ladilar. Shu tariqa, bolalar ko'pincha vaqtlarini o'z tengdoshlari bilan bolalar bog'chalarida o`tkazadilar. Ammo u yerda ham ular katta odamlar va o`z yoshiga nisbatan kichik bolalar bilan muloqot qilish imkoniyatidan deyarli mahrum bo`ladilar. Ushbu bo'shlqnini hech bo'lмагана qisman to'ldirish tavsija etiladi. Har xil yoshdagi bolalar guruhlari o'tasida iloji boricha tez-tez aloqalarni tashkil qilish juda muhimdir.

Ushbu aloqalar har kuni turli shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Bolalarni ertalabki ovqatlanish vaqtida, katta yoshdagi bolalar kichiklarga yordam berish kerak: 2-3 ta yoshi katta bolalar kichik bolalarni kiyinshlariga, qollarini yuvishlariga, o'yinlar va erkin mashg'ulotlarni tashkil qilishga yordam berishlari mumkin. Mashg'ulotlar paytida katta guruhdagi bolalar tarbiyachiga xonani darsga tayyorlashga va darsdan keyin tozalashga yordam berishlari mumkin. Ovqatlanish va uslashga yotish va sayr paytida, uchun tarbiyachilarga bolalarni ovqatlanishga kiyintirishga yordam berishi mumkin.

Ushbu tadbirlarni amalga oshirish uchun kichik guruhlarda katta yoshdagi bolalarning vazifalarini belgilash yaxshidir. Birinchidan, barcha katta yoshdagi bolalar bu mashg'ulotlarga navbat bilan yuborilishi kerak, keyinchalik esa bu vazifalar ularni katta ishtiyoq va tirishqoqlik bilan bajaradigan bolalarga yuklanishi kerak. Kichkintoylarga yordam berishda ko'ngilli bo'lgan bolalar maqtovga sazovor bo'lishi kerak.

Sayr paytida tarbiyachilar bolalarni boshqa guruhdagi bolalar bilan muloqot qilishga, qo'shma o'yinlar, ekskursiyalar uyuştirishga undashlari kerak. Kun yakunida esa bolalarning iltimosiga binoan qo'shma tadbirlar, erkin o'yinlar va sokin tadbirlarni tashkil qilish mumkin.

Kamida oyiga bir marta, boshqa guruhlarga tashrif buyurish kerak. Bunday tashriflarning mavzulari bolalarning bir-birlari oldida turli xil chiqishlari, syujetli - rolli o'yinlar, qo'g'irchoq teatrлari namoyish qilish, kinofilm, rasmlar ko'rgazmasi, ilovalar, modellashtirish bo'lishi mumkin. Bolalarni ushbu "mehmonlar" tashrifiga tayyorlashni maxsus tashkil etish kerak - bo'lib o'tadigan umumiy tadbirlar va o'yin-kulgilarni muhokama qilish, xonalarni tozalash, hadyalar va esdalik sovg'alari tayyorlash lozim. Birgalikda dam olish va ular uchun birgalikda tayyorlarlik ko'rish tavsiya etiladi.

Bolalarni keyingi guruhga o'tkazishdan oldin, katta va kichik bolalarning maxsus qo'shma muhokamalarini tayyorlash va o'tkazish tavsiya etiladi, unda Yoshi katta bolalar sizga keyingi guruhdagi bolalarni nima kutayotgani, qanday yangi qiziqarli tadbirlar va mashg'ulotlar kutayotgani haqida so'zlab beradilar.

Bolalarni bolalar bog'chasiga qabul qilishning dastlabki kunlarida ushbu guruhlarda katta yoshdag'i bolalar bo'lishi maqsadga muvofiqdir, ammo barchasi emas, balki bolalarga bolalar bog'chasida yangi hayotga moslashishda yordam beradiganlargina bo'lishi mumkin. Turli guruhlarda bo'lgan aka-uka va opasingillarni bir-birlarini tez-tez ko'rish, birgalikda o'ynash va turli masalalarda bir-birlariga yordam berish tavsiya etiladi.

Turli yoshdag'i bolalar uchun muloqot qilishning boshqa usullarini o'ylab ko'rish va amalga oshirish kerak: bolalar bog'chasin tamomlagan bolalar bilan uchrashuvni tashkil qilish mumkin (ayniqsa, ularning ukalari va singillari bolalar bog'chasida qolsa), maktabga tashriflarini tashkil qilish va boshqalar.

### **Adabiyotlar**

1. Z.T. Nishanova Psixologik xizmat: o`quv qo`llanma – Toshkent. 2007 43- b
2. Савельева Н. Настольная книга педагога-психолога детского образовательного учреждения-Ростов н. Д:Феникс, 2005 38-с
3. Широкова Г. А. Справочник дошкольного психолога. - Изд. 5-е-Ростов н.Д: Феникс, 2007. 58-с
4. Урунтаева Г. А. Афонькина Ю. А. Практикум по детской психологии. -М.: Просвещение: Владос, 1995.92 -с
5. Абрамова Г.С. Возрастная психология: Учебное пособие для вузов. - М.: Академический Проект, 2010. 17 –с

**UDK: 15.37**

### **O'GIL BOLALARINI OIALVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK JIHATLARI**

**Sh. Muratova**

*Samarqand davlat universiteti*

[mleyla84@inbox.ru](mailto:mleyla84@inbox.ru)

**Annotasiya.** Ushbu maqolada, Oilalarning farovonligini ta'minlashda yigitlarning mas'uliyati yanada ortib borilishi, yigitlardagi yuksak sifatlarini shakllantirish, hayotdan munosib o'ren topishi uchun o'smirlik chog'idan mustaqil hayotga tayyorlash lozimligi, barkamol insonni tarbiyalash sohasida faqat o'qituvchigina emas, ota-onalar, hatto keng jamoatchilik ham faol qatnashishi zarurligi yoritib berilgan.

**Kalit so'zi:** O'smir yigitlar, mustaqil hayotga tayyorlash, bilimli, kuchli, sog'lom, botir, vatanparvar, jasur, kasb-kor, go'zal axloq, tarbiya, disgarmoniya (nomuvofiqlik), qattiqqo'llik, chidamlilik va epchillik.

### **Социально-психологические аспекты подготовки мальчиков к семейной жизни**

**Аннотация.** Данной статье подчеркивается необходимость повышения ответственности молодых людей за обеспечение благополучия семьи, формирование у молодых людей высоких качеств, их подготовку к самостоятельной жизни с подросткового возраста, поиск достойного места в жизни, активное участие не только преподавателей, родителей, и широкой общественности.

**Ключевые слова:** Подросток, подготовка к самостоятельной жизни, знающий, сильный, здоровый, отважный, патриотичный, мужественный, профессиональный, добросовестный, воспитание, дисгармония (несовместимость), стойкость, выносливость и ловкость.

### **Socio-psychological aspects of preparing preparing boys for family life**

**Abstract.** This article emphasizes the need to increase the responsibility of young people for ensuring the well-being of the family, the formation of high qualities in young people, their preparation for independent life from adolescence, the search for a worthy place in life, the active participation of not only teachers, parents, and the general public.

**Keywords:** Teenager, preparation for independent life, knowledgeable, strong, healthy, brave, patriotic, courageous, professional, conscientious, upbringing, disharmony (incompatibility), fortitude, endurance and dexterity.

Kirish. Mustaqillik yillarida oila, masalalariga oid olib borilayotgan davlat siyosatida juda katta ijobjiy o'zgarishlar yuz berdi. Zero, oilaning jamiyat ma'nnaviy hayoti, uning barqarorligidagi o'rnvi va nufuzi yuqoridir. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I. A.Karimov ta'kidlaganidek „Har qaysi

millatning o'ziga xos ma'naviyatni shakllantirish va yuksaltirishda, hech shubhasiz o'rni va ta'siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof pokiza tuyg'ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari birinchi galda oila bag'rida shallanadi“. Bu jarayonning dastlabki onlari uchun mas'ul bo'lgan yosh oila va uning xysusiyatlarini bilish davrning dolzarb masalasidir [1].

Oilalarning farovonligini ta'minlashda yigitlarning mas'uliyati yanada ortib bormoqda. Yigitlardagi bunday yuksak sifatlar ayniqsa, ularning o'smirlilik davrida faol shakllanadi.

Sharqda oila, vatan himoyasi yigitlar zimmasidagi sharafli burch hisoblanadi. Shuning uchun yigitlarni tug'ilgandan boshlab jamiyat, xalq, vatan ravnaqi uchun ham ma'naviy, ham jismonan tayyorlash har bir ota-onasi, o'qituvchi-murabbiy, keng jamoatchilikning vazifasi hisoblanadi. Jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilish, mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash, vatan sarhadlarini har tomonlama himoya qilish, oilalarning farovonligini ta'minlashda yigitlarning mas'uliyati yanada ortib bormoqda.

Shunday ekan, nafaqat qizlarni balki yigitlarni ham hayotdan munosib o'rin topishi uchun o'smirlilik chog'idan mustaqil hayotga tayyorlash lozim. Bugungi kunda barkamol insonni tarbiyalash sohasida faqat o'qituvchigina emas, ota-onalar, hatto keng jamoatchilik ham faol qatnashishi zarur. Demak, bugungi kunda o'smir yigitlarni mustaqil hayotga tayyorlash, ya'ni bilimli, kuchli, sog'lom, botir, vatanparvar, jasur va kasb-korga ega etib tarbiyalash borasida ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yigitlar oilaviy hayotga tayyor bo'lishi uchun, avvalo, ular yetarli bilim olishi, hayotiy malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.

O'g'il bolalar balog'at yoshiga yetayotganda jismoniy jihatdan rivojlangan bo'lsa-da, ma'naviy jihatdan hali yetilmagan bo'ladi, ularning organizmida jismoniy va psixik ko'rsatkichlarning rivojlanishi bir tekisda bo'lmay, disgarmoniya (nomuvofiqlik) hodisasi ro'y beradi. Ana shu jarayon atrofdagi odamlarning nojo'ya hatti-harakatlari, o'quv fanlarini o'rganishda o'g'il bolalarning tarbiyasiga doir bilimlarni talab darajasida berilmasligi, o'smir yigitlarda salbiy odatlarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Bunga asosan, o'smir yigitlar tarbiyasiga doir metodik ta'minotning yetishmasligi va eng muhimi, yigitlarni mustaqil hayotga tayyorlash muammosi o'z yechimini topmayotganligidan dalolat beradi.

Demak, yigitlarni mustaqil hayotga tayyorlash tizimini tadqiq etish dolzarb muammolardan sanaladi. Sababi yigitlar mamlakatimiz kelajagi, jamiyatning faol fuqarosi, bo'lajak oila boshlig'i va g'amxo'r otadir. Ayniqsa, yigitlarni oilaviy hayotga tayyorlashga doir ilmiy-psixologik tadqiqotlar olib borilmayotgani, bu muammoni ilmiy-psixologik jihatdan tadqiq etish zaruratini keltirib chiqaradi.

Mamlakatimizda yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlash, ularni bilimli, jismonan va ma'naviy sog'lom, barkamol inson etib shakllantirish bugungi zamoJinsn talabidir. Farzand dunyoga kelishi bilan uni tarbiyalash, ijtimoiy, ma'naviy muhofaza qilish lozim.

Yosh avlodni mustaqil hayotga tayyorlash nazariy hamda amaliy jihatdan hamma vaqt muhim va murakkab muammolardan sanalib kelingan. O'smir yigitlarni mustaqil hayotga hozirgi talablar darajasida tayyorlash uchun ularni erkin fikrlaydigan, har qanday salbiy ta'sirchan g'oyalardan, ong, tafakkur qaramligidan ozod, oilada, atrof-muhitda bo'layotgan voqyea-hodisalarini haqqoniy baholaydigan va ularga erkin munosabatini bildira oladigan, o'zining ilg'or fikrlari, namunasi bilan oila a'zolari, sinfdoshlari, do'stlariga ta'sir qila oladigan, intellektual rivojlangan, tirishqoq, bilimli, kasb-hunar sohibi, jasur va odobli shaxslar sifatida shakllantirish nazarda tutildi.

Buning uchun mamlakatimiz ta'lim tizimida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda.

Har tomonlama jismoniy sog'lom, ma'naviy yetuk va aql-zakovatli bolalar kamol topishi uchun shart-sharoitlar yaratish, ularda pedagogika va psixologiyaning zamonaviy usullarini qo'llash asosida qat'iy bilimlarni, erkin fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, atrof-muhitning boyligi va xilma-xilligi, jahon madaniyati bilan keng tanishtirish; eng yaxshi an'analarimiz va urf-odatlارimiz asosida bolalarni Vatanga va xalqqa muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalashda ota-onalar, ta'lim muassasalari va mahallalarning rolini kuchaytirish" ko'rsatib o'tilgan. Bu albatta, birinchi navbatda yigitlarni mustaqil hayotga tayyorlash muammolarini ham hal etishni taqozo etadi.

Haqiqatan ham yoshlarga pedagogika va psixologiyaning zamonaviy usullarini qo'llash asosida mukammal bilimlar berish hamda ularda erkin fikrlashni shakllantirish, an'ana va urf-odatlарimiz asosida Vatanga sadoqat ruhini tarbiyalash zamirida mustaqil hayotga tayyorlash har bir o'qituvchi va jamoatchilikning muhim vazifasi hisoblanadi.

Shunday ekan, farzand tarbiyasining dastlabki bosqichidayoq yigitlarni kelajakdag'i mustaqil hayotda o'zini-o'zi boshqara oladigan, o'z davrining munosib kishisi bo'lib yetishishi uchun o'qituvchi va ota-onasi

mas'uldir. Ota - farzand tarbiyasida mas'uliyatning birinchi navbatida turadi. Bola to balog'atga yetguncha o'sha mas'ul himoyasida bo'ladi. Agar bola aqlan zaif yoki jismonan himoyaga muhtoj bo'lsa, u holda balog'at yoshiga yetganda ham mas'ul qo'l ostida bo'ladi. Ikkinchisi, farzand hayotida uning kelajagi uchun eng muhim, kelajakdag'i kim bo'lishini belgilaydigan bosqichdir. Chunki bu bosqich farzand uchun ilm, hunarga ega bo'ladigan, jamiyat uchun foyda keltiradigan, jamiyatning bir a'zosi sifatida kamol topadigan davrdir. Haqiqatan ham birinchi bosqichni amalga oshirmsandan, ikkinchi bosqichga o'tish mumkin emas. Shunday ekan, yigitlarni mustaqil hayotga tayyorlashda ota vazifasi katta ahamiyatga ega. Otaning oiladagi mavqyei - farzandlar uchun, ayniqsa o'g'il bolalar uchun jasorat sabog'i. Hyech kimga sir emaski, hozirgi kunda ba'zi o'g'il bolalar ayniqsa, qishloq joylarda o'zining qobiliyatini namoyon qilishga tortinchoqlik qiladi. Bu jarayonda ko'pincha qizlar yetakchi o'r'in egallamoqda. O'g'il bolalarga nisbatan qizlar mакtabda ham jamiyatda ham ustunlikka erishmoqda. Buning sababini pedagog olim T. Qurbanov «Ota bo'lish osonmi» nomli kitobida quyidagicha izohlaydi: o'g'il bola 3 yoshgacha oilada ota-on'a tarbiyasida bo'ladi. Bola 3 yoshdan boshlab bog'chaga boradi, u yerda 4 yil ayol kishi qo'lida tarbiya oladi. Bog'chadan so'ng maktabga boradi. Bu yerda ham boshlang'ich sinfda yana 4 yil ayol o'qituvchi, 5-9-sinfarda ham deyarlik ayollar qo'lida ta'lim-tarbiya oladi. Demak o'g'il bola ayni xarakteri shakllanib, hayotga tayyorlanadigan 13-14 yosh davrini ayollar qo'lida, ayollar tarbiyasida o'tkazadi. Bundan shu narsa ayon bo'ladiki, ayollarga xos tortinchoqlik, itoatkorlik, uyatchanlik kabi xislatlari o'g'il bolalarda ham shakllana boradi. Ayniqsa, yuqorida aytib o'tilganidek, o'g'il bolada tortinchoqlik ustun bo'ladi. Ularda erkak kishidagi jasurlik, botirlik, qattiqqo'llik, chidamlilik va epchillik yetishmaydi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, o'g'il bolani mustaqil hayotga tayyorlashda ota namunasi va ona mehri qo'ttib berilishi zarur. Chunki xalqimizda «Otiga qarab o'g'il o'sar, onaga qarab qiz o'sar» degan maqol bor. Shu sababli mакtabda pedagoglar safida erkak o'qituvchilarining salmog'ini yanada oshirish davr talabidir. Tadqiqot ishlarining ko'rsatishicha, yigitlarni mustaqil hayotga tayyorlashning eng samarali davri bu ularning o'smirlik davri hisoblanadi. ularning mustaqil hayotga tayyorligini belgilovchi axloq mezonlari mavjud bo'lib, u pedagog olimlar tomonidan turlicha talqin etiladi [3].

Yigitlar ongida burch, mas'uliyat va or-nomus tushunchalarini tarkib toptirish-bu kelajakda yaxshi o'g'il, g'amxo'r ota va ishonchli do'st hamda haqiqiy inson va fuqaroni tarbiyalash demakdir.

Yigitlarni mustaqil hayotga tayyorlash tizimini yaratish va uni takomillashtirish bilan bog'liq muammolarni hal etish borasida bir qator ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirilgan. Mazkur muammoning ba'zi jihatlari Sharq va G'arb mamlakatlari mutafakkirlarining fikrlarida, psixolog va pedagog olimlarning ilmiy ishlarida tadqiqq etilgan.

Psixolog olimlar M.G.Davletshin, L.I.Bojovich, G'.B.Shoumarov, E.G'oziyev, V.Karimova, B.Qodirov, M.Umarova, A.Qodirovalar tadqiqot ishlarida bolalarning yosh va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, o'smirlarning aqliy, axloqiy, jismoniy rivojlanishi muammolari yuzasidan tadqiqotlar olib borganlar.

Psixolog olimlar o'smirlik yoshiga xos bo'lgan psixologik xususiyatlarni ochib berar ekan, o'smir shaxsining shakllanishiga ijtimoiy omillar kuchli, biologik omillar esa bilvosita ta'sir ko'rsatadi, deb ta'kidlaydilar. Ijtimoiy omillarga: umumta'lim mакtabida o'qish va bu bilan bog'liq bo'lgan o'quv faoliyatidagi, o'quvchi va o'qituvchilar bilan muloqtdagi o'zgarishlar; mustaqil va amaliy ishlarni ko'proq bajarish natijasida bolaning oiladagi o'rni ham o'zgarib borishi; jismoniy va aqliy imkoniyatlarining o'sib borishi munosabati bilan unga ko'proq ishonch bildira boshlanishi kiradi.

Bola tarbiyasida jinslar harakteri, oila turlari, ota-onalarning ijtimoiy kelib chiqishiga e'tibor berish tarixiy xarakter kasb etadi. Jumladan, qiz bola tarbiyasida onaning, o'g'il bola tarbiyasida otaning roli yetakchi o'rinda bo'lib keladi. O'zbek oilalarida qizlarning hayoli-iboli, uyatchan, tortinchoq, itoatkor, yon bosuvchi, oila boshlig'i erving talablariga bo'ysunuvchan; o'g'il bolalarning esa kuchli, jasur, g'ayratshijoatli, tadbirkor, hukmdorlik qobiliyatlarini shakllantiriladi. O'zbekiston Konstitusiyasiga binoan erkaklar bilan ayollar teng huquqqa ega bo'lishlariga qaramasdan, ularning jinslararo xususiyatlarida, oila, jamiyatdagi vazifalarida, kasbiy munosabatlarida farqlar mavjud. Buni G'arb falsafasida maskulizm va feminizm yo'nalishlarida ilmiy talqin etiladi [2].

Maskulizm-erkaklarga xos bulgan kuchli, irodali, qat'iyatli, kuch-qudratni namoyon etishga intiluvchan, tavakkalchi, qattiqqo'l kabi xususiyatlarni namoyon etishi bilan, feminizm ayollarga xos bo'lgan bo'ysunuvchanlik, itoatkorlik, ta'sirlanuvchanlik, hamdardlik bildirishga, qayg'urishga moyillik xususiyatlarni umumlashtiradi.

Bizning nazarimizda o'g'il va qiz bola tarbiyasida umumiylig bilan bir qatorda xususiylikni ham nazarda tutmoq zarur. Bu o'rinda:

- oilada otaning yoki onaning roli qay o'rinda ekanligi;
- oila a'zolarining qizga yoki o'g'ilga bo'lgan ishonchi, mehri darajasi;

- o'smirga do'stlar munosabati, do'stlar, sinf jamoasi ichidagi o'rni;

- o'g'il bolaning qanday oilada o'sayotganligi (to'liq, noto'liq, tinch, notinch, tadbirkor, ziyoli, ko'pmillatli va boshqa oilalar);

- o'smirning qobiliyati, mayli, qiziqishi, intilishi, o'qishga, o'z burch va vazifalariga mas'uliyat bilan munosabati;

- o'smir o'sayotgan oilaning jamiyatda tutgan o'rni muhim rol o'ynaydi.

Pedagog tadqiqotchilarni noto'liq oilalarda o'smirlarni milliy- ma'naviy tarbiyalash muammosini tadtqiq etar ekan, u shunday ilmiy fikrlarni ilgari suradi: birinchidan, oilada qizni onalikka-onasi, o'g'ilni otalikka-otasi namunasidan, ibrat ko'rsatish jarayonida tayyorlab boradi. Bu kelajakdagi yangi oilaning ma'naviy muhitini, ma'naviy tarbiya mazmunini belgilab beradi. Ikkinchidan, oilada otaning yoki onanining yo'qligi kelajakda qator ma'naviy muammolarni keltirib chiqaradi. Bular:

- onasiz o'sgan o'g'ilda: dag'allik, qo'pollik, xotin-qizlar bilan muomala qila bilmaslik, mehrni ifodalay bilmaslik, hamdard bo'la bilmaslik va boshqalarda.

- onasiz o'sgan qizda: mayinlik, hamdardlik, uquvlilik, ro'zg'or tuta bilish, nazokatlilik kabi fazilatlarning noto'kisliligidagi;

- otasiz o'sgan o'g'ilda: ezmalik, g'iybatchilik, mijg'ovlik, ikkiyuzlamachilik, maydagaplik, yirik ishlarni qilishga layoqatsizlik, beqarorlik kabi sifatlarning paydo bo'lismida;

- otasiz o'sgan qizda: ojizlik, yigitlar bilan, umuman erkaklar bilan muloqot qila bilmaslik, odamovilik, cho'chish, qo'rqaqlik, mas'uliyatni olabilmaslik kabi sifatlar mavjud bo'ladi. Bu esa nafaqat noto'liq oilada, balki ularning bo'lajak oilalarida ham namoyon bo'lib, ularning bo'lajak farzandlariga ham ma'lum darajada ma'naviy zarar yetkazadi.

O'smir yigitlarni mustaqil hayotga tayyorlash sog'lom avlodni dunyoga keltirish va tarbiyalashning tarkibiy qismi bo'lib, avvalo u sog'lom turmush tarzini shakllantirish negizida qaror topadi [3].

Pedagoglarning fikricha, yigitlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish asosida mustaqil hayotga tayyorlashda sog'lom turmush tarzining quyidagi komponentlariga e'tibor bermoq lozim: irodani chiniqtirish, jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishni o'z ichiga oluvchi faol harakat tartibi; mehnat qilish, dam olish va ovqatlanish rejimi, ya'ni kun tartibiga rioya etish; shaxsiy va umumi gigiyena talablariga rioya qilish; atrof-muhitni muhofaza qilish (ekologiya va salomatlik); baxtsiz hodisa va jarohatlardan ogohlantirish; zararli odatlardan saqlanish; atrofdagilar bilan oqilona munosabat; shuningdek, barcha sanab o'tilganlarning zamirida mehnat yotishini, mehnat insonning tarbiyalanishida asosiy vositalardan biri bo'lishi mumkinligini tarbiyalanuvchilar ongiga singdirish uchun harakat qilmoqlari zarur.

Yigitlarni mustaqil hayotga tayyorlashda kitobxonlikning roli nihoyatda katta. Ayniqsa, o'smir hayotida kitob uni mustaqil fikrlashga, keng dunyoqarashga, ijtimoiy faolligini oshishiga, e'tiqodli, vatanga sadoqatli bo'lishga o'rgatadi. Bular uning mustaqil hayot kechirishida asosiy ma'naviy mezonlar hisoblanadi. O'smirlarni kitobxonlik asosida hayotga tayyorlashda ota-onalar, o'qituvchi-tarbiyachilar faoliyati samaradorligini ta'minlashning o'ziga xos tamoyillari mavjud bo'lib, ular o'smir yigitlar tarbiyasi uchun ham taalluqlidir.

S.Chinniyeva uni quyidagicha tasnif etadi: o'smirning yoshi va tayyorgarlik darajasiga mos kitoblarni tanlash; oilada kitob zahirasini hosil qilish; oilada bolalarning kitob o'qishini kuzatish va kitob o'qishni tizimli tashkil etish; oilada o'smirlarda kitobga mehr uyg'otish va kitoblarni avaylab-asrash ko'nikmasini hosil qilish; kitob o'qishning samarali metod va usullaridan foydalanit; o'qilgan kitoblarni hisobga olib borish va ular haqidagi fikrlarni aniqlab borish; kitob o'qishni bosqichma-bosqich olib borish; bolalarni o'qigan kitoblari yuzasidan fikr yurita olishga o'rgatish; o'smirni kitob o'qishga majbur qilish emas, ularda xohish-istik uyg'otish; o'smirlar kitobxonligini tashkil etishda oila, maktabi tizimini yaratish kabilardan iboratdir. Bizning nazarimizda, mazkur tamoyillar sirasiga kitob o'qish va tanlashda ota-on, o'qituvchi namunasi; elektron kutubxonalardan samarali foydalanish; o'qilgan asarlardagi ilg'or fikrlarni o'z hayotlarida amaliyotga tatbiq etishga o'rganish kabi tamoyillarni ham kiritish zarur.

Ma'lumki, o'smirlar yoshiga o'tayotgan davrda ayniqsa o'g'il bolalarning xulq-atvorida salbiy alomatlar ham ro'y beradi. Masalan, qaysarlik, o'jarlik, o'z kamchiliklarini tan olmaslik, o'qituvchining aytganini o'z vaqtida bajarmaslik kabi odatlar o'qituvchiga ancha qiyinchilik tug'diradi. O'qituvchi o'z pedagogik mahorati bilan o'smir yoshidagi o'g'il bolalar yomon yo'llarga tuttib ketmasligi uchun oldini olishi kerak. Shu boisdan pedagog o'quvchining faqat xulq-atvoriga va axloqiga baho bermasdan, psixologik sabablarini ham bilishi zarur.

Devid Mayersning fikricha, jinsiy tafovutlar o'smir yoshidan namoyon bo'la boshlaydi. Xususan, o'g'il bolalar mustaqillikka, qizlar esa o'zaro bog'liqlikka intiladilar. Shuning uchun ham o'smir o'g'il bola

o'z oilasida ko'proq mustaqillikka bo'lган, lozim bo'lganda ochiq agressiya namoyon qila oladigan otaga taqlid qiladi; qiz bola esa hissiy-emosional psixologiya sohibasi bo'lган onasiga yaqinroq bo'lishga harakat qiladi. Natijada oiladagi bunday o'ziga xos munosabatlar o'smirlarga xos xarakter xususiyatini tez va aniq ilg'ash imkoniyatini yaratadi [4].

Yigitlarda mustaqillikni shakllantirish uchun mustaqil ishlarni amalga oshirish kerak. Mustaqil ish bajarish uchun shaxsan o'zini- o'zi idora qila olish lozim. O'smirning mana shu yoshda mustaqil harakat qilishda o'z kuchiga ishonmasligi, atrofdagilarning qarama-qarshi fikrlari bolaga ta'sir etishi mumkin. Shu sababli o'smir yigitlarni o'ziga ishonch va qo'lidan keladigan ishlarni hyech kimning yordamisiz vazminlik bilan, o'jarlik va ishyoqmaslik qilmasdan bajarishga da'vat etishimiz maqsadga muvofidir.

O'smirlik yoshidagi yigitlarda o'z-o'zini hurmat qilish va o'z-o'zini anglashni shakllantirishning bir qancha yo'llari mavjud. Shulardan biri o'zini biror bir katta yoshli shaxsga o'xshatib rivojlantirish, chunki bu katta kishi bolaning ko'z o'ngida mustaqil ishni qila oladigan timsolda gavdalanadi. Shuning uchun o'smir yoshidagi bolaning birinchi galda intiladigan narsasi u endi kichkina emas, o'zini katta bo'lib qolganligiga atrofdagilarni ishontira olishdan boshlaydi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, o'g'il bolalarda bunday xislatlarni shakllantirish uchun o'qituvchi o'g'il bolalar bilan ko'proq shug'ullanishi kerak. O'qituvchi mazkur yoshda bolaning o'z-o'zini hurmat qilish tuyg'usini shakllantirishi muhim ekanligini hisobga olib, o'quvchini umummaqtab jamoasi oldidagi obro'sini ko'tarish yo'llarini izlashi kerak. Buning uchun o'qituvchi bolaning u yoki bu sohadagi yutuqlarini ko'pchilikka ma'lum qiladi, uning ayrim hato va kamchiliklarini yo'qotishda donolik bilan ish tutib, ularni darrov ko'pchilikka oshkor qilmay, o'smir bilan suhbatlashib, uning kuchi, bilimi va imkoniyatlariiga ishonishini amalda ko'rsatadi. Bunday qo'llab-quvvatlashning kerakligini yaxshi his qilgan o'smir beixtiyor o'qituvchining ta'siriga beriladi, chunki o'qituvchi o'smirning munosabatlarini yo'lga qo'yishda unga zarur kishiga aylanib qoladi.

### **Adabiyotlar**

1. Ислом Каримов. Юксак маънавият – ёнгилмас куч . – Т.: Маънавият, 2008 – 52 б.
2. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси: XII чакирик. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг XI сессиясида 1992. 8 декабрда қабул қилинган. – Т.: “Ўзбекистон”, 1998. – 216.
3. Umarov B.M. O'smirlar suisidal xulqining yosh psixologik xususiyatlari. Psixol. fan. nomzod. dis.– Т.: 1993.-154b.
4. Devid G. Mayers. Psixologiya. © 2010 by Worth Publishers 205 page.

UDK 314.74

**MEHNAT MIGRATSİYASI VA UNİNG SALBIY OQIBATLARINI BARTARAF ETİSH  
YO'LLARI**

S.S. Gulyamov<sup>1</sup>, M.M. Muxammedov<sup>2</sup>

<sup>1</sup>*Davlat statistika qo'mitasi huzuridagi kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti*

<sup>2</sup>*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti*

**Annotatsiya.** Dunyoda ro'y berayotgan globallashuv mehnat migratsiyasi jarayonini oshirishga sabab bo'lmoqda. Ayni paytda aholi migratsiyasi rivojlanayotgan davlatlar uchun iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishning hamda rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ishsizlik muammosini yumshatishning muhim omillariga aylanib bormoqda. Hozirgi zamonaviy bosqichda hech bir mamlakat migratsiya munosabatlardan chetda qolgani yo'q. Shu sababli, mehnat migratsiyasi va uning salbiy oqibatlarini bartaraf etish yo'llarini o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Globallashuv, mehnat bozori, ishsizlik, mргatsiya, kasbiy tayyoragarlik, qishloq xo'jaligi.

**Трудовая миграция и пути предотвращения ее негативных последствий**

**Аннотация.** Глобализация ведет к усилению процесса трудовой миграции. В то же время миграция населения становится важным фактором экономического и социального развития для развивающихся стран и смягчает проблему безработицы для развивающихся. На современном этапе ни одна страна не осталась вне миграционных отношений. Исходя из этого, изучение проблем трудовой миграции и путей преодоления ее негативных последствий является одной из актуальных проблем.

**Ключевые слова:** глобализация, рынок труда, безработица, миграция, профессиональная подготовка, сельское хозяйство.

**Labor migration and the ways to prevent its negative consequences**

**Abstract.** Globalization leads to an intensification of the labor migration process. At the same time, population migration is becoming an important factor in economic and social development for developing countries and alleviates the problem of unemployment for developing countries. At the present stage, not a single country has been left out of migration relations. Based on this, the study of the problems of labor migration and ways to overcome its negative consequences is one of the important problems.

**Keywords:** globalization, labor market, unemployment, migration, vocational training, agriculture.

**Kirish**

Jahon xo'jaligi rivojlanib, mamlakatlararo integratsion aloqalar kuchayib borgan sayin, mehnat migratsiyasi ham tobora intensivlashib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlar va iqtisodiy qoloq mamlakatlar o'rtasidagi farqlarning uzluksiz chuqurlashib borayotgani ham ushbu jarayonlarni jadallashtirishga kuchli ta'sir ko'rsatmoqda. Chunki mehnat migratsiyasi kishilik jamiyati taraqqiyotining hozirgi bosqichida migratsiyaning o'ziga munosib ish va yuqori daromad topish maqsadida amalga oshirilgan alohida turi bo'lib, iqtisodiyoti og'ir ahvolda bo'lgan kam rivojlangan mamlakatlarda bandlik va ish haqinig o'tkir muammolarini hal etishning asosiy vositalaridan biriga aylandi. Tabiiyki, siyosiy mustaqillikka erishgan, lekin ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotda o'tmishdan qolgan merosning og'ir muammolarini uzil-kesil hal etish zaruratiga duch kelgan O'zbekiston ham XX asrning fenomeni – mehnat migratsiyasi jarayonlaridan chetda qolish imkonini topolmadidi.

**Mehnat migratsiyasi: sabab va oqibatlari**

Erkin bozor munosabatlarni shakllantirish maqsadida o'tish jarayonlarini boshidan kechirgan barcha mamlakatlar tajribasida bir iqtisodiy tizimdan boshqasiga o'tishda ijtimoiy ishlab chiqarish munosabatlari tarkibida tub o'zgarishlar zarurligi, o'tish jarayoni faqat katta qiyinchiliklar va yo'qotishlar evaziga amalga oshishi mumkinligi bugungi kunda barchaga ayon. Ushbu tizimning eng murakkab, muammoli va aholi turmush darajasini shakllantirishda birinchi galda mehnat munosabatlari ahamiyatga ega ekanligini istisno etib bo'lmaydi. Shu sababli O'zbekistonda ham mamlakat real hayotidagi tub o'zgarishlar birinchi navbatda mehnat munosabatlariliga benihoya kuchli ta'sir ko'rsatdi. Natijada iqtisodiy islohotlar jarayonida bozor munosabatlariiga asoslangan iqtisodiy tizimga xos, uning ajralmas qismi va doimiy yo'loshi bo'lgan ishsizlik fenomeni yuzaga keldi. Iqtisodiyotda kechgan ob'ektiv jarayonlar

oqibatida minglab, millionlab kishilar ishsiz qoldi, o'zlarining daromad manbaidan ajraldi. Endigina mustaqillikka erishgan yosh Respublikada kasbiy ta'lif tizimi mamlakatda shiddat bilan shakllananib borayotgan bozorning real talablaridan kelib chiqqan holda malakali mutaxassislар tayyorlash va qayta attyorlash tizimiga hali moslashib ulgurmagan edi. Natijada mehnat bozorida ishchi kuchi taklifi va unga talab o'rtasida keskin tarkibiy disbalans yuzaga keldi va bozor munosabatlari o'rashib borgan sayin tobora chuqurlashib bordi. Bularning hammasi ish haqi oila daromadining yakkayu-yagona manbai bo'lgan yollanma ishchilar uchun haqiqiy fojiaga aylandi, ularni yuzaga kelgan tang vaziyatdan chiqish, oilani ta'minlash choralarini izlashga majbur qildi.

O'zbekistonda ishsizlikning yuzaga kelishi va keskin tus olishining hamda sobiq ittifoqdosh respublikalariga nisbatan yanada asoratliroq kechishining inkor etib bo'lmaydigan o'ziga xos jihatlari va chuqur sabablari bor edi. Bular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

- sovet tizimidan meros bo'lib qolgan ijtimoiy sohaning beo'xshovligi;
- sovetlar hukumatining sun'iy yaratilgan, lekin ish haqi o'ta past, turmush darajasini ta'minlashning xalqaro standartlariga batamom mos kelmaydigan ish o'rnlari tashkil etish vositasida aholining to'la bandligini ta'minlash siyosati;
- sovetlar imperiyasining yemirilishi oqibatida respublikalararo lateral (gorizontal) iqtisodiy aloqalarning izdan chiqishi;
- murakkab demografik vaziyat;
- oila tarkibida boqimandalar ulushining kattaligi;
- bozor munosabatlari o'tish davri qiyinchiliklari ta'siri ostida ishlab chiqarish mutlaq hajmining qisqarishi;
- iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarning sodir bo'lishi;
- eksport tarkibida xomashyo resurslari ulushining yuqoriligi;
- bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida ekstensiv omillarning intensiv omillarga almashuvi natijasida ishchi kuchi nisbiy ortiqchaligining yuzaga kelishi va hokazolar.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston bir vaqtning o'zida bir nechta o'tish davrini boshidan kechirdi. Birinchidan, qaramlikdan mustaqillikka o'tish, buning oqibatida imperiyaning yemirilishi hamda yaxlit organizm tarkibida ko'p yillik vertikal va gorizontal iqtisodiy aloqalarning izdan chiqishi natijasida ittifoq ko'lamidagi ko'plab yirik-yirik korxonalarining yopilib ketishi yoki og'ir holatga tushib qolishi. Ikkinchidan, bir iqtisodiy tizimidan boshqasiga o'tish, iqtisodiyotdagи chuqur tarkibiy o'zgarishlar, talabning keskin qisqarishi va hokazolar. Uchinchidan, boqimandalik kayfiyatidan ishbilarmonlik va tadbirkorlik faoliyatiga o'tishning muqarrarligi. Ma'lumki, sovet tizimidan bizga meros bo'lib qolgan ijtimoiy xulq-atvor odamlarning yashash uchun naf keltiradigan tinimsiz mehnat qilish kerakligini unutishga olib keldi. Bozor munosabatlari nafaqat tinimsiz nafli mehnat qilishni, balki ishni ko'zi biladigan, yo'qni bor qiladigan tadbirkor bo'lishini ham talab qildi.

Qadim zamonlarda bir buyuk faylasuf o'tish davrida yashash azoblaridan meni Yaratganning o'zi asrasin, degan ekan. Bir yo'la bir nechta murakkab o'tish jarayonlarini boshidan kechirgan O'zbekiston iqtisodiyotida qanchalik og'ir, qanchalik murakkab vaziyat yuzaga kelganligini, kun bo'yi ter to'kib oilasini arang tebratayotgan oddiy ishchi uchun naqadar ayanchli bo'lganligini to'la tasavvur qilish uchun zabardast iqtisodchi bo'lish shart emas. Mantiqiy tafakkur va aql-idrok bilan vaziyatni oqilonan baholashning o'zi kifoya qiladi.

Darhaqiqat, O'zbekiston mustaqillikka erishgan davrda qishloq xo'jaligi milliy iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lib, unda jami iqtisodiyotda band bo'lgan aholining 1/3 qismi ijtimoiy foydali mehnat bilan band edi, hozir esa u 26 foizgacha tushdi. Shu davr mobaynida qishloq aholisi tarkibida mehnat resurslarining 1,6 martaga ko'payganligini ham hisobga olsak, qishloq joylarda mehnat bozorida ishchi kuchi taklifi va unga bo'lgan talab o'rtasidagi nomutanosiblikning yanada chuqurlashganligini ko'ramiz va ishsizlik darajasining oshib borishi tabiiy jarayon ekanligiga amin bo'lamiz. Umuman qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholi sonining tobora qisqarib borishi va jami iqtisodiyotda band aholi sonidagi ulushining pasayishi jahon xo'jaligi tarkibida ro'y berayotgan global tendensiyalarga xos bo'lib, nazarimizda O'zbekistonda ham ushbu jarayonlar kelgusida jadallahishi muqarrar. Iqtisodiy jihatdan rivojlangan G'arb davlatlarida ushbu ko'rsatkich 3-5 % atrofida ekanligi, Germaniyada esa 2% dan ham pastligi fikrimizning yorqin dalilidir. Bu shuni anglatadiki, g'arb dehqoni 20-33 kishini, nemis dehqoni 50 kishini, o'zbek dehqoni esa atigi 4 kishini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlaydi.

Kelajakda fermer xo'jaliklari moliyaviy ahvolining yaxshilanib borishi natijasida qishloq xo'jaligining moddiy-texnika bazasi rivojlanadi va bandlik darajasining qisqarish jarayonlari yanada jadallahadi va ushbu omil ta'sirida mehnat bozoridagi vaziyat yanada keskinlashadi.

Ish izlab xorijga chiqqan mehnat migrantlariga nisbatan davlat va jamiyatning, qolaversa har bir O‘zbekiston fuqarosining munosabatini shakllantirishda masalaning yuqorida zikr eitilgan jihatlarini albatta inobatga olish lozim. Shundagina ular tanlagan yo‘lga adolat yuzasidan, oqilona baho berish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Afsuski, ayrimlar mehnat migrantlarini qanoatsizligi, yengil-elpi hayotga moyilligi, go‘yoki yurtimizdagi qiyinchiliklarga dosh bermasdan, oson yo‘llar bilan mo‘may daromad topish maqsadida vatanini tark etganlikda aybdor qilib ko‘rsatishga urinadilar. Aslida ham shundaymi?

Mustaqillikning dastlabki yillarda mamlakatda erkin bozor iqtisodiy munosabatlarini shakllantirish hamda o'tish davrining tabiiy qiyinchiliklari oqibatida yuzaga kelgan va tobora avj olib borayotgan ishsizlikning oldini olish, imkon qadar uning ko'lamini jilovlashning, ya'ni ishsizlik muammosini oqilona hal qilishning ikki yo'li bor edi.

Birinchi yo'l – bu mamlakatda ko'plab yangi ish o'rinlarini yaratish va o'tish davri qiyinchiliklari hamda tizimli o'zgarishlar oqibatida barcha ishdan bo'shaganlarni yangidan yaratilgan ish o'rinlariga joylashtirish. Muammoning yechimi sifatida davlat iqtisodiy islohotlarning dastlabki bosqichlaridayoq kichik va xususiy tadirkorlikka keng yo'l ochib berish, unga imtiyozlar berish, qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishning tezkor choralarini ko'rish siyosatini tutdi. Lekin, endigina mustaqillikka erishgan va o'tish davri inqirozini boshidan kechirayotgan mamlakatda ishsizlik muammosini uzil-kesil hal etishda davlatning moliyaviy imkoniyatlari benihoya cheklangan edi. Boz ustiga xalqimizda tadbirkorlik bilan shug'ullanish va uning hisobidan daromad topish tajribasi hali shakllanmagan edi. Chunki buning uchun sifatli va zamonaviy mahsulotlar ishlab chiqarishga moslashgan ko'plab yangi zavod va fabrikalarni ochish, katta hajmdagi investitsiyalarni jalg etish lozim edi. Ushbu yo'lning Respublika manfaatlariga qay darajada mos keishidan va istiqbolli bo'lishidan qat'iy nazar, lekin real hayotda uni amalga oshirishning hech qanday iloji yo'q edi.

Ikkinch yo‘l – aholiga boshqa mamlakatlarga chiqib, tirikchilik qilishlari, oilasini boqish uchun imkoniyat yaratib berish, aniqrog‘i mehnat migratsiyasiga yo‘l ochib berishdan iborat edi. Respublikamiz uchun bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida ana shunday mashaqqatli va beqaror vaziyatda ishsiz qolganlarning bir qismi, aniqrog‘i nomigagina bandlikda bo‘lib, maosh olib yurganlar yoki ishdan bo‘shab, ishsizlar toifasiga mansub bo‘lganlar mana shu ikkinchi yo‘lni tanlashga majbur bo‘lishdi. Birinchi yo‘l bilan muammoni yechish va juda og‘ir ahvolga tushib qolgan, iqtisodiy nochor aholi qatlamlariga yordam ko‘rsatish, zavod va fabrikalar qurib, ko‘plab yangi ish o‘rnлари yaratish imkoniyaga ega bo‘lмаган yosh davlat uchun, u shuni xohlaydimi, yo‘qmi, qat’iy nazar, mehnat migratsiyasi muammoli og‘ir vaziyatdan chiqishning yakkayu-yagona yo‘li edi, desak ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz.

Mehnat migrantlari mustaqil O'zbekiston uchun mana shunday tahlikali va o'ta og'ir vaziyatda o'z zimmasiga juda katta mas'uliyatni olib, hayotini xavf-xatarga qoldirib, noilojlikdan ona Vatanni tark etishga, tug'ilib o'sgan yurtidan usoq-usoqlarga ish izlab chiqishga majbur bo'ldilar. Shu boisdan ham muhojirlikda ishlab yurgan yur mehnat migrantlariga barmoq uchi bilan qarash yoki ularni yengil-elpi hayotni izlashda ayblash kaltabinlikdan o'zga narsa emas, deb baholash mumkin.

Demak, mehnat migratsiyasiga, uning sabab va oqibatlariga ijtimoiy adolat yuzasidan xolisona baho beradigan bo‘lsak, o‘sha davrlarda o‘z xalqining boshqa mamlakatlarda ishlab daromad topishi uchun imkoniyat bergen davlat uchun ham, begona yurtlarda ishlab, oilasi uchun musofirchilik mas’uliyatini, uning barcha xavf-xatarlarini mardlik bilan bo‘yniga olgan yurtdoshlarimiz uchun ham noilojlikdan yuzaga kelgan maiburiv “iloi” edi.

Mehnat migratsiyasining kelib chiqish sabablari qanchalik murakkab, uning ildizlari qanchalik chuqur bo'lmasin, davlatimizning, xalqimizning, qolaversa har birimizning unga nisbatan munosabatimiz, uning kelajagiga nisbatan aniq strategiyamiz shakllanmog'i lozim. Bizning nazarimizda, bunday strategiyaning shakllanishi mamlakatiimz ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini, uning istiqbolli kelajagini ta'minlash nuqtai nazaridan benihoya katta ahamiyat kasb etuvchi mehnat migratsiyasining dolzarb muammolarini yurt manfaatlari yuzasidan oqilana hal etishning asosiy sharti bo'lib xizmat qiladi. Ushbu strategiyaning negizida, bir tomondan. mehnat migratsiyasining moddiy jihatlari, ikkinchi tomondan esa, ma'naviy-axloqiy jihatlari bo'lmoshni lozim. Mehnat migrantlari yana qancha vaqt begona yurtlarda muhojirlikda yashab, oila tebratishi kerak degan hayotiy savolga aniq javob mana shu strategiyada o'z aksini topmog'i lozim.

#### Mehnat miratsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot jarayonlariga ta'siri

Bizningcha, mehnat migratsiyasini – O'zbekiston uchun iqtisodiy jihatdan zararli, mamlakat ravnaqi yo'lidagi eng katta to'siqlardan biri sifatida baholash lozim. Ma'naviy jihatdan esa boy tarixga, ibratli an'analarga, xalqlar o'rtasida o'ziga xos obro'-e'tiborga ega bo'lgan xalqimizning shon-shuhrati va sha'niga tamoman mos kelmaydigan yogelik sifatida qarash lozim. Shu sababli mehnat migratsiyasida

yurganlarni o‘z yurtiga qaytarishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqib, ularni amaliyotga joriy qilish maqsadga muvofiq. Nazrimizda, ushbu strategiyani amalga oshirish juda og‘ir jarayon bo‘lib, katta safarbarlikni va albatta uzoq vaqtini talab qiladi.

Mehnat migratsiyasining murakkab, ayni paytda mamlakat jitimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va kelajak istiqboli nuqtai-nazaridan o‘ta dolzarb muammolarini yechishga doir o‘z yondashuvlarimizning mohiyatini batafsil ohib berishga urinib ko‘rmoqsiz. Mustaqillikning dastlabki yillarda mehnat migratsiyasining keng quloch yoyishini mamlakatda favqulodda yuz bergen og‘ir vaziyat, nochor holat, ilojsizlikdan ko‘ra ko‘rilgan tezkor iloj sifatida qabul qilish mumkin. Lekin keyingi o‘tgan davrdan bugunggacha butun bir avlod tug‘ilib voyaga yetdi. Agar davlatni mustaqillikning dastlabki benihoya og‘ir, mashaqqatli yillarda va favqulodda vaziyatlarda iqtisodiy nochor aholi qatlamlariga yordam ko‘rsatishdan ko‘ra mehnat migratsiyasi uchun eshiklarini keng ohib bergenlikda ayplashga haqlı bo‘lmasakda, oradan shuncha yillar o‘tib, mehnat migratsiyasi muammosini hanuzgacha hal etmaganlikda, hozirgi kunda ham son-sanoqsiz yurtdoshlarimiz begona yurtlarda ish izlab yurganligi sabablarini bartaraf eta olmaganlikda ayplashga tom ma’noda haqlimiz.

O‘zbekistonda hamon davom etayotgan ushbu voqelikning eng katta aybdorlaridan biri olimlar, ayniqsa iqtisodiy soha ilmi ahlidir. Aynan ular iqtisodiy jabhaning bepoyon kengliklarida O‘zbekiston uchun eng katta samara berishga qodir tayanch nuqtalari-yu “o‘sish qutb”lari”ni izlab topishlari, mamlakatni taraqqiyotning ravon yo‘liga olib chiqishda xalqimizga, davlatimizga yaqindan yordam berishlari, yangi iqtisodiy jarayonlarning haqiqiy tashabbuskori va harakatga keltiruvchi lokomotivi bo‘lmoqlari shart. Albatta, jamiyat iqtisodchi olimlarning maslahatlariga, ilmiy g‘oyalariga ehtiyoj sezmagani, o‘z fikrini erkin bayon etish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan o‘tgan davr muammolar uchun zamonamiz olimlarni ayplash adolat tamoyillariga mos kelmaydi. Lekin hozirgi oshkorralik davrida, o‘z g‘oyalarini va ilmiy taklif hamda tavsiyalarini erkin bayon qilishga barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan zamonda olimlarimizga nima xalaqit berayapti, degan savol tug‘iladi?

Shunisi quvonarlikni, keyingi vaqtarda mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq masalalarga davlatimiz, shaxsan davlat rahbari, katta e’tibor qaratmoqda. Yaqinda mamlakat Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev tomonidan «Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorning imzolanishi fikrimning yorqin dalilidir. Ushbu qaror, Prezident rahbarligida davlatimiz tomonidan xalq farovonligini oshirish, davlatimizning xalqaro nufuzini ko‘tarish, mamlakatni noto‘g‘ri shakllantirilgan va bizga yaxshi samara bermayotgan mehnat migratsiyasi illat va kamchiliklaridan xolos etishga qaratilgan dadil qadam. 2021 yil 1 yanvardan boshlab tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasini yo‘lga qo‘yish va unga asosan xorijga chiqib ketayotgan shaxslarni ishga yuborishdan oldin majburiy tartibda kasb-hunarga o‘qitish va tilni o‘rgatish tizimining joriy etilishi – O‘zbekistonda mehnat migratsiyasi muammosini katta aql bilan hal etishning bosh nuqtasi deb hisoblaymiz. Qarorda mamlakatda mehnat migratsiyasiday dolzarb muammoni hal etishning aniq mexanizmlari o‘z ifodasini topgan va uni amlga oshirish yo‘llari belgilab berilgan.

### **Mehnat migratsiyasi muammolarini bartaraf etish yo‘llari**

Bizning nazarimizda, mehnat migratsiyasi muammosini hal etishning ikkita assosiy yo‘li bor. Birinchisi – mehnat migratsiyasini O‘zbekiston mehnat bozoridagi ishchi kuchi taklifi va unga bo‘lgan talab o‘rtasidagi nomutanosiblikni bartaraf etish, mehnat migrantlari ishlab topgan daromad hisobidan milliy iqtisodiyotga qo‘sishma madad berish vositasi sifatida qarash siyosatini davom ettirish. Bu mamlakatda bandlik muammosini hal etishning eng oson va kamchiqim yo‘li. Lekin ushbu yo‘l tutilgan taqdirda ham, mehnat migrantlarini, ularning huquq va erkinliklarini qo‘llab-quvvatlash, davlat darajasida himoya qilish, ularga moddiy va ma’naviy yordam ko‘rsatishning samarali mexanizmlari ishlab chiqilishi va keng ko‘lamda hayotga tadbiq etilishi lozim, deb o‘ylaymiz.

Ikkinchisi – mehnat migratsiyasidan va undan kelayotgan barcha daromadlardan butkul voz kechish, mehnat migratsiyasini respublika manfaatlariiga mos kelmaydigan faoliyat turi sifatida batamom tugatilishiga erishish. Bu ancha murakkab va mashaqqatli yo‘l bo‘lib, juda katta sa‘y-harakatlarni va qat’iy choralar ko‘rishni taqozo etadi. Bu vaqtincha qiyinchiliklar va iqtisodiy yo‘qotishlar evaziga amalga oshadi. Lekin mehnat migratsiyasiga qarshi siyosat doirasida iqtisodiy mexanizmlar yaratilib, ular harakatga keltirilishi oradan 5-6 yil o‘tar-o‘tmas makrodarajada o‘zining ijobjiy natijalarini bera boshlaydi.

Mamlakatda mehnat migratsiyasidan batamom voz kechish va asta-sekin uni xalqimiz uchun yurt xazinasini tildirish turi sifatidagi ahamiyatini tugatish siyosati tanlangan va u muvaffaqiyatli amalga oshirilgan taqdirda, ushbu siyosat yangi O‘zbekistonga to‘rt tomonlama manfaat keltiradi. Bu:

Birinchidan, iqtisodiy o‘sish sur’atlarini jadalashtirish va milliy boylikni ko‘paytirishga ko‘mak beradi. Ushbu samara mehnat migrantlarining mulkdor foydasiga qo‘sishma ish vaqtida yaratgan

qo'shimcha qiymatining boshqa davlatlarning xazinasini to'ldirishga emas, balki mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotini ko'paytirishga qo'shgan hissasi orqali namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, O'zbekistonning xalqaro nufuzini, imijini oshirishga katta ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchidan, o'z xalqi to'g'risida g'amxo'rlik qilgan, uni musofirchilik qynoqlaridan xolos etgan davlatga nisbatan xalqning hurmati, undan roziligi ortadi.

To'rtinchidan, juda katta ma'naviy samaraga erishiladi. Begona yurtlarda musofirchilikda turli xil nohaqliklarga, kamsitishlarga duchor bo'layotgan yurtdoshlarimiz migratsiya azob-uqubatlaridan xolos bo'ladilar, o'z ona yurtlarida erkin-emin hayot kechirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yilda chet elda yurgan mehnat migrantlari tomonidan O'zbekistonga rasmiy kanallar orqali jo'natilgan mablag'lar 4,6 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan. Buning ustiga ro'yxatdan o'tmagan mablag'larni, mehnat migrantlarining shaxsiy iste'moli xarajatlarini (ayrimlarining esa oilaviy iste'mol xarajatlirini) ham qo'shib hisoblasak, manzara yanada oydinlashadi.

Rasmiy statistik ma'lumotlarga ko'ra 2019 yilda O'zbekiston aholisining 2,5 million nafari yoki 7% i mehnat migrantlari hisoblanadi. Shundan 2 million atrofida fuqarolar Rossiyada mehnat qiladi. Mehnat migrantlari tomonidan jo'natilgan pul mablag'lari 5,1 mlrd AQSh dollari, yoki mamlakat YAIM taxminan 10% ni tashkil qilgan. Bunda har bir muhojir oyiga o'rtacha 166,7 AQSh dollari miqdorida mablag' ishlab topgan.

Bu juda katta raqamlar. Boshqacha so'zlar bilan ifodalaganda, mehnat migrantlari ishlab topayotgan daromadlar O'zbekiston yalpi ichki mahsulotiga nisbatan taxminan 20 foizni tashkil qiladi. Tabiiyki, O'zbekiston buncha miqdordagi mehnat migrantlarini ish bilan ham, arzigulik daromad bilan ta'minlashga qurbi yetmaydi. Demak, mehnat migrantlari muammosini hal etishda ikkinchi yo'l tanlangan taqdirda ham, uni muayyan ketma-ketlikda turli xil yuqori samarali tashkiliy va iqtisodiy (zarurat taqozo etganda ma'muriy) vositalar yordamida bosqichma-bosqich, lekin izchil va qat'iyat bilan amalga oshirish lozim.

Mehnat migratsiyasi muammosini uzil-kesil hal qilish bo'yicha o'z fikr-mulohazalarimizning va takliflarimizning ayrimlarini bayon etishni lozim topdik.

**Birinchi taklif.** Mehnat migratsiyasini cheklangan miqdorda faqat malakali ishchi kuchini eksport qilish evaziga amalga oshirish siyosatini olib boish.. Shunisi quvonarlik, keyingi vaqtarda mehnat migratsiyasi bilan bog'liq masalalarga davlatimiz, shaxsan davlat rahbari, katta e'tibor qaratmoqda. Yaqinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan «Xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorning imzolanishi fikrимning yorqin dalilidir. Ushbu qaror, Prezident rahbarligida daylatimiz tomonidan xalq farovonligini oshirish, daylatimizning xalqaro nufuzini ko'tarish, mamlakatni noto'g'ri shakllantirilgan va bizga yaxshi samara bermayotgan mehnat migratsiyasi illat va kamchiliklaridan xolos etishga qaratilgan dadil qadam. 2021 yil 1 yanvardan boshlab tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasini yo'lga qo'yish va unga asosan xorijga chiqib ketayotgan shaxslarni ishga yuborishdan oldin majburiy tartibda kasb-hunarga o'qitish va tilni o'rgatish tizimining joriy etilishi – O'zbekistonda mehnat migratsiyasi muammosini katta aql bilan hal etishning bosh nuqtasi deb hisoblaymiz. Qarorda mamlakatda mehnat migratsiyasiday dolzarb muammoni hal etishning aniq mexanizmlari o'z ifodasini topgan va uni amlga oshirish yo'llari belgilab berilgan.

Bizning nazarmizda, mehnat migratsiyasini tartibga solish uchun O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining bevosita boshchiligidagi ishchi kuchi import qiluvchi mamlakatlar, yirik kompaniyalar buyurtmalariga muvofiq yollanma, malakali ishchi va mutaxassislarini tayyorlash mexanizmini yaratish lozim. Bunda kasbiy malaka va ko'nikmalarga ega iqtidorli yoshlar tanlov asosida saralab olinadi, muayyan davr davomida ularga borib ishlashi lozim bo'lgan mamlakatning tili, tarixi, urf-odatlari, an'analari o'rgatiladi, tanlangan ish, kasb, hunar bo'yicha zaruriy malaka va ko'nikmalar shakllantiriladiki, toki migrant o'zi tashrif buyurgan mamlakat yoki korxona talablari darajasida vazifalarni bajara oladigan tayyorgarlikka ega bo'lsin. Ishchi kuchi eksportini ilmiy asosda yo'lga qo'yilishi respublikaga juda katta manfaat keltiradi:

Birinchidan, ishchi kuchi eksportidan keladigan daromad miqdori keskin oshadi;

Ikinchidan, yoshlarda malakali ishchi yoki malakali mutaxassis bo'lishga, ya'ni yaxshi o'qishga qiziqishi ortadi;

Uchinchidan, yoshlarda xorijiy tillarni o'rganishga moyillik va tajriba ortadi;

To'rtinchidan, xorijda malakali ishlarni bajargan yoshlarimiz, o'z yurtiga qaytganda, milliy iqtisod ravnaqiga munosib hissa qo'shish imkoniyatiga ega bo'ladi.

**Ikkinci taklif.** Mamlakatda ishsizlik muammosini hal etish, iqtisodiyotda band bo'lganlarni munosib ish haqi bilan ta'minlash bevosita iqtisodiy o'sish sur'atlariga bog'liq. Shu sababli davlat arboblari, mas'uliyatli lavozimlardagi amaldor shaxslar, partiya rahnomalari, profesor-o'qituvchilar va

olimlarning maoshlarini mamlakatda iqtisodiy o'sish sur'atlari bilan uyg'unlikda oshirib borish tartibini joriy etish. Sababi, mamlakatning iqtisodiy yuksalishi, milliy iqtisodning o'sish sur'atlari, qolaversa tirikchilik o'tkazish, oilani tebratish ilinjida o'zini o'z Vatanida oila va ota-onasi bag'rida yashab, ishlab yurish baxtidan mahrum qilgan, begona yurtlarda ne-ne mashaqqatlar bilan halol mehnat qilib, barcha kamsitish va kezi kelganda haqoratlarga matonat bilan bardosh berib, daromad topayotgan mehnat migrantlariga emas, aynan nomlari yuqorida zikr etilgan toifadagi mutasaddi shaxslarning hatti-harakati va mas'uliyatiga bog'liq.

**Uchinchi taklif.** “Ish haqi minimumi” va “Yashash minimumi” to‘g‘risida qonunlarni qabul qilish va amaliyotga joriy etish. Ushbu chora mamlakatda yaratilgan va bozor sub'ektlari orasida taqsimlanishi loim bo‘lgan milliy daromadda yollanma ishchilarining ulushiniadolat yuzasidan oqilona darajada ko‘tarish orqali nafaqat mehnat migratsiyasini xohish qiluvchilar sonini qisqartirish, balki mamlakatda boshlangan kambag‘allikka qarshi kurash strategiyasini amalga oshirishning ham muhim vositalaridan biri hisoblanadi.

**To‘rtinchi taklif.** Barcha tumanlarda dastlab 1 ta, keyinchalik 2-3 tagacha qishloq xo‘jaligi sohasida yirik-yirik davlat xo‘jaliklarini tashkil etish. Yaqinda saytda e‘lon qilingan Kun.uz muxbirlarining intervyusida ishtirok etgan yigit aqalli 0,5 ga yer maydoni bo‘lsa, O‘zbekistonga qaytishga tayyor ekanligini, hattoki yerga nima ekib, qanday daromad olishni ham yaxshi bilishini ma’lum qilgan. Lekin yerni bunday taqsimlab berish yer resurslaridan unumli foydalanish tamoyillariga mos kelmaydi. Biroq mingta, ikki mingta ehtiyojmandlarga ajratiladigan yer maydonlarini birlashtirib, 500 ga yoki 1000 ga yer maydonida yirik xo‘jalik tashkil etilib, barcha yerga talabgorlarni yerda ishlashga jalb etilsa, unda ko‘lam samarasi evaziga katta daromad olish mumkin. Bunday yirik xo‘jaliklarni tashkil etish dastlab kambag‘allikka qarshi kurash uchun nazarda utilgan davlat resurslarini jalb etish hisobidan amalga oshirilishi mumkin. Bundan tashqari, xo‘jalik investitsion faoliyatiga yuridik va jismoniy shaxslarning mablag‘larini jalb etishni rag‘batlantiruvchi va undan bank foiz stavkalaridan yuqori daromad olishni ta‘minlovchi samarali mexanizmlar tizimi yaratilishi va amaliyotga joriy etilmog‘i lozim. Xo‘jalik faoliyatining yuqori samaradorligiga erishish uchun unga konkurs asosida eng kuchli, iste‘dodli rahbarlarni va soha mutaxassislarini jalb etish lozim. O‘ylaymizki, biz tasavvur qilgan shakldagi davlat xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini ilmiy asosda tashkil etishning, fan va amaliyotning o‘zaro uyg‘unligini ta‘imnlashning haqiqiy andozasiga, qolaversa, agrar sohada ulkan monopol mavqega ega bo‘lgan O‘zbekistonning ushbu sohadagi bepoyon imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, joiz bo‘lsa butun jahonga yoyishning samarali markazlariga aylantirilishi qishloq iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishda ham, bandlik va qashshoqlik muammolarini hal etishda ham juda katta natijalar beradi. Yirik davlat xo‘jaliklaridan qishloq xo‘jaligida zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish, ilg‘or va innovatsion agrotexnik usullardan foydalanish, fan yutuqlarini keng tatbiq etish va yuqori natija olishning eksperimental bazasi sifatida foydalanish maqsadga muvofiq. Ularni tuman hududidagi fermer xo‘jaliklariga amaliy yordam ko‘rsatish, ilmiy-uslubiy qo‘llab-quvvatlash, ularni innovatsion asosda rivojlantirishning lokomativlariga aylantirish lozim. Tuman hududida ishlab chiqarilgan xom ashyni sanoat miqyosida qayta ishlash va tayyor mahsulotga aylantirish, talaygina qismi nes-nobud bo‘layotgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash, ularni tashqi bozorlarga eksport qilishni tashkil etishdek bugungi kunning dolzarb muammolarini hal etish davlat xo‘jaliklari faoliyatining eng muhim yo‘nalishlariga aylanmog‘i lozim.

**Beshinchi taklif.** O‘zbekistonda ta‘lim sifatini tubdan radikal darajada ko‘tarish. Milliy iqtisodiyotda katta resurslar sarfi va xalqimizning mashaqqatli mehnati evaziga yaratilgan tovar va xizmatlarning jahon bozorida raqobatbardosh bo‘lishi uchun ular, birinchidan, sifati yuqori, ikkinchidan esa, narxi arzon bo‘lishi kerak (Xitoy tajribasi). Sifati yuqori, lekin narxi arzon raqobatbardosh mahsulotni faqat sifatli mehnat bilan yaratish mumkin. Sifatsiz mehnat bilan raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish to‘g‘risida o‘yash – bulutsiz musaffo osmondan yomg‘ir yog‘ishiga umidvor bo‘lishdek ma’nosiz. Qadimdan bizga meros qolgan naqlida “Shayxda hunar bo‘lmasa machit ham torlik qiladi” deyilgan. Qimmatbaho resurslardan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, demak, mamlakatda ko‘plab yangi ish o‘rinlari barpo etish, mamlakat iqtisodiy qudratini yuksaltirishning eng samarali yo‘li – xalqimizning hunarini oshirish, iqtisodiyotda band bo‘lganlarining malakasini, bilim saviyasini, kreativ qobiliyatini rivojlantirishdir. Xalqimizda bunday noyob fazilatlarni shakllantarishda ta‘limning roli benihoya katta. To‘g‘ri, keyingi yillarda davlatimiz rahbari, O‘zbekiston hukumati ta‘limni rivojlantirish borasida keng ko‘lamli juda katta ishlarni amalga oshirmoqda. Lekin amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ta‘lim sohasida ko‘proq miqdor o‘zgarishlar sifatida natija bermoqda. O‘zbekiston ravnaqi uchun aynan sifat o‘zgarishlar juda muhim. Mazkur mavzu doirasida ta‘limning barcha murakkab muammolarini yoritish imkoni mavjud emas. Lekin, lo‘nda qilib ifodalaganda, mamlakatda ta‘limning shunday modeli yaratilishi kerakki, u butun xalqning asosiy diqqat-e’tiborini ta‘limga, butun kuch-g‘ayratini uni tubdan yaxshilashga

yo'naltirsin. Nazarimizda, bu noyob model xalqimizning qonida azal-azaldan mustahkam joylashgan, buyuk ajdodlarimizdan bizga meros bo'lib qolgan yashirin imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishga va uni mamlakatimizni nafaqat mehnat migratsiyasi illatlaridan xolos etishga, balki jonajon O'zbekistonni dunyoning iqtisodiy jihatdan qudratli mamlakatlaridan biriga aylantirishga xizmat qilmog'i lozim. Sifatlari lim O'zbekistonni katta taraqqiyotning ravon yo'liga olib chiqishning eng kam xarajat va eng qisqa yo'lidir.

Prezidentimiz tashabbusi bilan "**Bir million dasturchi**" loyihasining ishlab chiqilishi va ishga tushirilishi mamlakatimizda mehnat migratsiyasi muammorini hal etishda xalqimizning yuksak salohiyatini ro'yobga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.. Moliyaviy resurslar tanqisligi sharoitida deyarli xarajatlarsiz (masofadan uyda ishslash va yoshlarimizni og'ir jismoniy mehnat o'mniga yuqori ish haqi evaziga aqliy mehnat bilan oilasini boqishga o'rgatish ) ko'plab ish o'rinxarajini yaratish va ishchi kuchining tashqi bozordagi narxini oshirishga katta turki beradi.

Malakali aqliy mehnatda (innovatsiya yoki kompyuter dasturni yaratishda) bir marta energiya sarflanadi, keyin ularni nusqalari ko'p marta tiraj qilib sotiladi, natijada kam sarf-xarajatlar evaziga katta daromad olinadi. Oziq-ovqat havfsizligida bu katta tejamkorlikka olib keladi. Og'ir jismoniy mehnatda esa xar kun katta energiya sarflanadi va oziq-ovqat isrof bo'ladi, inson tez qariydi, umr qisqarishi mumkin. Agar miyaga 1 doll. sarflansa, u 1000 doll. bo'lib kaytishi mumkin (Ibn Sino, Mark Sukerberg g'oyalari), tanaga 1 doll. sarflansa (ya'ni og'ir jismoniy mehnat), u 20-30 doll. atrofida bo'lib kaytadi. AQSh va Yevropa mamlakatlari bizga aqliy mehnat natijalarini tayyor mahsulot sifatida qimmat narxlarda sotadi (sababi aqliy mehnat vaqt birligida ko'proq qiymat yaratadi), biz esa qimmatbaho tabiiy resurslarimizni va xalqimizning og'ir jismoniy mehnatini arzon narxlarda sotamiz. Ularda bilim hajmi geometrik progressiyada ko'paib borayotibdi, bizning tabiiy resurslarimiz esa kamaib borayapti (gaz, tilla, uran va hokazolar). Yevropaliklar tabiiy resurslarni sotganlarni "Ona yurtini sotayapti" deb bejiz aytmaydilar. Bugungi yaratilgan moddiy boyliklar, buyumlar va infrastrukturalarning aksariyati - bu avvalgi aqliy mehnat natajalari.

### Xulosa

Biz hech qachon begona yurtlarda qiyinalib yurgan millionlab yurtdoshlarimizning hayotiga nisbatan befarq bo'lishga, ularning taqdirlarini tasodiflar ixtiyoriga tashlab qo'yishga haqli emasmiz. Chunki ular ham shu yurtning aziz farzandlari, birimizning suyukli o'g'limiz yo qizimiz, birimizning mehribon otamiz yo onamiz, opa-singil yoki aka-ukamiz, yana birimizning yaqin qarindoshimiz, qolaversa mahalladoshimiz, yurtdoshimiz.

Prezidentimiz ko'tarib chiqqan O'zbekistonni yanada rivojlantirish, uni rivojlangan 50 ta mamlakat qatoridan o'rinni olishiga erishish, xalqning hayot farovonligini yuksaltirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, bandlik darajasini oshirish, ta'lim sifatini takomillashtirish, kambag'allikka barham berish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish borasidagi tashabbuslarining hayotga tadbiq etishning faol ishtirokchilari bo'laylik. Ana shundagina hamyurtlarimizning o'zining jonajon vataniga qaytishiga ko'maklashishda hissamizni qo'shgan bo'lamiz. Barchamiz birgalikda, bir tan birjon bo'lib harakat qilsak, O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishning ravon yo'liga boshlab chiqishimiz muqarrar. O'zbekiston 2030 yilga borib nafaqat taraqqiy etgan 50 ta mamlakat safiga kirishga erishadi, balki 2040 yillarga borib kuchli 20 talik mamlakat safidan munosib o'rinni egallashi mumkin bo'ladi. Shundagina biz o'tmishda Movarunnahrdek qudratli davlatni shakllantirgan buyuk avlod-ajdodlarimizning sha'niga munosib ish tutgan bo'lamiz, ularning ruhi poklarini shod aylab, arvoqlarining madadini olish baxtiga erishamiz.

Buning uchun avvalo mehnat migrantlari muammosi O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim, bugungi kun va kelajak nuqtai nazaridan o'z yechimini kutayotgan markaziy masalalaridan biri sifatida qaralmog'i lozim. Ushbu masala davlat rahbarlari, jamoatchilik tashkilotlari, ilmu-fan ahlining, keng jamoatchilik va o'z-o'zini boshqarish organlarining doimiy diqqat markazida bo'lmog'i shart. Bu borada davlatimizning ishchi kuchi eksportiga yo'naltirilgan harakatlar strategiyasi va "yo'l xaritasi" ishlab chiqilmog'i va tadrijiy ravishda amaliy hayotga tatbiq etilishi lozim.

### Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 15 сентябрдаги "Хавфсиз, тартибли ва қонуний меҳнат миграцияси тизимини жорий қилиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-4829-сонли карори.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 24 майдаги "Бандлик соҳасида давлат сиёсатини янада такомиллаштириш ва меҳнат органлари фаолияти самараадорлигини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги 5052-сонли фармони.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 24 майда қабул қилинган “Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги фаолиятини ташкил этиш чоратадбирлари тўғрисида”ти 3001-сонли қарори.

4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25-01-2020>.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 2 марта ПФ-5953-сон “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «Илм, маърифат ва рақамли иктисадиётни ривожлантириш йили»да амалга оширишга оид давлат дастури тўғрисида”ти Фармони.

6. Ионцев В.А. Международная миграция населения: теория и история изучения. – М., 2005.

**UDK:378.1.331.6(575.1)**

## AHOLI MIGRATSİYASI VA UNİNG İJTİMOİY-IQTİSODİY AHAMİYATI

**N.R.Raxmonov<sup>1</sup>, Sh.X. Djumabayeva<sup>2</sup>**

<sup>1</sup>Oliy va o’rta maxsus talim vazirligi, <sup>2</sup>O’zbekiston milliy universiteti

**Annotasiya.** Maqlada mustaqillik yillarda O’zbekistonda aholi migrasiyasi dinamikasidagi o’zgarishlar tahlil etilgan hamda migrasiya aylanmasida kelganlarga nisbatan ketganlar ulushi yuqoriligisha qolayotganligi hamda aholining migrasion faolligi uning intensivlik darajasi bo'yisha o'rganilib tahlil etilgan va xulosalar berilgan.

**Kalit so’zlar:** aholi, demografiya, ishki migrasiya, tashqi migrasiya, jarayon, kelganlar, ketganlar, migrasiya aylanmasi, saldo, intensivlik, ijtimoiy-iqtisodiy, omil.

### Миграция населения и её социально-экономическое значение

**Аннотация.** В статье анализируются изменения в динамике миграции населения в Узбекистане за годы независимости, а также изучена активность уехавших выше чем приехавшие, также анализируется интенсивность миграции населения по отношению к тем, кто находится в миграционном цикле и даются выводы по этому поводу.

**Ключевые слова:** население, демография, внутренняя миграция, внешняя миграция, процесс, прибытие, отъезд, миграционный оборот, баланс, интенсивность, социально-экономический фактор.

### Population migration and its socio-economic significance

**Abstract.** The article analyzes changes in the dynamics of population migration in Uzbekistan over the years of Independence and higher level of internals than departures in relation to those who stay in migration cycle; examines and summarizes the migration intensity of population.

**Keywords:** population, demographics, internal migration, external migration, process, arrivals, departures, migration turnover, balance, intensity, socio-economic, factor.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ta’sir etuvshi omillardan biri aholi migrasiyasi hisoblanadi. Bugungi kunda migrasiya jarayoni iqtisodiy, ijtimoiy, demografik jarayonlar ta’siri ostida shakllanmoqda. Aholi migrasiyasi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy holatini aks ettiruvshi jarayondir. Unda ro'y berayotgan o’zgarishlar aholining migrasion xulqini va migrasion istaklarini shakllantiradi.

Axoli migrasiyasi uning mamlakat ishidagi yoki bir mamlakatdan ikkinshisiga ko’shishni bildiradi [1]. Umuman olganda, migrasiya aholi xududiy harakatlanishi yig’indisidir. Demak, aholining hududlar bo’ylab qilgan harakati - aholi migrasiyasi deyiladi. Migrasiyada ishtirok etuvshi kishilarni esa migrantlar deb ataladi.

Hozirgi vaqtida aholi migrasiyasing sabab-oqibatlari o’zaro bog’likligiga doir bir qator nazariyalar va konsepsiylar yaratilgan. Migrasiya sabablarini birinshi marta nazariy jihatdan izohlash ingliz olimi Ye.G. Ravensteyn nomi bilan bog’langan. U XIX asrning oxirlarida «migrasiya qonunlari» nazariyasini taklif qilgan [2]. Ular yordamida mintaqalar o’tasidagi turli migrasion oqimlarning ko’lami, yo’nalishlari bilan mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi mezonlari birgalikda makrodarajada muvofiqlashtiriladi.


O'zbekiston mustaqillikka erishishi bilan, mamlakatda aholi migrasiyasining huquqiy bazasi shakllana boshladi, bu esa ushbu jarayonlarni boshqarish ushun katta ahamiyatga ega. Hususan, respublikamiz fuqarolarini shet elda ishga joylashishini ta'minlaydigan mehnat organlari infratuzilmasi tashkil etildi. Shuningdek, O'zbekiston migrasiya sohasidagi va u bilan bog'liq masalalar bo'yisha ikki tomonlama xalqaro kelishuvlarda ham ishtirok etmoqda.

Ma'lumki, aholi migrasiyasining harakati turli xil omil va sabablarning o'zaro ta'siri natijasida yuzaga keladi. Aholining bir joydan ikkinshi joyga ko'shib yurishiga majbur qiluvshi sabablardan eng muhimi iqtisodiy-ijtimoiy sabablar, ya'ni ishsizlik, munosib ish topish, oliy va o'rta maxsus ma'lumot olish, ya'ni o'qish ajralib turadi. Shuningdek, ekologik vaziyatning salbiy ta'siri, moddiy, madaniy-maishiy sharoitdan qoniqmaslik va hokazolarni sanab o'tish mumkin.

Bugungi kunda migrasiyaning iqtisodiy ahamiyati oshib bormoqda. O'zbekistonda aholi migrasiyasi sabablari va maqsadlari quyidagi asosiy omillar ta'siri ostida shakllanmoqda: umumjahon jarayonlarining globallashuvi, yangi davlatlar mustaqilligining kushayishi, mintaqalarning o'zida yuz berayotgan shuqur ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar va x.k.lar.

Mintaqalarning ijtimoiy iqtisodiy-sharoitlari bevosita ulardagi aholining migrasion kayfiyatlariga ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Ma'lumki, o'zbek xalqi qadimdan o'troq yashab kelgan va migrasiyaga moyilliги past darajada bo'lган. Biroq, O'zbekistonda ham bozor munosabatlarining shakllanishi, shuningdek, iqtisodiyotdagи tarkibiy o'zgarishlar aholining migrasion harakatini faollashtirdi.

O'zbekistonda 2018 yilda jami 334,9 mingdan ortiq kishi o'z yashash joyini o'zgartirdi. Mustaqillik yillarda migrasion o'sish manfiy ko'rsatkishga ega bo'lib kelmoqda. O'zbekistonda migrasiya saldosи 1991 yilda minus 30,2 ming kishini tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkish 1995 yilda 88,9 mingta, 2000 yilda 66,6 mingta, 2005 yilda 101,6 mingta, 2010 yilda 44,1 mingta, 2010 yilda 44,1 mingta, 2015 yilda 29,3 mingta, 2018 yilda esa 14,7 mingta kishini tashkil etdi. Demak, mustaqillik yillarda migrasiya saldosи manfiyligisha qolgan bo'lsada, lekin, uning miqdor ko'rsatkishi pastka tushib bordi (1 -Rasm).



**1-Rasm.** Mustaqillik yillarda O'zbekistonda aholi migrasiyasi dinamikasidagi o'zgarishlar (kishi)

Aholining migrasion xarakatshanligi, ya'ni koeffisiyenti (xar ming kishi hisobiga aholining ko'shib yurishi) 1991 yilda 37,3 kishini tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkish 1995 yilda 18,7 kishini, 2000 yilda 14,5 kishini, 2005 yilda 14,9 kishini, 2010 yilda 11,1 kishini, 2015 yilda 9,7 kishini va 2018 yilga kelib bu ko'rsatkish 10,1 kishini tashkil etdi [3]. Umuman, aholining ko'shib yurish intensivligi 1991-2018 yillarda 3,7 martaga kamaydi. Mustaqillikning dastlabki yillarda migrasiya koefisienti yuqori bo'lishiga sabab sobiq ittifoqning parshalanishi natijasida uzoq yillar davomida ushlab turilgan halqaro migrasiya jarayonlari jadal sur'atlar bilan o'sa boshladi. Bu xol aholining migrasion koefisientini ko'tarilishiga sabab bo'ldi. Umuman, mustaqillikning dastlabki yillarda migrasiya hajmi asosan o'z yurtiga qaytib ketayotgan turli millat vakillari hisobiga shakllgan bo'lsa, hozirgi kunda migrasion qoldiq O'zbekistondan tashqarida ishlab kelmoqli bo'lganlar hisobiga sodir bo'lmoqda.

2018 yilda migrasiya koefisienti respublika o'rtasha ko'rsatkishidan juda yuqori bo'lgan mintaqalarga Navoiy hamda Sirdaryo viloyatlari kirdi. Ushbu mintaqalarda har 1000 ta aholining mos

ravishda 28,1 va 21,5 tasi ko'shib yurgan va migrasiya koeffisiyenti indeksi Navoiyda 2,780 va Sirdaryoda esa 2,126 ga teng bo'ldi. (1-jadval).

Shuningdek, migrasiya koeffisiyenti respublika o'rtasha ko'rsatkishidan yuqori bo'lgan hududlarga Jizzax, Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasi kirdi Bunga sabab yuqorida sanab o'tilgan mintaqalar aholisi tarkibida nomahalliy millat vakillarining ulushi nisbatan yuqoriligi va ularning umumrespublika miqyosida o'z vatanlariga ketishlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasidagi tabiiy-ekologik sharoitning salbiyligi asosiy sabablar qatoridan joy olmoqda.

Qolgan barsha mintaqalarda aholi migrasiya koeffisiyenti respublika o'rtasha ko'rsatkishidan past. Xususan, migrasiya koeffisiyenti past bo'lgan mintaqalarga Namangan hamda Andijon viloyatlari kirdi. 2018 yilda Namangan va Andijon viloyatlarida har 1000 ta aholining mos ravishda 3,74 va 4,92 tasi ko'shib yurgan. Bu respublika ko'rsatkishiga nisbatan Namanganda 2,7 va Andijonda 2,1 barobar past.

2008-2018 yillardagi aholining migrasion koeffisiyenti solishtirilganda quyidagilar ma'lum bo'ldi: respublika bo'yisha o'rtasha migrasiya koeffisiyenti 12,5dan 10,1ga pasaygan, bunday holat respublikaning deyarli barsha hududlarida kuzatildi. Faqt Namangan viloyatida biz tahlil qilayotgan davrda migrasiya koeffisiyenti ko'rsatkishi 2,66dan 3,740 ga ko'tarilgan. Xulosa qilib ayitganda keyingi o'n yilda respublika mintaqalari orasida aholining migrasion faolligi faqat Namangan viloyatida o'sgan. Qolgan barsha mintaqalarda esa bu ko'rsatkish pasaygan [4].

1- jadval

Mintaqalarda aholi migrasiyasi koeffisentining o'zgarishlar

Hududlar	2008 yil			2018 yil		
	000 ta aholiga nisbatan migrasiya harakati	Intensivlik indeksi	1000 ta aholiga nisbatan migrasion o'sish	1000 ta aholiga nisbatan migrasiya harakati	Intensivlik indeksi	1000 ta aholiga nisbatan migrasion o'sish
O'zbekiston	12,55	1,000	-1,67	10,1	1,000	-0,48
Qoraqalpog' Respublikasi	23,06	1,840	-6,12	13,8	1,366	-2,29
Viloyatlar:						
Andijon	5,06	0,400	-0,31	4,92	0,487	-0,61
Buxoro	8,69	0,690	-2,46	7,9	0,782	-1,52
Jizzax	17,52	1,400	-3,74	17,15	1,698	-0,73
Qashqadaryo	8,16	0,650	0,16	8,15	0,806	-1,30
Navoiy	33,24	2,650	-4,37	28,1	2,783	-1,23
Namangan	2,66	0,210	-0,31	3,74	0,376	-0,39
Samarqand	9,78	0,780	-1,77	7,24	0,714	-0,97
Surxondaryo	12,56	1,000	-1,21	10,15	1,004	-0,89
Sirdaryo	21,33	1,700	-4,35	21,5	2,126	-0,84
Toshkent	19,62	1,560	-4,00	15,1	1,491	-1,93
Farg'ona	9,8	0,780	-0,57	7,6	0,757	-0,38
Xorazm	8,8	0,700	-1,00	7,5	0,744	-0,70
Toshkent sh.	20,02	1,590	0,43	14,2	1,408	6,09

2008-2018 yillarda har 1000 ta aholiga nisbatan migrasion o'sish respublika bo'yisha 1,67dan 0,48ga tushdi. Aholining migrasion o'sishi Toshkent shahridan tashqari barsha hududlarda pasaydi. Xulosa qilib ayitganla ohirgi 10 yilda respublika mintaqalarida aholining migrasion faolligi pasaygan. Bu esa mintaqalarda iqtisodiy-ijtimoiy sharoitning o'tgan davr mobaynida muayyan darajada yaxshilanganidan dalolat beradi [5].

Mintaqalarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash maqsadida mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish-ning umumiyl dasturlarini ishlab shiqish va amalga oshirish hamda mintaqalar kesimida aholi hayot darajasi monitoringining samarali tizimini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Aholining, hususan mehnat migrasiyasida ishtirok etayotgan migrantlarning huquqiy ongini oshirish odam savdosi xolatlarining kamayishiga hizmat qiladi. Ma'lumki, mehnat migrantlarining ijtimoiy himoyalanganlik darajasi ko'p jihatdan ularning huquqiy savodxonligiga bog'liqdir. Mehnat migrantlarini, ularning mehnat faoliyatini yo'lga soluvshi zaruriy ma'muriy-huquqiy hujjatlar va me'yorlar bilan ta'minlash zarur.

Xulosa qilib ayitganda migrasiya jarayoni iqtisodiy va ijtimoiy hayotning barsha sohalariga bevosita ta'sir ko'rsatuvshi va o'z navbatida aholi joylashuvidan muhim muammolar bilan bog'liq aholining hududiy harakatidir. Shuning ushun ham jamiyat taraqqiyotida u yoki bu darajada ahamiyatli bo'lgan o'zgarishlar migrasiya jarayonlari ta'sirida o'z aksini topadi [6].

Aholining harakatlanishi, ya'ni iqtisodiy faol aholining migrasion jarayonlarda qatnashishini to'g'ri tashkil etish iqtisodiyot rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Hususan, mintaqalarning turlisha rivojlanganligi, aholining migrasion faolligi oshishiga turki bo'lmoqda. Hozirda mintaqalardagi bandlik muammolarini, aholining daromadi va moddiy farovonligini oshirishga doir shora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi [7]. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan shora-tadbirlar samaradorligi avvalo yangi ish o'rinnarini yaratish va aholining turmush darajasini yanada oshirishga yo'naltirilgan.

#### Adabiyotlar

1. 2019 yilda mamlakatimizni rivojlantirishning eng muhim ustuvor vazifalari to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Parlamentga Murojaatnomasi. Xalq so'zi. 29 dekabr 2018 yil. Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldaggi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yisha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoni.
3. Bo'riyeva M.R. Demografiya asoslari. Toshkent. 2004.
4. Denisenko M.B., Ionsev V.A., Korev B.S. Migrasiologiya. M.: Izdatelstvo MGU, 1989. S.15.
5. E.Ravsnstein. The Laws of Migration ("Journal of the Royal Statistical Society", June 1885, pp.1 67-227; June 1889, pp.241-301).
6. O'zbekiston demografik yillik to'plami 2008-2018. Toshkent. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika ko'mitasi.
7. O'zbekiston raqamlarda 1991-2018 statistik to'plamlari. Toshkent. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika ko'mitasi.

**УДК 338.4**

### ИНДЕКС NPS ДЛЯ ОЦЕНКИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ

**Н.У. Арабов, К.Н. Зайналова**

*Самаркандинский государственный университет*

*z.kamola@mail.ru*

**Аннотация.** Net Promoter Score, называемый индексом потребительской лояльности или «метрика отдельного клиента» и рассчитанный на основе ответов клиентов на один простой вопрос об их лояльности. Этот метод используется с 2003 года и применяется в самых разных областях экономики. Метод NPS имеет как положительные, так и отрицательные стороны в зависимости от поставленной задачи. Так как современное состояние и развитие сферы услуг требует информационного обеспечения для успешного управления фирмой, поэтому различные метрики являются важным научным подходом. Исходя из этого, в данной работе рассматривается новый подход для оценки качества образования на основе метода NPS. Исходя из результатов анализируется проблемы системы образования в Республике Узбекистан. Здесь же в целом оценивается даётся преимущества и недостатки самого метода NPS и объясняется в каких ситуациях этот метод приводит к положительным результатам. В работе даётся новая парадигма NPS метода, основанная на обратной связи.

**Ключевые слова:** NPS, Net Promoter Score, Образование

#### Ta'lism sifatini baholashda NPS indeksi

**Аннотация.** Net Promoter Score - bu iqtisodiy jarayonlarni tahlil qilishda foydalilanildigan o'lchov mexanizmi bo'lib, ilmiy adabiyotda iste'molchilarining sodiqlik indeksi deb yuritiladi. Ushbu usul 2003-yildan boshlab iqtisodiyotning turli sohalarida qo'llanilib kelinmoqda. Maqolada qo'yilgan masala doirasida NPS usulining salbiy va ijobjiy tomonlari ham qayd etilgan. Har qanday xizmat ko'rsatish jarayonini optimal boshqarish uchun maxsus tezkor o'lchov mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi. Shu bois, ushbu maqolada ta'lism sohasida ham NPS yondashuvini qo'llash imkonini keltirilgan. Olingan natijalar asosida O'zbekistonda mavjud muammolar tahlil qilingan. Shu bilan birga ushbu usulning ijobjiy va zaif tomonlari namoyon qilingan va qanday variantda yaxshi natijalar olinish mumkinligi keltirilgan. Shulardan kelib chiqqan holda, natija sifatida NPS usulining yangi teskari aloqaga asoslangan yondashuvi taklif etilgan.

**Kalit so'zlar:** NPS, Steganografiya, Ta'lism

### NPS index for assessing the quality of education

**Abstract.** Net Promoter Score, called the consumer loyalty index or "Individual customer metric" and calculated based on customer responses to one simple question about their loyalty. This method has been used since 2003 and it is used in many different areas of the economy. The NPS method has both positive and negative sides, depending on the task at hand. Since the current state and development of the service sector requires information support for successful management of the company, various metrics are an important scientific approach. Based on this, this paper considers a new approach for assessing the quality of education based on the NPS method. Based on the results, the problems of the education system in the Republic of Uzbekistan are analyzed. Here, in General, the advantages and disadvantages of the NPS method itself are evaluated and explained in which situations this method leads to positive results. This paper presents a new paradigm of the NPS method based on feedback..

**Keywords:** NPS, Net Promoter Score, Education

**Введение.** Успешность бизнеса зависит от многих параметров, для менеджеров для принятия управленческих решений необходимо адекватные данные и информация о состоянии предприятия. Сбор этих данных, необходимых для исследования рынка, требует ответственного подхода и накопленные данные должны быть понятными и значимыми. В предлагаемой работе изучается образовательные услуги в Узбекистане и за методологическую основу взять NPS (Индекс потребительской лояльности) подход.

Впервые методика определения индекса потребительской лояльности NPS была предложена Ф.Райхельдом в начале 2000 годов и с тех пор пользуется значительной популярностью при исследовании поведения клиентов [1]. Наибольшую взаимосвязь индекс потребительской лояльности NPS с темпами роста компании и увеличения продаж демонстрирует для сервисных компаний, основным видом деятельности которых является предоставление различного рода услуг. Большим преимуществом оценки с помощью индекса потребительской лояльности NPS является ее простота.

Индекс потребительской лояльности NPS [1] позволяет оценить качество обслуживания клиентов и показывает, насколько ваши клиенты готовы рекомендовать вас (товар, услугу) своим друзьям и коллегам. NPS косвенно показывает готовность потребителя к повторным покупкам.

**Методика исследования.** Метод NPS основан на том, что клиентам предлагается опрос, состоящий из одного вопроса: "Какова вероятность того, что вы порекомендуете нашу компанию (товар, услугу) своим друзьям и коллегам". На основе полученных ответов формируются три сегмента целевой аудитории: критики (с результатом 0-60%), нейтральные клиенты (с результатом 70-80%) и сторонники или промоутеры (с результатом 90-100%). Расчет индекса потребительской лояльности NPS производится по формуле "доля сторонников минус доля критиков"[1].

Анализ поставленного вопроса, который обращён к клиенту показывает, что ответ не несёт прямого влияния на клиента. Для наглядности поставленного вопроса предлагается графическое взаимоотношения всех заинтересованных сторон этого опроса, т.е. рассмотрим этот подход в графическом виде:




Рис.1. Идеальный NPS модель (Источник: Разработка авторов.)

Данная методика позволяет оценить деятельность фирм оказывающих услуги не только в бизнесе, но и образовательные услуги. При этом надо соблюдать осторожность, так как метод вычисления NPS резко отличается от метода сбора первичных данных, что справедливо указано в работе [2].

**Результаты и их обсуждение.** В целом этот метод пользуется многими исследователями, например [3]. Изучая эти работы мы наблюдаем различные мнения. Так, в работе [3] указаны основные проблемы при применение этого NPS метода, Анализ постановки вопроса, позволяет

выявить еще один недостаток, в частности здесь не решается условно говоря “Шекспирская проблема” «Быть или не быть» («To be or not to be»). Этот подход отмечен на рис.1. отсутствием обратной связи. Для понимания этой проблемы можно сформулировать вопрос, который схематично указан на рис.2.




Рис.2. Пример NPS модели с обратной связью (Источник: Разработка авторов.)

Если сформулировать вопрос на основе рис.2., то клиент сто раз подумает, пойти или нет к этому врачу. Модернизируя метод NPS, предлагается NPS с обратной связью, которая в схематичной форме представлена на рис.3.

Подробный анализ NPS подхода с указанием проблем и рассмотрением рекомендации по их устранению показывает, что [3]:

- NPS не предоставляет данных о том, что делать для улучшения;
- NPS фокусируется только на удержании клиентов, а не на привлечении новых клиентов;
- «пассивного» покупателя не существует;
- NPS не предоставляет конкурентных данных;
- NPS ориентирован на внутреннюю составляющую бизнеса, а не на внешнюю.

Основной вывод, который приводится в работе [3] заключается в том, что в этом методе нет ответа на вопрос: что делать? Естественно, здесь имеется ввиду, что необходимо сделать для развития бизнеса.

**Abstract.** The article reveals the essence and formation of intellectual capital, its importance in the process of social reproduction. Also theoretically grounded conclusions and suggestions on the fact that intellectual capital is one of the factors of the development of the state economy are given in the article.

**Keywords:** scientific and practical researches, knowledge, scientific novelty, intellectual capital, intellectual property, intellectual potential, creative ability, patent.

Xozirgi iqtisodiy rivojlanish sharoitida milliy xo'jaliklarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, ularda mavjud bo'lgan tabiiy resurslar miqdori, xajmi, amal qilayotgan korxonalar, fabrikalar yoki ishlab chiqarish va noishlab chiqarish infratuzilmalarining mavjudligi bilan emas, balki ularda ilmiy-amaliy tatqiqotlar natijasida (ilmiy yangiliklar, bilmilar) vujudga kelgan intellektual kapital (mulk) miqdori, hajmi bilan belgilanadi. Shu sababli rivojlangan bozor iqtisodiyotli mamlakatlarda intellektual kapital miqdori va hajmini oshirib borishga alohida e'tibor berishmoqda, chunki ularning budgetining daromadlarini asosiy qismi intellektual kapital (mulk) savdosidan shakllanadi. Shuningdek, hozirgi vaqtida jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarilayotgan, fan sig'imi yuqori bo'lgan mahsulotlarning uchdan bir qismi intellektual kapitaldan foydalanish natijasida yaratilmoqda.

Mamlakatimizda innovatsiyalarga, innovatsion muhitni yaratishga eskicha yondashuv intellektual kapitalni shakllanishiga to'sqinlik qilmoqda. Oqibatda, "Yuqori texnologiyalar, nou-xau va zamonaviy ishlanmalarini birinchi navbatda talab qiluvchi ustuvor soxa va tarmoqlarni aniqlqsh bo'yicha faoliyatni tashkil etishdagagi kamchiliklar texnologik qoloqlikka va innovatsion tovar (ish xizmat)larni ishlab chiqarishning cheklanganligiga olib kelmoqda"[1]. Ushbu holatlar innovatsion rivojlanish sharoitida intellektual kapitalning o'rni va roli qanchalik yuqori ekanligini, hamda uni mazmun mohiyatini nazariy va amaliy jihatdan tatqiq etish zaruratini asoslab beradi.

Iqtisodiy atama sifatida intellektual kapital tushunchasini birinchilardan bo'lib Dj Gelbreyt muomalaga kiritgan. Ushbu tushunchaning tabiatni, mazmun mohiyatini esa T.Styuart o'zining "Intellektualnyu kapital.Novyy istochnik bogatsva organizatsiy" nomli asarida tatqiq etgan. U o'zining asarida intellektual kapitalga "... patentlar, jarayonlar, boshqaruv ko'nikmalari, texnologiyalar, ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar hakida axborotlar va tajribalar birgalikda intellektual kapitalni tashkil etadi" [2] deb ta'rif bergen. Uning fikricha, intellektual kapital korparatsiya, kompaniyalarga bozordagi raqobat kurashida ustunlik, xamda oladigan daromadlarini maksimallashtirishga sharoit yaratadi.

Y.Ruus, S.Payk va L.Fernstemplarning ". Intellektualnyu kapital: praktika upravleniya" nomli asarida intellektual kapitalni korxona va tashkilotlarning qiymat yaratishda ishtirok etadigan nomoddiy va pul ko'rinishiga ega bo'limgan resurslar bilan bir xil deb aytishgan.[3] Ularning fikricha, intellektual kapital, alohida, mustaqil kapital sifatida amal qilmaydi. S.Albert va K.Bredlilar intellektual kapitalni "Korxona, firma, individga, (shaxsga) millatga raqobat ustunligini beruvchi bilimlarni foydali aktivlarga aylanishi jarayoni" deb ta'rif berishgan.

Dj.Tis o'zining "Poluchenije ekonomicheskoy vygodы ot znaniy kak aktivov: "Novaya ekonomika", ryynki nou-xau i nematerialnye aktivы" nomli ilmiy maqolasida intellektual kapitalni "Bilimlar aktivи" tushunchasi bilan bir xil deb, individual va tashkiliy bilimlardan iqtisodiy daromad olishga qaratilgan strategik aktivlar, deb ataydi. [4]

Intellektual kapital tushunchasini nazariy assosini yaratishda bir qator Rossiyalik iqtisodchi-olimlar ham o'z hissalarini qo'shishgan. Misol uchun V.L.Inozemsev intellektual kapitalga "Hodim bilimlari, intellektual mulk jamlangan tajribalar, firmalarni imidji, axborot tarkiblarini jamlanishidan shakillangan "Jamoaviy aql"" deb ta'rif beradi. [2]

B.B.Leontev esa, korxona intellektual kapitali tushunchasini, "Ulardagi intellektual aktivlar, ya'ni sotib olingan intellektual mulk, hodimlar tajribasi hamda jamg'arilgan bilimlar bazasi va boshqa sub'ektlar bilan foydayli munosabatlarni o'zida mujassamlashtirgan jami qiymat" sifatida qaraydi. [2]

Yuqorida keltirilgan iqtisodchi olimlar o'zlarining ta'riflarida bilimlar intellektual kapitalning asosiy, hal qiluvchi va belgilovchi tarkibiy elementi hisoblanadi, hamda ular ijtimoiy ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) jarayonlarida qo'llanilishi shart. Ammo, real iqtisodiy hayotda "Intellektual kapital" tushunchasiga ta'riflar turli soha mutaxasislari tomonidan turlicha talqin qilinadi. Misol uchun: ommaviy axborot vositalari hodimlari brendlarni, patentlarni, boshqaruv ko'nikmalarini, zamonaviy texnologiyalarni, iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar haqidagi ma'lumotlarni, ishlab chiqarish sirlarini intellektual kapital deb qabul qilishadi. Korxona va tashkilot boshqaruv hodimlari esa, qiymat yaritish maqsidida foydalanish mumkin bo'lgan barcha nomoddiy aktivlarni intellektual kapital deb tushunishadi.

Ammo, jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti davomida intellektual kapitalning o'rni va rolini kuchayib borishi bilan, uning mazmun mohiyati ham, tarkibiy elementlari turlari ham oshib bormokda. Shu sababli bizning fikrimizcha, intellektual kapitaliga quyidagicha ta'rif berish mumkin. **Intellektual kapital – bu jamiyatda (mamlakatda) mayjud bo'lgan barcha intellektual potensialning kapitallashgan shaklidir.** Jamiyat taraqqiyoti davomida intellektual kapitalning tashkiliy elementlari miqdori ham oshib boradi. Intellektual kapital o'zinig tarkibiga to'plangan bilimlar, insonlarning (jamiyat a'zolarining) ilmiy salohiyati, ularning ma'nnaviy qadriyati, korxona va tashkilotlarning imidji, ularning tarkibi, mavjud axborot tizimlari, ma'lumotlar banki va hokozolarni birlashtiradi. Bu fikrdan shunday xulosa qilishimiz mumkinki, intellektual kapital tarkibiy elementlarining turli tumanligi uning tabiatiga xos bo'lgan xususiyatidir. Tarkibiy elementlar intellektual kapitalni shakillanishi va rivojlanishi jarayonida o'zaro uzviy bog'liqlikda amal qiladi va ularning bog'liqligi kuchayib boradi. Misol uchun korxonaning tashkiliy jarayonida bilimlar va hodimlarning qobiliyati o'zaro uyg'unlashadi. Agarda hodimlarning qobiliyati past bo'lsa, u holda intellektual kapital shakllanmaydi, jamiyatda uning samarasи sezilmaydi. Aksincha, elementlarning o'zaro uyg'unligi qanchalik yuqori bo'lsa, intellektual kapitalning ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonidagi o'rni va roli ham shunchalik yuqori bo'ladi.

Intellektual kapitalning mohiyati va ahamiyatini to'liqroq tushunib olish uchun uni funksional kapitali bilan umumiyl jihatlari va farqlarini ajratish maqsadga muvofiq. Bizning fikrimizcha ularning umumiyl jihatlari quyidagilardan iborat:

- intellektual kapital ham, funksional kapitali ham ma'lum resurslarni, ya'ni pul, moddiy vositalar, bilim, malaka, ko'nikmalarini tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishga jalb qilish natijasida vujudga keladi;
- kapitalning ikkala turi ham o'z egasiga daromad keltiradi;
- ularning ikkalasi ham qiymatning doiraviy aylanish jarayonida ishtiroy etadi;
- intellektual kapital ham, sohibkorlik kapitali ham ma'nnaviy jahatdan eskirib boradi, shuning uchun ham ularni ikkalasini qayta tiklash uchun sarf xarajatlar talab etiladi.

Shu bilan birgalikda intellektual kapital va sohibkorlik kapitali o'rtasida farq qiladigan jihatlari bo'lib, ular quyidagilar:

- intellektual kapital nomoddiy ko'rinishga (nomoddiy aktiv) ega, funksional kapitali esa moddiy ko'rinishga egadir;
- funksional kapitalidan farqli, intellektual kapital istiqbolni (kelajakni) ko'zlab harakatda bo'ladi;
- funksional kapital uning har bir elementini sotib olish natijasida shakllansa, intellektual kapital esa uning barcha elementlarini o'zaro bog'liqlikda va uyg'unlikdagi harakati orqali vujudga keladi.

Korxona, tashkilot, firmalarda intellektual kapitalni muvofaqiyatl shakillantirishning sirlaridan biri, bu uning turli ko'rinishlarini, elementlarini o'zaro bir biri bilan samarali senergetik bog'liqlikda amal qilishidadir. Ushbu holatda bilim, ilmiy yangilik, texnologiya va h.k ko'rinishdagi intellektual kapital korxona, firmalarning tashqi kontragenlari bilan birgalikda harakatda bo'ladi va o'ziga xos tarzda intellektual kapitalni amal qilishini ta'minlaydi. Bunda intellektual kapital sohiblari maxsus tanlangan va tayyorlangan korxona personali, uning tarkibi (buyumlashgan kapital) va mijozlar ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Intellektual kapitalning muhim xususiyatlaridan biri, kompaniyalar uning barcha elementlariga, xususan, inson va iste'mol kapitallariga egalik qilish huquqiga ega emas. Balki, ulardan kompaniya hodimlari hamkorlikda foydalanishi mumkin.

Hozirgi davrda "Intellektual kapital" tushunchasi bilan bir qatorda "Nomoddiy aktivlar", "Intellektual mulk" kabi tushunchalar ham iqtisodiy leksikonda keng qo'llanilmoxda. Ushbu tushunchalar sinonim ma'noga ega bo'lmashdan, o'zaro bir-biri bilan bog'liq. Lekin ularni o'rtasida ajratuvchi chegara mavjud. Misol uchun: insonning intellektual va ishbilarmonlik qibiliyati, ularning kasbiy ko'nikmasi va mehnat qilish layoqati nomoddiy aktiv ham, intellektual mulk ham bo'la olmaydi. Ammo, ular intellektual kapitalning elementlaridir. Shuningdek, nomoddiy aktivlarning barchasi ham tashkilot intellektual mulki ob'ekti bo'la olmaydi.

Zamonaviy korxona, tashkilot, firmalar o‘z faoliyatini tashkil etishda asosiy e’tiborni ustav kapitalining salmoqli qismini intellektual kapital tashkil etishiga qaratishmoqda. Misol uchun: Amerika firmalari menejerlari uzoq muddatga hamkorlarini tanlashda ularning umumiy kapitali tarkibini 40% intellektual kapital bo‘lsagina shartnoma tuzishadi va hamkorlikda ish olib borishadi.

Demak, xulosa sifatida shuni e’tirof etishimiz mumkinki, hozirgi davrda ko‘plab rivojlangan bozor iqtisodiyotli mamlakatlarda iqtisodiyotni rivojlantirishning bosh omili sifatida intellektual kapitalni gorizontal va vertikal tarzida rivojlantirishga e’tibor qaratishmoqda. Shuningdek, ular iqtisodiyotdagi tarkibiy qayta qurishni fan sig‘imi yuqori bo‘lgan ishlab chiqarish tarmoqlari va sohalarida amalga oshirishmoqda. Buni Shvetsiya iqtisodiyoti misolida yaqqol ko‘rishimiz mumkin. Bu mamlakatda past retabelli, kema qurilishi, qora metallurgiya, to‘qimachilik kabi an’anaviy sanoat tarmoqlarida tarkibiy qayta qurish amalga oshirilib, yuqori texnologiyali bir qator yangi tarmoqlar mashinasozlik, elektrotexnika maxsulotlari, oziq-ovqat sanoati uchun uskunalar, mebel sanoati jadal rivojlanmoqda.

Intellektual kapital to‘g‘risidagi qarashlarni umumlashtirgan holda, uning tarkibiy tuzilishi va namoyon bo‘lish shakllari haqida to‘xtalib o‘tish mumkin. Mazkur muammoga oid adabiyotlarda intellektual kapital o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lgan inson kapitali, tashkiliy kapital va iste’mol kapitali (munosabatlar kapitali) ga ajratilgan. Ularni har birini alohida qarab chiqish maqsadga muvofiqdir.

Bilim, tajriba, ijodiy qobiliyat, ma’naviy qadriyat, mehnat madaniyati va boshqa elementlardan tashkil topgan inson kapitali korxona, tashkilot va firmalarning eng qadrli kapitali bo‘lib, innovatsiyaga asoslangan iqtisodiyot sharoitida ular daromad olishga qaratiladi. Inson kapitalining bilim, ko‘nikma va tajriba olish uchun qilingan sarf-xarajatlar ma’lum vaqtidan so‘ng ishchining o‘ziga hamda uning yollovchisiga sezilarli darajada daromad keltiradi. Demak, inson kapitalini, inson patensialini kapitallashuvi natijasida insonning o‘ziga va uning yollovchisiga daromad keltiruvchi kapital sifatida qarash mumkin. Mohiyatan inson kapitali intellektual kapitalni barcha belgilarini o‘zida mujassamlashtiradi. Shu bilan birga, uning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, ular quyidagilar:

- inson kapitalini uning egasidan ajratib bo‘lmaydi, hamda u mulkdor mulki ham bo‘la olmaydi;
- inson kapitali uning egasi (sub’ekt) bilan birgalikda harakatda (doiraviy aylanishda) bo‘ladi;
- inson o‘zining mehnat qilish qobiliyatini yo‘qotib borishi bilan inson kapitali ham yemirilib, qadrsizlanib boradi;
- funksional kapitaliga nisbatan inson kapitali o‘zini qoplash (u uchun qilingan sarf-xarajatlarni) mudduta bir mucha uzoq davom etadi.

Inson kapitalining yana bir muhim xususiyati, uni shakllanish muddatini uzoq vaqt davom etishi (11-17 yil davomida shakllanadi) va jamg‘arilishi jarayoni turlicha kechishidir. Unga yo‘naltirilgan bir xil miqdordagi investitsiya bir qator omillar, ya’ni sub’ektning shaxsiy qiziqishi, motivatsiyasi, iqtidori va h.z ta’siri ostida turlicha natija berishi mumkin.

Inson kapitalida innovatsion ishlab chiqarishning ta’sirida uning muhim tarkibiy qismi bo‘lmish intellektual faollik komponenti shakllanib boradi. Bizning fikrimizcha, shaxsnинг intellektual faolligi qanchalik yuqori bo‘lishi, inson kapitalining realizatsiyasini (kapital sifatida insonlarning mehnat qilish qobiliyatini) to‘liqroq amalga oshishiga sabab bo‘ladi. Bu holat ishchi kuchini (uning mehnat qilish qobiliyatini) “kapitallashuvi” jarayonini belgilaydi.

Tashkiliy kapital o‘z tarkibiga korporativ axborot tizimini, ma’lumotlar bazasi, texnik va dasturiy ta’midot, tashkiliy tarkib, mualliflik huquqi, patentlar, nou-xaular, litsenziyalar, tovar belgilari, korporativ madaniyat kabilarni birlashtirib, asosan ikki vazifani; birinchidan, faoliyat asosi sifatida bilimlarni jamlanishi va ikkinchidan, kompaniya ichida axborotlar harakatini jadallahsuvi vazifalarini bajaradi.

Tashkiliy kapital axborot tizimlarini shakllanishi va rivojlanishi jarayonida jamg‘arilib boriladi. Tashkiliy kapital inson kapitalini nafaqat to‘liqroq namoyon bo‘lishiga, balki uni tashkiliy muhitga mos ravishda doimiy takomillashishiga imkoniyat yaratadi. Tashkiliy kapitalning samaradorligini uzliksiz oshirib borish kompaniya strategiyasini bosh maqsadidir. Inson kapitalidan farqli ravishda tashkiliy kapital kompaniyaning mulki hisoblanib, u sotilishi yoki sotib olinishi mumkin.

Raqobat kurashi jarayonida korxona, tashkilot, firma va kompaniyalarning yuqori natijalarga erishishi uchun nafaqat inson yoki tashkiliy kapital, balki iste’mol kapitali ham muhim ahamiyat kasb etadi. Inson kapitali to‘g‘risida turli xil ilmiy qarashlar mavjud. Misol uchun A.Marshall iste’mol kapitalini tovar kapitalining tarkibiy qismlaridan biri sifatida qarashni taklif etadi. G.Bekker iste’mol kapitalini insonda u yoki bu ne’matni iste’mol qilish jarayonida shakllangan maxsus qibiliyatlar va tajribalar fondi sifatida talqin etadi. Ba’zi mutaxassislar iste’mol kapitalini “mijoz” kapitali yoki “munosabatlar” kapitali deb e’tirof etishni taklif etishadi. Chunki, u yoki bu kompaniya mijozlari doimiy munosabatda bo‘lgan kompaniyalarga ishonch bildirishadi va doimo aloqada bo‘lishadi. Shu sababli iste’mol kapitalini “munosabatlar kapitali” ham deb atashadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan xulosa qilib, iste'mol kapitalining ta'rifini quyidagicha keltirish mumkin. Iste'mol kapitali- bu mijozlar bilan tarixan shakllangan o'zaro munosabatlar bo'lib, ular haqida to'plangan va doimiy ravishda yangilanib boriladigan axborotlar asosida kompaniyaning mahsulotini iste'molchilar bilan aloqasidir. Bu aloqalar iste'molchilar, buyutmachilar, raqobatchilar hamda brendlari, savdo markalari, tashkilot nufuzi orqali bo'ladigan munosabatlarda namoyon bo'ladi.

Iste'mol kapitali tashkilot doimiy mijozlarining miqdori va sifati hamdir. Ammo, shuni ta'kidlash lozimki, iste'molchiga ta'sir qiladigan vositalar, ya'ni tovar markalari, brend, firma nufuzi kabilar bir vaqtning o'zida tashkiliy kapitalga ham tegishlidir. Misol uchun, tashkiliy kapital elementi bo'lmish savdo markasi brendga aylansa, u iste'molchiga tegishli bo'ladi. Ya'ni brendni kishilar ongiga singishi bilan iste'mol kapitalining komponentiga aylanadi. Iste'mol kapitalining shakllanishi firma, korxona va tashkilotlarning tashqi muxitini elementlari bilan chambarchas bog'liq.

Demak, keltirilgan tahlillardan shunday xulosa qilish mumkinki, inson kapitali, tashkiliy kapital va iste'mol kapitali bir-biri bilan o'zaro bog'liqlikda amal qiladi. Mazkur kapitallarning har birini yetarli miqdorda investitsiya resurslari bilan ta'minlanishi, rivojlanishiga imkoniyalarning yaratilishi ularni birinchidan, o'zaro uzviylikni ta'minlasa, ikkinchidan, intellektual kapitalning bir turini ikkinchisiga ta'sirini kuchayishiga, ularni o'zaro sinergetik samarasini o'sishiga, oqibatda esa jamiyat darajasida yalpi intellektual kapitalni hajmini, ko'lamenti oshishiga sabab bo'ladi.

### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni.
2. Стюарт Т.А. "Интеллектуальный капитал. Новый источник богатства организаций"- М.: Поколение, 2007 г. – С. 180.
3. Инновационное развитие: экономика, интеллектуальные ресурсы, управление знаниями Под.Ред. Б.З.Мильнера. М.: ИНФРА-М, 2013 г. 624-стр.
4. Руус Й., Пайк С., Фернстрём Л. Интеллектуальный капитал: практика управления. – С. Пб.: Высшая школа менеджмента: СПбГУ, 2008.г 120-стр.
5. Тис Д. Дж. Получение экономической выгоды от знаний как активов: "Новая экономика", рынки ноу-хау и нематериальные активы. Российский журнал менеджмента. 2004.г. том 2. №1.

**UDK 338.48(470.47)**

### **JIZZAX VILOYATIDA TURISTIK MEHMON UYLARINI YARATISH VA UNING INSTITUSIONAL ASOSLARI**

**B. B. Xudoyberdiyev**

*Jizzax Politexnika Instituti*

*bobirxudoyberdiyev03@gmail.com*

**Annotatsiya.** Maqlada mamlakatimizning jizzax viloyatida uning tabiiy potensiali orqali turistik qishloq ovullarini yaratish yo'nalishlari hamda uning institutsional asoslari bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Turistik qishloq ovullari, rekrestiya, madaniy-tarixiy meros, viza, infratuzilma, ziyyorat, turizm mahallasi va qishlog'i.

### **Создание туристических отелей в джизакской области и ее институциональных основах**

**Аннотация.** В статье описаны направления создания туристических поселков в Джизакской области страны через ее природный потенциал и институциональную базу.

**Ключевые слова:** туристические деревни, рекреация, культурно-историческое наследие, визы, инфраструктура, паломничество, туристические махаллы и деревни.

### **Creation of tourist hotels in the Jizzakh region and its institutional framework**

**Abstract.** The article describes the directions of creation of tourist villages in Jizzakh region of the country through its natural potential and its institutional basis.

**Keywords:** Tourist villages, recreation, cultural and historical heritage, visas, infrastructure, pilgrimage, tourist neighborhood and village.

**Kirish.** Mamlakatimizda turizm sohasini strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Shuningdek, hududlarni barqaror

ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida ichki turizmni jadal rivojlantirish, sayyohlarni mamlakatimizning madaniy-tarixiy merosi hamda tabiiy boyliklari bilan tanishtirish, uning asosi sifatida viza rejimining liberallashtirilishi, chet el fuqarolarini ro'yxatga olish tartibining soddalashtirilishi, turizm tarmog'ini rivojlantirish uchun imtiyoz va preferensiylar berilishi milliy turizm salohiyatini ichki va tashqi bozorlarda samarali targ'ib qilish imkonini beradi. Ammo, o'tkazilgan dastlabki tahlillar turizm tarmog'ini tartibga soluvchi normativ-huquqiy asosning nomukammalligi, alohida turizm xizmatlarini ko'rsatish qoidalarining, shuningdek, rivojlangan dunyo ahlining mamlakatimiz tabiatining o'ziga xosligi, ko'plab hududlarda bahavo turistik ob'yektlar mavjudligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud emasligini ko'rsatmoqda. Shuning uchun ham turizm resursining asosi sanalgan dunyo xilma-xilligini namoyish qiluvchi turizm predmetlari faqatgina reklama, targ'ibot orqaligina xalqaro turizm ixlosmandlarini o'z domiga tortishi mumkin. O'z navbatida ta'kidlash joizki, turizm sohasining kirib kelishi va uning rivojlanishi dunyoning har qanday mamlakatiga ham nasib qilavermaydi, chunki mazkur sohaga bo'lgan turizm mahsulotlari bozoridagi unga bo'lgan talab to'g'ridan-to'g'ri iqtisodiy ehtiyojlar bilan emas, balki ijtimoiy ehtiyojlar bilan belgilanadi. Ijtimoiy ehtiyojlar ichida ziyyaratga, rekreatsiyaga bo'lgan ehtiyoj inson ruhiyatida uy-joyga bo'lgan ehtiyojdan ham ko'ra 3 marta ko'proqdir. Mamlakatimizda mazkur sohani rivojlantirishning dolzarbliji ham shundadir. Turizm sohasining serdaromad, shuning bilan birgalikda mashaqqati kamroq faoliyat turi ekanligini e'tirof etib, mamlakatimizda mazkur sohani rivojlantirish, takomillashtirish yuzasidan tinimsiz izlanishlarni olib borish maqsadga muvofiq sanaladi. Ana shunday yo'llardan biri-aholi gayrum, shuningdek, iqlim sharoiti mo'tadil bo'lgan hududlarda aholining turistik xizmat ko'rsatishini amalga oshirishi bilan birga aholining o'zi ham mazkur turistik mahsulotdan bahramand bo'ladigan faoliyat turlaridan biri bu turistik qishloq ovullarini tashkil etish hisoblanadi. Turistik qishloq ovullarini tashkil qilishning institutsional asosi bo'lib, birinchi navbatda, 2019 yil 16 aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining turizm to'g'risida" gi Qonuni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5781 son Farmoni xizmat qiladi. Mazkur institutsional asoslarga ko'ra 2019 yil 1 noyabrdan boshlab eng yuqori turizm salohiyatiga ega bo'lgan fuqarolar yig'inlari (*shaharcha, qishloq, ovullar hamda shahar, shaharcha, qishloq va ovullarning mahallalari*) ro'yxatini shakllantirish, ushbu fuqarolar yig'inlari hududlarida 20 tadan kam bo'lgan oilaviy mehmon uylari tashkil etilganda va turistlar uchun kamida besh xil xizmat turlari (*yashash va/yoki ovqatlanish bo'yicha xizmatlardan tashqari*) ko'rsatilgan taqdirda ularga «Turizm mahallasi», «Turizm qishlog'i» yoki «Turizm ovuli» maqomini berish, 2020 yildan boshlab «Turizm mahallasi», «Turizm qishlog'i» yoki «Turizm ovuli» maqomi berilgan fuqarolar yig'inlari «Obod qishloq» va «Obod mahalla» davlat dasturlariga birinchi navbatda kiritilishi qat'iy belgilab qo'yilgan [2]. "O'zbekiston Respublikasining turizm to'g'risida" gi Qonunining 5-moddasiga ko'ra xalqaro va ichki turizm uning shakllari hisoblanadi. Turizm tashkil etilayotgan turning o'ziga xosligi, mavzusi, davomiyligi, harakatlanish usullari va turning boshqa xususiyatlaridan kelib chiqqan holda madaniy-tarixiy, ziyyarat, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, ishbilarmonlik, ijtimoiy, sport, tibbiy, yoshlar turizmi, agroturizm hamda turizmning boshqa turlariga bo'linishi mumkin [1]. O'zbekiston turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lami imkoniyatga, shuningdek, juda katta rekreatsiya salohiyatiga ega, unda jami 7,4 ming madaniy merosi ob'ektlari mavjud, ulardan 209 tasi to'rtta muzey shaharlar — «Xiva shahridagi Ichan-qal'a», «Buxoro shahrining tarixiy markazi», «Shahrisabz shahrining tarixiy markazi», «Samarqand shahri» hududida joylashgan bo'lib, YUNESKO butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan [3].

Mamlakatimizda so'nggi yillar davomida turizm xizmatlari eksporti hajmi ikki baravar oshdi, xususan so'nggi ikki yilda 546,9 million AQSh dollaridan 1041 million AQSh dollariga, ya'ni 190,3 foizga oshdi. Joriy yilda xorijiy tashrif buyuruvchilar sonining o'sish sur'ati o'rtacha yillik 8 foizni tashkil etgan bo'lsa, o'tgan yilda 7 foizni tashkil qilib, bu ko'rsatkich 2,69 million nafardan oshganligini ko'rsatib turibdi. O'tgan yil yakunlari bo'yicha respublikaga 5,3 million xorijiy turistlar tashrif buyurdi. Xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash va muhofaza qilishga qaratilgan choralar ko'rilegani natijasida yil yakuni bo'yicha 950 taga, mehmonxona xo'jaliklari soni — 661 tadan 900 taga etdi. Respublika hududiga olib kirilayotgan 8 va undan ko'proq yo'lovchi tashishga mo'ljallangan turistik klassdagi avtotransport vositalarini sertifikatsiya qilishning yangi mexanizmi joriy etilgani hamda buning natijasida so'nggi yilda turistik klass avtotransport vositalarining parki 128 donaga ko'paytirilgani (47 avtobus va 81 mikroavtobus) mazkur sohaga berilayotgan e'tiborning yaqqol dalilidir. Eng asosiysi qishloq ovullarini yaratishga ko'maklashuvchi xorijiy fuqarolarini respublika hududida vaqtinchalik ro'yxatga olish tartibi soddalashtirilgani, mazkur tartib «E-MENMON» tizimi orqali to'liq elektron shaklga o'tkazilganligi, shuningdek, mehmon uylarini sertifikatsiya qilish tartibi bekor qilinganligi bu borada ayni muddaodir. Bugungi kunda mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha bir qancha istiqbolli dasturlar

belgilab olingen bo‘lib uning samarasi sifatida 2020 yilda turizmni rivojlantirish uchun mustahkam qonunchilik bazani yaratishga qaratilgan institutsional islohotlar, infratuzilmani modernizatsiyalash va mamlakat brendini targ‘ib qilish, hamda 2021- 2025 yillarda mamlakat iqtisodiyotida turizm industriyasi ulushini ko‘paytirish, ushbu yo‘nalishda zarur infratuzilmani rivojlantirish va dunyo bozorida respublikaning turizm salohiyatini targ‘ib qilish orqali mamlakatning yalpi ichki mahsulotida turizm ulushini 5 foizgacha (shu paytgacha 2,3%) etkazish, shuningdek, 2025 yil yakuniga qadar 9 milliondan ortiq turistlarni, shu jumladan uzoq xorijdan 2 million turistni jalb qilish belgilab quyilgan [2]. Mamlakatimizda yaratilayotgan shunday institutsional imkoniyatlardan kelib chiqqan holda xulosa qiladigan bo‘lsak Jizzax viloyatida ham turizmni rivojlantirish uchun keng qamrovli imkoniyatlar mavjud.

Jizzax viloyati O‘zbekistonning markaziy mintaqasida joylashgan bo‘lib, shu tufayli har taraflama keng ko‘lamli xo‘jalik yuritish imkoniyatiga egadir. Uzunligi sharqdan g‘arba, ya’ni Yangiobod tumanidan Forish tumanigacha 180 km, janubdan shimolga, ya’ni Baxmal tumanidan Mirzacho‘l tumanigacha 175 km. ni tashkil etadi. Maydoni 21,1 ming kv.km. Shundan 4,8 ming kv.km. (22,7 %) qishloq xo‘jaligida foydalanishda bo‘lgan erlardir. O‘rmon va o‘rmonchilik bilan bog‘liq ekinlar ekiladigan maydon 1,8 ming (8,5 %) kv.km dan iboratdir. Maydonining katta qismini sharqdan g‘arba va qisman shimoli-g‘arb tomonga cho‘zilgan Chimqortog‘ va Molguzar, g‘arbdan sharqqa, sharqi-janubga va janubga tomon cho‘zilgan Nurota tizma tog‘lari, shimol tomonidan Qozog‘istonidagi Chordora to‘g‘onidan viloyatning shimoli-g‘arbidan Navoiy viloyati hududiga qadar cho‘zilgan Aydarko‘l tashkil etadi. Bu qadimi yurtda ajdodlarimiz zakovati, salohiyatidan darak beruvchi – qadimi turkiylarning quyosh yili timsoli – “Quyosh taqvimi”, (“Saklar taqvimi”), 19 fevraldan 21 martgacha quyosh nuri tushadigan Huttosh, shuningdek, Qantartosh, Hamaltoshlarning o‘zi sirli bir olam. Viloyatda ziyyarat turizmini rivojlantirish uchun ham Sa’d ibn Vqqos, Usmand ota, Novqa ota, Xo‘jamushkent ota, Parpi ota, Sayfin ota, Savruk ota, Qulfisar ota kabi ziyyaratgohlarlar xizmat qiladi. E’tiborli jihat bu yerdagi tabiiy buloqlardan yiliga o‘rtacha 16-20 mln. kubometr suv olish imkoniyati mavjud. Eng asosiyi viloyatning Baxmal, Zomin, G‘allaorol tumanlari hamda Sh. Rashidov va Forish tumanlarining tog‘li hududlarida yog‘ingarchilik nisbatan mo‘l bo‘ladi. Shuningdek, haroratning mo‘tadilligi tufayli Baxmal, G‘allaorol va Forish botiqlarida, Zomin soy, Ettikechuv va Ko‘rpasoyda suvning parchalanishi nisbatan kam. Viloyatda turizm va uning zaminidagi rekreatsiya klasterlarini rivojlantirish uchun ham birmuncha sezilarli imkoniyatlar, ya’ni viloyat tabiatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri tog‘lar va tog‘ yon bag‘irlarida tarkibida temir, oltingugurt, vodorod, radiy, kremlniy kislotasi, karbon gazi, ishqorli termo-minerallar bo‘lgan bir qator mavjud shifobaxsh suv manbalari mavjud. Darhaqiqat, ayni paytda viloyatning G‘allaorol, Forish, Mirzacho‘l tumanlarida ana shunday balneologik suvlar bilan davolovchi “Marjonsuv”, “Birlashgan”, “Gagarin” nomli sanatoriylar va bir nechta profilaktoriylar ishlab turibdi. Shuning bilan birgalikda viloyatning Zomin, Jizzax, Baxmal tumanlarida ham ma’danga boy manbalari bor. Viloyatdagi barcha ma’danli suvlar kimyoviy va balneologik tarkibiga ko‘ra eng tabiiy o‘ziga xosligi bevosita hududning ancha qismini egallagan tog‘liq zona ekanligi bilan bog‘liqidir. Mazkur hududlarning tog‘ yon bag‘irlarida bir-biridan go‘zal tabiat go‘shalari, archazorlar bodomzorlar yong‘oqzorlar, shifobaxsh o‘tloqlar, soyliklar, zilol suvlar, hatto, musaffo toza havo qatlaming o‘zi bir olam. Ulkan daralarda qir-adirlar va soyliklarda kamyob o‘simliklar va hayvonlar, parrandalarning turfa xillari mavjud. Baxmal va Zomin tumanlaridagi qir-adirlar, ulkan bog‘-rog‘lar, shuningdek, Baxmaldagi dengiz sathidan 2600 metr balandlikdagi ma’danli suv, Xalq bog‘i va qo‘riqxonalar, ajoyib sharsharalar, qirlar bag‘ridagi o‘nlab chashmalar insoniyatni o‘ziga chorlovchi saxiy tabiatning o‘ziga xos ne‘matidir. Viloyatda turizm klasterlarining asosiy poydevori sanalgan Zomin tumanidagi 1976 yilda tashkil etilgan 48 ming hektarli Xalq bog‘ining tabiatni o‘ta go‘zal. Balandligi dengiz sathidan 4 ming metrgacha cho‘zilgan tog‘ yon bag‘rida yoz va bahorda havo qatlami kamalak rangida tovlanadi. Qalin archazorlar va bahaybat daralar, soyliklardagi toshqin suvlar go‘yo tabiatning haqiqiy tabiiy ko‘rgazmasini namoyish etadi. Albatta bu kabi jarayonlarning xususiyati shundaki, inson hamisha ko‘pincha o‘zlashtirilmagan, inson qo‘li tegmagan tabiiy go‘shalarga ehtiyoj sezishidadir. Xalq bog‘i yonida Zomin qo‘riqxonasi tashkil etilgan, Xalq bog‘i va qo‘riqxonaning umumi maydoni 78 ming hektarni tashkil etadi. Bu qo‘riqxonada 100 dan ortiq shifobaxsh va dorivor o‘simliklar, oq tirnoqli ayiq, yovvoyi cho‘chqa, bo‘rsiq, alqar, (tog‘ echkisi), jayra kabi hayvonlar, kemiruvchilar, kalxat, qora turna, bulduruq, tuvaloq, kaklik, tustovuq kabi parrandalarning 150 dan ortiq turlari uchraydi.

Viloyat rel’efi shimol, shimoli-g‘arb tomonidagi pasttekisliklar, cho‘l va dashtlardan qirlar, tog‘lar sari balandlab borishi bilan bog‘liq ravishda hayvonlar turlari ham ko‘payib boradi. Viloyatda baliqchilik sanoatini rivojlantirish uchun ham keng ko‘lamli imkoniyatlar mavjud, xususan, Aydarko‘l-Tuzkon Armasoy ko‘llarida baliqlarning zog‘ora, laqqa, suzak va ilonbaliq kabi turlari bor. Buning ajablana

tomoni shundaki, aydarko‘l-tuzkon Arnasoy ko‘llari viloyatda baliqchiliq sanoatini rivojlantirish bilan bir paytda rekreatsiyani rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Viloyatning tabiiy iqlim sharoiti keskin mo‘tadil. Yozi quruq va issiq, qishi nisbatan yumshoq. Baxmal, qisman Zomin, Forish tumanlarining tog‘liq hududlarida yoz fasli biroz salqin o‘tadi. Yilning eng issiq oyi cho‘l zonalarida iyun-iyul, tog‘ zonasida iyul-avgust. Kunning uzunligi kunduz yozda 15 soat, qishda 9 soat davom etadi. Yanvar oyida harorat +1+4 daraja, iyul oyida esa +26+28 daraja. Bir yillik yog‘in miqdori 400-500 mm. Vegetatsiya davri 240-260 kun. Havoning namlik darajasi qishda 70-80 %. Bir yilda quyoshli kunlar 2800-3000 soat atrofida. Birinchi qorning yog‘ishi asosan oktyabr oyiga to‘g‘ri keladi.

Viloyat hududining nisbatan yaxlitligi va subtropik kengliklarga yaqinligi harorat rejimining birxilligini ta‘minlaydi. Yil davomida o‘rtacha 250-270 kun havo ochiq, osmon beg‘ubor bo‘ladi. Fevraldan noyabrgacha quyosh energiyasi nisbatan ko‘proq bo‘ladi. Havoning harorat yig‘indisi janubiy pasttekisliklarda 5,5 ming daraja, shimoliy pasttekisliklarda 4,3-4,5 ming darajaga etadi.

Viloyat hududida yog‘ingarchilik asosan qish va bahor fasllariga to‘g‘ri keladi. Shimoldan janubga tomon yog‘ingarchilik ko‘payib boradi. Yillik yog‘in miqdori balandligi 276 metr bo‘lgan Mirzacho‘lda 295, balandligi 392 metr bo‘lgan Sangzorda 400 mm.dan oshadi. Qor turib qoladigan kunlar bir yilda tekisliklarda 20-22 kun, tog‘li hududlarda 60-70 kunni tashkil etadi. Hududning tekislik qismida yillik yog‘in miqdori 200 mm. atrofida. Bug‘lanish darajasi 100-120 mm.ga teng. Viloyat hududida shimoli-g‘arbda vaqtı-vaqtı bilan kuchli shamol bo‘lib turadi. Aprel va may oylarida kuchli shamol, do‘l va jala yog‘ish holatlari uchraydi.

Viloyat aholisi 2020 yil yanvar oyi holatiga 1382100 kishini tashkil etib, yil boshidan 29700 kishiga yoki 102,2 foizga ko‘paydi. Shundan 647900 kishi –shahar joylarida (46,8%) va 734200 kishi qishloq joylarida (53,2 foiz) istiqomat qiladi.

Tarkibiga ko‘ra 70 dan ortiq millat vakillari bor. Umumiy aholisining 83 foizini o‘zbeklar tashkil qiladi. O‘rtacha zichligi bir kv.km. ga 65,5 kishi [4].

Yuqorida qayd etilgan ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, aholisi 163,6 ming kishi bo‘lgan viloyatning Zomin tumanida (viloyat aholisining 11,8 %), aholisi 155,8 ming kishi bo‘lgan Baxmal tumanida (viloyat aholisining 11,3 %), aholisi 171,4 ming kishi bo‘lgan G‘allaorol tumanlarida (viloyat aholisining 12,4 %) negizida rekreatsiya mayjud bo‘lgan turistik ovullarni, shuningdek, ularning o‘zar kooperasiyasi asosidagi turizm klasterlarini tashkil qilish uchun keng qamrovli imkoniyatlar mavjud.


Viloyatda turizm sohasiga poydevor bo‘luvchi tabiiy buloqlardan yiliga o‘rtacha 16-20 mln. kubometr suv olish imkoniyati mavjud. Eng asosiysi yuqorida qayd etilganidek, viloyatning Baxmal, Zomin, G‘allaorol tumanlari hamda Jizzax va Forish tumanlarining tog‘li hududlarida yog‘ingarchilik nisbatan mo‘l bo‘ladi. Shuningdek, haroratning mo‘tadilligi tufayli Baxmal, G‘allaorol va Forish botiqlarida, Zominsoy, Ettikechuv va Ko‘rpasoyda suvning parchalanishi nisbatan kam.

Viloyatda turizm va uning zaminidagi rekreatsiya klasterlarini rivojlantirish uchun ham birmuncha sezilarli imkoniyatlar, ya’ni viloyat tabiatining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri tog‘lar va tog‘ yon bag‘irlarida tarkibida temir, oltingugurt, vodorod, radiy, kremniy kislotsasi, karbon gazi, ishqorli termominerallar bo‘lgan bir qator mayjud shifobaxsh suv manbalarini mavjud. Darhaqiqat, ayni paytda viloyatning G‘allaorol, Forish, Mirzacho‘l tumanlarida ana shunday bal‘neologik suvlar bilan davolovchi “Marjonsuv”, “Birlashgan”, “Gagarin” nomli sanatoriylar va bir nechta profilaktoriylarning ishlab turganligi ham mazkur salohiyatlardan dalolatdir. Shuning bilan birgalikda viloyatning Zomin, Jizzax, Baxmal tumanlarida ham ma’danga boy manbalar bor. Viloyatdagi barcha ma‘danli suvlar kimyoviy va bal‘neologik tarkibiga ko‘ra eng tabiiy o‘ziga xosligi bevosita hududning ancha qismini egallagan tog‘liq zona ekanligi bilan bog‘liqdir. Mazkur hududlarning tog‘ yon bag‘irlarida bir-birdan go‘zal tabiat go‘shalari, archazorlar bodomzorlar yong‘oqzorlar, shifobaxsh o‘tloqlar, soyliklar, zilol suvlar, hatto, musaffo toza havo qatlaming o‘zi bir olam. Ulkan daralarda qir-adirlar va soyliklarda kamyob o‘simliklar va hayvonlar, parrandalarning turfa xillari mavjud. Baxmal va Zomin tumanlaridagi qir-adirlar, ulkan bog‘-rog‘lar, shuningdek, Baxmaldagi dengiz sathidan 2600 metr balandlikdagi ma‘danli suv, Xalq bog‘i va qo‘riqxonalar, ajoyib sharsharalar, qirlar bag‘ridagi o‘nlab chashmalar insoniyatni o‘ziga chorlovchi saxiy tabiatning o‘ziga xos ne’matidir. Viloyatda turizm klasterlarining asosiy poydevori sanalgan Balandligi dengiz sathidan 4 ming metrgacha cho‘zilgan tog‘ yon bag‘rida yoz va bahorda havo qatlami kamalak rangida tovlanadi. Qalin archazorlar va bahaybat daralar, soyliklardagi toshqin suvlar go‘yo tabiatning haqiqiy tabiiy ko‘rgazmasini eslatadi. Albatta bu kabi jarayonlarning xususiyati shundaki, inson hamisha ko‘pincha o‘zlashtirilmagan, inson qo‘li tegmagan tabiiy go‘shalarga ehtiyoj sezishidadir.

Viloyat rel‘efi shimol, shimoli-g‘arb tomondagi pasttekisliklar, cho‘l va dashtlardan qirlar, tog‘lar sari balandlab borishi bilan bog‘liq ravishda hayvonlar turlari ham ko‘payib boradi. Viloyatda baliqchilik

sanoatini rivojlantirish uchun ham keng ko‘lamli imkoniyatlar mavjud, xususan, Aydarko‘l-Tuzkon Arnasoy ko‘llarida baliqlarning zog‘ora, laqqa, suzak va ilonbaliq kabi turlari bor. Aydarko‘l-Tuzkon Arnasoy ko‘llari viloyatda baliqhiliq sanoatini rivojlantirish bilan bir paytda rekreatsiyani rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Bugungi kunda respublikada klaster doirasida turizm sohasini rivojlantirishga va turli xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning klaster doirasidagi o‘zaro hamkorligini takomillashtirishga muhim ahamiyat berilgan holda, ushbu jarayonlarni rivojlantirishning iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonlariga mos keladigan me’yoriy-huquqiy asoslar yaratilgan. Ularni guruhlarga bo‘lish mumkin (1-rasm).



1-rasm.

**Birinchi guruh** – turizm klasterini tashkil qilish tartibi va mexanizmlarini tartibga soluvchi me’yoriy-huquqiy hujjatlар (xizmat ko‘rsatish doirasи, kafolatlar, himoya va h.k.);

**Ikkinci guruh** – klaster doirasida turli xildagi xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning o‘zaro hamkorlik qilish tartibi va mexanizmlarini tartibga soluvchi huquqiy baza;

**Uchinchi guruh** – klaster doirasida birlashgan xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning davlat bilan o‘zaro hamkorlik qilish tartibi va mexanizmlarini tartibga soluvchi huquqiy baza (soliq solish, hisobot, soliq va bojxona organlari bilan munosabatlar va h.k.);

**To‘rtinchi guruh** - turizm klasterini qo’llab-quvvatlashning huquqiy asoslari.

Klaster doirasida xo‘jalik yuritishning vujudga kelishi va rivojlanishiga doir me’yoriy hujjatlarning **birinchi guruhini** ko‘rib chiqishda shuni ta’kidlash lozimki, ilk 1991 yilda qabul qilingan va unga o‘z vaqt bilan bir necha marotaba o‘zgartirishlar kiritilgan O‘zbekiston Respublikasining “Mulkchilik to‘g‘risida”gi qonuni O‘zbekistonda ishbilarmonlikka oid me’yoriy-huquqiy bazaning asosi bo‘lib hisoblanadi. U xususiy mulkning dahlsizligini, ishbilarmonlikning iqtisodiy va yuridik jihatdan mustaqilligini kafolatlash bilan birga, ularning huquq va majburiyatlarini, ishbilarmonlarning bir-biri bilan hamda davlat va nodavlat tashkilotlar bilan o‘zaro munosabatlarini tartibga solish qoidalarini belgilab beradi.

### Adabiyotlar

1. “O‘zbekiston Respublikasining turizm to‘g‘risida” gi Qonuni. 2019 yil 16 aprelda qabul qilingan.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 13 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-5781 son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi “O‘zbekiston respublikasida turizmnii jadal rivojlantirishga oid qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PF-5611 son Farmoni.
4. Rasmiy web sayt: [www.jizzaxstat.uz](http://www.jizzaxstat.uz)
- 4.1 Elektron pochta manzili: [jizzaxstat@uznet.net](mailto:jizzaxstat@uznet.net)
- 4.2 Elektron ximoyalangan pochta manzili: [jiz.stat@exat.uz](mailto:jiz.stat@exat.uz)

**UDK: 37.1**

**MURAKKAB 高い、上、下、雨、日 UCH VA UNDAN ORTIQ O'QILISH TURIGA EGA  
IYEROGLIFLARNING HIKOYA ASOSIDA KOMPYUTER IMITASION MODELLAR  
YORDAMIDA O'QITISH METODIKASI**

**Lutfilloyeva F.M.***Samarqand davlat chet tillar instituti**Niso niso@samdchti.uz*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yapon tili iyerogliflarning hikoya asosida kompyuter imitasion modellar yordamida o'qitish metodikasini ishlab chiqishda uch va undan ortiq o'qilish turiga ega iyerogliflarning guruhlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqligi tadqiq etilgan. Shuning bilan bir qatorda, murakkab iyerogliflarni o'rganishda ularning kompyuter imitasion modellarini o'quv jarayoniga joriy etish masalalari tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** iyerogliflar, hikoya asosida, kompyuter imitasion modellar, metodika, murakkab iyerogliflar.

**Методика обучения составных иероглифов имеющих два или три и более смысл чтения на основе сказок с помощью компьютерных имитационных моделей**

**Аннотация.** В данной статье исследуются вопросы изучения составных иероглифов японского языка на основе компьютерного имитационного моделирования. Показано, что составные иероглифы имеют 2 или 3 вида чтения и их смысл будет показано с помощью компьютерного имитационного моделирования. Полученные результаты внедрены в учебный процесс высшего образования.

**Ключевые слова:** Иероглифы, на основе сказки, компьютерные имитационные модели, методика, составные иероглифы.

**Method of teaching composite characters with two or three or more meanings to read based on fairy tales using computer simulation models**

**Abstract.** This article examines the study of composite Japanese characters based on computer simulation. It is shown that composite characters have 2 or 3 types of reading and their meaning will be shown using computer simulation. The results are implemented in the educational process of higher education.

**Keywords:** Hieroglyphs, computer simulation models, methods, composite hieroglyphs.

Yapon tili iyerogliflarning hikoya asosida kompyuter imitasion modellar yordamida o'qitish metodikasini ishlab chiqishda uch va undan ortiq o'qilish turiga ega iyerogliflarning guruhlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq. Quyida uch va undan ortiq o'qilish turiga ega iyerogliflarning guruhlarga bo'lib o'rganish uchun keltirilgan iyerogliflarni ko'rib chiqamiz.




高い – TAKAi, KOU – (tarj.) BALAND, QIMMAT. Ikki xil o'qilish turiga ega. 高い – TAKAi ma'noli morfemik birlik o'zbek tiliga BALAND, QIMMAT deb tarjima qilinadi. KOU - ma'nosiz morfemik birlik bo'lismiga qaramay, boshqa iyeroglifning morfemik birligi bilan birikib alohida so'z yasalishi mumkin. Masalan, 高校-KOUKOU – YuQORI MAKTAB. 1-bosqichda高い- iyeroglifning o'zbek tilidagi tarjima so'z tasvirlangan rasm ko'rsatiladi(1-rasm)

So'ngra 高い- iyeroglifning ikki xil turdag'i TAKAi, KOU morfemik shakllari yapon harflari orqali beriladi (2-rasm)



2-bosqichda mnemotexnik hikoya usulida ishlangan TAKAi, KOU morfemik birliklarning o'zbek tilidagi TAKAbbur KOMPYUTER so'zlariga uyg'un holda TAKAbbur bolaga QIMMAT KOMPYUTER kerak jumlesi tuzilib, obrazli tasvir ketma-ket yoritilib, iyeroglifning talaffuzdagi fonetik moslikga ahamiyat qaratiladi (3-, 4-rasm)




Takroran namoyishdan so'ng, 高い – TAKAi, KOU iyeroglifining o'ziga xos ketma-ket usulda yozilish tartibi obrazli tarzda to'g'ri yozuv usuliga ahamiyat bergan holda ko'rsatiladi (5,6)




上-UE,A,JOU – (tarj.)USTIDA. Uch xil o'qilish turiga ega iyerogliflar turiga kiradi. 上-UE – ma'noli morfemik birlik o'zbek tiliga USTIDA deb tarjima qilinadi. JOU - ma'nosiz morfemik birlik bo'lishiga qaramay, boshqa iyeroglifning morfemik birlik bilan birikib alohida so'z yasalishi mumkin. Masalan, 水上-SUIJOU-SUV USTIDA.


1-bosqichda 上- iyeroglifning o'zbek tilidagi tarjima so'z tasvirlangan rasm ko'rsatiladi. (1-rasm)




So'ngra 上- iyeroglfining uch xil turdag'i UE, A, JOU morfemik shakllari yapon harflari orqali beriladi (2-rasm)



2-bosqichda mnemotexnik hikoya usulida ishlangan UE, A, JOU morfemik birliklarning o'zbek tilidagi UnivErmAg JOnivor so'zlariga uyg'un holda UnivErmAg USTIDA JOnivor ko'rindi jumlesi tuzilib, obrazli tasvir ketma-ket yoritilib, iyeroglif talaffuzidagi fonetik o'xshashlikga ahamiyat beriladi ( 3-, 4-rasm)



Takroran namoyishdan so'ng, 上-UE, A, JOU iyeroglifining o'ziga xos ketma-ket usulda yozilish tartibi obrazli tarzda to'g'ri yozuv usuliga e'tibor bergan holda ko'rsatiladi (5-, 6-rasm)




下-SHITA, SA, GE, KA – (tarj.) – OSTIDA. To'rt xil o'qilish turidan iborat iyeroglif sanaladi. 下-SHITA, SA ma'noli morfemik birlik o'zbek tiliga OSTIDA, PASTGA deb tarjima qilinadi. GE, KA - ma'nosiz morfemik birlik bo'lismiga qaramay, boshqa iyeroglifning morfemik birligi bilan birikib alohida so'z yasalishi mumkin. Masalan, 下水-GESUI – KANALIZASIYA, 下半-KAHAN-QOLGAN YaRIM QISMI.

1-bosqichda 下- iyeroglifning o'zbek tilidagi tarjima so'z tasvirlangan rasm ko'rsatiladi (1-rasm)



So'ngra 下- iyeroglfining to'rt xil turdag'i SHITA, SA, GE, KA morfemik shakllari yapon harflari orqali beriladi (2-rasm)



2-bosqichda mnemotexnik hikoya usulida ishlangan SHITA, SA, GE, KA morfemik birliklarning o'zbek tilidagi SHTAngist, SAxar, GErdayib, KAtta so'zlariga uyg'un holda SAxarda SHTAngist GErdayib KAtta toshni ko'tardi jumlesi tuzilib, obrazli tasvir ketma-ket yoritilib beriladi (3-, 4-rasm)



Takroran namoyishdan so'ng, 下-SHITA, SA, GE, KA iyeroglifining o'ziga xos ketma-ket usulda yozilish tartibi obrazli tarzda to'g'ri yozuv usuliga e'tibor bergan holda ko'rsatiladi (5-, 6-rasm)




雨-AME、U – (tarj.) – YoMG'IR. Ikki xil o'qilish turiga ega. 雨 – AME ma'noli morfemik birlik o'zbek tiliga YoMG'IR deb tarjima qilinadi. U - ma'nosiz morfemik birlik bo'l shiga qaramay, boshqa iyeroglifning morfemik birligi bilan birikib alohida so'z yasalishi mumkin. Masalan, 時雨-JIU – SEZONLI YoMG'IR

1-bosqichda 雨- iyeroglifning o'zbek tilidagi tarjima so'z tasvirlangan rasm ko'rsatiladi (1-rasm)




So'ngra 雨- iyeroglifning ikki xil turdag'i AME、U morfemik shakllari yapon harflari orqali beriladi (2-rasm)




2-bosqichda mnemotexnik hikoya usulida ishlangan AME, U morfemik birliklarning o'zbek tilidagi AMERika,Uzoq so'zlariga uyg'un holda AMERikada Uzoq YOMG'IR yog'di jumlesi tuzilib, obrazli tasvir ketma-ket yoritilib beriladi (3-rasm)




Takroran namoyishdan so'ng, 雨-AME, U iyeroglifining o'ziga xos ketma-ket usulda yozilish tartibi obrazli tarzda ko'rsatiladi (4-, 5-rasm)




日 - HI, KA, NICHI, JI – (tarj.) Quyosh, sana. To'rt xil o'qilish turiga ega. Ikkita ma'noli HI,KA, morfemik birlikdan iborat. HI – quyosh, KA – sana. Ikkita ma'nosiz NICHI, JI morfemik tovushdan tarkib topgan. 1-bosqichda 日 - HI-quyosh iyeroglifining etimologik kelib chiqishi animasiya yordamida namoyish etilib, yaponcha harflar bilan to'rt xil o'qilishi yoziladi (1-rasm).




2-bosqida 日 - HI iyeroglifining o'ziga xos ketma-ket yozilishi usuli berilgandan so'ng (2-rasm).



Har bir o'qilish turiga mos o'zbek tilidagi o'xshash so'z ya'ni HI – Hisor, KA- KAtta, NICH – Nihoyatda CHIroyli, JI – Jiloga ega tariqasida misol keltirilib, Hisor tog'laridan ko'tarilayotgan KAtta quyosh Nihoyatda CHIroyli Jiloga ega jumlesi yasaladi (3-rasm).



Aynan 日 - HI iyeroglifida to'rtta o'qilish turi mavjudligi sabab, bu jarayonni yanada samarali esda qoldirish maqsadida HI – Hisor, KA- KAtta, NICH – Nihoyatda CHIroyli, JI – Jiloga ega so'zlari yapon tilidagi ひ、か、ニチ、ジ morfemik tovushlar bilan birlgilanishda qora shriftlarda alohida belgilangan holda namoyish qilingan(rasm-4,5)



Shunday qilib, murakkab 高い、上、下、雨、日 uch va undan ortiq o'qilish turiga ega iyerogliflarning hikoya asosida kompyuter imitasion modellar yordamida o'qitish metodikasi ishlab chiqildi va ulardan foydalanishning uslubiy jihatlari ishlab chiqildi.

Ishlab chiqilgan metodikadan oly ta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga joriy etish uchun tavsiya qilindi.

### Adabiyotlar

1. Basic Kanji Book. Vol. 1-2. Bojinsha, 1990. – 315 p.
2. Kanji look and learn: 512 kanji ith illustrations and mnemonic hints/Eri Banno, Yoko Ikeda and so on.-Tokyo: The Japan Times Ltd, 2009.-270p
3. Banno E. Kanji look and learn (512 kanji with illustrations and mnemonic hints). Japan: The Japan Times. 2011.
4. Heisig J. W. Remembering Simplified Hanzi Book 1: How Not to Forget the Meaning and Writing of Chinese Characters / J. Heisig. - Honolul: 2009. 17 p.
5. Haruna M., Ohta Y. Kanji for beginners / M. Haruna. - Morimoto: 2000. – 155 p.
6. Hamakawa,Y.日本語教師のための実践・漢字指導/Y.Hamakawa.-Tokyo: The Japan Foundation., Japanese language center, 2010.-250p
7. Kawaguchi T. Inputting Japanese from the Keyboard//Journal of Information Processing. 1990.- Vol.13, №1. –P.10-14.
8. Lin N., Kajita S., Mase K. Collaborative story-based kanji learning using an augmented tabletop system. The JALTCALL Journal, 5(1), 2009. 21-43 p.
9. Lin N., Kajita S., Mase K. Story-based CALL for Japanese kanji characters: A study on student learning motivation. The JALTCALL Journal, 3(2), 2007. 25-44 p.
10. Matsubara S. Studies of kanji introduction methods for non-kanji Japanese language learners through eye movement//Sekai-no nihongo kyo:iku, 7, 1995. –P. 48-51.
11. Mayer R., Anderson R.B. The instructional animation: helping students build connections between words and pictures in multimedia learning. Journal of Educational Psychology, 84(4), 1994. 444-452 p

12. Noguchi M. Component analysis of kanji for learners from non-kanji using countries// Sekai-no nihongo kyo:iku, 10. 1995. –P. 32-41.
13. Nur Alifah MD Yunus  
「音符に焦点を当てた漢字学習ストラテジー指導—日本留学予備教育での非漢字系学習者を対象として—」  
『日本言語文化研究会論集』12,2016. 83-110 p.
14. Okita Y. Kanji Learning Strategies and Verbal and Visual Learning Style Preferences. Honolulu, University of Hawaii, 1996. – 105 p.
15. Oomori, M. 日本語教師の7つ道具シリーズ 2 漢字授業の作り方編/M. Oomori, E. Suzuki,- Tokyo:Alc Press Inc, 2013.-150c
16. Rasiban M. Understanding the basic of kanji's meaning through mnemonic method learning / M. Rasiban. - Advancedin Social Science, Educational and Humanities Research, volume 82. 2017. – 17 p.
17. Rasiban, L.M. Understanding The Basic of Kanji's Meaning through Mnemonic Method Learning/L.M. Rasiban//Advanced in Social Science, Education and Humanities Research.-2017.-Vol.82.- P-17-21.
18. Sabine K. 「漢字の音符を教える利点についての一考察」『JSL漢字学習研究会誌』6、2014. 68-74 p.
19. The Japan Foundation Teaching Japanese Series 3.,Teaching Characters and vocabulary.: The Japan Foundation, 2008
20. The Japan Foundation., Marugoto: Japanese Language and Culture Starter A1.: Sanshusa Publishing Co., Ltd, 2013
- 21.Tukhtasinov I.M, Abdullaeva S.A., Mamadalieva N.S., Lutfillaeva F.M., Fayziyev N.A. Technology of Perfection of Knowledge Transfer and Acquisition on the Basis of Computer Simulation Models// Computer Sciences and Applications Journal (SciEP). –January, 2020 – Volume 8, Issue № 10. – P. 1-4. Journal indexed by sciepub DOI: 10.12691

**UDK: 42/48:409**

**CHET TILI DARSALARIDA AUTENTIK MATERIALLARDAN FOYDALANISHNING  
AHAMIYATI**

**T. Sh. Karshiyeva**

Samargand davlat chet tillar instituti  
karshiyevatursunoy@gmail.com

**Annotatsiya.** Ushbu maqola chet tili darslarida autentik (asl) til materiallaridan foydalanish haqida bo'lib, bunday materiallar yordamida chet tiliga xos so'z, so'z birikmali va iboralarni o'zlashtirishning samarali jihatlarga egaligi ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Autentlik, autentik material, motivatsiya, interaktiv, kognitiv talab, lingvistik talab.

**Использование аутентичных материалов на уроках иностранного языка**

**Аннотация.** Статья посвящена использованию аутентичных (оригинальных) языковых материалов на уроках иностранного языка и рассмотрено эффективность изучения иностранных слов, фраз и выражений с использованием таких материалов.

**Ключевые слова:** аутентификация, аутентичный материал, мотивация, интерактивный, когнитивный спрос, языковой спрос.

**Using authentic materials in foreign language classes**

**Abstract.** This article is about the use of authentic (original) language materials in foreign language classes and considered the effectiveness of learning foreign words, phrases and expressions using such materials.

**Keywords:** authenticity, authentic material, motivation, interactive, cognitive demand, linguistic demand.

Autentik yoki asl til materiallari o'rganish yoki o'rgatish maqsadida emas, balki asl til so'zlovchilari uchun yaratilgan materiallardir. Bunday materiallar murakkablik jihatidan darsliklardan ancha yuqorida turadi va ular badiiy kitoblar, audio va videomateriallar, jurnal va gazeta maqolalari, radio

eshittirishlar, reklamalar, oshxona menyulari va hokazolarni o'z ichiga oladi. Bunday materiallar o'qitish maqsadida yaratilmaganligi tufayli ham murakkab va soddalashtirilmagan sanaladi. Til o'rganishda bunday materiallardan foydalanish til aspektlarini yuqori samara bilan rivojlantiradi, degan qarashlar va izlanishlar mavjud.

O'qituvchilar autentik materiallarni 1970-yillarda tillarni kommunikativ o'qitish uslubining tarqalishi natijasida foydalana boshladilar. Autentik materiallarni ishlatish, autentiklik, autentikning ma'nosi haqidagi bahs va munozaralar oxirgi yillarda avj olmoqda va hozirgi kunda sotsiolingvistika, madaniyatlararo izlanishlar, etnologiya va ijtimoiy psixologiya kabi jahbalarni qamrab oladi.

Martinez [3] autentik materiallarni ona tilida so'zlashuvchilar uchun tayyorlangan va o'quv maqsadlari uchun foydalanimaydigan materiallar sifatida belgilaydi. Ya'ni, bunday materiallar o'qitish maqsadida yaratilmagan va soddalashtirilmagan bo'ladi. Autentik materiallar juda xilma-xil va murakkab bo'lganligi uchun ularni darsliklarga to'g'ri tanlab kiritish ta'limda samaradorlikni oshirishga sabab bo'ladi. Autentik materiallar murakkab bo'lishi bilan birga qiziqarli hamdir. Shu sabab dars jarayonida uni qo'llash, o'qituvchi tomonidan qo'shimcha izoh, tushuntirish va lug'atning taqdim etilishi autentik materialni osonlik bilan o'rganishni ta'minlaydi.

O'qituvchi autentik materiallarni o'quv jarayoniga kiritishi va o'quvchilarni doimiy tarzda asl til bilan yuzlashtirishi lozim. Ammo bu degani faqat autentik materialdan foydalanim darslikdan yuz burilishi kerak, degani emas. Autentik materiallar til shakli bilan emas, balki real til va kontent bilan muloqotga kiringni ta'minlaydi. Shuning uchun ham sinfdan tashqarida ishlatilayotganligi tufayli ular maqsad qilingan tilni o'rganishayotganini sezishadi va bu esa o'z navbatida motivatsiya beradi.

Richardsning ta'kidlashicha, autentik materiallarning darsda ishlatilishiga bir qancha sabablar mavjud [4]. Ular quyidagilardir:

1. Ular o'rganuvchilarni real hayotga tayyorlaydi;
2. O'rganuvchilar ehtiyojini qondiradi;
3. Motivatsiyaga ijobiy ta'sir etadi;
4. O'qituvchini samarali metodlar qo'llashga chorlaydi;
5. Madaniyat haqida autentik axborot beradi.

Shu tufayli ham autentik materiallar darsda taqdim etilgan til va real hayotiy vaziyatlardagi til o'rtaсидаги bog'liqlikni tushunishga yordam beradi.

Asl radio eshittirishlarni tinglagan talabalar tinglab tushunish qobiliyati bo'yicha bunday eshittirishlarni tinglamagan talabaldandan ko'ra yuqori natija ko'rsatishgan [2]. Tadqiqotlari shuni isbotlaydiki, o'quvchi qanchalik ko'p autentik nutq bilan yuzlashsa, uning tinglab tushunish qobiliyati shunchalik yuqori bo'ladi.

Sinfda ishlatilishi mumkin bo'lgan autentik materiallar turfa xil va ko'p, ammo ulardan eng ko'p tarqalgani bu gazeta, jurnallar, TV dasturlar, filmlar, ashulalar va adabiyotdir. Ulardan eng foydalisi bu internetdir. Chunki bosma materiallarning eskirishi juda oson. Ammo internet manbaalari tez tez yangilanib turadi, vizual stimulatsiyalashtiruvchi hamda interaktiv bo'lishi bilan ham faol yondashuvni taklif etadi.

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, haqiqiy materiallar o'quvchilarni o'rganish maqsadida foydalanimganda, o'quvchilar sinf tilidan farqli o'laroq, muloqot uchun haqiqiy til o'rganilayotganligini anglaydilar. Darslik dizaynidan farqli o'laroq, autentik materiallar juda faol, qiziqarli va ogohlantiruvchi bo'ladi. Chet tilini o'rganishdan maqsad, uni real dunyoda, real vaziyatlarda ishlata olishdir. Shu tufayli ham autentik materiallardan foydalangan holda o'qitish o'rganuvchilarni real dunyodagi til ishlatilishiga yaqinlashtiradi va real vaziyatlarda ular o'zlarini yo'qotmasdan muloqotga oson kirishishini ta'minlaydi.

Ba'zi olimlarning aytishiga qaraganda, material autentikligi fahmlangandagina o'rganuvchi uchun foydali va autentik material sanaladi, buning uchun esa, talabalar bunday materiallarga qiziqishi va jalb etilmog'i kerak. Material autentik bo'lishi uchun talabaning bilim va ko'nikmalariga qo'shimcha tarzda qiziqishlarini ham faollashtirishi kerak. Autentiklikka material yozuvchining maqsadi va talabaning talqini o'rtaсида bog'liqlik bo'lgandagina erishilishi mumkin. Boshqa so'z bilan aytganda, materialdan anglangan ma'no o'quvchi tomonidan to'g'ri tushunilgandagina material autentik bo'la oladi. Bunday materiallar nafaqat real dunyodagi original materiallar, balki til o'qituvchilari tomonidan yaratilganlari ham autentik bo'lishi mumkin.

Autentik materiallarni tanlayotganda bu materiallardan talabalar nimalarni o'rganishni xoxlashi borasida aniq pedagogik maqsadimiz bo'lishi kerak. O'qituvchi tomonidan pedagogik qo'llab quvvatlash bo'lganida, o'quvchilar bu materiallarni ishonch va qiziqish bilan o'zlashtirishadi. Autentik materiallarning qiyinlik darajasidan kelib chiqadigan muammolarning bir yechimi bu matnni o'quvchi darajasiga qarab soddalashtirishdir. Bu biror murakkab so'z va struktura olib tashlanishi yoki oddiy va u qadar akademik

bo'limgan so'zlarga almashtirish orqali qilinishi mumkin. Bunda matnning autentikligiga putur yetkazmaslik uchun quyidagi parametrlarni hisobga olish kerak:

- Lingvistik soddalik: grammatick strukturalar, leksik birlıklar va o'qishlilik;
- Kognitiv soddalik: o'rganuvchi yoshi, ta'limi va qiziqishlari;
- Psixologik soddalik: an'anaviy ijtimoiy me'yorlarga bo'ysunadimi?

Autentik matn qiyin bo'lganda yana bir yechim- bu aloqador vazifalar berishdir (pre-, while, postt-tasks):

1. Pre-task- o'qish yoki tinglashdan oldin beriladigan vazifa. Bunda matnda duch kelishi mumkin bo'lgan qiyin so'zlar taqdim etilishi, muhokama qilinishi, tarjima yoki izoh bilan berilishi mumkin. Bu jarayon shuningdek, o'rganuvchining avvalgi bilimlarini ham faollashtiradi va asosiy vazifaga tayyorlaydi.
2. While-task- o'qish yoki tinglash jarayonida bajariluvchi vazifa. Gapiruvchi/yozuvchi va o'quvchi orasida muloqotni paydo qiladi va jarayonda faol bo'lishga chorlaydi. Bunda ma'lum so'z yoki birikmalar alohida ajratib ko'rsatilishi yoki urg'u berilishi mumkin.
3. Post-task- tinglash/o'qish jarayonidan keyin keluvchi vazifa turi. Matndan keyin keluvchi savollar, o'qilgan yoki tinglangan matnni ma'lum bir joylariga e'tiborni alohida qaratuvchi vazifalardir.

Genhard autentik materiallarni quyidagi toifalarga ajratdi [1]:

1. Radio yangiliklar, multfilmlar, qo'shiqlar va boshqalar kabi haqiqiy tinglash materiallari.
2. Ko'cha belgilari, jurnallar va gazetalarning rasmlari, pochta kartalari va boshqalar kabi haqiqiy vizual materiallari.
3. Sport nashrlari, gazetalar, restoran menyulari, poyezd chiptalari va boshqalar kabi haqiqiy bosma materiallari.

Til o'rganishda o'rganuvchilarga kuchli motivatsiya kerak bo'ladi, motivatsiya ulashishning bir yo'li- bu ularga real hayotdagi real vaziyatda ishlatiluvchi tilni, autentik materialni tushunishini ko'rsatib berishdir.

Ta'lum sohasida autentik materiallarning quyidagi ustunlik jihatlarini sanab o'tish mumkin:

1. Autentik materiallar o'rganuvchini asl til bilan to'g'ridan to'g'ri yuzlashtiradi.
2. OAV dan olingan materiallar doim yangi va tez- tez yangilanib turadi.
3. Ma'lum bir manbadan olingan materiallar ma'lum bir sohaga oid bo'ladi va ushbu manbani o'qigach, o'rganuvchilar shu sohaga oid ingliz tilini yaxshi o'zlashtirishadi.
4. Autentik materiallar o'rganuvchilar ehtiyojlaridan kelib chiqib ularni yangi ma'lumotlar bilan ta'minlaydi.

Autentik materiallarni to'g'ri tanlab, to'g'ri ishlatish o'rqli o'qituvchi o'quvchilar va real dunyodagi haqiqiy til o'rtasida mustahkam ko'prik paydo bo'ladi. Imkon qadar ko'p va tez-tez autentik materiallarni ishlatish samaradorlik va o'quvchilarda asl matn mazmunini to'g'ri talqin qila olish imkoniyatini yaratadi. Bunday materiallar birinchi navbatda, o'rganuvchilarda o'ziga ishonchlikni paydo qiladi.

Autentik materillarning yana bir jihat shuki, bunday manbaalar ma'lum bir madaniyatni yoritganligi tufayli madaniyatdan boxabarlik (cultural awareness) ni ham kuchaytiradi. Ya'ni o'rganuvchi qay vaziyatda, qay holatda tildan qanday foydalanishni tushuna boshlaydi, o'z va o'zga madaniyat o'rtasidagi farq va o'xshashlikni yaxshiroq anglab yetadi.

Autentik materiallarni tanlashda Genhard sakkizta mezonnini taqdim etadi [1]. Ular quyidagilar:

1. Dasrlik va o'quvchi ehtiyojlariga monand bo'lish;
2. Mavzuning qiziq bo'lishi;
3. Madaniy jihatdan mos kelishi;
4. Logistik jihatlar;
5. Kognitiv talablar;
6. Lingvistik talablar;
7. Sifat;
8. Foydalanish ko'lami

Bu jarayon o'quvchilarni biriktiradi, faollashtiradi va darsga jalb etadi. Talabalar savol berish uchun ham, javob berish uchun ham o'z tengdoshlarini faol ravishda tinglashadi. Bundan tashqari, izlanish davomida ular minglab so'zlarga va autentik materiallar ichida ishlatilgan real tilga duch kelishadi.

Autentik materiallar, bir so'z bilan aytganda, o'qitish va ta'limi maqsadlarda emas, balki asl tilni asl gapiruvchilar uchun yaratilgan materiallardir. Autentik materiallar turli til aspektlarini o'qitishda foydali ekanligi bir necha izlanuvchilar tomonidan ta'kidlangan va muhokama etilgandir.

Tadqiqotlar shuni bildiradi, autentik materiallar har tomonlama foydalidir. Bunday autentik materiallar o'quvchiga til asl dunyoda hayotiy vaziyatda qanday ishlatishini ko'rsatib beradi va umumiy

til kompetensiyalarini, o'qib tushunish, yozish kommunikativ kompetensiya va leksik bilimlarini oshiradi va yaxshilaydi. Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, autentik materiallardan foydalanish va leksik boylik oshirish o'rtaida kuchli bog'liqlik mavjud. Boshqa so'z bilan aytganda, autentik materiallardan foydalangan o'rganuvchilar darsliklardan foydalananuvchilardan ko'ra yaxshiroq natijaga erishadilar. Autentik materiallarni ishlatsizni afzal ko'rvuchilar bunday materiallar o'rganuvchilar qiziqishini oshiradi, motivatsiya beradi va haqiqiy hayotda asl til bilan yuzlashtiradi, deya ta'kidlaydilar.

### **Adabiyotlar**

1. Genhard, J., G. (196). Teaching English as a foreign language: A teacher self-development and methodology. An arbor: the university of Michigan press
2. Herron, C.A., & Seay I.1991.The Effect of Authentic Oral Texts Student Listening Comprehension in the Foreign Language Classroom. Foreign Language Hoge. The Vital importance of Listening 1991. The Effect of Authentic Oral Texts Student Listening Comprehension in the Foreign Language Classroom. Foreign Language
3. Martinez (2000). Authentic Materials.
4. Richards, J.C. (2001). Curriculum development in language teaching. Cambridge: Cambridge University Press.

**UDK: 37.1**

## **CHIZMACHILIKDAN TA'LIM JARAYONIDA AXBOROT VA DIDAKTIK RESURSLAR INTEGRATSIYASINING PEDAGOGIK HAMKORLIK IMKONIYATLARI**

**R. A. Latipov**

*Urganch davlat universiteti*

**Annotatsiya.** Maqolada ta'lif jarayonida axborot va didaktik resurslar integratsiyasining pedagogik hamkorlik imkoniyatlari tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lif beruvchilar va ta'lif oluvchilar faoliyati uchun qulay pedagogik hamkorlik imkoniyatlarining muhim jihatlari xususida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** axborot, kommunikatsiya, integratsiya, sintez, innovatsion texnologiya.

### **Возможности педагогического сотрудничества интеграции информационно-дидактических ресурсов в черчение**

**Аннотация.** В статье проанализированы возможности педагогического сотрудничества в процессе интеграции информационных и дидактических ресурсов. Он также фокусируется на ключевых аспектах эффективного педагогического партнерства для преподавателей и учащихся.

**Ключевые слова:** информация, коммуникация, интеграция, синтез, инновационная технология.

### **Possibilities of pedagogical cooperation integration of information-didactic resources in drawing**

**Abstract.** The article analyzed the possibilities of pedagogical cooperation in the process of integration of information and didactic resources. It also focuses on the key aspects of effective pedagogical partnerships for students and educators.

**Keywords:** Information, communication, integration, synthesis, innate technology.

Hozirgi kunda jamiyatda yashayotgan insonlarning aqliy rivojlanishini axborot kommunikatsiyasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Negaki, jamiyatning har bir a'zosi o'z fikri, dunyoqarashi, o'z nutqini erkin bildira olish huquqiga ega bo'lishi uning faol fuqarolik pozitsiyasini belgilab beradi. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda bugungi zamonaviy dunyoning asosini ham barqarorlashuvini ham aynan, axborot kommunikatsiyasiz tasavvur qilish qiyin bo'lib bormoqda.

Mamlakatimizda fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyalashuvini ta'minlash, ta'lif mazmunini, muassasalardagi texnika, texnologiya, ishlab chiqarish munosabatlariga hamda istiqbolli rivojlanishga muvofiq shakkantirish borasida islohotlar amalga oshirilmoqda. «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlanirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi»da «uzlucksiz ta'lif tizimini yanada takomillashtirish yo'llini davom ettirish, sifatli ta'lif xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq, yuqori malakali kadrlar tayyorlash» belgilab berildi. Bu borada integratsiyalashuv jarayonlarining pedagogik imkoniyatlarini tizimlashtirish, innovatsion texnologiyalardan foydalananish samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi [1].

Nazariyamizdagi birinchi qadam, «axborot kommunikatsiya» tushunchasining mazmun mohiyati va ularning insonlarni faoliyatidagi o‘rnini aniqlab olish. «Kommunikatsiya» so‘zi – boshqa ko‘pgina chet tilidan o‘zlashgan so‘zlar kabi, rus tilida ham keng foydalaniladi. Bu so‘zning asl mazmun-mohiyati *communico* (lotin tilidan olingan) – «kumumlashtiraman», «bog‘layman» ma’nolarini bildiradi.

Pedagogika fanida XX asrning 80-yillaridan boshlab integratsiya, o‘zaro aloqadorlik, o‘zaro ta’sir, sintez kabi tushunchalar qo‘llanilgan ilmiy ishlar paydo bo‘lib, ta’lim-tarbiya ishida integratsiya muammosining dolzarbliги sezila boshlangan. Hozirgi paytga kelib ta’lim-tarbiya ishiga integrativ yondashuv g‘oyasi ijtimoiy fanlar doirasida chegaralanib qolmasdan, umumpedagogik ahamiyatga ega masalaga aylandi.

Integratsiya (lotincha Integeration – tiklash, to‘ldirish, birlashtirish. Integer – yaxlit) sintezlash bir butun qilib birlashtirmoq, mantiqiy yaxlit holga keltirmoq ma’nosida tushuniladi. Ta’lim mazmunini integratsiyalash deganda, o‘zaro uzviy aloqador, bir-birini taqozo etadigan, kengaytiradigan, chuqurlashtiradigan o‘quv predmetlari mazmunini sintezlash, ya’ni mantiqiy birlashtirib bir butun (yaxlit) holga keltirishni tushunamiz.

Pedagogik tajribalar shuni ko‘rsatadiki, grafik fanlar kasbiy faoliyatning barcha sohalarini qamrab olsada, lekin o‘quvchilar ayni bir vaqtida turli kasbiy fanlardan bilimlarni qo‘llashni taqozo etadigan amaliy masalalarni echishda o‘qituvchi ma’lum qiyinchiliklarga duch keladi. Bunday sharoitlarda o‘qituvchidan o‘quvchilar ongida yaxlit grafik bilimlarni integratsiya asosida shakllantirish borasida qo‘shimcha ishlar talab etiladi. Ushbu muammoni o‘quv jarayoniga pedagogik innovatsiyalarni joriy etish orqali hal etish mumkin.

Metodik nuqtai nazardan chizmalarini kompyuterda bajarish mumkin bo‘lgan chizmachilik va grafik tizimlarni birgalikda o‘rganish masalasi hal qilinmagan muammolardan biri hisoblanadi. Hozirgacha pedagogika fanida chizmachilikni qaysi mavzularini o‘zlashtirgandan keyin elektron chizmalarini bajarishni boshlash mumkinligi, o‘quvchilarni kompyuter ular uchun chizma bajarishi mumkin bo‘lgan hollarda mustaqil chizma bajarishlarini qanday qilib ta’minalash mumkinligi kabi ko‘plab savollarning javoblari asoslanmagan.

Ilmiy pedagogik tadqiqotlarga asoslanib, integratsiyaning pedagogik imkoniyatlarini belgiladik. Mashg‘ulotlar davomida o‘qituvchilar o‘quvchilarning emotsiyal holatini yaqinlashtirish uchun sharoit yaratishi kerak. Bu esa o‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan ishonchli hamkorlikni tashkil etish imkoniyatini yaratadi.

Yuqorida ko‘rsatilgan maqsadlarni amalga oshirish uchun quyidagi vaziyatlarni hal qilish lozim bo‘ladi:

- 1.O‘qituvchi, o‘quvchining ma’lum axborot muhitidagi faoliyatini hisobga olgan holda innovatsion texnologiyalar prinsiplarini ishlab chiqish.

2. Pedagogik tizimda o‘quvchilar ta’lim sifatini oshirishga olib keladigan axborot va didaktik resurslarni integratsiyalashni ilgari surish va imkoniyatlarini tekshirish.

3. Ta’lim beruvchilar va ta’lim oluvchilar faoliyati uchun qulay ichki, tashqi sharoitlarni ta’minalaydigan pedagogik hamkorlik imkoniyatlarni ishlab chiqish va joriy qilish.

Hozirgi paytda ayrim umumiyo‘ o‘rtta ta’lim makkablarda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanib kelmoqdalar. Masalan, Rossiya Federatsiyasida I.A. Gubaydulin 9-sinf chizmachilik fanidan imtihon olish tizimini yaratgan bo‘lib, animatsiya, tovush va grafik tasvirlarni o‘zida mujassamlashtirgan. I.A. Vorotnikovning “Занимателное черчение” kitobi asosida yaratilgan elektron qo‘llanmada kitobning barcha tasvirlarini animatsiyali kadrlar orqali tushuntirishga harakat qilingan. V.V.Stepakova tomonidan yozilgan umumta’lim maktab chizmachilik dasturida ham kompyuter grafikasi o‘rin olgan.

Biroq Respublikamizning har bir viloyatidan tashabbuskor chizmachilik o‘qituvchilar grafik savodni kompyuter texnikasi bilan uyg‘unlashtirishga erishdilar. Fikrimizning dalili sifatida Toshkent viloyati Qibray tumanidagi 4-maktab chizmachilik o‘qituvchisi A.Bo‘ribekov, Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumanidagi 24-maktabning chizmachilik o‘qituvchisi, O‘zbekiston xalq o‘qituvchisi V.Qodirov va ularning ko‘plab izdoshlari o‘z o‘quvchilarini kompyuter grafikasiga o‘rgatmoqdalar. Chunki kompyuter grafikasi haqida ma’lumotga ega bo‘lish hozirgi kunning talabidir. Hozir amalda qo‘llanilayotgan chizmachilik darsliklarining (8, 9-sinf) muallifi A.Umronxo‘jayev tomonidan 2002-yilda nashr etilgan “CHizmachilik-8” va “CHizmachilik-9” darsliklarida 4 soatli kompyuter grafikasi va undan tashqari elektron qo‘llanma versiyasidan foydalanish tavsiya etilgan edi.

Keyingi yillarda multimedia va elektron proektorlarning paydo bo‘lishi kompyuter grafikasiga yangicha yondashishga va chizmachilik darslarida bu texnikadan foydalanishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, 8-sinfda proeksiyalash usullari, ko‘rinishlarni chizish, yaqqol tasvirlar yasashda kompyuterdan foydalanish proeksiyalash mohiyatini ochib berish bilan birga darsda o‘quvchilarning bilish faoliyatini rivojlantiradi.

9-sinfdagagi qator o'quv materiallari, jumladan kesimlar, ularning tasnifi, kesimlarni hosil qilish, qirqimlar bo'yicha hamma mavzularni multimediyadan foydalanib o'tishga har doim ham ehtiyoj sezilgan va shu sababli kesim va qirqimlar mavzularini multimedia vositasida o'qitishga e'tibor qaratiladi.

So'ngi yillarda ta'lim tizimida ko'pchilik fanlarni o'qitishda avtomatlashtirilgan o'qitish dasturlarining turli xillaridan foydalanish keng ommalashib bormoqda. Avtomatlashtirilgan o'qitish dasturlari o'qituvchiga o'quv jarayonini tashkil qilishda, o'quvchilarga esa fanni o'zlashtirishlarida katta yordam beradi. Ularning yordamida o'quv jarayoni borishini jadallashtirish, o'quv materiallarini ancha sodda va yaqqol tasvirlar yordamida bayon qilish kabi afzalliklarga ega imkoniyatlar paydo bo'ladi.

Hozirgi kunda chizma va uch o'lchamli modellar tasvirlarini bajarish bo'yicha juda ko'plab AutoCAD, ToPCAD, JCAD, 3D-GRAF, KD-Master, Kompas-grafik kabi grafik tizimlar kishilarning ilmiy va muhandislik faoliyatining turli sohalarida keng qo'llanilmoqda. Ulardan ta'lim tizimida ommalashgani AutoCAD hisoblanadi. AutoCAD shuningdek mammakatimizda va chet ellardagi ko'pchilik korxona va tashkilotlarda loyiha-chizma ishlarini avtomatlashtirishning standartlashtirilgan tizimi sifatida shakllangan.

2002-yilda Rossiya maktablarida chizmachilik o'qitish tarixida birinchi marta o'quv-metodik kompleksning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan kompakt-disk (KOMPAS 3D LT grafik dasturi) tayyorlanib, sotuvga chiqarildi. KOMPAS 3D LT grafik dasturi tarkibida "KOMPAS 3D LT ta'lim tizimi" elektron o'quv qo'llanmasi, mакtab chizmachilik kursi darsligining ko'pchilik mashq va grafik ishlarining, o'quvchilar uchun grafik ishlar daftaringen elektron versiyalari joylashtirilgan. Mashq va grafik ishlarga tegishli bo'lgan shakl va chizmalardan tashqari kompakt diskda A.D.Botvinnikov va b. "CHizmachilik" darsligidagi ko'plagan boshqa shakllari ham joylashtirilgan.

Bu yerda shuni ta'kidlab o'tishimiz zarurki, o'quvchilar KOMPAC 3D LT yoki AutoCAD grafik dasturlarini kompyuterda ishslash malakalari hamda proyekcion chizmachilik asoslarini o'zlashtirgan bo'lsalar nisbatan tez egallashlari mumkin. Ko'p hollarda buning uchun 20-30 soat vaqt etarli bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, ta'lim beruvchilar va ta'lim oluvchilar o'rtasidagi pedagogik hamkorlik ijodiy muhit sog'lomligini ta'minlash, sog'lom raqobatni rivojlantirish, ta'lim sifatini yaxshilash bilan birga ilmiy salohiyatning yangi bosqichiga olib chiqadi. Maktab chizmachilik fanidan aniqlangan qarama-qarshiliklarning echimi ta'lim jarayonida axborot va didaktik resurslarni integratsiyalashning pedagogik modelini loyihalash asosida, ta'lim muassasining axborot-ta'lim muhitini unda axborot va didaktik resurslarni integratsiyalash orqali rivojlantirish, ta'lim oluvchilarning zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilingan muhitda ta'lim olishga intilishlari kuchayib, ta'lim samaradorligi ortadi.

### **Adabiyotlar**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги Фармони.
2. Latipov R.A. Chizmachilik ta'limini zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanib takomillashtirish.//Ilmiy axborotnoma - 2018.-№6. 138-140b.
3. Галиченко А.Ю. Реализация междисциплинарной интеграции в образовательном процессе ВУЗов культуры и искусств. Интеграция образования. №2,2009.
4. Данилюк А.Я. Теория интеграции образования. Ростов-на-Дону: Изд-во РПУ, 2000.

**UDK: 535.11**

### **AKADEMIK LITSEYLARDA FIZIKA FANINI O'QITISHGA DOIR BA'ZI FIKR-MULOHAZALAR**

**A. Umarov, M. Qodirov, X. Qo'yboqov**  
Samarqand davlat universiteti akademik litseyi

**Annotatsiya.** Ushbu maqola akademik litseyda fizika fanini o'qitish muammolariga bag'ishlangan bo'lib, ta'lim sifatini pasayishiga sabab bo'lgan omillar ko'rsatilgan. Ta'lim sifatini oshirish bo'yicha xorij tajribalari asosida fan dasturlari va darsliklarini yaratish, o'qituvchilarning yangi avlodini shakllantirish masalalari ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** ta'lim sifati, samaradorlik, pedagogik texnologiya, innovatsiya, muammoli dars, metod, o'quvchi, o'qituvchi, darslik, axborot, islohot, fizika fani.

## **Вопросы изучения физики в академических лицеях**

**Аннотация.** Данная статья посвящена проблемам изучения физики в академических лицеях, в ней названы причины низкого уровня знаний. Рассмотрены задачи составления учебных программ и учебников в целях улучшения качества образования на основе опыта зарубежных стран для формирования молодого поколения учителей.

**Ключевые слова:** качества обучения, успеваемость, педагогическая технология, инновация, проблемный урок, метод, ученик, учитель, учебник, информация, реформа, предмет физики.

## **Some openions about teaching physics at academic lyceums**

**Abstract.** This article highlights the problems of teaching physics at academic lyceums, and factors causing the decrease in education quality are mentioned. There key issues like creating curriculum and textbooks based on world educational standards and bringing up new generation of teachers are suggested.

**Key words:** quality of education, efficiency, pedagogical technology, innovation, case study, method, pupil, teacher, textbook, information, reforms, (subject of) physics.

Bugungi kunda mammalakatimizda jadal sur'atlar bilan amalga oshirilayotgan ta'lif sohasidagi islohotlar umumta'lif maktablari va akademik litseylarda ta'lif sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchilarning innovatsion bilimlar olishini ta'minlash uchun o'z kasbiy sohalarini mustahkam egallagan, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan, xususan, o'qitishning samarali xorijiy metodlarini o'zlashtirgan yangi zamondagi o'qituvchilar armiyasini tarbiyalashni taqozo etadi.

Biz ushbu maqolada Samarqand davlat universiteti akademik litseyi misolida fizika fanini o'qitish bo'yicha to'plangan tajriba va yutuqlar, ayniqsa, mavjud muammo va kamchiliklarni tahlil qilish asosida ta'lim sifatini oshirishga yo'naltirilgan takliflarimizni bayon etmoqchimiz.

Eng avvalo shuni e'tirof etish lozimki bugungi kunda mamlakatimizning nafaqat umumta'lim maktablari va akademik litseylari, oliv ta'lif muassasalarida ham fizika fanini o'qitish, o'rganish darajasi tushib ketdiki, maktabni va hattoki oliv ta'lif muassasasini (OTM) bitirgan yoshlarning aksariyatini amaliy ko'nikma va malakalari u yoqda tursin, hattoki fanning nazariy bilimlarini tarixiy ma'lumotlar sifatida ham, o'zlashtirish darajasi ham talabga javob bermaydi. Buning bir qator ob'ektiv va sub'ektiv sabablari bor. Birinchidan, fizika fani tabiat to'g'risidagi umumiyy hodisalarini o'rganuvchi dunyoviy fan hisoblanadi va o'zining mavhumlik darajasi bo'yicha fanlar ichida birinchi o'rinda turadi. Chunki bu fan nafaqat inson ko'zi bilan bevosita ko'rish imkoniyatiga ega bo'limgan, shuningdek, tasavvuri ham qabul qilishi o'ta murakkab bo'lgan makro - (planetalar, shu jumladan, Quyosh, Oylarning harakat qonunlari va tuzilishi) va mikrodunyo (elektron, proton, neytron va boshqa elementar zarralar) qonuniyatlarini ham o'rganadi. Shuning uchun ham fizika fanini o'qitish ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitishdan tubdan farqlanadi. Ikkinchidan, OTMlarga o'qishga kirishda fizika fanidan, ko'pchilik ta'lif yo'nalişlari (kimyo, kimyo texnologiyalari, axborot texnologiyalari va shu kabilalar) kirish, imtihonlari qo'yilmaganligi va eng muhimizi fizika fani bilan bog'liq mutaxassisliklarning (fizika, muxandis-texnik kabi) jamiyatimizdagi mavqesining tushib ketganligidadir. Uchinchidan, umumta'lim maktablari va fizika fanining laboratoriya jihozlarining etarli emasligi va birlari ham nachor ahvolda ekanligi hamda, malakali fizika fani o'qituvchilar korpusining keksayishi va innovatsion fikrlaydigan yosh bilimli o'qituvchilar avlodining shakllanmaganligidadir.

SamDU akademik litsey rahbariyati va o'qituvchilar jamoasi tomonidan 2019-2020 o'quv yilida akademik litseyga iqtidorli o'quvchilarni tanlab olish maqsadida Samarcand viloyatining barcha 16 ta tuman, shaharlaridagi umumta'lim maktablarini qamrab olgan holda mart-aprel oylarida joylarga borib, fanlar kesimida 4000 dan ortiq o'quvchilardan yozma ishlari olindi. Natijalarning sifat tahlili shuni ko'rsatdiki, fizika-texnika yo'naliishiga qiziquvchilar soni 382 nafarni tashkil etdi. Shulardan yuqori ball to'plagan 36 nafar o'quvchilar bilan suhbat o'tkazilib, 13 nafar o'quvchi ijobjiy baholandi. May oyining boshida akademik litseyning o'zida o'tkazilgan universitet olimpiadasida atiga 24 nafar o'quvchi fizika bo'yicha yozma ish tanlovida qatnashgan bo'lsa, ulardan 8 nafarigina ijobjiy baholandi. 2019 yilning may oyi davrida o'tkazilgan SamDU akademik litsey onlayn olimpiadasida jami 571 nafar o'quvchilar ishtirok etishdi. Fizika-texnika yo'naliishiga qiziquvchi 11 nafar o'quvchilar bilan suhbat o'tkazilib, 3 nafari ijobjiy baholandi. Ushbu tanlovlarda fizika faniga qiziquvchi 417 nafar o'quvchidan atiga 24 nafari fizika fanidan ijobjiy baholangan, xolos.

Bundan shunday xulosalar kelib chiqadi: birinchidan, fizika fanini makkablarda o'qitish darajasining yomonligi, OTMlarda tayyorlanayotgan o'qituvchilarning bilim va malakasining pastligi, ikkinchidan esa fizika-texnika yo'naliishlaridagi mutaxassisliklarga yoshlarni yo'naltirish (kasbga tayyorlash) ishlari umumta'lim makkablarida o'z holiga tashlab qo'yilganligi yoki nomigagina o'tkazilmoqda degan xulosa chiqarishga asos bo'ladi. Talaba(o'quvchi)ning mustaqil ishlamasligi, nazorat savollari yoki imtihonlarda ko'chirish yoki uyali telefondan shu sohaga oid bir javobni olaverishi va albatta bunga o'qituvchilarning «hohish berishlari» ham masalani yanada chuqurlashuviga sabab bo'ldi. O'quvchi-talaba uchun qaysi o'qituvchi yaxshi – kim imtihonlarda talaba (o'quvchi)dan jiddiy so'ramasdan ijobjiy baholaydigan o'quvchilar, o'quvchilarga esa bilim talab qilmasdan (attestat) diplom olishga odatlangan talabalar yoqadigan bo'lib qolganidadir. Eng yomoni, bu talabalarning baho olishiga «tashqi kuchlar»ning (ota-on, qarindosh, mahalliychilik va h.k.) aralashuvidir. Bu holat korruptsianing bir ko'rinishi bo'lib, ancha ildiz otib ketdi. O'quvchi (yoki talaba)ga uning bilimiga real baho qo'yishdan ko'pchilik o'qituvchilar qo'rqishadi. Buning ikkita sababi bor, bir tomonidan, o'zlashtirishi past guruh o'qituvchisini rahbariyat ham qo'llab quvvatlamaydi, ikkinchi tomonidan, sind yoki guruhdagi barchaga baho qo'yish o'qituvchini «tinch-osoyishta hayotini ta'minlaydi». Shuning uchun ta'limdagisi ushbu illatlarni yo'qotmay turib ta'lim sifatini oshirib bo'lmaydi. Ikkinchi eng asosiy masala – ta'lim jarayoniga pedagogik texnologiyalarni olib kirish. O'ylab amaliyatga kiritilgan pedagogik texnologiya o'qituvchining bilim darajasi turli tuman bo'lishidan qat'iy nazar avtomatik tarzda bu jarayonni sifat tomonga boshlaydi. Shu sababli nafaqat OTMga, shuningdek, alohida o'qituvchilarga ham o'qitish metodikasini tanlash huquqini joriy etish kerak.

Afsuski, davlatimiz rahbari, hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qaror yoki ko'rsatmalarni bajarishda «kompaniyachilik» ruhi bizda singib ketgan. Darhol reja yoki yo'l xaritasi tuziladi, o'nlab guruhlar yoki o'qituvchilarni, yoki ta'lim muassasalarini o'rganishga kirishib ketishadi. O'qituvchi o'sha-o'sha, undan test olasizmi, suhbat qilasizmi, hech narsa o'zgarmaydi. Biz bu jarayonni yaxshilashimiz uchun bugun yangi avlod tarbiyasiga bosh bo'ladigan innovatsion fikrlaydigan o'qituvchilar korpusini tarbiyalashimiz lozim. Hukumatimiz tomonidan xorijda pedagoglar tayyorlash, xorijiy mutaxassislarini ta'lim muassasalarimizga taklif etish ertami-kechmi o'zining mevasini berishi muqarrar.

Fizika fanini o'qitishda etakchi o'qituvchi (professor) mavzuning amaliy jihatlarini yaxshi biladigan mutaxassis (assistant, laborant) bilan o'tishi ham ijobjiy natija beradi. Oldingi asrning 30-60 yillarida OTMlarda shunday usul qo'llanilgan, keyinchalik bu usul unutildi, assistant ham professor kabi ma'ruzalarini o'ta boshladи. «Xasis ikki marta to'laydi» degan prinsip ishlay boshladи. Fizika fanini o'tishda laborant yoki o'quv-texnik xodimning o'rni muhim. Lekin keyingi yillarda bu lavozimlarning keskin qisqarishi, amaliy mashg'ulotlarni sifatlari o'tilishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. XX asrning 40-yillarida mashhur rus fizigi P.Kapitsa «*Maktabda fizikaviy tajriba*» maqolasida yozgan edi – «*Maktab o'quvchisi fizikaviy tajribani shu paytda yaxshi tushunadi, qachonkim uni o'zi amalgalashsa, agar tajriba uchun asboblarini o'zi yasasa, uni yanada yaxshi tushunadi*»[2].

Ko'pincha odamlar va hattoki o'qituvchilar orasida ham ma'ruza darslarida o'qituvchi yozdirishi kerakmi yoki asosan tushuntirishi kerakmi degan bahslar uchrab turadi. Bizning fikrimizcha fizika fanini o'qitishda o'qituvchi mavzuning asosiy muhim joylarini tushuntirishi va o'quvchilarni ilmiy-mantiqiy fikrleshiga yo'naltirishi lozim. O'qituvchi darslikdan tashqari manbalardan foydalananib mavzuni qisqacha konsept qildirishi lozim, lekin bu bilan o'quvchining ijodiy rivojlanishi to'xtab qolmaydi. O'qituvchining mahorati uning mavzuni muammoli tashkil qilishi va butun sind(auditoriya)ni faqat shu muammoni echimini topishga qaratishi bilan belgilanadi.

Muammoli dars uchta tarkibiy qismidan iborat bo'lishi mumkin: ma'lum (berilgan vazifa asosida), noma'lum (ularni topish yangi bilimlarni egallashga olib keladi) va avvalgi bilimlar (o'quvchilarning ushbu

fandan bilim va ko'nikmalar). Dastlab o'quvchiga, fizika mavzusi bo'yicha noma'lum bo'lgan masalani yechish vazifasi qo'yildi va bunda muammoning yechilish usullari hamda natijasi ham noma'lum bo'ladi, lekin o'quvchilar o'zlaridagi avval egallagan bilim va ko'nikmalariga asoslanib kutilayotgan natija yoki yechilish yo'lini izlashga kirishadi.

Amaldagi darsliklarda fizikaviy mavzular aksariyat hollarda an'nanaxiy «axborot -tushuntirish» yondoshuviga asoslangan. Fizikaning zamonaqiy fan-texnika taraqqiyotidagi o'rni hamda ko'pchilik buyuk kashfiyotlar va g'oyalar bu darsliklardan keng o'rin olmagan. Xuddi shuningdek, o'qitishdagi tizimlilik va fan mazmunini boyitish masalalari ham e'tibordan chetda qolib ketgan[3].

Bunga erishish uchun o'qituvchining o'zi savodli bo'lishi lozim. A.Disterverg ta'kidlaganidek, «*Savodlilik bilimlarning ko'p-ozligida emas, balki bilganlarni to'la anglash va tatbiq eta bilish san'atidadir*».

Yuqoridagilardan kelib chiqib, biz quyidagi takliflarni tavsiya qilamiz:

1. Umumta'lim maktablari va akademik litseylar uchun fizika fani bo'yicha amaldagi darslik va o'quv qo'llanmalarini tanqidiy tahlil qilish asosida soddalashtirilgan va ko'proq amaliyotga yo'naltirilgan fan dasturlarini ishlab chiqish va binobarin zamonaqiy darsliklarni yaratish kerak. Odatda, amaliyot deganda doimo masala echish tushuniladi, shuning uchun ham asosiy e'tibor fizika qonunlarini bevosita hayotdagi voqealar va inson turmush faoliyatga bog'lashga qaratish.

2. Umumta'lim maktablari va akademik litseylarda o'tiladigan fizika kursi hajmini, laboratriya asbob-uskunalar bilan jihozlanish darajasini, shuningdek, tajriba va namoyish eksperimentlarini tashkil qilish masalalarini bugungi kun talabi darajasida qaytadan o'rganish kerak.

3. Nafaqat OTMlар, shuningdek, umumta'lim maktablari va akademik litseylarda yangi avlodga dars beradigan o'qituvchilar korpusini tayyorlashni tizimli yo'nga qo'yish dasturini ishlab chiqish kerak (rivojlangan mamlakatlarning ta'lim tizimi yutuqlarini inobatga olgan holda).

4. Fizika fanini o'qitishdagi ketma-ketlikni, shuningdek, umumta'lim maktablari va akademik litseylarda o'tiladigan umumiyy fizika fanlarini OTMlarda takroran o'qitish masalasini o'rganib chiqish maqsadga muvofiq. Chunki maktabda o'tilgan mavzularning OTMlarning birinchi va ikkinchi bosqichlarida takrorlanishi o'sib kelayotgan yoshlarning qiziqishini so'ndiradi. Fizika fanida oddiydan murakkablik tomon tamoyili asosida ba'zi jarayonlarni o'rganishda xususiylikdan umumiyylikka, va ba'zida umumiyylikdan xususiylikha o'tish muammolarini ham qayta ko'rish maqsadga muvofiq bo'ladi.

5. Fizika faniga oid aksariyat darslik va o'quv qo'llanmalar rus tilidan yoki ingliz tilidan tarjima qilinganligi bois fizikaviy atamalarni tushunishda (tushuntirishda) muayyan qiyinchiliklar mavjud. Shu sababli Xalq ta'limi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Fanlar akademiyasi hamkorligida fizika atamashunosligi markazini yangidan tashkil qilish kerak.

### **Adabiyotlar**

1. Qodirov M., O'roqov Sh., Nizomov X. Umumta'lim maktablarida fizika fanini o'qitish: Uslubiy qo'llanma. –Samarqand: SamDU nashriyoti, 2014.-136b.
2. Капица П.Л. Эксперимент. Теория. Практика. -Москва: Наука, 1987.
3. Ханнанов Н.К. Настольная книга учителя физики. 7-11 классы. –М.:Эксмо, 2008.-656c.

**УДК: 42**

## **К ПРОБЛЕМЕ ОБУЧЕНИЯ РУССКОМУ ЯЗЫКУ В МЕДИЦИНСКИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

**Р. М. Абдуллаева**  
Ташкентская медицинская академия

**Аннотация.** В статье рассматриваются проблемы обучения русскому языку как языку специальности в медицинских образовательных учреждениях Республики Узбекистан, анализируются языковая ситуация и условия функционирования русского языка в Республике, раскрывается роль русского языка в формировании у студентов профессионально-коммуникативной компетенции, отмечается востребованность знания русского языка студентами-медиками, определяются основная цель и задачи обучения их данному языку.

**Ключевые слова:** профессиональная речь, язык специальности, социолингвистическая ситуация, профессионально-коммуникативная компетенция, профессиональная подготовка специалиста, функции языка.

## Ўзбекистон Республикаси тиббиёт олий таълим муассасаларида рус тилини ўқитиш муаммолари

**Аннотация.** Мақолада Ўзбекистон Республикаси тиббиёт олий таълим муассасаларида рус тили фанини мутахассислик фани сифатида ўқитиш муаммолари кўриб чиқилган, Республикада рус тили фанининг лингвистик ҳолати ва ўрганиш шароитлари таҳлил қилинган, талабаларнинг касбий-коммуникатив компетенциясини шакллантиришда рус тилининг ўрни очиб берилган, тиббиёт талабалари томонидан рус тилини билиш талаблари белгиланган, уларни ушбу тилга ўргатишнинг асосий мақсад ва вазифалари аниқланган.

**Калит сўзлар:** касбий нутқ, мутахассислик тили, социолингвистик вазият, касбий-коммуникатив компетенция, мутахассиснинг касбий тайёргарлиги, тил функциялари.

### To the problem of teaching russian language in medical educational institutions of the republic of Uzbekistan

**Abstract.** In this paper the problems of teaching the Russian language as a language of specialty in medical educational institutions of the Republic of Uzbekistan are examined and the language situation and conditions of the functioning of Russian language in the Republic are analyzed, the role of Russian language in the formation of the students professional – communicative competence is revealed, the demand for knowledge of Russian language by medical students is noted, the main goal and objectives of teaching of this language are determined.

**Keywords:** professional speech, language of specialty, sociolinguistic situation, professionalcommunicative competence, professional training of a specialist, language functions.

Русский язык в процессе повседневной деятельности медика в условиях Республики Узбекистан является составной частью его профессиональной речи, исходя из этого проблема разработки эффективных методик обучения данному языку как языку специальности в медицинских образовательных учреждениях республики всегда находится в центре актуальных и востребованных тем для научных изысканий в области лингводидактики и методики обучения языкам.

Относительно обучения русскому языку как языку специальности студентов, являющихся носителями русского языка как неродного или иностранного, следует констатировать тот факт, что:

1) «для студентов-нефилологов русский язык является не столько целью, сколько средством получения профессионального образования, что заставляет преподавателей-русистов в процессе обучения русскому языку по возможности учитывать будущую специальность студента»;

2) овладевая своей будущей специальностью, т.е. приобретая так называемую предметную (профессиональную, конвенциональную – в другой терминологии) компетенцию, иностранный студент-нефилолог овладевает необходимыми для этого знаниями, навыками и умениями на неродном для него русском языке, коммуникативной компетенцией которого он также еще не владеет» [8].

Сказанное в равной мере справедливо и по отношению к обучению русскому языку как языку специальности студентов медицинских высших образовательных учреждений в Республике Узбекистан.

В настоящее время в системе высшего образования Республики Узбекистан, как и других государств, происходят значительные реформы, направленные на улучшение качества профессиональной подготовки будущих специалистов во всех отраслях знаний, которые в условиях расширения социально-политического, экономического, международного сотрудничества с зарубежными странами должны обладать высокопрофессиональной квалифицированностью, стрессоустойчивостью и конкурентоспособностью. «Быть конкурентоспособным специалистом, гибким и приспособленным к постоянно изменяющимся условиям рынка, а также способным к саморазвитию и самосовершенствованию на протяжении всей жизни – это то, что необходимо сейчас на рынке труда, чтобы успешно позиционировать себя в системе общественно производственных отношений. Для этого выпускнику вуза необходимо не только обладать совокупностью некоторых знаний и опытом профессиональной деятельности, но и быть готовым реализовать их на практике»[11].

Более того, будущий специалист, являясь глубоко информированным в своей профессиональной области, постоянно познающим и демонстрирующим «информационную культуру высокого уровня, в том числе в области изучения и использования иностранного языка» [4], в рамках одной из задач высшего образования должен быть не только хорошо обученным, но и

готовым передать свои знания и опыт последующему поколению, способным успешно решать поставленные перед ним профессиональные задачи [3], в том числе и на международной арене.

